

Alisher Umirdinov

Talaba do'stinga

78+
tavsiya

4 yillik talabalik davridan maksimal
foydalanish yo'llari yoxud hayotda
"yulduz inson" bo'lish uchun aniq qadamlar

Alisher Umirdinov,
Nagoya Iqtisodiyot Universiteti professori

Talaba do'stinga

78+

tavsiya

*4 yillik talabalik davridan maksimal foydalanish yo'llari yoxud
hayotda yulduz inson bo'lish uchun aniq qadamlar*

Toshkent
«Yuridik adabiyotlar publish»
2022-y.

MAJBURIY NUSXA

159.953.5 ✓
378.011.3-052

UO'K: 159.9:37.011.3-052

KBK: 88

74

U-48 ✓

Talaba do'stinga 78+ tavsiya.

(4 yillik talabalik davridan maksimal foydalanish yo'llari
yoxud hayotda yulduz inson bo'lish uchun aniq qadamlar)
// A.I. Umirdinov., – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish,
2022-y. – 224 bet.

ISBN 978-9943-7580-3-2



© A.I. Umirdinov., 2022-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y.

SO'ZBOSHI

Siz talaba bo'ldingiz...

Universitet yoki institutdagi 4 yil siz uchun umringizdagi eng qadrlı davr. Bu davrda siz TALABA deya nomlanib, oilangiz a'zolari ham o'qishdan boshqa masalalarda sizdan katta yordam kutishmaydi. Demak, talabalik bir ma'noda – oila va jamiyat oldida eng kam mas'uliyat talab etiladigan davr hamdir. Ammo «oltin davringiz» tugashi bilan oilangiz va jamiyat sizdan katta ishlar kutishni boshlashadi. Vaholanki, umidlaringizga qarshi yuqori maoshli ish sizni kutib turgani yo'q. O'zbekiston mehnat bozorida raqobat kun sayin qiziganidan qizimoqda. Ko'ngildagidek ish topish esa hecham oson emas.

Do'ppini bir chetga qo'yib, tafakkur qilishga urinib ko'ring: nima qilsak, universitet ostonasidan chiqqanimiz hamon hayotimizning silliq va farovon kechishiga erishish mumkin? Qanday qilib biz maoshi va muhiti yaxshi bo'lgan mehnat jamoasining a'zosi bo'lishimiz mumkin? Universitetni bitirmay turib ham bizni ishga oluvchilar ishonchini qozonish uchun qanday amaliy qadamlarni tashlashimiz kerak? Nima qilsak keyin afsus chekmaymiz? Ushbu kitob talabalarning mana shunday savollariga javob topish maqsadida nashrga tayyorlandi.

Esda tuting: bakalavr bosqichi davri aslo qaytib kelmaydi. Demak, undan maksimal foydalanib qolishga harakat qilish lozim. Talabalikni shunday o'tkazish kerakki, bu davrdagi sizning tizimli harakatlaringiz o'z sohangizda, albatta, muvaffaqiyatga erishtirsin. Vaholanki, har yili yurtimiz oliy ta'lim muassasalarini bitirayotgan o'n minglab talabalarning hammasi ham muvaffaqiyat qozonyapti deb aytolmaymiz. Qo'lingizdagi kitob esa aynan shu maqsadga erishish yo'lida sizga xolis yordamchi bo'ladi degan umiddamiz.

Mustaqil hayotga qadam bosgan ko'plab yoshlar talaba bo'lish ishtiyoqida Respublikamizning turli viloyatlaridan

poytaxtga katta umidlar bilan tashrif buyuradilar. Mana qiyin sinovlar ortda qolib, o'sha yigit yoki talaba talaba nomiga muyassar bo'ldi. U behad xursand. Endi unga oilasi tomonidan barcha sharoitlar muhayyo qilinadi. O'zim ham xuddi shunday bo'lganman. Birinchi yilda universitet bilan tanishuv va do'stlar orttirish, uzundan uzoq davom etuvchi 80–90 daqiqalik ma'ruzalar va 2 haftada tugab qoladigan intensiv sessiyalarga ko'nikish bilan vaqtimiz o'tadi. Xorijiy tilni o'rganish yoki qo'shimcha to'garaklarga qatnashga «vaqtimiz bo'lmaydi». Axir biz endigina o'qishga kirdik-ku?! Oldimizda esa hali roppa-rosa 4 yil bor. 2-kursdan maxsus fanlarni o'qiy boshlaymiz va o'zimizni turli masalalar bilan band etamiz. Yoz oylarida amaliyot ham qo'shiladi. 3-kursda biroz «ko'zimiz ochilgandek» bo'ladi. Bizdan oldingi bitiruvchilarni ko'chada yurganini, hatto qishlog'iga qaytib borib, o'rta ma'lumotli inson qo'lida ishlayotganini kuzata boshlaymiz. Hash-pash deguncha 3-kurs ham o'tib, yana amaliyotga start beriladi. Qarabsizki, 4-kurs darolarida o'tiribmiz. Ixtiyorimizda atigi 9 oygina muddat bor. Yaxshi rejalashtirmaganimiz uchun vasvasaga tushamiz. Xorijiy tilni o'rganish chala bo'lgan, qo'shimcha to'garaklarga borish tartibsiz holatda, chet eldagi universitetlar talabi esa o'ta yuqoriligini endigina payqaymiz. Toshkent va katta shaharlardagi ish beruvchilar talab qilayotgan ko'nikmalarning hammasini ham universitet beravermaydi. Uni biz o'zimiz mustaqil o'rganib egallashimiz kerak edi, ammo bu ham qo'limizdan kelmagan. Shunday qilib, siz 4-kursni ham bitirasiz. Hammasi ana shundan keyin boshlanadi.

Universitetda hamma sizni avval yaxshi bilar, salomlashardi, endi esa sizni hech kim tanimaydi. Ustiga-ustak talabalik guvohnomangiz olib qo'yilgani uchun hatto qorovul ham sizni ichkariga qo'ymaydi. Birga vaqt o'tkazgan o'rtoqlaringiz, jonajon kursdoshlar tarqalib ketgan, hamma o'z dardi bilan ovora. Sizda esa ish yo'q, kelajak yaxshi rejalashtirilmagan. Siz topshirmoqchi bo'lgan ishlarga esa sizdan talantli va malakali boshqalarni olishmoqda va hokazo... Shunda yana oilamiz bag'riga qaytib borib, ular-

dan ishga joylashish borasida yordam so'raymiz, shunday emasmi?

Yuqoridagi holatni juda ko'plab talabalar boshidan o'tkazgan. Xo'sh, bunday holat ro'y bermasligi uchun nima qilmoq darkor? Agar tavsiyalarimga diqqat bilan quloq tutsangiz, siz ham yulduz talaba bo'lishingiz mumkin. 2003–2007-yillarda Toshkent davlat yuridik universitetini tamomlashidan 4 oy oldin dunyodagi kuchli 100 talik reytingiga kiruvchi Yaponiyaning Nagoya universitetiga to'liq grant asosida (aviachiptalar ham) kirishni qo'lga kiritgan muallif ushbu kitobda sizlar bilan yulduz talaba bo'lib, qanday qilib universitetni imtiyozli bitirish sirlarini o'rtoqlashadi.

2007-yildan buyon Yaponiyadaman. Bu yerda talabalar hayotiga oid, o'qish davomida o'ziga yarasha qiyinchiliklarni yengish, universitet hayotiga o'rganish yoinki eng zo'r talabalik davrini kechirish mashaqqatli, ammo sharafli yo'l haqidagi 100 dan ortiq kitoblar mavjud. Ingliz tilida esa aslo so'ramang. *Ammo ona tilimizda 500 mingdan ziyod oliy ta'lim bosqichidagi talabalar uchun bunday amaliy qo'llanma mavjud emas.* Shunday ekan, hozirda universitetda ta'lim olayotgan talabalarni katta hayotga tayyorlash yo'lida amaliyot bilan chambarchas bog'liq, o'sha yo'lni o'z boshidan o'tkazib ko'rgan va hozirda akademik faoliyat bilan shug'ullanayotgan inson tomonidan bir qo'llanma bo'lishi juda muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlarim natijasida bunday kitob loyihasini hech kim ko'tarib chiqmaganiga ishonch hosil qildim va shu sababli bu haqda o'zim yozishga qaror qildim.

Kitobda talabalar hayotining turli jabhalarini iloji boricha kengroq qamrab olishga harakat qilindi. Unda universitet hayoti, ma'ruzalar, ustozlar bilan munosabat, kutubxonachi bilan ishlash, qo'shimcha bilimlarni egallash, o'z qobiliyatini kuchaytirish, talabaning o'sishiga xalaqit beradigan omillar bilan kurashish kabi ko'plab amaliy maslahatlar o'rin olgan. Shu bilan birga, qiz va yigit talabalarni ba'zan ajratgan holda, ularga alohida-alohida yuzlanilgan joylar ham mavjud. Kitobni xohlagan joyingizdan bosh-

lab o'qishingiz mumkin. Albatta, eng boshidan boshlash maqsadga muvofiq, ammo bunga majbur emassiz. Allaqachon amal qilayotgan yoki amalga oshirayotgan tavsiyalarni ko'rsangiz, xursand bo'lavering. Demak, siz to'g'ri yo'ldasiz. Ularni o'qimasdan tashlab ketsangiz ham mayli. Kitob so'ngida ota-onalaringiz uchun ham bir chimdim joy ajratdim. Agar imkon bo'lsa, ularga ham o'qib beringlar.

Sozboshi so'ngida bir necha ogohlantirishlarni aytib o'tsam. Eng avvalo, qo'lingizdagi kitob universitet hayotini tizimli tanishtiradigan kitob emas. Uning uchun boshqa qo'llanmalarga murojaat qiling (agar shunday qo'llanmalar mavjud bo'lsa). Bunda kamina boshimdan o'tkazgan va siz talabalar uchun foydali deb bilgan muhim masalalarni jamladim. Eng muhimi – o'zim qilmagan yoki eplolmagan ishni sizga tavsiya qilmadim. Shuningdek, kitobdagi maslahatlar faqat va faqat talabaning o'qishdagi muvaffaqiyati nuqtayi nazaridan bir pedagog tomonidan qalamga olinganligini unutmang. Qayta-qayta «talaba do'stim» deya murojaat qilishimdan bilingki, men bu kitobda *faqat sizni* o'yladim. Oxirgi masala, kitob bo'yicha fikrlaringizni aumirdinov7@gmail.com elektron pochtaimga yuborishingiz mumkin. Mulohazalaringizni albatta o'qiyman. Barcha xatlarga javob bera olmasam-da, kitobning keyingi nashrlarida fikrlaringizni inobatga olishimni unutmang.

Kitob qo'lyozmasini o'qib, o'zlarining manfaatli fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashgan do'stlarimiz – Muzaffar Mirzayev, Akbar Jalilov, Fitrat Umirov, Nilufar Nosirova, Hasanboy Rahimberganov, Bunyodbek Ibragimov, Nilufarxon Mahmudova, Valijon Turaqulov, Bektemir Berdimurodovlarga chin qalbidan tashakkur izhor qilaman. Har doimgidek, ushbu kichik asar yurtimizda hijronimizga chidab qolgan ota-onamning duolari va rafiqamning yaqindan yordami tufayli dunyo yuzini ko'rayotganini alohida takidlashni istardim. Eng so'nggida, 2020-yil sentabridan 2021-oktabr oyigacha bir yil davomida o'z ilmiy ishlarim uchun to'liq ilmiy tanaffusni taqdim etgan Nagoya iqtisodiyot universiteti rahbariyatiga ham chin dildan rahmatlar aytib qolaman.

1-tavsiya:
«TALABALIK – OLTIN DAVR»
TUSHUNCHASINI QANDAY
ANGLAMOQ KERAK?

Siz uni qanday tushunasiz? Men javob bera qolay, ko'pchilik bu davrga nisbatan o'ynab qolish, erkinlik va eng yodda qolarli xotiralarni boyitish davri deb qaraydi. To'g'ri-da, yangi shahar, yangi do'stlar, yangi darslar va qiziq-qiziq voqealar... xullas, ularning keti uzilmaydi. Ammo bu tushuncha ushbu davrda muvaffaqiyat qozonmoqchi bo'lgan talaba uchun muvofiq keladimi?

Men uchun va ko'pgina muvaffaqiyat qozongan insonlar uchun talabalik – kelajak imkoniyatlari boshlanadigan davrdir. Bunda talaba nima qilib bo'lsa ham bir narsani qo'lga kiritishi lozim. Toki, orqaga qaraganda undan jiddiy afsus qiladigan narsa qolmasin. **U ham bo'lsa, barcha imkoniyatini ishga solib, o'zini kuchli mutaxassis qilib yetishtiradigan ta'limni qo'lga kiritishga harakat qilishi kerak. Ilmga rag'bat qilishi lozim.** Chunki kelajakda oilangizning biznesi inqirozga yuz tutishi mumkin yoki siz ishingizni yo'qotishingiz mumkin, ammo shunda ham sizni tashlab ketmaydigan tengsiz xazina bor – siz olgan bilim. Talabalik davrida, do'stim, aynan shunga vaqtingiz va pulingizni investitsiya qiling. Chunki aynan siz olgan sifatli ta'limingiz sizni yana qaytadan badavlat, qudratli qiladi va muammolaringiz yechimini topadi.

Aksariyat bitiruvchilarda shunday afsuslar bor:

- Nega shu fanni yaxshi o'qimadim-a?
- Nega shu fan olimpiadasida faol qatnashmadim-a?
- Nega shu tilni qunt qilib o'rganib qo'ymadim-a?
- Nega kompyuter sohasidagi sertifikat imtihonlarida oxirigacha sabr qilib o'tirmadim-a?
- Nega biror to'garakka qatnab, CV(rezyume)*imni kuchaytirmadim-a?

* CV haqida 5-tavsiyaga qarang.

– Nega o'z sohamdagi biror firma yoki tashkilotga borib, u yerda ish o'rganib, tanish orttirmadim-a?

– Boshqa kursdoshlarimga nisbatan imkonim yaxshiroq ekanligini bila turib, nega bajarmadim? Nega imkoniyatdan foydalanmadim?

– Nega, nega, va yana nega?

«Nega?»larning oxirisi ko'rinmaydi. Bunday afsuslarni qilmaslik uchun esa, talabalik sizga o'ta katta imkoniyatlar davrini taqdim etayotganligini va undan to'g'ri foydalanish lozimligini doimo yodda tutish kerak.

Ammo hali ham «talabalik – oltin davr» tushunchasining hozirgi kundagi ma'nosini ochib bermadim, shunday emasmi?

Avvalo, talabalardan ularning ota-onasi yoki qarindoshlari juda ham ko'p umidlar qilishmaydi. Odatda, yaxshi o'qib, yorqin kelajaklarini qurishsa bo'lgani. Aksariyat hollarda, ularning umr yo'ldoshlari ham deyarli bo'lmaydi, farzandlari ham yo'q. Pul ishlab topish majburiyati ham deyarli yuklanmaydi (albatta, istisnolar mavjud). Bu davrda talaba – erkin, ozod qushdir. Shunday ekan, bu payt balandlarga parvoz qiladigan va erishilmaydigan choqqilarni zabt etadigan davrdir.

Ikkinchidan, xotiramiz hali tashqi olam voqealari bilan «to'lmagan», tanimiz sog'lom, moddiy yukimiz oz ekan, talabalalikni, ilmni yaxshilab egallab, xorijiy tillardan bir nechasini mukammal o'rganib, dunyoqarashimizni cheksiz kengaytiradigan va yuqori marralarni ko'zlaydigan bir davr desak yanglishmaymiz.

Uchinchidan, talabalik – turli viloyatlar va chet mamlakatlardan yig'iladigan kursdoshlar bilan tanishish, jiddiy muammolar ustida bosh qotirish, tasha tegmagan ijtimoiy va biznes loyihalarini yo'lga qo'yish, ularni sinab ko'rish davridir.

To'rtinchidan, talabalik – o'zimizning qaysi sohada qobiliyatli ekanligimizni, qanday turdagi ishlarni do'ndirib bajara olishimizni, qaysi vazifalarni bajarishda ustun ekanligimizni, aslida kim ekanligimizni kashf etadigan davrdir.



2-kurs talabalarim bilan
seminardan so'ng.
Nagoya iqtisodiyot universiteti,
2018-yil.

Albatta, o'ziga to'q oilalarda undan keyin magistratura yoki boshqa yo'nalishda yana qaytadan bakalavr bosqichini o'qish uchun farzandlariga imkoniyat beriladigan holatlar ham yo'q emas. Ammo aksariyat oilalarda bu imkoniyat faqat bir martagina beriladi. Shunday ekan, bu davrni siz o'z kelajagingizni barpo etish yo'lida sarf qilishingiz lozim. Agar bunga jiddiylilik bilan yondashmasangiz, unda siz ham tez orada 100 minglab ishsizlar safiga qo'shilishingiz turgan gap.

Demak, murakkab o'qish sinovlari va do'stlar bilan birgalikda maza qilib hordiq chiqarib, qiziqarli, aqlni charxlaydigan o'yinlar o'ynash davri bo'lish bilan birgalikda, ***talabalik davri bu – kelajagingizni oltinga aylantirish muddatidir.*** Agar siz ushbu qisqa muddat davomida jiddiy harakat qilsangiz, kelajakda ulkan muvaffaqiyatlar, serdardomad ish va jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan hurmat-e'tiborga sazovor bo'lasiz.

Talabalik sizni ne-ne orzu-umidlar bilan tarbiyalab kelgan ota-onani universitet dekani oldida izza qilish yoki yuzini shuvut qilish emas, balki ularga tashakkurnomalar va rahmatlar keltiradigan davrdir. Buning uchun esa, 4 yillik davrni juda ham muhim bir imkoniyat sifatida bilish va shunga yarasha undan unumli foydalanish choralarini ko'rish kerak.

2003–2007-yillarda Toshkent davlat yuridik universitetida (o'sha davrdagi institut) o'qigan paytimda otam hech qachon Toshkentga kelmagan. Onam esa meni ko'rish uchun bir martagina keldi, xolos. Keyinchalik 2007-yil oktyabr oyi boshida poytaxdan Yaponiyaga uchayotgan paytimda ota-onam meni kuzatishga aeroportga kelishdi. Men hech qachon boshqa do'stlarim kabi ish ilinjida yurmadim, ish qidirmadim, balki ishlar meni yoki men kabi tirishib o'qigan va ter to'kkanlarni «qidirib yurgani»ning guvohi bo'ldim.

2-tavsiya:
OXIR-OQIBAT MA'LUMOTSIZ
INSON QO'LIDA ISHCHI BO'LADIGAN
BO'LSANGIZ, VAQTINGIZNI BEHUDA
SARFLAMANG

Ajib zamonlarga qoldik-da, diplomli inson ma'lumotsiz insonning qo'lida oddiy ishchi...

Bu tabiiy – biznesda doimo diplomi bor insonning omadi keladi degan qoida yo'q. Biznes boshqaruvining o'ziga xos sirlari mavjud. Uni bilish uchun diplomli bo'lish shart emas.

O'qimaganlik ham ayb emas.

Ammo yuqori maktab o'quvchisi ham ishlay oladigan do'konda turish kabi juda oson va sodda ishlarda oliygohni bitirib kelgan kadrlarning ishlashi fikri oqimiga sig'maydi.

Vaholanki, jamiyatimizda juda ko'p kasb egalari yetishmayapti, ammo ishsizlik ko'rsatkichi ham yuqori: *paradoks*, to'g'rimi? Bu degani, siz qadrlanadigan kasbni, chuqur tarzda egallab ulgurmadigiz, deganidir... Siz hali ham noyob kadrqa aylanmadigiz, deganidir...

Buni qanday aniqlasa bo'ladi? Qadrlanadigan mutaxassislikni kim aytadi? Albatta, o'sha soha mutaxassisi aytadi. Kech bo'lmasidan avval o'z sohangiz vakillarining ko'rsatmalariga quloq tuting. Nima o'rganay, nimalarga e'tibor beray, deb aniq savollar bilan murojaat qiling. Shunda ular sohadagi imkoniyatlarni birma-bir sanab o'tishadi. Siz esa sohangizdagi qaysi tarmoq uchun mutaxassis kerakligini bilib olasiz.

Universitetdagi 4 yillik muddat o'zingizni tanish va sohangizda qadrlanuvchi bilim va ko'nikmalarni mustahkam egallab, yetuk mutaxassis bo'lish imkoniyatidir. Undan to'g'ri foydalaning. Agar diplomni olib kelib, ma'lumoti bo'lmagan insonlar ham osonlik bilan o'rgana oladigan kasblarda ishlasangiz, unda oilangiz sarflagan mablag' va umidlarini puchga chiqarmay, o'qimay qo'ya qoling.

Ushbu tavsiyamni teskari sharhlasam, quyidagicha xulosaga kelsa bo'ladi: oliy ta'lim muassasasini yuksak saviyada bitirib, o'zingizning boshqalardan farqli va noyob kadr ekanligingizni isbotlang. Bo'lmasa, faqatgina oliygoh diplomini qo'lga kiritish bilangina hayotingizda biror o'zgarish yuz berishi juda ham mushkul.

3-tavsiya:

UNIVERSITETNI MAKTAB HAYOTIDAN FARQLANG

Universitet hayoti va undagi ta'lim jarayoni maktab ta'limi bilan tubdan farq qiladi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Avvalo quyidagi uch jadval bilan tanishib chiqaylik.

1) Maktab va oliygoh o'rtasidagi farq

Maktab		Oliygoth
O'tiladigan fanlarning dars jadvali mavjud bo'lib, mashg'ulotlar tartibi oldindan belgilab qo'yiladi	Dars jadvali tartibi	Modul tizimi asosida talabalar o'zlari o'zlash-tirmoqchi bo'lgan darsni tanlab, ro'yxatdan o'tishadi va har bir talabaning alohida darslar jadvali vujudga keladi
Har bir sinfga xonalar ajratilib, dars jadvali asosida fan o'qituvchilari dars o'tgani kelishadi	Sinxona	Talabalar o'zlari tanlagan darslarga qarab auditoriyalar farqlanadi
45 daqiqa	Dars soati	90 daqiqa

2) Universitet darslari

Formati	Kattaligi	Mazmuni
Ma'ruza	Ko'pchilik sonda	Professor-o'qituvchi minbarda turib ko'pchilikka dars o'tadi
Seminar	Kam sonda	Talabalar o'zlari izlab yig'gan va tahlil qilgan ma'lumotlar asosida og'zaki taqdimnomalar qilishadi. Talabalar o'rtasida munozara qilish oson. Esse yozib topshirish vazifasi ham tez-tez beriladi
Amaliyot-eksperiment	Kam sonda	Turli hil tajriba-eksperimentlar o'tkazilib, hisobot tayyorlanadi. Aniq fanlarda ko'p kuzatiladi

3) Maktab va oliygohdagi darslar orasidagi farq

Maktab		Oliygo
Darslar asosan doskada yozib tushuntiriladi	Dars o'tish uslubi	Ma'ruzachi ko'proq og'zaki uslubga tayanadi
Har bir fan bo'yicha o'rganiladigan masala belgilab qo'yiladi. Darslikka asoslanib, vazifalarni tushuntirish davom ettiriladi	Dars va darslik	Har bir ma'ruzachi o'zining qarashi va uslubiga asoslanib dars o'tadi. Turli darslik va monografiyalarni o'qib chiqishni tavsiya etadi. Ma'ruza albatta aniq bir darslikka asoslanib o'tilishiga kafolat yo'q
Darsning muhim joylarini o'qituvchi doskaga yozib ketadi	Doskaning qo'llanilishi	Umuman foydalanmaydigan ma'ruzachilar ham bor. Shu sababli ham, darsning muhim joylari ma'ruzachining og'zaki ma'ruzasi ichiga yashiringan bo'ladi

Universitet talabasining vaqti ancha mo'l, o'zi erkin, oilasidan esa katta ehtimol bilan xoli bir insondir. Taym-menejment, o'zining xo'jaligini yuritish, yangi tanishlar bilan muomala qilishni ortiq o'rganishi kerak. Uni oldingidek yonida ota-onasi doimo tergap turmaydi. Sinfidagi barcha o'rtoqlaridek bir xil vazifa olib, bir hil harakat qilmaydi. U ERKIN INSONga aylanadi.

Bir necha misollar keltiraman.

– Ayni paytda G'arbdagidek, universitetlarimizda ham kredit-modul tizimiga o'tilmoqda. Endi xohlagan darsingizni o'zingiz tanlab olishingiz va dars soatlaringizni belgilashingiz mumkin. Ammo maktabda bunday emas. Hammasini o'qituvchilar oldindan sizga aniqlab berishadi.

– Siz foydalanadigan auditoriya (maktabdagi sinfxona) ham darslarga ko'ra farqlanishi mumkin.

– Uyga vazifa deyarli yo'q. Uning o'rniga semestr o'rtasi va oxirida nazorat hamda yakuniy imtihonlar bor. Demak, siz erkinlikka erishasiz, ammo turli xil individual mas'uliyatingiz ko'payadi. Siz endi hayotingizni o'zingiz boshqarishingiz kerak.

– Dars soatlari uzoq: 45 daqiqa emas, 90 daqiqa, bunga qancha tezroq ko'niksangiz, shuncha yaxshi. Ammo bir kunda, ko'pi bilan 4 soatdan ortiq dars bo'lmaydi. Siz ertalab soat 9 dan tushki soat 2 gacha mashg'ulotlardasiz, undan keyin esa mutlaqo erkinsiz. (*albatta, universitetlarga qarab darslar vaqti biroz farqlanishi mumkin.)

4-tavsiya:
KELAJAGINGIZ HAQIDA 1-KURSNING
2-SENTABR KUNI SOAT 8:00 DAN
BOSHLAB O'YLANG

Bizning davrlarda Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari orasida bir askiya – hazil gap yurardi:

«1-kurs talabasi bosh prokuror bo'laman deb o'qishni boshlaydi;

2-kursda viloyat prokurori bo'lishga ham rozi bo'ladi;

3-kursga kelib tuman prokurori maqomi berilsa ham mayli edi deydi;


4-kursga yetganida ishga kira olarmikanman deb boshi qotadi...»

Kuldingizmi? Aslida bu latifa respublikamizdagi barcha universitet talabalariga tegishli. Chunki unda talabaning dunyoqarashi vaqt o'tishi bilan reallik bilan uyg'unlashib, o'zgarib boradi.

Unda bunday holatga tushmaslik uchun nima qilish kerak? Mening yechimim quyidagicha:

Kelajagingizni 1-kurs boshidan emas, o'sha kurs darslari hali boshlanmagan ertalabki soat 8:00 dan o'ylashni boshlang. Shunda 4-kursni yig'lab emas, kulib tamomlaysiz.

Bunda universitet darslariga imkon qadar tezroq ko'nikish bilan birgalikda, katta kurs talabalari bilan suh-



batlashish va ularning hayot yo'lini diqqat bilan kuzatish ham yordam beradi. Muhimi, 4 yildan keyin nima qilmoqchi ekanligingizni, qaysi ishda muvaffaqiyat qozona olishingizga ko'zingiz yetishi va shunga ko'ra harakat qilish zarur. Boshqacha aytganda, siz kelajakda nima istaysiz: **O'ZINGIZNI TEZROQ TANIB OLING.**

Misol uchun, menda chet tillarini o'rganish va kelajakda xorijda o'qish orzuyim bo'lgan. Bu hatto universitetga kirishdan oldan mavjud bo'lgan orzu edi. Talabalar safiga qabul qilingach esa o'sha yilning dekabr oyidan boshlaboq yangi tashkil etilgan Yapon huquqini tadqiq etish markazida yapon tilini o'rganishni boshlaganman. Birinchi qaldirg'och esa biz bo'lganmiz. Va bu markazdagi faoliyatlar keyinchalik mening kelajagim yo'nalishini belgilab berdi. Kelajakda Yaponiyaga borib o'qish va yuksak malakali kadr bo'lish orzuyimga aylandi.

Sizda-chi, do'stim? Sizning ham kelajak yo'lidagi rejangiz mavjudmi? U haqida o'ylab ko'rdingizmi yoki boshqa yuz minglab talabalar kabi «O'sha payt kelsin, ko'ramizda» falsafasi asosida yuribsizmi? Unda Toshkent davlat yuridik universiteti talabalarining yuqoridagi hazil gaplarini unut-mang!

Diqqat qiling! Faqat og'zaki maqsadning o'zi yetarli emas. Sizdan maqsadingiz sari aniq qadam tashlashda izchil harakatlar talab etiladi. Amalga oshirilmagan maqsad va orzular esa xayolparastlikdan boshqasi emas.

Yapon dengizi sohili.
Kanazawa, 2018-yil.



5-tavsiya: **TALABALIK HAYOTINING** **BIRINCHI OYIDAYOQ UNIVERSITET** **KAMPUSINI O'RGANIB CHIQUING**

Rivojlangan davlatlarning aksariyat universitetlarida ilk haftalar bakalavr bosqichidagi talabalarni universitet va dars olish jarayonlari bilan tanishtirishga bag'ishlanadi. Buni ingliz tilida *Orientation* deb atashadi. Kamina hozir ishlayotgan Nagoya iqtisodiyot universitetida ham 1-apreldan boshlanadigan o'quv yilining ilk kunlarini talabalarga universitetni tanishtirish va darslarni qanday olish haqida *tanishtiruv* o'tkazish bilan band bo'lamiz. Bunday tanishtiruv tabiiyki, 2, 3, 4-kurslar uchun ham tashkil qilinadi. Faqat ularga biroz qisqa shaklda, o'quv yili boshlanishidan oldin, mart oyining so'nggi kunlarida uyushtiriladi.

O'zbekistonda o'qigan (2003–2007-yillar) paytlarimda bunday tizimli tanishtirishlar bo'lmadi. 2-sentabr kunidan-oq darslar boshlanar, barcha talabalar universitetni yo'l-yo'lakay o'rganib borishga majbur edi. Ammo keyingi yillarda ba'zi universitetlarda bunday foydali tadbirlar «1-kurs maktabi» nomi ostida tashkil etilayotganligidan xabarim bor. Biroq sifat darajasi haqida aniq bilmayman.

Shunday ekan, talaba do'stim, tanishtiruv tadbirlariga qo'shib, ilk oydayoq universitetning har bir burchagini, bunda, kutubxonasidan tortib hojatxonalarigacha, buxgalteriyasidan tortib rektor va dekanlar xonasigacha, hamma joyni kezib chiqing. Topa olmasangiz, savol bering va bilib, o'rganib oling.

Agar bu ishni qilmasangiz, takror va takror, universitetning turli bo'limlari haqida o'rganishga va savol so'rashga majbur bo'lasiz. Oxir-oqibat o'zingiz qiynalib qolasiz. Buning oldini olishning yagona usuli – imkon qadar tezlik bilan oliygohning barcha binolarini va u yerdagi turli bo'limlarning joylashuvini o'rganib chiqing.

Darslar masalasida ham xuddi shunday. Yaponiya universitetlarida talabalarga har yili jildi 100 sahifadan ziyod bo'lgan talabalik kitobchasi tarqatiladi. Unda siz universitet haqida barcha ma'lumotlarni, bino va auditoriyalar xaritalarini, darslar jadvali, tartibi, kuni va xonalarini, ularni o'tadigan professor-o'qituvchilarni ham bilib olishingiz mumkin. Albatta, ba'zan dars kuni va joyi biroz o'zgarishi mumkin, ammo ular dengizdan tomchi, xolos. Dars jadvali bir belgilandimi, keyin o'zgartirilmaydi.

Universitet kampusini yaxshi bilishning ijobiy tomonlaridan biri, agar tinch joyda o'qimoqchi bo'lsangiz, unda siz o'qiydigan fakultet kutubxonasida emas, boshqa fakultetning osoyishta joyini oldindan ko'rib qo'ygan bo'lasiz. Imtihan oldi yoki biror muhim vazifa paytida o'sha «pana joy»ga borib olib, kursdoshlardan berkinib ishingizga sho'ng'ish imkoni paydo bo'ladi. O'zingiz bermalol taomlanmoqchi bo'lganingizda ham, universitet yoki uning yon-atrofidagi sifatli restoranni oldindan bilishga imkon bo'ladi.

2007–2012-yillarida Nagoya universitetida o'qigan vaqtlarim, ba'zan tinch dars qilish uchun qo'shni iqtisodiyot fakultetiga yoki qahva ichish maqsadida adabiyot fakultetining 2-qavatida joylashgan bufetga chiqib ketardim. Ustozim bilan ham o'sha yerda ko'rishib, ilmiy ish munozarasini qilardik. Sizga ham buni maslahat beraman.

6-tavsiya: ERTA TURING, UYQUGA BARVAQT YOTING

Siz «Sugoi Hayaoki»(Hayratlanarli barvaqt uygʻonuvchi) nomidagi yapon tilida yozilgan kitobni eshitmagan boʻlsangiz kerak, shunday emasmi? Unda ushbu asar muallifiga quloq soling, talaba doʻstim.

Tanishtirmoqchi boʻlgan ushbu kitobda ertalab barvaqt turishning foydalari haqida yozilgan. Uning muallifi, Ryo Tsukamotoning yuqori maktabda oʻqish davrida uning fanlarni oʻzlashtirishi aslida juda ham past darajada boʻlgan. Shundan keyin, maktabning soʻnggi yilidan boshlab har kuni ertalab barvaqt turib, dars tayyorlash orqali oʻzlashtirish natijalarini yaxshilab, Kiotodagi Doshisha universitetining iqtisodiyot fakultetiga qabul qilinadi. Saharda turib, kitob oʻqishda davom etgan Ryo Tsukamoto Doshisha universitetini tamomlashi bilan Angliyadagi mashhur Kembrij universitetining magistratura bosqichiga qabul qilinadi. Oʻqish juda ham qiyin va vazifalar haddan ziyod koʻp boʻlishiga qaramay, kechasi ertaroq uxlab, tongda barvaqt turib ishlash orqali eng oldingi safda namunali baholar bilan universitetni muvaffaqiyatli tamomlashga erishadi. Ryo Tsukamoto ushbu kitobda muvaffaqiyat sirlarini kitobxonlar bilan oʻrtoqlashadi.

Muallifning yozishicha, tonggi soat 5 da turish bilan miya toʻliq ishga tushadi:

– Ertalab turib ishlash va oʻqish kechqurungi mehnatdan anchagina yaxshi natija beradi.

– Miyaga oid qilingan ilmiy ishlardan aniq boʻlgani shuki, tungi uyqumizda miyamiz dam olib, yana tartibli holga keladi. Ertalab turganda, miyamiz sport uchun tayyorlangan yangi stadion kabi tiniq va chiroyli shakl oladi.

– Natijada, ertalabki ilk 2-3 soatlik vaqt oʻqib-yozish uchun qulay payt hisoblanadi.

– Oʻrgangan narsani miyamizda uzoq muddat saqlash uchun uni takrorlash eng muhim usuldir. Ilmiy tadqiqotga

ko'ra, 20 daqiqa oldin o'rgangan bilimlarimizning 42 foizi, bir kundan song esa 74 foizi esdan chiqib ketadi.

– Ertalab sahar vaqtidagi o'qish-yozishning foydasi juda katta. Eng muhimi, kechqurun o'qib tushunish qiyin bo'lgan murakkab darsliklar ham ertalab osonlik bilan miyamizga o'rnashadi va ularni tushunish ancha yengil kechadi.

– Ertalab sahar vaqtidagi miyaning turli ma'lumotlarni qabul qilishining tezlashishi ortida ham miyamiz to'liq quvvat bilan ishlayotganligi mujassam.

Muallifning aytishicha, kechqurun dars qilishni davom ettirish insondagi motivatsiyaning pasayishiga olib kelar ekan. Sababi ish va o'qishdan uyga qaytib, tamaddi qilgandan keyin, toliqqan miyani majburlagan bilan, miya qabul qilmaydi. Tamaddidan keyin, qondagi glyukoza darajasi ortadi va uyqu keladi.

Miya toliqqan vaqtda, qilmasam bo'lmaydi deya o'zini majburlash oqibatida inson tushkunlikni his qilib, o'zi kutgan narsalarga erisha olmasdan, motivatsiyaning birdaniga pasayib ketishiga sabab bo'lar ekan.

Buning ta'sirini abituriyentlik paytimdayoq ko'rganman. Ingliz tili o'qituvchimiz bizni erta sahardan uyga chaqirardi. Yotoqxonada yashovchi do'stlarimiz bilan birgalikda, yo'l-yo'lakay yuzlarimizni yuvib darsga borganimizni eslayman. Biroq uning natijasi juda ham ajoyib bo'lgan: 36 ta testdan 30 ta to'g'ri yechib, 3600 nafar abituriyent orasidan 3-o'rinda Toshkent davlat yuridik universitetiga qabul qilinganman.

Shunday ekan, siz ham erta turib, uyquga barvaqt yotishga o'rganing. Abituriyentlik davringizni eslang. Ishoning, bu juda asqotadi.

7-tavsiya: KUMUSH QOIDA – ERTALAB SOAT 8 DAYOQ UYINGIZDAN CHIQING

Ba'zi talabalar ota-onasining qaramog'ida yashaganligi uchun uy tartibiga amal qilishda ma'lum bir nazoratda bo'lishadi. Ya'ni, ularni doim kimdir tergap turadi. Vilo-yatdan kelgan talabalarda esa bunday imkoniyat deyarli yo'q. Shunday paytlarda talabalarda o'z-o'zidan dangasalik yoinki biror ruhiy holat yuz berib, mashg'ulotlardan qochish boshlanadi.

Buning sabablari turlicha:

O'ringizdan turginiz kelmaydi.

Darsga borish yoqmaydi.

Yana o'sha professor-o'qituvchi bilan uchrashishni istamaysiz.

Imtihon topshirish kerak.

Konspekt yoki insho yozish kerak.

Kursingizdagi qaysidir talaba bilan chiqishmay, uni ko'ringiz kelmay qoladi.

O'sha kungi fan sizga yoqmaydi va hokazo....

Bunday paytlarda eng kop so'raladigan masala bu – *biz qanday qilib kun tartibimizni yo'lga qo'yishimiz kerak*, degan savol bo'ladi. Eng muhimi, nonushtani 7 dayoq qilib, 8 da portfelni qo'ltiqlab, uydan universitet tomon yo'lga chiqing. O'sha yerda kimnidir ko'rib, o'z-ozidan qizib ketganingizni va uyquni ham unutganingizni bilmay qolasiz. Biroz avvalgi tavsiyada tanishtirilgan «Sugoi haya-oki» (Hayratlanarli barvaqt uyg'onuvchi) kitobida ham aytilganidek, insonlar orasiga kirish yoki universitet ichiga kirish orqali inson psixologiyasi o'zgarib, talaba o'qish jarayonlariga kirishib ketganini o'zi ham sezmay qoladi.

Bundan tashqari, siz qatnashmoqchi bo'lmagan ma'ruzada professor-o'qituvchi shu mavzu doirasida

yuz berayotgan eng muhim munozaralarni va fandagi eng so'nggi holatlarni tushuntirib beradi. Va uni o'zlashtirishga doir muhim yo'nalishlarni o'rgatadi. Shuningdek, o'rtoqlaringiz beradigan muhim savollarga javob ham oson topiladi. Bunday bebaho lahzalardan o'zingizni aslo mahrum qilmang. Darsga bormaslik esa sizda aybdorlik hissini uyg'otadi, bunday fikrdan chalg'ish uchun inson o'zini turli zararli mashg'ulotlarga urishga tutinadi. Shunday ekan, darsga bormaslik yoki darsdan qochish masalasida nafsingizga hech qachon erk bermang.

Istisnolar mavjud emasmi? Albatta, mavjud! Agar haroratingiz 37,5 darajadan oshsa, oyog'ingiz sinsa, yoki albatta sizning ishtirokingiz bilan o'tadigan rasmiy uchrashuvda bo'lsangiz, mayli, darsga bormang. Bular uzrli sabablardir. Boshqa paytda esa, unutmang: soat 8 dayoq, uydan oliygoh sari yo'lga otlaning.

8-tavsiya: SHAXSIY REJALAR DAFTARINI TUTING

Rejalar daftarini (schedule notebook) tutib, kunlik, haftalik, oylik va yillik rejalaringizni aniqlab boring. Yaponiyada boshlang'ich maktab o'quvchilari 3-4-sinf dan boshlaboq bunday daftarni tuta boshlashadi. Chunki hayotimiz matematikadan iborat. Hamma narsalar sonlar bilan o'lchangan. Vaqt ne'mati bizga chegaralanib berilgan. Shunday ekan, tabiat qonunini yaxshi o'qigan holda, siz ham kundalik daftar tutib, unga kunlik, haftalik, oylik va yillik rejalaringizni yozib boring. Bajarilgan ishlarni tahlil qiling.

Shartmi, deyishingiz mumkin. Ha, endi shart. Avvalari hayotimiz anchagina sodda edi. 2016-yildan keyingi o'zgarishlar O'zbekistonni global harakat ichiga qo'shib yubordi. Endi hayotimiz murakkablashadi. Vaqt qisqarib, bajarishimiz lozim bo'lgan ishlar ko'payadi. Hafta davomida qiladigan ishlarimiz ko'payib, oldingidek ularni doimo yodda saqlash mushkullashadi.

Yaponiyada bestseller bo'lgan «The Power of Output» kitobi muallifi, doktor Shion Kabasavaning yozishicha, inson miyasi bir paytning o'zida 3 tadan ziyod ishni bajara olmas ekan. Buning yechimi sifatida sizdan miyangizda g'ovlab turgan barcha ishlarni (topshiriqni tugatishim kerak, do'stinga telefon qilish lozim, bir kitobni o'qib qo'ymasam bo'lmaydi kabi) reja daftaringizning rejalar qismiga yozib qo'yib, miyangizni keraksiz ma'lumotlardan tozalashingiz talab etiladi. Bo'lmasa, miya vahimaga tushib, to'xtab qoladi va siz samarali ishlay olmaysiz. Shunday ekan, talaba do'stim, agar bunday odatingiz bo'lmasa, tezda reja daftar tutishga odatlaning. Hozirdan boshlang. Mumkin bo'lsa, aqlli telefon emas, reja daftarini sotib oling. Yozib yurish miya va xotiraga ham foydali bo'lib, unga o'zingiz istagan rangli ruchka va shaklda yozib qo'ya olasiz.

Reja daftari tutish orqali Modul tizimiga o'tgan universitet darslarini aniq yozib qo'yishingiz va istagan paytda uni qaytadan ko'zdan kechirish mumkin.

Agar biror yangi uchrashuv yoki dars bo'lsa ham, uni tezda qayd etish imkoningiz bo'ladi. Qo'shimcha tarzda, darsdan tashqari holatlarda bo'ladigan uchrashuv va boshqa tadbirlarda aytilgan gaplarning hammasini xotirada eslab qolish endi mumkin emas. Shunday ekan, reja daftaringizning qaydlar sahifasiga yozib qo'ysangiz, xohlagan paytda uni qaytadan ko'rish imkoniga ega bolasiz. Bunga hafsalaning o'zi yetarli.

Agar sizda reja daftari bo'lmasa, unda siz hayotingizni pala-partish yashaydigan, ko'p xatoga yo'l qo'yadigan inson holatiga tushib qolasiz.

Reja daftaringiz bir kun, bir hafta, bir oy va yil ichida nimalarga qodir ekanligingizni sizga oynadek ko'rsatib beradi. Xulosa shuki, atrofdagi insonlarning gaplariga parvo qilmay, doimo reja daftarini olib yurishni kanda qilmang. Agar kompyuter yoki boshqa jihoz orqali ishlaringizni erta yoshdan tartibga solishga odatlangan bo'lsangiz, unda, «Google Calendar», «Google Task» yoki «Google Keep» kabi dijital ilovalar ham qulay. Ular ham anchagina samarali bo'lib, sizga doim rejalashtirgan ishlaringiz haqida eslatib turadi.

9-tavsiya:
REJASIZ YASHAMANG, AMMO UNI AMALGA
OSHIRISH UCHUN QO'RRIQCHI YOLLASHNI
YODDA TUTING

Talabalikdagi eng katta xatolarimizdan biri – bu avval boshda katta rejalar qo'yib, keyinchalik ularni amalga oshirmay, so'ngra bir umr afsuslanib yurishdir. Quyidagi holat ko'pchilgimizda bo'lgan, shunday emasmi?

– 700 betlik kitobni kuniga 70 betdan o'qib, 10 kunda tugatib tashlayman. Shunday ekan, imtihondan oldingi 10 kun menga yetadi.

– Ingliz tilini har kuni 10 soatdan 6 oy o'qib, IELTSdan 7 ball olaman. Buni amalga oshirganlar bor ekan.

– Masalalar to'plamini 2 oyda har kuni 20 ta masaladan yechib tugataman, juda oson-ku!

– Har kuni soat 5 da turib yuguraman. Qarabsizki, men sog'lomman.

– «Grammar in Use»ni har kuni 5 ta darsdan yechib, 3 oyda bitiraman. Men buni uddalay olaman.

Bunday rejalarni rosa ko'p tuzamiz, shunday emasmi? Lekin necha foiz talaba shu maqsadlarining oxirigacha yetib borgan, bilasizmi? Juda kamchilik, ular juda ham noyobdirlar.

Nega bizda vaqt, imkoniyat va sog'liq bo'la turib, 4 yillik ajoyib bir davrda bunday ishlar qila olmaymiz? Oxiriga yeta olmaymiz? Nega ko'pgina ajoyib g'oyalar tugatilmay chala qolib ketadi? Hech o'ylab ko'rganmisiz bu haqida? Axir maktab davrida siz katta natijalarga erishgan o'quvchi bo'lgansiz-ku?!

Javob juda ham oddiy: maktabda va tayyorgarlik kurslarida butun sinf bir maqsad yo'lida raqobatlashardi, hamma yuqori ball olib, iloji boricha grantga ilinib, universitetga kirishga harakat qilardi. Ammo bunday muhit universitetda sezilmaydi. Talabalar erkin bo'lib qolib,

bo'shshadi. Ko'pincha universitet professorlari maktab o'qituvchilari kabi sizlarga baholaringizni hammaning oldida aytmaydi. Hammaga yakka-yakka yuboriladi. Universitetda professor-o'qituvchilar ma'ruzani o'qib chiqib ketaveradi. Ochiq raqobat oldingidek ko'rinmay qoladi.

U holda bir ishni batafsil bajarib tugatish uchun nima qilish kerak?

Yashang, endi o'zimizning asl maqsadimizga keldik. REJASIZ YASHASHNI BAS QILISH LOZIM. Ammo uni qo'llovchi yoki qo'riqlovchi faktor bilan kuchaytring, rejaningizni pragmatik holga olib keling. Nima demoqchiman?

– Ba'zilar har bir soati va daqiqasigacha hisoblab, reja tuzishadi. Bunchalik shart emas, biroz bo'shroq bo'lsa-da, siz amalga oshira oladigan reja bo'lsa, kifoya.

– Bir kunda 2 soat uzluksiz kitob o'qishga qaror qildingizmi, unda kitob o'qish uchun aniq joy va vaqtni oldindan tayin qilib, o'sha paytgacha hech qanday uchrashuv, tadbir, ovqatlanish kabi rejalarni qo'ymang. Taklif qilinsangiz yoki biror iltimos qilinsa ham yumshoqlik bilan rad qilishni biling. Kitob o'qiydigan xona yoki kutubxonani aniqlang. Vaqt bo'lishi bilan avtomatik tarzda o'sha yerda hozir bo'ling va o'qishga kirishing. Atrofdagilaringiz ham sizning har doim shu vaqtda mutolaa bilan mashg'ul ekanligingizni bilishsin.

– IT dasturchisi bo'lmoqchimisiz? Youtube tarmog'idan bepul kurslar topdingizmi? Ha-ha-ha!!! O'zingizni aldang, do'stim. Bepul kurslar ming zo'r bo'lsa ham, uni siz davom ettira olmaysiz. Undan ko'ra, yurtimizdagi biror IT-chi mutaxassisning onlayn yoki offlayn kurslariga yozilib, pulini oldindan to'lab, har haftada 2-3 kun undan dars o'rganing. Professor-o'qituvchi nazoratida o'qing. Inson irodasi zaifdir. Shunday ekan, unga yordam beruvchi, uni jilovlab turuvchi omillarni ham oldindan tayyorlab qo'ying. Pullik kurslarga borishda ba'zan eringan paytingiz pulingizga achinib bo'lsa-da, albatta borasiz. Shuning uchun ham sport zallariga borib jismoniy chiniqishni niyat qilsangiz, unda bir oy yoki 3 oyligini oldindan to'lang. Shunda, uzluksiz boradigan bo'lasiz.

Demak, bir ishning davom etishi uchun rejali yashash lozim ekan. Rejali yashaganda ham insondagi zaif irodani mustahkamlab, uni qo'llab-quvvatlab turadigan yordamchi kuchlarni tayyorlab qo'yish lozim. Ana shunda ishlaringiz davom etadi. Kam bo'lsa-da, har bir ishni doimiy qilish – bu payg'ambarlar sunnati hisoblanadi. Unda baraka bor.

Shu bilan birga, har kuni kechasi uyqudan avval ertaga qilinaajak ishlar ro'yxatini (To do list) daftarchangizga qayd qiling. Qachon, qayerda bajarishingizni qayd qilsangiz yana ham yaxshi. Bunga ko'pi bilan 5-6 daqiqa sarflang. Ertalab turgach, rejangizni qaytadan ko'zdan kechirib, kerak bo'lsa, tuzatish kiriting va o'qish kuningizni boshlang. Ana shunda, kechgacha siz aniq bir dastur bilan harakat qilgan bo'lasiz va buning samarasini ham ko'rasiz.

Har hafta oxirida esa daftarchangizni qo'lga olib bir haftalik mehnat unumdorligini hisoblab chiqing va yo'l qo'yilgan kamchiliklaringizni aniqlang. Bu ham sizga *mu-kammal reja tuzish emas, balki nomukammal reja tuzilgan bo'lsa ham, unga to'liq amal qilishda* sizga katta yordamchi bo'ladi.

10-tavsiya: **KUCHINGIZNI «MAYDALAB» TASHLAMANG**

Talabalik davri inson go'yo osmonlarda uchib, turli xayollar qiladigan, rejalar tuzuvchi davr hamdir. Bu haqida biroz yuqorida, orzu qilish haqidagi tavsiyada ham aytib o'tdim. Endi esa ushbu orzu va rejalarni amalga oshirishda cheklangan darajadagi imkoniyatlardan tejab foydalanish haqida biroz suhbatlashsak.

Insondagi cheksiz mavjud manbalardan biri – bu xayol kuchidir. Xayol kuchli hissiyotga bog'liq bo'ladi. Hissiyotlarning esa tizgini yo'q. Ammo insonda mavjud moddiy imkonlar va vaqt – chegaralangandir. Shunday ekan, bor-yo'g'i 4 yil davom etuvchi bakalavr davrini aniq natijaga bog'lab, samarali o'tkaza olishimiz uchun kuchimizning bo'linmasligini taqozo etadi. Bu nima degani?

Misol bilan tushuntirib beraman. «Rich Dad, Poor Dad»(Boy ota, kambag'al ota) kitobida Robert Kiyosaki bu mavzuga doir qiziqarli misolni keltiradi. 2-jahon urushida Shimoliy Afrikada to'qnashgan nemis va amerikalik harbiylar o'zaro tanklar jangiga kirishishadi. Shunda, nemis generali tanklarni qatorlashtirib maydonga kiradi. AQSh generali Jorj Peton esa tanklarni bir joyga jamlab, nemis tanklarini buzib tashlash rejasini tuzadi va muvaffaqiyatga erishadi. Shundan keyin, Vermaxt qo'shinlari Shimoliy Afrikada o'zini qaytib o'nglay olmaydi.

Qissadan hissa shuki, talaba dostim, hali yoshsiz, tajriba va imkoniyatlaringiz chegaralangan. Shunday ekan, oliygoh darslaridan tashqari sizda ko'pi bilan 2 ta katta loyihani amalga oshirishga imkon bor, undan ko'p emas. Boshqacha qilib aytganda, kuchingizni hamma narsaga bo'lib tashlash yaramaydi. Bir narsaga yoki 2 narsaga yo'nalmoq lozim. Bo'lmasa, ko'zlagan maqsadlaringizning birortasi mukammal bo'lmay, chala-yarim qolib ketadi. Kuchingiz, vaqtingiz, mehnatingiz isrof bo'ladi.

Yapon firmalariga ishga kirishda albatta talabadan o'qish paytida eng ko'p kuch sarflagan ishini so'rashadi. Bunda talaba biror xayriya kompaniyasida ko'ngilli bo'lib qatnashgani yoki futbol jamoasida kapitanlik qilganligi yoxud universitetdagi qandaydir tanlovda qatnashgan bo'lishi ham mumkin. Xullas, talaba eng ko'p yo'nalgan va g'ayrat sarflagan ish so'raladi. Bunda eng kamida bitta bo'lsa ham talabaning o'qish davrida amalga oshirgan faol loyihalari so'raladi. Shunday ekan, siz ham ko'p emas, 1 yoki 2 loyihaga e'tiboringizni diqqat bilan qarating.

Chunki universitet darslariga qatnashish, qo'shimcha dars olish, uyga qaytish, ovqatlanish, dam olish, do'stlar bilan birga vaqt o'tkazish – bularning barchasini hisoblab ko'ring-a? Sizda ko'p vaqt qolmadi hisob. Demak, bir yoki ikki ishni tanlang va uni muntazam davom ettiring.

Davomiylik – bu katta kuchdir. Uni hamma ham qila olmaydi. Men huquq fanlariga qo'shimcha tarzda yapon tilini 3,5 yil davomida o'qidim va bunda ustozlarim yordami bilan muvaffaqiyatga erishdim. Natijada, men uchun Yaponiya huquqi deya ataluvchi umuman yangi dunyo va juda katta bilim dargohining eshigi ochildi.

Shunday ekan, siz ham kuchingizni «maydalab» tashlamang. Bo'sh vaqtingizni bafurja rejalashtiring. Oldindan maqsadingizni mumkin qadar tezroq aniqlashtiring. Qaysi sohada, kim bo'lmoqchisiz? Shunga ko'ra, maqsadni aniq qo'yib, oldinga qarab yuring va uni davomli bajaring. Universitetni, albatta, kuchli kadr bo'lib tamomlaysiz.

11-tavsiya: HAR KUNI GAZETA VA JURNAL O'QING

Fikrlashni o'stirish va dunyoqarashni kengaytirish albat-ta o'qish orqali rivojlanadi. O'qiganda ham turli manbalar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Talaba do'stlarimga shular orasida eng birinchi tavsiyam – har kuni gazeta va jurnal o'qing va buni odatga aylantiring.

Inson miyasi uchun bilim va ma'lumotlar xuddi mashinaga yoqilg'i qanday kerak bo'lsa, shunday lozimdir. Shuning uchun har kuni miyangizni rivojlantiradigan ma'lumotlarga boy yangiliklar bilan birga, tahliliy material-larni ham ko'zdan qochirmang. Bularni esa siz gazeta va jurnallardan topasiz.

Muvaffaqiyat qozonmoqchimisiz? Unda siyosat, iqtisodiyot, tabiat, texnologiya, sport va san'at sohasiga doir masalalarda keng fikrli bo'lishingiz talab etiladi. Shunday ekan, bunday masalalarda yetarlicha fikr sohibi bo'la olish uchun va turli davralarda munozara qila olish uchun avvalo sizga kuchli ma'lumotlar bazasi kerak bo'ladi. Buni ham gazeta va jurnallardan topasiz.

O'zim ham Yaponiyaning kundalik gazetalarini o'qish bilan birgalikda salkam bir asrlik tarixga ega «*Foreign Affairs*» jurnalini deyarli har kuni kuzatib boraman. Maqolalar kuchliligi va o'ta chuqur tahlil etilganligi tufayli miyam shunday bilimlarga ehtiyoj sezadi. Bundan tashqari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi jarayonlarga bag'ishlangan «*The Diplomat*» internet nashrini ham ta'qib qilib boraman. Yaxshi eslayman, o'quvchilik davrimda uyimizga har hafta «Oila» gazetasi kelardi. Bu nashrda chiqarilgan yangilik va tahlillarni o'qish mening dunyoqarashimning o'zgarishi va fikrlashim kengayishida katta rol o'ynagan.

Siz-chi? Siz talaba do'stim, qaysi nashrlarni kuzatib borasiz?

Ko'pchilik yurtimizda yangiliklarni xolis yoritadigan bosma gazeta va jurnallar yo'qligini ro'kach qilishi mumkin.

Bunga qisman ishonmayman. Albatta, Britaniyadagi *Financial Times* yoki Amerikadagi *Wall Street Journal* yoki Yaponiyaning *The Japan Times* kabi gazetalarini topish bizda hozircha qiyin. Ammo davlat tashkilotlari tomonidan chiqariladigan maqolalarda ham jiddiy va ilmiy mavzular tez-tez ko'tarilib turishi bor gap. Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda internet nashrlarining ko'payganligi bosma gazetalarini ham harakatga solib qo'yanligini ko'rsatmoqda.

Davlat siyosatini kuzatmoqchi bo'lsangiz, albatta «Xalq so'zi»ni o'qing. Shunda davlat tizimi, madaniyati va iqtisodiga oid ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, «O'zbekiston ovozi», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Hurriyat» va «Ishonch» gazetalarini ham o'qib borishni maslahat beraman. Ularni, albatta, har hafta sotib olish shart emas. Siz o'qiyotgan oliygoh kutubxonachilari yuqoridagi gazetalarining yoki ulardan boshqa gazetalarini har hafta kutubxonaga joylashtirishadi. Shunday ekan, har haftada bir kunni tayinlab, 2 soat atrofida o'sha haftada chop etilgan gazetalarini «titkilash»dan charchamang.

Jurnal masalasida esa hozircha afsuski rus tilida nashr etiluvchi «Экономическое обозрение» jurnalini kuzatib borishni tavsiya qilaman. Qo'shimcha tarzda «Bozor, pul va kredit» jurnali ham chakki emas. Bu jurnal ikki tilda chop etiladi. Bugungi kundagi iqtisodiyot, jamiyat, biznes va siyosatdagi asosiy voqealarni ushbu nufuzli jurnallardan topishingiz mumkin. O'zbekistonning *Financial Times* maqomidagi jurnallar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'paytirib yubormadingizmi, deysizmi? Shukur qiling do'stim, bizdagi bosma nashrlar har kuni, shunda ham 30-40 sahifalik bo'lib chiqmaydi. Masalan, *Financial Times* yoki «*Nikkei Shinbun*» kabi nashrlar kuniga 30-40 bet atrofida, shunda ham kichik bosma harflar bilan chop etiladi. Yaponiyadagi ba'zi nashrlar hatto tushlik va kechki nashrlarni ham chiqarishadi. Tasavvur qila olasizmi? Bir kunda 3 marta gazeta uyingizga keladi!!! Shunda ham juda zalvarli.

Yuqorida sizga tanishtirgan O'zbekistonimizdagi gazetalar nari borsa 10 sahifadan ko'pga bormaydi. Shunda ham sahifalari rasmlar bilan to'la. Ularni tabiiyki, tezda o'qib qo'yish mumkin.

Albatta, ko'pchilik bosma gazeta va jurnallardan ko'ra, onlayn tarzida har kuni chiqib turuvchi va soatma-soat yangiliklar haqida sizga Telegram orqali xabar beruvchi Kun.uz, Gazeta.uz yoki Daryo.uz kabi onlayn nashrlarni xush ko'rish mumkin. Yurtimdan uzoqda bo'lsam ham ularni kuzatib borishga harakat qilaman. Onlayn nashrlar haqiqatan ham tezkor, e'lon qilinayotgan ruknlar qiziqarli va tanqidga boyligi bilan ajralib turadi. Lekin muhimi, qisqa-qisqa chiqarilgan yangiliklarning o'ziningina emas, balki tahliliy maqolalarni ham albatta kuzatib boring. Shunda so'z boyligingiz ham oshib, jamiyat va dunyoda yuz berayotgan muammolar haqida chuqur tahliliy qobiliyatga ega bo'lasiz.

Unutmang! Internet nashrlarni o'qish uchun aniq vaqtingizni ajrating. Bo'lmasa, internet ummoni ichiga kirib, anchagina vaqtingizni yo'qotib qo'yishingiz mumkin.

Bosma yoki internet nashrlardan birini tanlashga kelganda esa kamina bunday tanlov qilmagan bo'lardim. Chunki yuqorida aytib o'tkanimdek siz o'qiyotgan oliygoh kutubxonasida bosma nashrlar mavjud. Muhimi shundaki, bosma nashrlarda o'ta professional muharrirlar shoshmasdan ishlashgani uchun maqolalardagi so'zlarni qo'llashda grammatik va mazmunga oid xatolar deyari bo'lmaydi. Sizning so'z boyligingiz ham haddan ziyod ko'payadi. Ammo yangiliklarni o'z vaqtida mijozlarga yetkazish ilinjida yonadigan internet nashrlarida biroz shoshma-shosharlik kuzatiladi va xatolari ba'zan ko'rinib qoladi. Shunday ekan, har ikki turdagi nashrlar orasida muvozanat saqlagan holda, ularni doimo kuzatib borishni maslahat beraman.

12-tavsiya: OSHQOZON YARASI – ERINCHOQ VA TARTIBSIZ TALABANING O'ZIGA «SOVG'A»SI

Xuddi shunday. Agar siz o'z vaqtida tamaddi qilmaydigan bo'lsangiz, holingizga voy. Bir umr azob chektiradigan oshqozon yarasi kasalligiga tayyor turavering.

Rahmatli Abdulmalik hoji kattam (Farg'onaning Bog'dod tumanida boboni shunday chaqirishadi) menga doimo shunday derdi:

Alisher, doimo qorning to'q yursin, ovqat tanlamagin, bolam.

1930-yillarda tug'ilgan bobom ko'p ocharchilik va qiyinchiliklarni boshidan o'tkazganligi uchun yuqoridagi maslahatni bejiz aytmagan deb o'ylardim. Men kattamning maslahatlariga amal qildim, qornimni deyarli to'q tutdim. Ammo ba'zi tanishlarim e'tiborsizlik bilan o'qishlari davomida bunga amal qila olmay oshqozonlarini og'ritib qo'ydilar. Bunday talabalarning yana bir qanchasini bilaman.

Shunday ekan, do'stim, tartibli yashang va kundalik er-talabki choydan mosuvo bo'lmang. Tushlikni kechiktirmang va kechki taomlanish vaqtida ham albatta issiq ovqat tamaddi qiling. Mumkin bo'lsa, oshqozonni qiynaydigan taomlar emas, balki sho'rva kabi suyuq taomlarni tez-tez tayyorlab turing. Uzoq muddat och yurib, keyin birdaniga o'ta to'yib taomlanish ham koni zarar ekanligini unutmang. Garchi ba'zilar «Talabanning 7 ta qorni bo'ladi» deya hazil-lashib, imkon bo'lganda to'yib qolishni tavsiya qilishsa-da, sizda bitta oshqozondan boshqasi yo'q. Uni hamisha as-rang.

Ko'pchiligimiz ota-onalarimiz quchog'idan o'qishga kelganimiz uchun ham birdaniga mustaqil hayotga tushib, to'g'ri ovqatlanish tartibiga amal qilishimiz qiyin kechadi. Chunki sizni doim ovqatga chorlab turuvchi onangiz, opa-singillaringiz yoki kelinoyilar endi yo'q. O'zingizga o'zingiz

mas'ulsiz. Shunday ekan, agar moddiy imkoniyatingiz yet-
sa, tashqaridan taom buyurtma berib bo'lsa ham, doimo
qorningizni to'q tuting.

Bir-ikki boshqa mulohazalarimni ham o'rni kelganda
aytib o'tay. Agar siz o'qishga jiddiy kirishgan, vaqtini aso-
san oliygoh darslari va qo'shimcha tayyorlov kurslarida
o'tqazadigan, aniq maqsadli talaba bo'lsangiz, tabiiy ravish-
da ijaradagi uy yoki yotoqxonangizga kech qaytasiz. Char-
chaganingiz uchun ham «suxoy poyok», ya'ni, biror yengil
taomlar bilan tamaddi qilishga majburman deb o'ylaysiz.
Aslida esa, o'qish kabi intellektual ishlardan charchab qay-
tgan paytingizda o'qishdan boshqa ishlarga chalg'ish sizga
katta yordam berishini bilasizmi? Shulardan biri – bu taom
tayyorlashdir. Inson o'ziga taom tayyorlayotgan paytda pi-
choq qo'limni kesmasin, ko'zim achimasin, to'g'ri to'g'ray
degan ma'noda butun diqqatini taom tayyorlash jarayoniga
qaratadi. Bu esa sizga biroz bo'lsa-da, intellektual ishlardan
chalg'ib, hordiq chiqarishga imkon beradi. Buni, albatta,
qilib ko'ring va mumkin bo'lsa, haftada kamida ikki marta
o'zingiz va do'stlaringizga taom tayyorlang.

Ikkinchi mulohazam esa, yaponlar *bento* deb nom-
laydigan, ishga va o'qishga uylaridan olib keladigan taom-
ga e'tibordir. Hozirda «take out, take away» kabi tashqari-
dan pitsa kabi taomlarni buyurtma berish yurtimizdagi katta
shaharlarda urf bo'layotganini eshityapman. Ammo ham
mablag'ni, ham taom xavfsizligi va sifatini saqlash maqsadi-
da uydan o'zimiz uchun taom tayyorlab, ish va o'qishga olib
kelish, hali yurtimizda ko'p urfga kirmadi. Ba'zan bu biroz
erish tuyulishi ham mumkin. Chet ellarda esa buning hech
qanday uyati bo'lmay, talabalar o'zlarining tushligi uchun
yemoqchi bo'lgan taomlarini uylarida pishirib olib kelisha-
veradi. Hech kim ularning ustidan kulmaydi. Hatto, ko'pchilik
professorlar kabi, men ham rafiqam tayyorlab bergan
mazali taomlarni tushligim uchun olib kelaman. Mablag'im
va tashqariga chiqib o'tkazadigan vaqtim ham tejaladi.

Aytmoqchi bo'lganim shuki, ba'zi talabalar moddiy
mablag'i yetishmaganligidan tushlikka do'stlari bilan ham

chiqmaydi, o'z vaqtida uyiga qaytib tushligini yoki kechki taomini ham yemaydi. Bu esa katta xatodir. Agar moddiy imkoniyatingiz yetmasa, qimmat tamaddixonalarga (restoranlarga) tushlikka chiqishdan ko'ra, biroz kattaroq portfel sotib olib, uning ichida alohida ovqat qutichasiga joy ajratib qo'ying. Choyingiz ham bo'lsin. Darslar tugagach, biror-bir dars xonasida bemalol o'tirib, tamaddi qilib olaverasiz. Shunday «ulfat» do'stlardan orttirib olsangiz, xijolatchilik ham yo'qoladi. Boshqalar ham botirlashib, sizlarga qo'shilishni boshlaydi.

Uchinchi mulohazam esa, «Rolton» kabi yarim tayyor mahsulotlarni haddan ziyod iste'mol qilishdan saqlanish haqida. Tobora yoyilayotgan jozibali Internet, do'stlar bilan vaqt o'tkazish, uxlash va erinchoqlik kabi holatlar bizni sifatli taomlanishdan to'suvchi kuchli omillar sirasiga kiradi. Shunday ekan, kelajakda sog'lom farzand ko'rishni istasangiz, tanangiz sihatini o'ylasangiz, bunday yarim tayyor mahsulotlardan iloji boricha uzoq turing. Kelajakda albatta uning foydasini ko'rasiz.

Meni tashvishga soluvchi eng oxirgi masala – ijara turganlarning bir-biri bilan munosabatining buzilishi natijasida talaba ovqatlanish holatining yomonlashuvidir. Istaymizmi yo'qmi, hozirda aksariyat talabalar katta shaharlarda ko'pchilik bo'lib ijarada yashashadi. Garchi, ijara haqining o'rtada bo'lishilib, kamayishida buning roli katta bo'lsa-da, boshqa tomondan, ijarada yashayotgan uyda kim, qaysi kuni, qanday taomni pishirishi masalasi eng ko'p nizo keltirib chiqaruvchi holatlardandir. Buni yashirishning hojati yo'q. O'zimning ham boshimdan o'tgan. Kimdir ovqat qilishga no'noq, kimdir esa tayyoriga ayyor. Kimdir faqat ijara haqini to'lab, ovqat pishirish uchun bozorlikka umuman pul qo'shmaydi. Juda tanish holatlar, shunday emasm, talaba do'stim? Garchi talaba qizlarimizda bunday holat kam kuzatiladi deb taxmin qilsam-da, lekin o'g'il bolalar holatida bunday mojarolar kunora yuz beradi.

Xo'sh, bunday holatda nima qilish kerak? ***Avvalo, sizning sog'lig'ingiz eng avvalo o'zingizga kerakli***

ekanligini va bu siz uchun juda ham qadrli ekanligini unutmang. Burgaga achchiq qilib, ko'rpaga kuydirilmaydi. Agar ovqat pishirish navbatchiligi kelgan sherigingiz o'z vaqtida qilmadimi yoki kechiktirdimi, ko'p siqilmang. Yoniga kirib yoki uning o'rniga o'zingiz ovqatni pishiravering. Sherigingizga esa bunday holat yaxshi emasligini, bu ham bir kelishuv ekanligini muloyimlik bilan eslatishga harakat qiling. Agar sherigingiz ovqat qilishni yoqtirmasligini aytib bahona qilsa, unda uyni tozalash, bozorlik va uydan chiqindilarni chiqarish kabi bir necha majburiyatlarni uning yelkasiga yuklab, muvozanatni ushlab harakat qiling. Agar hamxonangiz taom tayyorlamasa, siz aytgan taklifga ko'nmasa va bunday holat takror-takror yuz berib, sizning o'qish va rejalaringizni buzib yuboraversa, unda o'sha joydan chiqing yoki yotoqxonada xona almashitiring. Bundan boshqa chora yo'q. O'zgaralar xafa bo'ladi deya sog'lig'ingizni, aziz joningizni qurbon qilmang. Siz hali oilangizga va vatanga keraksiz.

13-tavsiya: XORIJIY TIL, XORIJIY TIL VA YANA XORIJIY TIL. NEGA?

Ularning nechtasini va qay darajada bilishimiz lozim?

XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan globallashuv jarayonlari nafaqat kapital, balki tovarlar, xizmatlar va hatto insonlarning ham chegara osha boshqa davlatlarga turli maqsadlarda borib-kelishini haddan ziyod kuchaytirib yubordi. Birgina yurtimizning o'ziga 2019-yilda 6 748 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan*. Bu esa chet el mamlakatlari, u yerlardagi insonlar va u yerdagi global shirkatlar bilan faol aloqaga kirishishimiz lozimligini taqozo etadi. 2016-yildan keyin boshlangan ochiqlik va faol tashqi iqtisodiy siyosatimiz ham bunga yaqqol dalildir. Bunday aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yish uchun esa nafaqat davlatimizdan (aslida davlatni ushlab, korib bo'lmaydi, balki uni boshqarayotgan insonlar va tashkilotlar misolida sezish mumkin xolos), balki jismoniy shaxs va tashkilotlardan ham chet tillarini kerakli bilish talab etiladi.

O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari orasida hali-hamon Rossiya va Qozog'iston kabi rus tilida so'zlashuvchi davlatlarni ko'rish mumkin bo'lsa-da, biz keyingi yillarda Xitoy, Janubiy Koreya, Arab davlatlari va Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirayotganligimizni sezayotgan bo'lsangiz kerak, shunday emasmi? Unday bo'lsa, har bir talaba o'zining oltin yillarida rus tilidan boshqa chet tillarini, albatta, o'rganishi lozim**.

* «Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi 2019-yilda sohani rivojlantirishga doir amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot berdi», 10.01.2020.<https://uzbektourism.uz/news/view?id=964>

** Rus tili hali-hamon lingua franca sifatida sobiq Sovet davlatlari hududida o'z mavqeyini to'raligicha yo'qotmagan bo'lsa-da, rivojlangan jahon tillaridagi adabiyotlarga nisbatan rus tilida yozilgan ilmiy adabiyotning kamligini aytib o'tish joiz.

Chet tillari, ayniqsa, *ingliz, nemis, fransuz, xitoy, koreys va yapon tillari* talabalik yillaringizda ham, jamiyatda o'z o'ringizni topishingizda ham juda salmoqli rol o'ynaydi.

Isbotlab beray:

– Xorijiy firmalar va tashkilotlar ko'pincha mahalliy firmalardan ko'ra yaxshiroq oylik maoshi to'lashi hammaga ma'lum. Shunday ekan, chet tilini o'rganishga e'tibor qarating.

– Davlat lavozimlarini egallab turgan mulozimlardan ham tobora chet tillarini yaxshi bilish talab etilmoqda. 2021-yil may oyidagi yig'ilishlardan birida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham maktab bitiruvchilari kamida ikki tilni bilishlari kerakligini vazifa etib belgiladilar.* Chunki, investitsiya, savdo, moliya va turizm sohalarini rivojlantirish uchun chet ellik hamkorlarning tili va bu orqali, ularning madaniyatini bilish nihoyatda katta rol o'ynaydi. Tanilgan davlat tashkilotlarida ishlamoqchimisiz, unday bo'lsa chet tilini o'rganing.

– Xorijiy universitetlarda o'qish uchun ham, yo o'sha davlatning tili yo'ki bo'lmasam, ingliz tilini mukammal o'rganish talab etiladi. Xorijdagi nufuzli oliy o'quv yurtida o'qimoqchimisiz, unda 1-kursdanoq chet tiliga jiddiy e'tibor qarating.

– Eng oxirgi sabab – bu men uchun juda ham muhim – ona tilimizda sifatli adabiyotlarning hali-hamon yetishmayotganligidir. 2019-yilda Kun.uz internet nashri uchun ham yozganimdek, ingliz, nemis va yapon tillarida har bir soha boyicha siz tasavvur qilmaydigan darajada ko'p sondagi, rang-barang va o'ta sifatli adabiyotlar yozilgan va hali-hamon yozilmoqda.** Ammo, afsuski, ona

* <https://www.gazeta.uz/uz/2021/05/06/videoselector/>

** Alisher Umirdinov, «Oliy ta'limda «katta sakrash» uchun ishni nimadan boshlash kerak?», 14.10.2019. <https://kun.uz/uz/news/2019/10/14/oliy-talimda-katta-sakrash-uchun-ishni-nimadan-boshlash-kerak>

tilimizda bunday tarjima ishlari olimlar va tegishli davlat organlari beparvoligi tufayli oqsamoqda. Ammo talabalik davri ushbu kitoblarning to'la tarjima qilinishini kutib tura olmaydi. Sizda faqatgina 4 yil bor, xolos. Agar ushbu muddatdan chet tilini o'rganish davrini chiqarib tashlasangiz, u kamida yarmiga qisqaradi. Shunday ekan, chet tilini tezroq o'zlashtirib (eng kamida birinchi o'qishni o'rganish lozim, so'zlashni emas), ayniqsa ingliz tilida yozilgan adabiyotlar bilan avvalroq tanishishni qattiq tashviq qilib qolaman.

Faqat diqqat qiling. IELTS kabi xorijiy til imtihonlaridan ba'zan yuqori ball olgan talabalar ham o'sha tilda yozilgan o'zlarining sohasiga doir kitoblarni tushunib mutolaa qila olmaydi. Buning sababi oddiy. Har bir soha bo'yicha alohida terminologiya shakllangan. Sohadagi atamalarining ma'nosini chuqur bilmasdan, o'sha sohani o'zlashtirish har bir insonda katta qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham til – bu bilim emas, balki, yangi bilimlar uchun bir ko'nikma (yoki vosita) xolos. IELTSdan 7 ballni olib, olim bo'lib qolmaysiz. Asosiysi, sertifikatni olgandan keyin, siz do'stim, o'sha o'rgangan til ko'nikmalaringizni yangi bilimlarni o'zlashtirishda qay darajada qo'llay olasiz (?), hammasi shunga bog'liq. Demak, til sertifikatini qo'lga kiritish bu maqsad emas, balki maqsad sari boshlang'ich bir qadamdir. Shunday ekan, til ko'nikmangizni shakllantirib, ma'lum darajaga erishgach, kutib o'tirmay sohangiz bo'yicha yozilgan kitob yoki video materiallardan foydalanishni boshlang. Shunda, siz o'zlashtirgan til ko'nikmalaringizdan amalda foydalana olasiz.

Xorijiy tillar soni bo'yicha alohida tavsiya qilishdan qochishni ma'qul ko'rsam-da, faqat ingliz tili bilan kifoyalanish menimcha to'g'ri emas. Hozirgi dunyoda raqobat shu darajada kuchliki, siz faqatgina ingliz yoki rus tilini mukammal bilish bilan, mehnat bozorida alohida ajralib tura olmaysiz. Balki ingliz tiliga qo'shib, yana bir chet tilini bilish orqali mehnat bozorida o'zingizni noyob mutaxassis ekanligingizni namoyish qila olishingiz mumkin. Shu sababli, masalan,



London (Angliya).
2013-yil, kuz.

ingliz-fransuz, ingliz-nemis, ingliz-koreys, ingliz-xitoy yoki ingliz-yapon kabi variantlarda tillarni o'zlashtirishni tavsiya qilaman. Bundan tashqari, urdu va fors tillariga ham alohida e'tibor qaratishni maslahat beraman. Shaxsan o'zim esa ingliz-yapon tillarida bemalol so'zlashib, akademik darajada o'qiy va yoza olaman.

Imkoniyatni har doim izlash kerak. Shaharda gidlik qilsangiz yoki xorijlik mehmonlar bilan gaplashish uchun ham harakat qilsangiz bo'ladi. Uyalishga hojat yo'q. «Alibaba» guruhining sobiq sardori xitoylik milliarder Jek Ma hikoyasini eslab ko'ring-a? U inglizlar bilan muloqot qilish uchun har kuni ertalab, o'zi yashaydigan shahardagi mehmonxona oldiga borib, sayyohlarga shaharda bepul aylantirish uchun o'zining gidlik xizmatini taklif qilgan. Tasanno! Siz ham shunga o'xshash o'zingizga xos yo'lni topishingiz mumkin. Asosiysi, yoningizda turib sizni masxara qiladigan yoki «o'xshamadi-ku!» deya sizni yo'lingizdan to'sadigan «yaroqsiz» do'stlardan ehtiyot bo'lsangiz, bas.

14-tavsiya: MUTOLAANI QANDAY KITOB DAN BOSHLASH KERAK?

Talabaga hamma kitob o'qishni tavsiya etadi. Ammo kitobga, ayniqsa, jiddiy mavzularda qalamga olingan kitoblarga birdaniga oshno bo'lish bir kecha-kunduzda bo'ladigan holat emas. Unda qanday qilib, bir necha yuzlab sahifalik kitoblarni bir haftada bemalol tugata oladigan holga kelish mumkin?

Albatta, sizga eng qiziqarli janrdagi kitoblarni tanlagan ma'qul. Agar o'sha janr kitoblari siz o'qiyotgan sohadan tubdan farqli bo'lsa ham hech qisi yo'q. Mening taklifim esa badiiy adabiyotdan boshlash lozim. Bunga shubha yo'q. Chunki u qiziq bo'lganligi hamda yengil o'qilishi uchun ham o'qib charchaganingizni sezmaydiz. Kitob ichidagi turli badiiy va tarixiy qahramonlarning kelib chiqishi va voqealar rivoji sizni yana qaytadan uni varaqlashga da'vat etadi. Ayniqsa, maktab paytida to'liq o'qiy olmagan asarlarni qaytadan ko'zdan kechirish maqsadga muvofiq.

Shu sababli, avvalo, 50 ga yaqin badiiy adabiyotlarni o'qib chiqishni tavsiya qilaman. Agar yashash joyingizga yaqin manzilda kutubxona bo'lsa, u yerdan kitob oling. Bo'lmasa, shaxsiy kutubxonangizni tashkil qilishni boshlab, badiiy kitoblarni xarid qiling. Unga ham imkoniyatingiz yetmasa, Ziyouz.com kabi onlayn kutubxonalardan pdf shaklini o'qib chiqing.

Albatta, ba'zan badiiy adabiyotdan kishi bezi-shi ham mumkin. Masalan, Yaponiyaga kelgach negadir jiddiy mavzudagi kitoblar, ayniqsa, tarix, siyosat va iqtisod haqidagi ilmiy kitoblarga bo'lgan qiziqishim haddan ziyod ortdi. Qay darajada bilmasligimni, kam o'qiganligimni seza boshlab, badiiy adabiyotga nisbatan sustkashlik paydo bo'ldi. Bu ham yaxshi emas, ammo muhimi shundaki, ungacha men allaqachon, kitob o'qish odatini o'zlashtirib bo'lgandim.

Har oyda 3 tadan kam kitob o'qimaslikni tavsiya qilaman. Ertalab barvaqt uyg'onib, achchiqqina qahva hamrohligida 1 yoki 2 soat diqqat bilan kitob o'qish va bunda bardavom bo'lish sizga har oyda 3 tadan ham ko'p kitob o'qish imkonini beradi.

Chet ellarda «pocket book» nomi bilan chiqariladigan va cho'ntagingizga bemalol joylansa bo'ladigan kichik hajmdagi kitoblar ko'p chiqariladi. Ularni olib yurish va o'qish juda ham qulay. Yurtimizda bunday kitoblarni ham o'quvchilarga taqdim etishga harakat qilinayotganidan xabarim bor. Demak, sumkangizda doimo kitob olib yurish mutolaa qiladigan kitoblarni tezroq tugatishingizga imkon beradi. O'qishdan boshqa jiddiy ishingiz bo'lmagan talabalik davrida oyiga 3 ta kitob o'qimayapsizmi? Demak, siz sohangiz sari chuqurlashmayotgan ekansiz!

15-tavsiya: KITOB O'QISH SAYOHATLARIGA CHIQUING

Bizda kitob o'qish deganda hamma bir burchakka borib, jimgina o'qish va undan keyingisiga tezroq o'tish tushuniladi. Aslida esa kitobni boshqalar bilan tahlil qilib o'qish orqali siz sezmay qolgan muhim joylarni va fikrlarni do'stlaringizdan bilib olasiz.

Shunday ekan, kitob o'qishga qiziquvchi do'stlaringiz bilan toqqa yoki biror do'stingizning uyiga jamlanib, kitob o'qish sayohatlarini yoki kitob davralarini tashkil qiling. Bunday sayohatlarga agar taklif qilinsangiz, albatta, boring.

Yaponiyada professorlar har semestrda bir marta o'z talabalari bilan tog' qo'yniga yoki dengiz qirg'oqlaridagi mehmonxonalaridan biriga borib, u yerda 1 kecha 2 kunduz qolib, talabalari bilan ilmiy munozara va kitob o'qish dasturlarini tashkil qilishadi. Ba'zan, xonadoni katta professorlar talabalarni o'z uylariga ham chaqirishadi.

Shakli quyidagicha bo'ladi: asosan biror ilmiy yoki badiiy kitob tanlanadi va barcha qatnashuvchilar uni oldindan sotib olib, bir qismini o'qib kelishadi. Turadigan joy – mehmonxonami yoki biror professorning uyimi, u yerga bor-gach, yana kitob o'qish davom ettiriladi. Bir kun ichida kamida 3 marotaba kitobning ma'lum sahifalarini tahlil qilish uchun sessiyalar uyushtiriladi. Bunda moderatorlikni biror katta kursdagi talaba yoki professor olib borishi ayni muddao. Muhimi, o'rtaga tashlangan masalalar bo'yicha har bir ishtirokchining (yaxshimi-yomonmi) mulohazalarini bayon qilishga imkon berishdir. Munozaralar tugagach, professor yoki iqtidorli talaba har bir bahsga chiroyli tarzda yakun yasab beradi.

Kitobni do'stlaringiz bilan yoki mumkin bo'lsa, uning muallifini taklif qilib birgalikda muhokama qilish zehningiz ortishiga sababchi bo'ladi. Fikrlash doirangiz kengayadi. Kursdoshlar bilan hamma o'qigan masalada konstruktiv –



foydali munozaralar qilish esa sizning dunyoqarashingizni boyitib, bilim saviyangiz qay darajadiligini o'zingizga oynadek ravshan qilib ko'rsatib qo'yadi. Bunday talabanning endi yanada ko'proq mutolaa qilishiga shubha yo'q.

Bu masaladagi so'nggi mulohazamni bayon etsam. Garchi, ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlarimizning turli guruhlari borligiga onda-sonda ko'zim tushsa-da, ularning aksariyati badiiy adabiyot ixlosmandlaridir. Kitob o'qish sayohatlari uchun badiiy adabiyotdan ham ko'ra, ilmiy adabiyotlarni tanlash yanada maqsadga muvofiq. Chunki ilmiy adabiyot yanada chuqurroq va jiddiroq o'ylashni, shuningdek, iloji boricha kitobdagi muallif nuqtayi nazarini anglashda xatolikka yo'l qo'ymaslikni talab etadi. Bunday kitoblarni esa jamoa bo'lib o'qish va tahlil qilish ayni muddaodir.

Kitob o'qib charchagach nima qilish kerak deysizmi? Do'stlaringiz bilan fikrlash doiralarini kengaytirib bahslashgandan so'ng, toliqqan miya bilan daryoning bo'yiga chiqib, bir soat yugurib kelishga nima yetsin! Biror istirohat bog'ini aylanib kelish ham yomon fikr emas. Yoki dengizga sakrash! (*Hech unutmayman, Yaponiyaga yangi kelgan paytimizda sho'xlik qilib, 27-mart kuni ob-havo juda sovuqligiga qaramasdan Tinch okeanida cho'milgan edik.) Yoki bo'lmasa, do'stlar bilan birgalikda kabob pishirish. Buning gashti, albatta, boshqacha. Siz ham bir sinab ko'ring, qanchalik zavqli ekanligini bilib olasiz.

16-tavsiya: SHAXSIY KUTUBXONANGIZNI SHAKLLANTIRING

Ushbu tavsiyam yuqoridagi «Kitob o'qish sayohatlari» haqidagi tavsiyamning uzviy davomchisidir. Pandemiya avval bir odatim bor edi: uni pandemiya tugagach yana boshlamoqchiman. Dunyoning qaysi aeroportiga borsam, kitob do'koniga albatta kirib yaxshi kitoblardan xarid qilardim. Frankfurt, Narita va Incheon aeroportlari kutubxonalarini mening favoritlarim qatorida. Rang-barang dizaynga ega bunday kitoblarning shaxsiy kutubxonamdan joy olishi va ularga har kuni qarash menga rohat bag'ishlaydi.

Talabalik davrida siz turlicha kitoblar bilan yuzlashasiz. Huquqshunos bo'lsangiz, huquqning turli sohalarini, pedagog bo'lsangiz qanday o'qitish va ta'lim-tarbiya sohasiga oid yozilgan kitoblar oldingizga chiqadi. Vaqtingiz mo'l bo'lganidan kitob do'konlariga ham kirishga imkon topasiz. Shunday ekan, oilangiz tomonidan beriladigan mablag' va stipendiyangizning bir qismini kitob fondi uchun ajratib, albatta kitob xarid qilishga harakat qiling.

Yaxshi xabar shuki, jahon standartlariga qiyosan yurtimizdagi kitoblar hali-hanuz ancha arzon sotiladi. Misol uchun bizda Asahiy Books loyihasi tomonidan tarjima qilinib, nashr etilayotgan kitoblarni Yaponiya davlatida deyarli 8–10 barobar qimmatga sotib olasiz. Shunday ekan, har oyda bo'lsa ham kitob xarid qilib, shaxsiy kutubxonamizni yaratishni maqsad qilaylik.

Ba'zilar quyidagicha savol tug'ilishi mumkin: *Kitoblarning elektron namunalari e'lon qilinayotganda, atayin pul sarflab kitob sotib olish shartmi?* Albatta shart. Avvalo, har narsaning qadri pul bilan o'lchanavermaydi. Lekin pulga sotib olingan narsaning qadri bo'ladi.

Ikkinchidan, elektron kitoblarni aksariyat talabalar uzoq muddat kompyuter yoki smartfon ekraniga tikilib o'qiy olmaydilar. Garchi kitob bozoriga bo'lgan ta'sirini rad qila

olmasak-da, nashr etilgan kitoblarni sotib olib o'qish, hali-hamon katta miqyosda davom etmoqda. Shunday ekan, osonlik bilan o'zingizni o'zingiz aldab yurmang.

Uchinchidan, elektron kitoblarni siz ko'rmaysiz, ular doimo elektron shaklda, kompyuteringizni allaqayeridagi fayl ichida ochilmay yotadi, sizni KUTIIB. Ammo bosma nashrdan chiqqan kitob doimo kitob javoningizdan mo'ralab, meni yana qachon varaqlaysan deya sizga termilib turadi. Va bu har kuni takrorlanadi. Shunday ekan, bosma nashrlardan foydalanish kitob o'qish va kitob muhitiga kirishni osonlashtiradi.

To'rtinchidan, kitob o'qishga oid sayohatlar ruknida ham aytganimdek, kitoblarni chizib, ularning hoshiyasiga o'z fikrlaringizni qoldirib oqish juda qulay. Elektron kitoblarda siz buning uchun alohida dasturni o'rnatishingiz talab etiladi.

Xullas, talaba do'stim, bosma nashrlardan ko'proq foydalaning. 4 yillik muddat davomida har oyda bir dona bo'lsa ham kitob xarid qilib, shaxsiy kutubxonangizni shakllantirib boring. (*ammo oyda 3 dona kitobni o'qishni aslo kanda qilmang) Ishoning, universitetni tamomlagandan keyin ham bu kutubxona sizga, albatta, asqotadi. Chunki oliygohdagi darsliklarda bitilgan barcha ma'lumot va tahlillarni yodlab qolishimiz mumkin emas.

17-tavsiya: PLANSHET SOTIB OLIB KAMIDA 200 TA KITOBNI O'QING

16-raqamli tavsiyamga qaramay, bir guruh kitobxonlar kerakli kitoblar sotuvda yo'qligini ro'kach qilib, ularning elektron shaklini o'qish uchun aqlli telefon(smartfon)lar kerakligini da'vo qilishlari mumkin.

Aqlli telefonlar bozori tobora qizimoqda. Talabalarimiz esa ushbu qimmat bozorning eng saxiy mijozlari, desak yanglishmagan bo'laman, shunday emasmi? Axir, umr davomida bir marotaba o'qishga kiriladigan bo'lsa, 1000 dollar sarflab bitta smartfon olish nima bo'libdi?

Lekin talabalarimiz hali-hamon kitoblarga kelganda kamxarj ekanligi statistik ma'lumotlarda ko'rinib turibdi. Nega talaba aqlli telefonga deyarli 50 ta juda sifatli kitobning pulini sarflaydi-yu, ammo shuncha kitobni sotib olmaydi? *Axir muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan talabaning eng muhim usuli – bu jiddiy mavzuda yozilgan ko'p kitob o'qish emasmi?*

Smartfonlarda ham kitoblar ko'p o'qilishiga, kamina, sira ishonmayman. Smartfonlar aloqa vositasi va video manbalarni ko'rish vositasi bo'lib qolganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, mening talaba do'stim, sizga radikal bir tavsiyam – ochilib yopiladigan, arzongina telefon bilan kifoyalaning. Uning o'rniga esa planshet sotib olib, unda kitoblar o'qing.

Misol uchun, o'zim ham smartfon ishlatmayman. Ochilib yopiladigan telefondan foydalanaman. Vaholanki, «iPhone» smartfonim ham bor. Ammo meni ko'p chalg'itgani uchun undan voz kechganman. Sizga ham shuni tavsiya qilaman. Smartfondan voz keching. Telegramni ham «iPad» yoki «Android» planshetingizga o'rnatib oling. Planshetda javob yozish biroz noqulay bo'lganligi uchun Telegramda ham ko'p vaqt sarflamaysiz. Bundan tashqari, planshetlar telefonlar kabi ekrani kichik va ko'zni charchatuvchi bo'lmaydi.

Ularning hajmi ham katta bo'lib, turli dasturlar orqali minglab kitoblarni sig'dirish mumkin.

Agar aqlli telefondan ajralishga ko'zingiz yetmasa-chi? Unda o'rtamiyona planshet (gadjet) sotib olib, yurtimizdagi bepul onlayn kutubxonalarda ko'proq vaqt o'tkazing. Mubolag'a qilmayman: ushbu onlayn kutubxonadan chiqqach, umuman o'zgacha inson bo'lib yetishasiz.

Bizda «*Ziyo istagan qalblar uchun!*» shiori ostidagi dunyodagi eng qimmatli milliy onlayn kutubxona bor: www.ziyouz.com Bilasizmi uni? Bunday kutubxona bilishimcha, dunyoda yo'q. Bizning olimlar va davlat tashkilotlarimiz shu darajada saxiyki, barcha kitoblarni pdf shaklida chiroyli qilib, bepulga internetga joylab qo'yishaveradi. Dunyoning hech bir yerida yurtimizdagichalik mahally mualliflarning kitoblari erkin o'qish uchun internet saytlariga yuklanib qo'yilmagan. Bularga misol qilib, Ziyouz.com, Milliy huquqiy portallarni keltirishimiz mumkin. Ularda esa minglab muhim adabiy va ijtimoiy kitoblar mavjud. Vaholanki, Yaponiyada buni umuman qila olmaysiz. Mualliflik huquqi deya sizni aybdor qilishadi. O'zim ham kitob tarjimasiga oid loyihalarni amalga oshirib, intellektual mulkning Yaponiyada qay darajada kuchli himoya qilinayotganligining guvoh bo'lganman.

18-tavsiya: MUALLIF MEHNATINI QADRLANG

Soham bo'yicha kitob yozishni boshlagach, juda ko'p talabalar mendan uning elektron namunasini tashlab berishimni iltimos qila boshlashdi. Hatto bir universitet kutubxonasi, muallifdan so'rab ham o'tirmay, kitobimni skaner orqali elektronlashtirib, o'z elektron kutubxonasiga joylashga ulguribdi. Tezkorliklariga qoyill!


Ammo hozirgi dunyo bunday qaroqchilikni ko'tarmaydi. Biz yaqinda Jahon savdo tashkilotiga qo'shilamiz, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreya bilan savdo shartnomalari tuzamiz. Ana unda intellektual mulk himoyasi boshqa davlatlar ko'z o'ngida kuzatilib boriladi. Agar biz boshqalar intellektual mulkini – aqliy mehnat mahsulotini so'ramay, qaroqchilarcha olaversak, unda bizga sifatli kitob yozib, undan qalam haqi kabi rag'batlantirish oladigan olimlar yurtimizda anqoning urug'i bo'lib qoladi. Intellektual mulkni ishlab chiqarishga, kino olish, kitob yozish, qo'shiq aytish va rasm chizishga doir rag'bat susayib ketadi. Natijada Jahon savdo tashkilotiga kirgandan keyin faqatgina iste'molchi bo'lib, «Microsoft» shirkatining qimmat dasturlarini sotib olib, qiynalib yuraveramiz. Chet el firmalariga iste'molchilikda zo'r bo'lamiz-u, o'zimizning mahalliy ishlab chiqaruvchilar – intellektlar tomonidan ishlab chiqarilib, sotiluvchi asarlar va xizmatlar qadriga yetmaymiz. Bu chidab bo'lmas holatdir.

Shu sababli, talaba do'stim, sizning ilm-fan va ustozlaringizga qiladigan eng katta yordamingiz – ularning intellektual mahsulotini sotib olishingizdir. Ana shunda ular sizga yana ham yaxshiroq kitob yozib berishadi. Novvoy nonini bepul bermasa, bog'bon o'rigini pulga sotsa, bozordan kiyimlarni ham haqini to'lab olsag-u, olimlar kitobini og'irlab ishlatsak, unda bu qanday bo'ladi?!

Yaxshi eslayman: 2008-yilda Yaponiyada ilk kompyuterimni olganimda «Microsoft» dasturini o'rnatishim kerak

bo'lgandi. Atrofimdagi deyarli barcha o'zbekistonlik talabalar yo kompyuter bilan birga sotib olgan yoinki O'zbekistondan qaroqchi dasturlarni ishlatishardi. Mening 150 AQSh dollari miqdorida «Microsoft» dasturini sotib olishim hatto Yaponiyada o'qiydigan o'zbekistonlik talabalar-ni ham hayratlantirgandi. Biroq talabalik davrimda bunday katta miqdordagi(*eng kamida talaba uchun) mablag'ni boshqa insonlar va firmalar egalik qiluvchi intellektual mulk huquqiga bir huquqshunos o'laroq o'z hurmatimni ifodalash belgisi sifatida sarflagandim. Hozir ham ortga burilib, qachon shu voqeani eslasam, doimo kayfiyatim ko'tarilib, o'sha ishimga nisbatan faxrlangim keladi.

Shunday ekan, kitobning elektron namunasini bepulga hech qachon so'ramang. Undan ko'ra, xoh elektron, xoh kitob shaklida sotib oling va ilmga o'z hissangizni qo'shing. Qaroqchi emas, ishlab chiqaruvchi yoki uni qonunga muvofiq iste'mol qiluvchi bo'ling. Halol yashang.



Londonning universitetlar bilan qurshalgan markaziy maydonidagi «Waterstones» kitob do'koni, 2017-yil.

19-tavsiya: IJTIMOIY TARMOQLARNI TARK ETING

Shu paytgacha aytganlarimga erishish uchun, albatta, talaba do'stlarimizdan ba'zi bir kichik «qurbonliklar» talab etiladi. Ularning boshida nima keladi, bilasizmi?

Aynan hozirgi kunlarimiz uchun ijtimoiy tarmoqlardan chiqish, ularning keraksizini yopib tashlash va eng lozimlari bilan qanoatlanish talab etiladi. Oramizda, nafaqat Facebook, balki Telegram, Instagram, TikTok, Twitter kabi bir qancha tarmoqlarni har kuni soatlab kuzatuvchi, layk bosuvchi va YouTube'ni ko'p tomosha qiluvchi do'stlarimiz kam bo'lmasa kerak. O'zim ham Facebook va LinkedIn tarmoqlaridan foydalanaman va yurtdoshlarim bilan aloqada Telegramni ishlataman. Shunga qaramay, ularda soatlab o'tirmayman. Asosan, tanishlarim bilan aloqani ushlab maqsadida foydalanaman.

Ammo keyingi paytlarda ulardan doimiy ravishda foydalanuvchi yoshlar ommasi paydo bo'ldi. Vaholanki, eng aqlli marketologlar va IT bilimdonlarini o'zlarida topilgan ushbu ijtimoiy tarmoqlar, ishonig, sizni u yerda ushlab turish uchun bor imkoniyatlarini ishga solayotganliklarini bilasizmi? Ijtimoiy tarmoq sohasidagi shirkatlarga qarang, ularda eng kuchli insonlar ishlaydi. Ular nima ish qilishadi, deya hech o'ylab ko'rganmisiz? Ular o'sha platformani iloji boricha «addiktiv», ya'ni o'ziga o'rgatuvchan qilishga ertayu kech harakat qilish uchun yollanganlar. Shunday ekan, o'zingizni ijtimoiy tarmoqlardan qat'iy himoya qiling. Ha, ha, adashmadingiz. U yerdagi reklamalardan tushadigan daromadni yanada ko'paytirish uchun ular sizni tobora ko'proq muddat ijtimoiy tarmoqlarda ushlab turishni istashadi. Chunki ushbu tarmoqlarning egalari asosan siz kabi iste'molchilar ko'lami ko'p vaqt davomida kuzatuvchi reklamalardan boylik orttirishadi.

Natijada esa, turli xil yangi va qiziq audio, video va boshqa vizual ma'lumotlarni joylash orqali ushbu ijtimoiy

tarmoqlar bizning yoshlarimizda xotira tarqoqligini keltirib chiqarmoqda. Bu esa shundoq ham xotirini bir joyga jam qilib, ma'lum bir foydali ishga diqqat qila olmayotgan yoshlarimizning ishlarini sifatsiz ahvolga olib keladi. Masalan,

- O'rganayotgan bilimlarimiz xotiramizda qolmaydi;
- Yodlash xotiramiz zaiflashib ketadi va tozalik hususiyatini yo'qotadi;

- Bir narsaga diqqatni jamlab, uzoq muddatli va chuqur tarzdagi mushohada qilish qobiliyatini yo'qotamiz va yo'qotyapmiz ham;

- Batafsil yozilgan qalin kitoblarni o'qiy olmay, sayoz materiallar bilan cheklanib qolasiz.

Chunki ijtimoiy tarmoqlarda doimiy o'tirish, ularga tez-tez qarash yoki kirib turishning xotiraga ulkan zararlari o'z ilmiy isbotini topib ulgurgan. Hozirgi zamon iqtisodiyoti esa intellektual qatlamga kirmoqchi bo'lgan shaxslardan chuqur fikrlovchi va boshqalar oson takrorlay olmaydigan hunar egasi bo'lishlarini taqozo qiladi. Buning uchun esa odatdagi kompyuter va insonlar bajara olmaydigan chuqur tahliliy qobiliyatga ega bo'lishingiz talab etiladi. Bunga erishish uchun esa talabalarimiz boshqa ishlar va xususan, ijtimoiy tarmoq bilan chalg'imag, to'g'ri va haqiqiy(chunki kitoblardagi ma'lumotlar ular chiqishidan oldin obdon tekshiriladi), chuqur (kitoblardagi tahlillar odatda «sariq matbuot» va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlardan juda ham batafsilligi bilan ajralib turadi) va tizimli (kitoblar har bir masalani tizimli-tartibli yoritishga e'tibor qaratadi) ma'lumotlarni kitoblardan olishga jiddiy e'tibor berishlari shart.

Bu bilan ijtimoiy tarmoqlarni faqat salbiy ma'noda tasvirlamoqchi emasman: o'zim ham Facebook tarmog'idagi do'stlarim yozgan ajoyib fikrlardan ilhom olaman. Telegramdagi ba'zi blogerlar fikrlarini o'qishdan zavqlanaman. Sohanga oid eng yangi ma'lumotlarni ba'zan Facebook tarmog'idan ham topaman. Chunki men a'zosi bo'lgan konferensiyalar Facebook orqali turli tadbirlarni reklama qilishadi. Ammo bunda ham me'yor lozim.

So'zim so'ngida sizlarga quyidagilarni maslahat bera-man:

✓ Tasavvur qilaylik, uyingiz doimiy internet bilan ta'minlangan yoki yoningizda doimiy internet bilan ishlab turgan inson bo'lsa va sizning Youtube-ga kirishingizga qarshi turuvchi irodangiz(willpower) yetarli bo'lmasa, unda kitob, jurnal yoki ilmiy qo'llanmani olib, tashqariga, xiyobonga yoki kutubxonaga chiqib keting. O'sha yerda turib, bir necha soat jiddiy o'qishga etibor qarating. Bunday paytda aqlli telefoningizni aslo yoningizda olib yurmang.

✓ Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish uchun ma'lum bir vaqt belgilang. Shaxsan o'zim, ishdan uyga qaytgach, telefonga qaramayman. Laptopni ochmayman. Oilam va farzandlarimga qarayman, uy ishlariga yordamlashaman.

✓ Ijtimoiy tarmoq bo'lmasa-da, «*internet surfing*» deya ataluvchi internetdagi turli qiziq saytlar ichida ham ma'nosiz kezmaslik uchun kuningizni oldindan tartibga solib, internetsiz vaqtlaringizni ko'paytiring.

✓ Baribir internetga kirib ketyapsizmi? Unda Wi-Fi ni uzib qo'ying, internet simini laptopdan chiqarib tashlang, telefoningizni o'chirib qo'ying. Shunda har safar internetga kirish uchun mayl uyg'onsa, uni qaytadan yoqishga bir-muncha vaqt ketadi. Bu vaqt oralig'ida esa siz yana fikringizdan qaytib, kitob o'qishga yoki universitetdan berilgan vazifani bajarishga kirishasiz.

20-tavsiya: YODLASHDAN FIKRLASHGA QARAB «YURING»

Maktabda sizni «o'quvchi» deb chaqirishadi. Ammo universitetda esa «talaba» deb atalasiz. Nega? Hech o'ylab ko'rganmisiz? Maktabdagi o'quvchi, ustozlar tomonidan «o'qitiladigan» insondir. Universitetdagi talaba esa, ilmni o'zi mustaqil tarzda «talab etuvchi» hisoblanadi. Shunday ekan, sizdan kutubxonaga borib, yoki internet manbalarini titkilab, o'zingiz uchun lozim bo'lgan ma'lumotni chuqur o'rganish asosidagi mustaqil harakat talab etiladi.

Maktabda yodlash asosiy bo'lgan: kim?, qachon?, qayerda?, qaysi modda?, qaysi raqam?, qaysi formula? kabi... Universitetda esa javobi aniq bo'lmagan savollar oldingizga bisyor chiqadi. Shunday ekan, turlicha qarash va fikrlarni eshitish, ularga tanqidiy yondasha olish muhim.

Yodda tuting, olimlar yozgan kitob ularning bir da'volari, xolos. Mutlaqo to'g'ri, degani emas. 10 yildan keyin boshqa olim chiqib, oldingi ilmiy ish yoki kitobning da'vosini-argumentini rad etishi mumkin. Demak, kitob, jurnal maqolasi, hisobot, dissertatsiya va avtoreferatlarni tanqidiy nuqtayi nazardan o'qish lozim.

Tanqidiy ko'z bilan o'qish deganda(critical reading), avvalo kitobni yozgan muallif shu mavzu bo'yicha aytmqochi bo'lgan asosiy fikrni tushunib olasiz. Undan keyin esa:

✓ Muallif o'zi keltirgan dalillar asosida chiqargan xulosasi to'g'rimi?

✓ Boshqa vaziyatlarda ham bunday argument o'tadimi?

✓ Keltirilgan dalillar haqiqatan ham muvofiqmi?

kabi savollarni o'rtaga tashlab, tekshirgan holda o'qib chiqasiz.

Shunday ekan, kerakli ma'lumotlarni yodlab olish bilan birgalikda, imkon qadar o'z sohangizdagi turlicha qarashlarni o'rganishga va ularni tahlil qilishga g'ayrat qiling. Fikrlashni talab etuvchi 2 ta misol keltiraman:

1. Misol uchun ba'zi davlatlarda o'lim jazosi yo'q. Yurtimizda ham o'lim jazosi umrbod qamoq jazosi bilan almashtirilgan. Ammo dunyoning rivojlangan davlatlari, masalan, AQSh va Yaponiyada hali-hamon oliy jazo bekor qilinmagan. Nega? Qanday asoslarga ko'ra?

2. 1980-yillargacha Lotin Amerikasi davlatlari import mahsulotlari o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotni qurishga harakat qilishgan. Ammo natija ular kutgandek bo'lmadi. Janubi-sharqiy Osiyodagi bir qancha davlatlar esa eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ko'proq va sifatliroq ishlab chiqarishga harakat qilishgan. Natijada, Tayvan, Singapur, Gong-Kong va Janubiy-Koreya kabi Osiyo arslonlari yuzaga chiqdi. 1991–2016-yilgacha O'zbekiston qanday sanoat siyosatini tanladi va uning natijalari qanday bo'ldi? 2016-yildan keyingi sanoat siyosati qaysi tomonga burilganligini ko'rsatmoqda?

Nega? Taqqoslang, shubhalaning, aniqlang, so'rab ko'ring, taajjublanning, diqqat bilan o'ylab fikrlang, solishtiring, bahslashing, fikringizni ustozlarga ayting va ularning ham fikrini so'rang. Mana shunda miyangiz rivojlanib, chuqur o'ylaydigan bo'lasiz. Boshqalarga ko'rinmagan tomonlarni ko'ra olasiz. Natijada mehnat bozorida qadrlanuvchi kadruga aylanasiz.

Google xotirasi nihoyatda katta bo'lganligi uchun, endi ma'lumotlarni yodlash bilan kompyuterni sindirib bo'lmaydi. Endigi davrda oldin ko'rilmagan masalalarga nisbatan moslashuvchan holda yondashib, yangicha yechimlar bera oladigan insonlarga ehtiyoj bor. Bunday holatni inobatga olgan holda, Yaponiya hukumati 2021-yilgi universitet imtihonlarini oldingidek variantli test emas, balki kutilmagan vaziyatlardan chiqib ketish uchun beriladigan savollar va yozma esselar tizimiga o'tkazdi. Chunki asrimiz juda ham murakkablashib, rang-barang qarashlarni inobatga olgan holda teran fikrlovchi insonlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shunday ekan, siz ham ko'proq fikrlang.

Ammo fikrlash uchun asosiy oziq modda – kitob o'qish ekanligini unutmang.

21-tavsiya: KUTUBXONACHILAR BILAN YAXSHI MUOMALADA BO'LING


Bilasiz, yurtimizda aksar universitetlarning kutubxonasidagi kitoblar talabalar uchun to'liq ochilmagan. Aksar kitoblar hali-hanuz talabaning qo'li yetmaydigan kitoblar omborida saqlanadi. Vaholanki, rivojlangan dunyodagi kutubxonalaridagi deyarli barcha kitoblar kutubxonalar uchun ochiq tutiladi. Faqatgina tarixiy va noyob asarlarigina maxsus shaklda va sharoitda saqlanishi mumkin. Ularni kirib olish jarayonlari ham o'ta soddalashtirilgan. Afsuski, yurtimizdagi aksariyat oliygohlarning kutubxonalaridagi kitoblar fondi talabalarga ochilmay, siz ularni olib kelishni kutubxonachilardan so'rashingiz lozim.

Yurtimizdagi bunday holat siz talabalardan kutubxonachilar bilan aloqani yaxshi tutishingizni talab etadi. Garchi, keyingi yillarda kutubxonalaridagi kitoblar katalogi elektronlashtirilib, qanday kitoblar borligini osonlik bilan qidirish imkoni tug'ilgan bo'lsa-da, bu qoida o'zgarmaydi.

Chunki har kim ham kutubxonachi bo'la olmaydi. Bu insonning universitetning eng muhim bo'limiga – kutubxonaga kelgan barcha kitob va jurnallardan xabari bo'ladi. Agar siz ular bilan aloqani yaxshi ushlasangiz, istagan kitobingizni olishingiz mumkin, hattó noyob kitoblar yoki yangi kitoblar kelsa, hammadan oldin ular sizga xabar berishadi. Bunga erishish uchun esa ular bilan chiroyli muomalada bo'lishning o'zi yetarli.

Chunki har qanday odam shirin so'zning gadosi. Toshkent davlat yuridik universitetining kutubxonasida 2006–2009-yillarda No'na opa degan ajoyib tatar mil-

Bryussel shahridagi (Belgiya)
eski kitob do'koni,
2019-yil.



Y
BIOGRAPHY

POLITICS

LAW

ATURE

MEDIA

POETRY

PSYCHOLOGY

Q

R

P

L

latiga mansub kutubxonachi bo'lardi. Keyinchalik xastalikdan vafot etgan. Juda qattiqqo'lligidan hatto universitetimiz talabalari ham undan hayiqardi. Ammo u ayolga nisbatan muloyim va samimiy muomala bilan faqatgina kutubxonachilar kira oladigan kitoblar omboriga kirishga ham muvaffaq bo'lganman. Yo'qsa, mening rus tilida so'zlashish qobiliyatim qay darajada yomonligini atrofimdagi hamma bilardi. Ammo Yaponiyaga ketishdan avval ilmiy ish uchun kitoblardan foydalanishim kerakligini harakatlarim bilan ifodalab, bunda qat'iy turganimdan keyin hatto o'sha rahmatli No'na opaning ham ko'ngli yumshagan edi.

22-tavsiya: **KITOB O'QISHNI O'RGANING, CHUNKI** **O'QISHNING HAM TURLARI BOR**

Maqsadga qarab kitob o'qishning bir qator uslublari bor.

Birinchi uslub: ko'z yugurtirish. Kitobning qiyin joylarini, tushunmaydigan joylaringni tashlab, bitirish uchun o'qish lozim. Mundarijasi qanday ekan, kirish qismida kitob muallifi nima degan ekan, har bir bob oxiridagi xulosalarda nimalar yozilgan ekan, kabi. Muhimi, kitobdagi asosiy g'oyani tushunsangiz bo'lgani.

Ikkinchi uslub: mufassal o'qish(hijjalab o'qish). Bunda kitobning kirish qismi, asosiy qism (umumiy va maxsus qism), xulosa qismi kabilarni sinchkovlik bilan Sherlok Xolms durbinida o'qish. Bunda ba'zan to'xtab olishingiz ham mumkin. Hech qisi yo'q, ba'zan kitobdagi ayrim fikrlarni hazm qilish uchun chuqur o'ygga tolishingiz muqarrar. Yoki bo'lmasam, tushunarsiz terminlar yoki yangi atamalar chiqsa, sohaga taalluqli lug'at va ensiklopediyalardan tekshirib, tushunib o'qiladi. Muammosi yo'q.

Ba'zi talabalar, «men kitobni esdan chiqarib qo'yyapman» deya bir necha yil ichida atigi 1 ta kitob ham o'qiy olmagan hollari bo'ladi. Bunday qilsangiz, kitobni o'qiyolmay qolasiz. Muhimi, uzoq muddat ko'zni uzmay kitob o'qishni va albatta uni oxirigacha yetkazish odatini o'zingizda shakllantirishga harakat qiling.

Uchinchi uslub: izlab o'qish. Bunda sizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni topish uchun qidirib o'qish nazarda tutiladi.

Yana bir mulohaza, ba'zilar kitoblarini juda ham toza turishini afzal bilishadi. Lekin nashr ishlari ommalashgan hozirgi paytda qalam bilan kitobning kerakli joylariga o'zingizning fikrlaringizni yozib qoldirish orqali o'qish ham juda foydali. Kitobni bir necha kun, oy yoki yilda yana bir takrorlashni istasangiz, sahifalarda qoldirgan eslatmalarinig evaziga oson topa olasiz.

Aslida men rangli qalamlar bilan yoki bo'lmasa, rangli stikerlar yopishtirgan holda kitob o'qishni xush ko'raman. Albatta, bunga hammaning ham imkoni yetmasligi mumkin, ammo kitobning muhim joylarini belgilab o'qish, ularni keyinchalik yana xotirada jonlantirishda muhim rol o'ynashiga aslo shubham yo'q.

Agar kitobda siz uchun juda ham muhim joylar ko'p uchrasa, unda uni kompyuteringizga emas, aynan daftarga ko'chirib, qayd etish, kitobdagi muhim qismlarning sizning xotirangizda uzoq vaqt yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi. Bu holat esa AQShning Prinston universiteti va Kaliforniya Universitetining birgalikdagi 2014-yilda chiqargan ilmiy ishida isbotlangan.

23-tavsiya: KITOBNI ASRAB EMAS, BALKI CHIZIB-BO'YAB O'QING

Yaponiyada o'qib sezganim shuki, talabalar o'z daf-tarlariga juda yaxshi qaydlar qilish bilan birgalikda, kitob-ning hoshiyalariga va uning maxsus «Qaydlar uchun» de-gan sahifasiga belgilar qo'yishni ham uddalashar ekan. Belgilar rangli, siyohli qalamlar, kitob chetiga yopishtirib qo'yiladigan yopishqich rangli belgilar yoki kichik qaydlar uchun qog'ozchalar bilan amalga oshiriladi. Rivojlangan davlat universitet talabalari bizga o'xshab konspekt yozish-maydi. Ular darsning muhim qisminigina o'z ichiga oluvchi qaydlar qilib borishadi, esdan chiqish oson bo'lgan joyini-gina yozib olishadi, xolos.

Shunday ekan, sifatli daftarlarni o'zingiz uchun sotib olib, har bir dars uchun alohida qaydlar daftari tutishga ha-rakat qiling. Bu sizni o'sha dars uchun bergan e'tiboringiz bo'lib, shunga yarasha harakatlanishga olib keladi. Kitob masalasida esa O'zbekistonda ko'pincha talabalarga kitobga yozishga ruxsat berishmaydi. Bu, menimcha, to'g'ri yondashuv emas. Agar siz kitobni kutubxonadan emas, kitob do'konidan olgan bo'lsangiz, u sizning shax-siy mulkingizga aylanadi. Uni qanday qilib ishlatish sizning ixtiyoringizdagi masala. Odob doirasidan chiqmasdan, al-batta. Ammo kitob hoshiyasiga ba'zi muhim masalalarni yozib qo'yish, mavzuga taalluqli bob ichida qayd etish, yoki kitobda professor-o'qituvchi ta'kidlagan muhim joy-larni qizil qalam bilan belgilab ketish yoki bo'lmasa rang-li flomaster bilan bo'yab borish – talabaniing ixtiyoridagi masalasi bo'lishi kerak. Professor-o'qituvchilarning, garchi u muallif bo'lsa-da, bunga aralashishga haqqi yo'q. Tes-karisi, professor-o'qituvchilar bundan xursand bo'lishi, tala-balarni ham bunga undashi kerak. Chunki maqsad bilim olish ekan, nega professor-o'qituvchilar talabalariga bilim

olishning oson yo'lidan foydalanishga ruxsat bermasligi kerak?

Shunday ekan, siz qaydlar qilish bilan birga, zarur hol-larda kitob ichiga chizib yoki bo'yab o'rganishni ham ud-dalashingiz lozim. Bunda, keyinchalik o'sha kitobni takror qo'lga olganingizda, muhim joylarini yoki siz uchun ahami-yatli qismiga yana bir bor ko'z yugurtirib qo'yishning o'zi sizga kifoya qiladi.

24-tavsiya: **DARS TAYYORLASH USLUBINGIZ VA** **JOYINGIZNI ANIQLAB OLING**

Garchi keraksizdek eshitilsa-da, talabalar uchun eng samarali dars tayyorlash uslubi va joyini barvaqt aniqlab olish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, sizga qanday uslubdagi samarali dars tayyorlash qo'l keladi? Yoki qaysi joylarda dars tayyorlash va diqqatni jamlash osonroq? Shu haqida ertaroq vaqtdan o'ylab qo'ying.

Kutubxona, qahvaxona yoki uyingizda dars tayyorlayotgan paytingizda ma'lum bir uslub-metodga amal qilgan afzal. Uzukkun, betartib o'tirish orqali zerikish paydo bo'lib, keyinchalik bel og'rig'i kabi kasalliklar ham kelib chiqishi mumkin. O'z uslubimni aytsam, odatda 40–50 daqiqa davomida diqqat bilan ishimga kirishaman va undan keyingi 10–15 daqiqa dam olish yoki kichik texnik ishlarga (e-mail yozish, qahva qaynatish, xonamni tozalash, kitobning ma'lum sahifalaridan nusxa olish, narigi binodagi pochta qutichamga qarab kelish) sarflayman. Va bunday siklni kunda 7-8 martagacha olib chiqishga harakat qilaman. O'sha paytda iloji boricha ijtimoiy tarmoq va telefonimga qaramayman. Tanaffus paytida esa biroz yurib kelishim yoki mashq qilishim ham mumkin. Siz talabalarda oila va farzand yuki deyarli yo'q bo'lganligi sababli, bo'sh vaqtlaringiz va kunlaringizda bunday dars qilish uslubi bilan 10 soatdan ziyod o'qiy olishingiz mumkin. Aslida kuniga 5-6 ta shunday sikllarni bajarishning o'zi ham sizga kifoya qiladi. Siz dars qilayotgan joyda barcha sharoitlar muhayyo bo'lishi yetarli.

Joy masalasiga kelsak, ba'zi talabalar o'z uyida o'ta tinch sharoitda dars qiladi, ammo men unday emasman. Asosan shovqin-suronli qahvaxonalar va kutubxonalarda dars qilish menga huzur beradi. Aslida qahvaxonada bo'lsangiz, berilgan vazifani tugatish uchun pul to'lagan qahvangizga achinib bo'lsa ham, bosib ishlaysiz. Kutub-

xonada esa sizga o'xshab dars qilayotganlar ilhom bulog'i vazifasini o'taydi. Shu sababli ham, Yaponiyada kutubxonalar va qahvaxonalar mutolaa qiluvchilar bilan doimo to'la bo'ladi.

Bizda qahvaxonalarga faqat ovqatlanish uchun boriladi deb o'ylashadi, unday emas. Keyingi paytlarda *Book cafe* nomidagi kitob o'qishga mo'ljallangan qahvaxonalarning ko'plab ochilishi ayniqsa quvonarli holatdir.

Muhimi, bo'lgani – siz eng samarali holatda, uzoq muddat dars qila oladigan joyni topishingiz. Yuqorida aytganimdek, xoh tinch uyingiz, xoh universitet kutubxonasi, xoh boshqa fakultet kutubxonasi yoki tabiat qo'yni. Sizga bir qiziq fakt aytsam: men yapon tilini Toshkentdagi Yunusobod tumanidan Toshkent xalqaro aeroporti tomonga qatnaydigan 67-avtobus salonida o'rganganman, desam xato bo'lmaydi. Tiqilinch avtobusda boshqalarning kiyimiga, yuziga yoki oyog'iga qarab turli narsalarni o'ylagandan ko'ra, kitobga tikilib, ertalabdan konsentratsiya qilishni afzal bilardim.

Toshkent yoki viloyat markazilarida, mumkin bo'lsa yaxshilab aylanib, o'zingizga yoqadigan kafe-restoranlarni yoki kutubxonalarni oldindan aniqlab qo'ying. O'qishga chuqur sho'ng'imoqchi bo'lsangiz, o'sha yerlarga qochib ketaverasiz. Agar tinch joyda dars qilish sizga yoqsa, unda uy ichida hatto telefoningizni ham olib kirmaydigan alohida o'qish joyini tayyorlang. Va buni atrofingizdagilarga, ijara da yashaydigan bo'lsangiz xonadoshlarga, uyingizda bo'lsangiz esa oila a'zolaringizga, albatta, bildiring. O'qiyotganligingizni bilsinlar va iloji boricha sizni bezovta qilmasinlar.

25-tavsiya: KITOB SOTIB OLMASANGIZ HAM KITOB DO'KONIGA BORING

Nega? Chunki chiqqan nashrdan yangi kitoblarni u yerda ham hech bo'lmasa, kirish qismini o'qib, yangi bilimlarni olish mumkin. Yaponiyada bu odat juda ham keng tarqalgan. Yaponlar albatta kitobni sotib olmasliklari mumkin. Ammo shunda ham kitob do'koniga bir kirib, u yerga qo'yilgan eng yangi kitoblarning kirish qismini, mundarijasini va xulosa qismini o'qishga harakat qilishadi. Agar ularga yoqadigan kitob chiqa, sotib olishadi.

Men ham talabalarim bilan biror kattaroq *Shopping Mall* ichidagi qahvaxona va restoranlarga taomlanish uchun borsam, tamaddidan so'ng hazm qilish ma'nosida(*talabalar juda ham ko'p yeyishadi-da!), Bowling markaziga emas, Shopping Mall ichida joylashgan kitob do'koniga birgalikda kirishni xush ko'raman. Ba'zan ularga vazifa sifatida shu yerda turgan kitoblardan 5 tasi-ning kirish qismini o'qib, kitob g'oyasini aniqlashni topshiraman. Qaytishda metro yoki mashinamda ular bilan o'sha kitoblar g'oyasini muhokama qilib qaytamiz. Zo'r emasmi?

Kitob do'koniga borib, u yerdagi kitoblar bilan 30 daqiqa bo'lsa-da, tanishishning muhimligi shundaki, siz qisqa muddat ichida yangi chiqqan kitoblarning asosiy g'oyasi va tavsiyalari bilan bepul tanishib olishingiz mumkin. Do'kon egasi esa hech qachon sizni haydab chiqarmaydi. Shunday ekan, iloji bo'lsa, Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi katta kitob do'konlariga haftada bir marta albatta boring. Moddiy imkoningiz bo'lsa, u yerdan kitob sotib oling. Agar bo'lmasa, hech qisi yo'q. Kitob do'konida kamida 30 daqiqa bo'lib, u yerga qo'yilgan kitoblar va ulardagi asosiy g'oyalar bilan tanishib chiqing. Ishoning, siz kitob do'konidan boshqacha inson bo'lib chiqasiz.

26-tavsiya: NECHA QATORLIK CV(REZYUME)GA EGASIZ?

Sezgan bo'lsangiz, qo'lingizdagi kitobning boshidan boshlab universitet kurslari o'zlashtirishning o'ziningina yetarli emasligini ta'kidlab kelmoqdaman. Bu zamonda ko'zga ko'rinish va muvaffaqiyatli talabaga aylanish uchun «oddiy talaba»likdan chiqish talab etiladi. Buning o'lchovi bormi dersiz? Albatta. 100foiz aniq bo'lmasa-da, ma'lum darajada sizning «oddiy talaba» emasligingizni o'lchaydigan tarozular mavjud. Bulardan biri – bu ko'pchilik qisqacha CV deya nomlaydigan, lotincha ibora hisoblangan, «curriculum vitae», ya'ni, hayot oqimi («course of life») ma'nosini bildiruvchi so'zdir. CV – sizning professional va akademik tarixingizni ko'rsatib beruvchi hujjat hisoblanadi. CV odatda ishga kirmoqchi bo'lganlarning ish tajribalari, erishgan yutuqlari va qo'lga kiritgan mukofotlari, shu paytgacha olgan stipendiyalari va grantlari, qatnashgan ilmiy loyihalari, topshirgan maqola va hisobotlarini o'z ichiga oladi. Xullas, 2-3 sahifalik ushbu ixcham hujjat ichida siz shu paytgacha erishib kelgan yutuq va ustun tomonlaringizni ish beruvchiga ko'rsatib isbotlab berishingiz talab etiladi.

Garchi, hozirda AQSh va Yevropa, yoinki, Koreya va Yaponiya davlatlaridagidek, universitet bitiruvchilaridan uzundan uzun CVni so'rash yurtimizda hali urfga kirmagan bo'lsa-da, shiddat bilan kapitalizmga qarab yurayotgan yurtimiz iqtisodiyoti yaqin yillarda mehnat bozorining bunday talabni o'rtaga tashlashiga ishoralar bermoqda. Bundan kelib chiqadiki, atrofigizdagi yuzlab, minglab talabalar bilan bir xil shaklda universitetga qatnab, faqatgina universitet darslarini eshitish bilangina yurish – ulardan sizni farqlab, ish beruvchiga sizni jozibali ko'rsatib qo'ymaydi. Shunday ekan, o'zingizni 4-kurs bitiruvchisi deya tasavvur qiling-da, ko'z oldingizga CVingizni keltiring. U necha qator bo'ldi ekan-a?

CVda taxminan quyidagicha ma'lumotlar kiritiladi: avvalo o'zingiz haqingizda bazaviy ma'lumot. Bunga qayerda tug'ilib, qaysi maktab(litsey)ni bitirganingizni yozish so'raladi. Undan keyin qaysi universitetni nechanchi yillar orasida o'qib tamomlaganingizni yozish talab etiladi. Bu yergacha hammasi binoyidek. O'zining jiddiy inson sifatida tushgan rasmini CV chekkasiga yopishtirishni hamma ham uddalaydi. Endi esa eng qiyini – sizni terlatib yuboradigan qism boshlanadi:

● Ko'nikmalingiz:

- Kompyuterga oid sertifikatlar;
- Ko'ngilli sifatida qatnashgan tadbirlardagi tajribalar;
- Til sohasidagi olgan sertifikatlaringiz;
- Partiya yoki milliy harakatlarda sizga berilgan mas'uliyatli topshiriqlarni bajarganingiz.

● Yutuqlaringiz:

- Musobaqada g'oliblik;
- Qo'lga kiritgan grant va stipendiyalaringiz;
- Faxriy yorliq yoki taqdironmalar.

Xo'sh talaba do'stim, siz 4 yil davomida yuqoridagilarni qay darajada to'ldirishga erishdingiz? Agar bularga e'tibor bermagan bo'lsangiz, bilaveringki, ish bozorida ahvolingiz tuzukkina og'ir. Agar hozir bo'lmasa, bir necha yillardan keyin albatta og'irlashadi. Sun'iy intellekt (AI) rivojlanib, oldingidek, faqat ma'lumotlarni yodlash bilan hal etiladigan ishlarning tobora kompyuterlar tomonidan egalinishi mehnat bozorining biz insonlardan yanada aqlli, tahliliy ishlarni bajarishimizni talab etishiga olib kelmoqda. Chunki, «avliyo» Google siz yodlay olmaydigan hajmdagi ulkan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lib «ulgurdi». Shunday ekan, 4 yilgina davom etuvchi talabalik davrida yuqoridagi ustunlarni to'ldirishni erta boshlash, ishonavering, talabalik davringizning ham mazmunli, ham qiziqarli o'tishiga yordam beradi.

27-tavsiya: RAQIBINGIZNI TANIB OLING

Siz dunyoda kim bilan musobaqalashayotganingizni bilasizmi?

Masalan, Buxoro muhandislik-texnologiya institutida o'quvchi do'stim,

– Siz faqat atrofingizdagi talabalar bilan emas, Farg'ona, Toshkent va boshqa shaharlarda sizning sohangizda o'qiyotgan talabalar bilan musobaqa qilyapsiz.

– Siz kimyo-texnologiyalar sohasini bitirib chiquvchi dunyodagi millionlab talabalar bilan bellashmoqdasiz.

– Xitoyda yiliga 30 milliondan ziyod talabalar bakalavrlilik bosqichiga qabul qilinadilar. Ular bakalavr bosqichini bitirgach, ushbu talabalarning 100.000 dan ziyodi AQShdagi magistratura kurslariga o'qishga borishadi. Avstraliya, Koreya, Yaponiya va Yevropaning davlatlariga boradiganlarini aytib ham o'tirmayman. Siz ana shunday vunderkindlarning anchaginasi bilan bellashmoqdasiz.

– «Uch devona» (3 Idiots) hind filmini eslaysizmi? Unda Hindistonda 20dan ziyod shaharlarda tashkil etilgan texnologiya institutlarining eng mashhurida o'quvchi talabalar hayoti aks etgan. Siz to'g'ridan to'g'ri AQShning Silikon vodiysidagi eng ilg'or firmalar tomonidan ishga yollanadigan ana o'sha aqlli hind fiziklari bilan bellashmoqdasiz.

Bular dunyodagi bir qism raqamlar, xolos. Biz uni cheksiz davom ettirsak bo'ladi. Aytmoqchi bo'lganim shu – ikki va ko'ptomonlama savdo bitimlari tufayli keyingi yillarda nafaqat tovar va xizmatlar bozori, balki mehnat bozorlari ham erkinlashib, chet ellik mutaxassislar bilan mahalliy mutaxassislar orasidagi raqobat qizib bormoqda. Talaba do'stim, siz ham bunga tayyor turishingiz lozim.

Agar siz dunyo darajasida o'ylaydigan va kelajakda yirik firmalarda ishlashni niyat qilgan bo'lsangiz, unda bosh

ko'tarmay kitob o'qib, hozirdan raqobatga tayyorlanib borishingiz talab etiladi.

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiyalari texnologiyasi rivoji tufayli, kadrlarning bir chegaradan oshib ikkinchisiga o'tishga bo'lgan ehtiyoji tobora kamayib bor-yapti. Informatsiya texnologiyalari(IT) sohasi buning eng katta o'rnaklaridan. Shunday ekan, chet el ishchisi viza olib yurtimizga kelmasa ham, kelajakda yurtimizdagi nomdor firmalar sizning emas, chet el ishchilarining xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Kim ham taqiqlay olardi buni?

Eslatib o'tay, xitoylik va hindistonlik bolalar boshini ko'tarmay kitob o'qiyapti. O'qiganda ham eng yaxshi kitoblarni, yurtimizda hali tarjima qilib ulgurilmagan kitoblarni ...Siz-chi? Siz nimalar bilan bandsiz? Agar akang qarag'ay o'laroq, Telegramdan boshingiz chiqmay, talabalik davrini quruq o'ynash bilan o'tkazayotgan bo'lsangiz yoki xayolingiz kiyimlar modasi bilan ertadan kechgacha band bo'lsa, unda atrofdagi raqiblaringizni yaxshi tanimas ekansiz. Chegaralar tobora yo'qolayotgan bu dunyoda kelajakdagi raqibinigizni ertaroq tanib olishingiz kerak. Bo'lmasa, kursimdagi eng zo'ri o'zimman deya o'zingizni aldab, global raqobatda imkoniyatni boy berishingiz shubhasiz.

28-tavsiya: SIZ QAYSI BIRISIZ?

Yaponiyadagi mashhur Kiyosera shirkatini tashkil qilgan Kazuo Inamorining «Kiyosera falsafasi» nomli asarida quyidagi soʻzlar keltirilgan:

*Moddalar orasida yonadigani, yonmaydigan va oʻz-oʻzidan yonib ketadigan boʻlganidek, insonlar orasida ham olovni yaqinlashtirsang yonib ketadigan, umuman yonmaydigan yoki oʻz-oʻzidan alanga olib yonadiganlari boʻladi. Biror-bir ishni amalga oshirmoqchi boʻlgan inson oʻz-oʻzidan yonadigan hayajonga ega boʻlishi lozim. Buning uchun esa kasbini sevish bilan birgalikda, aniq maqsadga ega boʻlish zarurdir.**

Janob Inamorining yuqoridagi soʻzlarini 2017-yilda ilk bor eshitganimda, hayratga tushgandim. Chunki Kiyosera xoʻjayini haq edi: insonlar orasida doimo yangicha loyihalari bilan yuradigan *tinib-tinchimaslar*, bunday insonlarning fikrlarini eshitib ularga *xayrixohlik qiladiganlar* va yaxshi fikrni eshitsa ham unga qoʻshilmay, hatto qolganlarning ruhini ham soʻndiradigan *oʻlik ruhlilar* borligiga guvoh boʻlganman. Janob Inamori esa ularni uch turga ajratib, ularning orasida ham oʻz-oʻzidan yonuvchi, maqsadi aniq va faol odam boʻlishga undamoqda. Chunki aynan shunday insonlarga jamiyatni oʻzgartirib, oʻzining hayotini ham juda qiziqarli qilishga qodirdir.

Siz-chi, doʻstim? Siz qaysi toifaga mansubman deb oʻylaysiz?

✓ Agar doimo yangi fikrlar bilan yurib, ularni amalga oshirishga oid aniq maqsadingiz va rejalariniz mavjud boʻlsa, unda siz oʻz-oʻzidan yonuvchi insonsiz. Kazuo Inamori orzu qilgan inson aynan SIZsiz.

* <https://global.kyocera.com/inamori/philosophy/words13.html>



✓ Sizga yangi fikrlar kam keladi. Ko'p ham hayajonlanmaysiz. Ammo atrofingizdagilar yaxshi bir loyihani yoki fikrni o'rtaga tashlab, sizni ham unga qo'shilishga yoki qo'llab-quvvatlashga undasalar, siz bundan ta'sirlanasiz. Qo'lingizdan kelganicha ularga yordam berish payida bo'lasiz. Demak, siz do'stim, olov yaqinlashtirilsa, yonadigan baxtiyorlardan ekansiz.

✓ Uchinchi toifa insonlar esa umuman yangilik yoki o'zgarishga toqatlari bo'lmaydiganlardir. Agar atrofdaagi do'stlari yangicha g'oyalarni ortaga tashlashsa ham, parvo qilmaydilar. Ularga chuqur shubha va gumon bilan qaraydi. Jamiyatning rivoji va kelajagi haqida o'ylamaydi. Biror ijobiy loyiha va tashkilotchilik ishlariga o'zini umuman urmaydi. Aksincha, bunday ishlarni qilayotganlarni ulardan sovutishga harakat qiladi. Ularning ko'z o'ngida o'z-o'zidan yonuvchilar yo vatanparvar «botanik» va yoki «utopiyachi»lar, xolos. Bunday toifa do'stlaringiz bo'lsa, yaxshisi ular bilan kamroq ko'rishing. Agar xarakteringiz va shu paytgacha yashab kelgan hayot tarzingiz uchinchi toifa sifatiga to'g'ri kelsa, mumkin qadar tezroq eng kamida ikkinchi toifaga o'tishga harakat qiling.

Biz, afsuski, xalq sifatida ko'p gapiramiz, ammo ishni kam qilamiz, ko'p noliymiz. Dunyoga mashhur «Boy ota, kambag'al ota» kitobi muallifi, amerikalik investor Robert Kiyosaki o'zining ushbu asarida yoshlarga «harakatchan inson bo'l»(be man of action) deya uqtiradi. Inson harakat qilsagina yutuqlarga erishadi, jamiyatga hissa qo'shadi va martabasi yuksaladi. Omad ham harakatchanga keladi deyishadi, bu rost. Men ham talabalik paytlarimda bir necha marta qo'pol xatolarga yo'l qo'yanman, ammo harakatchan bo'lganligim aniq. Talabalik paytida xato qilsangiz ham hamma sizni kechiradi, ammo harakatsizlikdan saqlaning. Bu sizni yuqoridagi uchinchi toifa insonlar orasiga kirib qolishingizga sabab bo'ladi. Universitetni bitirgach esa jamiyat keyin sizga bunday imkoniyatni taqdim etmaydi, kechirmaydi ham.

29-tavsiya: **DAVLAT MA'MURI BO'LISHNI ISTAGAN** **TALABA DO'STIMGA**

Agar insonlar kasbini turlarga bo'lsak, ularni shartli ravishda:

- 1) Davlat mulozimlari;
- 2) Xususiy sektorda ishlovchilar;
- 3) Akademik soha vakillariga ajratish mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, bular davlat xizmatchilari, tadbirkorlar va olimlardir. Albatta, bu tur ichiga kiritib bo'lmaydigan yoinki maktab o'qituvchilari kabi bular orasida qaysi turga qo'shilishi lozimligi biroz mavhum kasblar borligi rost bo'lsa-da, hozircha shu uch sohaning biriga yo'nalmoqchi bo'lgan talaba do'stlarimga o'z maslahatimni bersam.

Avvalo, davlat xizmatchilaridan boshlaylik. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti davrida ham davlatning mehnat bozori-dagi eng katta ish beruvchilardan biri ekanligini hamma ko'rib, bilib turibdi. Butun dunyoda deyarli bir xil tendensiyani kuzatish mumkin.

Unday bo'lsa, davlat xizmatchisi bo'lmoqchi bo'lgan talaba do'stim, ishni boshlashdan avval siz nimalarni bilishingiz lozim? Bu haqida hech o'ylab ko'rdingizmi?

Davlat ishini tadbirkorlik va akademik sohadan ajratish lozim. Davlat ishida ishlovchi inson – xalq to'laydigan soliq va yig'imlardan tushadigan daromad evaziga ishlaydi. Xalq uni boqadi. Nega? Chunki davlat xizmatchisi faqat va faqat davlat-omma manfaatini e'tiborga olgan holda ishlagani uchun. Shuning uchun ham uning boshqacha nomi **xalq xizmatchisidir**. Ingliz tilida bunday kasbni «public servant» yoki «civil servant» deb atashadi. Ya'ni, xalq hizmatidagi inson ma'nosida. Yapon tilida u «koumuin» (公務員) ya'ni, bor imkonini xalq hizmatiga bag'ishlovchi inson deganidir. Bizda esa 2020-yil may oyida e'lon qilingan qonun loyahasiga ko'ra, *davlat fuqarolik xizmatchisi* deya

nomlanib, ommaviy manfaatlar yolida haq to'lanadigan kasbiy faoliyatni anglatadi.*

Shunday ekan, davlat xizmatchisi yakka shaxslarning moddiy yoki ma'naviy manfaati yoinki o'zining shaxsiy ishlarini emas, aynan millat, xalq, davlat manfaatini eng ilgari surishi, vatanparvar bo'lishi lozim. Aytish oson bo'lsa-da, bunga erishish yo'llari mavjud. Muhimi, millatimizga mehribon bo'ling va davlatimizga aslo xiyonat qilmang. Olim yoki tadbirkor o'z millatini sevmasligi mumkin, ammo davlat xizmatchisi o'z millati va davlatini sevmasa, unda bunday davlat cho'kib yo'q bo'ladi.

Ey, davlat xizmatchisi bo'lishga harakat qilayotgan talaba do'stim!

✓ Mening birinchi tavsiyam: yurtimiz tarixiga oid asarlar bilan yaxshi tanishib chiqing. «Temur tuzuklari», «Boburnoma», «Humoyunnoma» kabi tarixiy asarlar, shuningdek, temuriylar tarixi, jadidlar tarixi va sobiq Sovet davri bo'yicha bitilgan asarlarni o'qib, o'zligimizni teran anglab oling. Shuningdek, Farobiyning «Fozil odamlar shahri», vazir Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarlarini ko'rib qo'ying. Davlatimiz Konstitutsiyasini obdon o'qib chiqing.

✓ Rus tiliga qo'shib, albatta ingliz tilini o'rganing. Globalashayotgan dunyoda ingliz tili millatlarning muloqot zaboniga aylanmoqda. Shunday ekan, agar siz ma'lum bir tumandagi elektr uzatish stansiyasi boshqaruvchisi bo'lsangiz ham chet eldan kelgan investorlar yoki poytaxt Toshkentda uyushtirilgan malaka oshirish ishlari paytida xorijlik mutaxassislar bilan muloqotda bo'lish ehtimolingiz borgan sari ortmoqda.

✓ Davlatlarning rivojlanishiga oid ma'lum bir asarlardan voqif bo'lishga harakat qiling. Shulardan bu yerda 2 tasini sanab o'tsam:

1) Singapur mo'jizasini amalga oshirgan Li Kuan Yuning «Uchinchi dunyodan birinchi dunyo sari: Singapur

hikoyasi(1965–2000)» asarini o‘qib qo‘ying. Bunda Singapurning ajoyib tarixi va janob Li tomonidan qanday islohot va xatti-harakatlar evaziga Singapur bugungi maqomiga erishganini tushunasiz.

2) Larisa Burakova tomonidan qalamga olingan «Gruziya muvaffaqiyatga qanday erishdi?» asarini ham ko‘zdan qochirmang.

3) Daron Ajemo‘glu va Jeyms Robinson tomonidan qalamga olingan «Why nations fail?» kitobini ham o‘qib, davlat va jamiyat institutlarining egallab turgan o‘rnini yaxshilab bilib oling. Quvonarlisi shundaki, ushbu kitob yurtimizda 2021-yil oxirida «Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag‘allik manbalari» nomi ostida chop etildi.

Bularning barchasi sizni yetuk davlat xizmatchisiga aylanishingizda katta hissa qo‘shadi.

Men ishlaydigan universitetning iqtisod fakultetida nihoyatda qobiliyatli Vetnamlik bir professor ayol ishlaydi. Uning bir darsi uchun talabalarga qarata yozgan e‘lonida quyidagi satrlarni o‘qigandim:

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish trayektoriyasi – mamlakali ishchilarni tarbiyalash, tadbirkorlarni o‘qitish va davlat mutasaddilarining ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan sa‘y-harakatlardan o‘tadi.

Yaponiya misoli bunga eng yorqin o‘rnak. Kunchiqar yurtning nihoyatda ishchan va aqlli davlat xizmatchilari uning tadbirkorlari va akademiklari oldidagi to‘siqlarni olib tashladilar. Hozirda ham Yaponiyaning markaziy apparati davlatning eng aqlli kadrlarini o‘zida jamlashning shaffof tizimini vujudga keltirgan. Ya‘ni, davlat xizmatchisi, ular qaysi maqomda bo‘lishidan qat‘i nazar, aqlli va yurtiga sadoqatli bo‘lsa, o‘sha davlat rivojlanmasdan qolmaydi. Shunday ekan, davlat xizmatchiligi uchun tayyorlanayotgan siz talaba do‘stim, hozirdan o‘zingizni bunday mas‘liyatli ishga tayyorlab boring. Buning uchun esa yuqoridagi kitoblarni chuqur o‘rganish va til bilish qobiliyatingizni mustahkamlashni unutmang.

Eng muhimi, siz ishlashni orzu qilgan davlat organi talablarini oldindan bilib qo'ying va shunga yarasha tayyorgarlikni ko'ring. Aytaylik, siz kelajakda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasida mas'uliyatli lavozimda ishlamoqchisiz. Juda ajoyib. Unda 2021-yil Iyul oyi holatiga ko'ra, ushbu davlat qo'mitasi saytida «Strategik dasturlarni ishlab chiqish va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi Boshqarma boshlig'i» uchun bo'sh ish o'рни borligini ko'ramiz. Vakantga bo'lgan malaka va boshqa talablar sifatida esa quyidagilar keltirilgan:

- Iqtisodiyot, moliya, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xalqaro munosabatlar va yuridik yo'nalishlarida oliy ma'lumotga ega bo'lishi (xorijiy va xalqaro oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan nomzodlar imtiyozga ega bo'ladilar);

- Davlat yoki xojalik boshqaruv organlarida kamida 3 yil mehnat stajiga ega bo'lish yoki xalqaro tashkilotlarda yoxud xalqaro munosabatlar yo'nalishlarida kamida 2 yil mehnat stajiga (shu jumladan, rahbar lavozimlarda) ega bo'lish;

- O'zbek, rus, va ingliz tillarini mukammal bilish (IELTS sertifikatiga (kamida 6,5 ball) ega bo'lgan nomzodlar ma'qullanadilar);

- Strategik va tahliliy fikr yurita olishi, qarorlarni tez qabul qila olishi hamda ularni bajara olish;

- Kompyuter savodxonligi bo'yicha – Microsoft Office (MS Word, MS Excel va MS Power Point) dasturlarida qoniqarli ishlay olishi;

- Mas'uliyatli, ishchan va stress holatlariga chidamli bo'lish.*

Talaba do'stim, agar yo'nalishingiz to'g'ri kelsa, kelajakda ma'lum muddat ish tajribasi to'plagach, yuqoridagi ishga kirish uchun qanday malakaga ega bo'lishingiz kerakligini tushungandirsiz. Bunday talablar endi deyarli barcha davlat organidagi ish o'rinlarida mavjud. Bas, shunday ekan, o'sha kun kelib oilangiz oldida yuzingiz qizarmasidan hozirdan o'zingizni tayyorlang.

* <https://antimon.gov.uz/uz/bo-sh-ish-o-rinlari/>

30-tavsiya:

TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANMOQCHI BO'LGAN TALABA DO'STIMGA

Ushbu tavsiyam xususiy sektorda ishlamoqchi bo'lgan, bo'lajak tadbirkor do'stinga yozilmoqda. Siz qanday qilib boy bo'lish mumkin yoki startap(yangicha biznes loyiha)larni qanday boshlash kerakligi bo'yicha biznes treninglardan allaqachon o'tgan bo'lsangiz kerak. Bu sohaga no'noq bo'lganim va oilam ham tadbirkorlik emas, dehqon oilasi bo'lgani uchun ma'noli biror maslahat beraman deb katta ketmayman. Ammo bir qancha foydali maslahatni berishimga ko'zim yetadi.

Shulardan biri – harakatchanlik. Tadbirkor harakatchan inson bo'lmasa ish bitmaydi. U ham jismonan, ham aqliy o'laroq doimo harakatda turishi lozim. Necha muvaffaqiyatli tadbirkorni ko'rdim, hammasi tinib-tinchimas, izlanuvchan insonlar edilar. Shunday ekan, siz avvalo o'zingizning bu ishga layoqatingiz qanchaligini aniqlab oling. O'zingizni taning.

Misol uchun, o'qish davomida 4 yil hech narsa qilmay, faqat darslarga borib kelib, keyin biznes qilaman degan talabani men tushuna olmayman. Demak, bunday talabada harakatchanlik, o'z biznesini qurishga bo'lgan «ochlik» (hungry spirit) yetarli emas. Harakatchan «bo'lajak» tadbirkor eng kamida o'qiyotgan paytida ba'zi bir kichik loyihalarni boshlagan bo'lishi, biznes treninglardan faol o'tishi va o'zining sohasiga oid kitoblar bilan jiddiy shug'ullanishi lozim. Kitob o'qishga suyagi yo'q bo'lsa ham, tadbirkorlik sohasidagi biror ishbilarmon bilan doimo muloqotda turishi – shogird tushishi kerak.

Chunki universitet hayoti talabaga ba'zi bir biznes loyihalarni amalga oshirishda hech qanday to'siq bo'lmaydi. Balki turli viloyat va tumanlardan yig'ilgan kursdoshlari bilan fikr almashib, tanish-bilishlarini ko'paytirgan holda,

oz-ozdan bo'lsa ham biznes loyihasining uchqunlarini ko'rsatishni boshlashi kerak.

Buning uchun esa 4 yil o'tishini kutish shart emas. Irrigatsiya sohasida o'qib, shu sohada non topmoqchi bo'lsangiz, irrigator yoki dehqon fermer xo'jaligi oldiga boring. Ulardan suhbatlarini oling. Maslahat so'rang. Nimalarga diqqat qilishingiz lozimligini o'qishingiz tugamay turib, sohada allaqachon ishlayotganlardan bilib oling. Toshkent kabi katta shaharlarda yurganlar esa biror shirkatda soat-bay ish topib, o'z mahorat va tajribalarini oshirishi mumkin. Xullas, osmondan tushing va kelajakda sizni kutib turgan soha ichiga, u sizga kelmasdan oldin kirib boring va amaliyot bilan oldindan yuzlashing. Misol uchun, 2005-yil yapon tilidan respublikamizda o'tkaziladigan notiqlik san'ati tanlovida Orolni qutqarish masalasini ko'targandim. O'shanda, ma'lumot to'plash uchun Toshkentdagi Orolni qutqarish xalqaro jamiyatiga borib, uning raisi bilan ko'rishganimni haligacha g'urur bilan eslayman. Men bir tanlovda ishtirok etayotgan talaba edim xolos, siz esa multi-million dollarlik o'z tadbirkorlik loyihangizni yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan insonsiz. Shunday ekan, sizlar mendan ko'ra yuz chandon harakatchan bo'lishingiz va shu 4 yildan juda ham unumli foydalanashingiz lozim.

Ammo bilib qo'ying! Biznes rivojlangani sari sizning bandligingiz ham oshib boraveradi. Kelajakda investor bo'lib olib, maza qilib, pulimni aylantirib, faqat dam olib yuraman degan xayollarga borishdan sizni qaytarib qolaman. Biznesingiz qanchayin kengaygani sayin sizning bandligingiz hamda insonlar bilan tanishuv doiranigiz ham mutanosib ravishda kengayib boraveradi. Bu esa tobora dam olish uchun vaqtingiz kamligini bildiradi.

31-tavsiya: AKADEMIK SOHAGA KIRMOQCHI BO'LGAN DO'STIMG

Ilm quduqni igna bilan qazib olishdek og'irligini bilasiz. Ammo, bu haqiqat sizni vahimaga solmasin. Har qanday ilmni ixlos va jiddiy intizom bilan o'rgansa bo'ladi. Chunki inson zotiga shunday miya in'om qilinganki, tartib va intizomga amal qilinsa, undan juda buyuk ishlar kutish mumkin.

Akademik sohaga kirib, universitet yoki ilmiy-tadqiqot institutlarida ishlamoqchi bo'lsangiz, avvalo kitob o'qish va ma'ruza tinglash uchun sizga QUNT lozim. Mushukning o'z o'ljasi bo'lgan sichqonni tutish paytidagi diqqatini bir joyga joylaganini hech kuzatganmisiz? Yoshligimda uyimizda singlimning mushugi bo'lganligi uchun menda bunday imkoniyat ko'p bo'lgandi. Ilm yo'liga kirmoqchi talaba ham o'qituvchilarning darslarini diqqat bilan tinglashi kerak. O'qituvchilar o'zlaridagi shu paytgacha jamlangan ilmlarni talabaga berishga intiladilar. Shunday ekan, professor-o'qituvchilarning darslarini diqqat bilan tinglash davomida ma'ruzaning eng muhim joylarini yozib qo'yishni ham unutmang. Buning uchun esa o'quv qurollari bozoridan eng qulay ruchka va daftarlarni tayyorlab qo'ying. Chunki ruhshunos olimlar fikricha, siz foydalanadigan asbob-uskunalar sizning ilm olish paytingizdagi kayfiyatingizga ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi. Kamina ham yapon tilini o'rganish jayronida, garchi boy talaba bo'lmagan bo'lsam-da, eng yaxshi ruchkalar uchun pulimni ayamagan edim.

Ikkinchidan, iloji boricha oldingi qatorda, o'qituvchilarga yaqin joyda o'tiring. Shunda o'qituvchiga oson savol bera olasiz. Ammo unutmang! Dekanat tomonidan kirib baqiruvchi o'qituvchilarning eng qattiq gapini eng ko'p eshituvchilar ham oldingi qatorda o'tiruvchilar bo'lishadi. To'polonchilar esa har doimgidek orqa safda o'tirishadi.

Uchinchidan, har darsni o'qituvchidan biror savol so'rash ilinjida o'tkazing. Shunda, xotiringiz jam holda darsni eshitasiz. Bundan tashqari, ma'noli savol haqida o'ylash miyangizni ham charxlaydi va o'qituvchiga sizni yanada yaxshi tanitadi. Bundan ham muhimi, ko'p savol beruvchi talabalar – o'qituvchilarni, o'zlarining ustida ishlashlariga undovchi va darsning sifatini ko'tarib beruvchi insonlar hisoblanadi. Siz ham shunday bo'ling. Dars o'rtasi va oxirida, albatta, o'qituvchilarga savol bering yoki tushunarsiz joylarni tushuntirib berishlarini so'rang.

To'rtinchidan, akademik sohada ijod qilmoqchi bo'lsangiz, o'z kutubxonangizni shakllantirishni avvaldanoq boshlang. Va sizning shaxsiy kutubxonangiz boshqa kasbga yo'nalmoqchi bo'layotgan kursdoshlaringizning kutubxonalaridan yanada boy va rang-barang bo'lishi kerak. Buning uchun stipendiyangizni bir qismini doimo kitob uchun ajratib borishni tavsiya qilaman. Toshkent va viloyat markazlaridagi eng yaxshi kutubxonalarni tez-tez ziyorat qiling. Bu ishni qancha erta boshlasangiz, shuncha yutasiz. Mumkin bo'lsa, sotib olgan kitoblaringizga raqamlar yopishtirib chiqib, tartib bilan taxlasangiz, maqsadga muvofiq. Kitobingiz ko'payishi esa sizning tobora ilm-fan sohasiga chuqur kirib borayotganingizni anglatadi.

Beshinchidan, dars davomida ko'rsatilgan qo'shimcha adabiyotlar bilan tezroq tanishib chiqishni tavsiya qilaman. Ana shunda siz chuqurlashtirilgan bilimni egallashingiz mumkin. Faqatgina o'qituvchining ma'ruzasi bilan chuqur va ajralib turuvchi ilm hosil qilinmaydi. Ayniqsa, ona tili-mizda hali-hamon xorijdagidek sifatli kitoblar yetishmaydi. Bularning o'rnini to'ldirib, dunyo standartlari asosida bilim olmoqchi bo'lsangiz, kamida ingliz tili va boshqa jahon tillarini bilish va ularda yozilgan manbalardan voqif bo'lishingiz talab etiladi.

Oltinchidan, talabalik yillaringiz davomida o'zingiz qiziqqan soha mutaxassisi bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan birgalikda mahalliy va xalqaro jurnallarga kichik maqolalar yozib topshirishga harakat qiling. Yozilgan

maqolalarni universitet va xalqaro darajada o'tkaziladigan konferensiya va simpoziumlarda taqdim etish bo'yicha imkoniyatlardan to'la foydalaning. Agar professor-o'qituvchi bilan birga maqola yozish mumkin bo'lmasa, o'qituvchidan so'rab u kishining biror ilmiy loyihasida qatnashib yordam berishga harakat qiling. Bu esa boshqa do'stlaringiz faqat darslar bilan mashg'ul bo'lib yurgan paytda, sizga akademik olamning kalitlarini tutqazadi. Siz professorning xonasiga kira olasiz, uning laboratoriyasida yanada ko'proq vaqt o'tqazishingiz va o'qituvchi bilan birgalikda turli konferensiyalarda qatnashishingiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, talabalar konferensiyasi va boshqa tanlovlarda iloji boricha ishtirok etishga harakat qiling. Davlat stipendiyalarini olish esa sizga imtiyozli ravishda magistratura bosqichiga kirish imkoniyatini beradi.

Yettinchidan esa, professor-o'qituvchilarga sizni shogird qilib olishini iltimos qiling. Ammo o'sha professorning axloqi go'zal, po'raxor emasligi va kengfe'lli ekanligini oldindan bilib qo'ying. *O'z sohasining bilimdoni bo'lsa-da, axloqsiz professor-o'qituvchilarning yoniga aslo yaqinlashmaslikni tavsiya qilaman.*

Eng oxirida, takror bo'lsa-da yana aytaman: ilm qilmoqchi bo'lgan inson rivojlangan xorij davlatiga o'qishga chiqishi SHART. Ayniqsa, aniq fan sohasidagi yosh do'stlarimizga bu juda ham zarur. Ijtimoiy fanlarni chet elda turib o'qib kelishning ham foydalari bisyor. O'zim ham Yaponiyada huquqshunoslik sohasini 5 yil davomida o'qiganman va hozir ham uni o'rganishda davom etyapman.

32-tavsiya: 3-KURSGA KELGANDA, ALBATTA, O'ZINGIZNI TANIB OLING

Xorij diyorlarida IQ(intelligence quotient) test kabi inson fikrlashini, uning xarakteri, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlaydigan testlar juda keng tarqalgan. Afsuski, yurtimizda inson potensialini tez va innovatsion usullar bilan baholash ishi hali jadal rivojlanganicha yo'q. Ammo dunyo kutib turmaydi. Hatto yaqin kelajakni ham oldindan aytish qiyin bo'lib qolgan ushbu shiddatli davrda o'zimizni tahlil qilib, biz aslida qanday potensial va qiziqishga ega inson ekanligimizni iloji boricha avvaldan bilib olishning beqiyos foydalari bor.

Eng osoni va minimal talab bu – «oltin uchburchak» deya nomlanuvchi uch savolning javobini mumkin qadar ko'proq o'ylab, bir to'xtamga kelib olish hisoblanadi:

- Men nimani xohlayman?
- Qo'limdan qanday ish keladi?
- Hozirda jamiyat nimani istamoqda?

Yaponiyada esa 4-kurs boshida talabalarning ishga kirish, ya'ni **job-hunting** davri boshlanadi. Yaponiyalik talabalar mart oyidan iyul oyiga qadar turli test va suhbatlardan o'tgan holda turli sohada faoliyat yurituvchi firmalarga ishga qabul qilinshadi. Ana shu paytda kunchiqar yurt talabalari o'zlarining qanday shaxs sifatida yetishganliklarini qaytadan ko'zdan kechirish imkoniga ega bo'ladilar. *Tekisei kensa* deya ataluvchi ushbu testlardan o'tish orqali talabalar o'zlarining qanday muhitdagi va qanday sohada firmalarga muvofiq kelishlarini bilib olishadi. Chunki multi-milliard dollarlik tovar va xizmatlar aylanmasiga ega yapon firmalarining tullak kadrlar bo'limi xodimlarining barcha savollariga aniq javob bera olishlari uchun ham avvalo talaba o'zining kimligini, nimaga qodirligini va nimaga no'noq ekanligini puxta bilib olishi talab etiladi.

Xo'sh, talaba do'stim, siz qaysi toifadagi insonlar sirasiga kirasiz?

– Nimalarda kuchlisiz yoki ustasiz?

– Nimalarda no'noqsiz yoki yaxshi eplolmaysiz?

– Jamoa bilan ishlash ko'proq yoqadimi yoki yakka-xon ishlash?

– Bir ish topshirilsa, oxirigacha qoldirmay boradigan insonmisiz, yoki o'rtada tashlab ketaverasizmi?

– Faolmisiz yoki nofaol(passiv)misiz?

– Buyruqni ko'p berasizmi yoki buyruqqa bo'ysunishni yoqtirasizmi?

– Tartibga amal qilasizmi, yoki tartibga bo'ysunish sizga aks ta'sir etadimi?

– Insonlar bilan kelishib ketishingiz osonmi yoki qay-sarroqmisiz?

– Ichimdagini top deydiganlardanmisiz yoki ochiq insonmisiz?

– Doimo pozitiv o'ylaysizmi?

– O'rganishni sevasizmi?

– O'zingizga ishonchingiz bormi?

– Xudbinmisiz?

– Strategik o'ylaysizmi?

– Boshqalar bilan kelishib ishlay olasizmi?

– Mas'uliyatga nisbatan qanday munosabatdasiz?

– O'zingizni qay darajada boshqara olasiz?

– Ishni ideal qilib topshirishni sevasizmi yoki o'z vaqtidami?

– Yangi g'oyalar miyangizga ko'p keladimi?

– Tavakkal bilan ish tutasizmi?

– Fikringizni qattiq turib himoya qilasizmi?

– Mehribonmisiz?

– Munozaradan qochasizmi yoki bahslashishga tayyormisiz?

– Sevgan mashg'ulotingiz bormi? Bo'lsa uni necha yildan beri davom ettirmoqdasiz?

– O'qish davomida universitetda eng muvaffaqiyatli chiqqan loyihangizni ayting.

– Qachon muvaffaqiyatsizlikka uchragansiz? Qanday ishda?

– Qaysi masalada eng ko'p afsuslangansiz?

– Qanday ishlarda eng ko'p maqtalasiz?

– Shu paytgacha siz uchun eng qiyin bo'lgan fan qaysi?

Oson bo'lgani-chi?

– Siz uchun eng qiyin bo'lgan ishlarni qanday yengib o'tgansiz? Bir dona misol keltiring.

– Boshqalarga nisbatan maqtana oladigan xususiyatingiz nima?

– Kelajakdagi ishingizda jamiyatga qanday hissa qo'shmoqchisiz?

– Nega aynan shunday kasbni tanlamoqchisiz?

– Universitet hayotida o'rganib, orttirilgan malaka ko'nikma va bilimlaringizga nimalar kiradi?

Yuqoridagi savollarga iloji boricha samimiy javob bering. Mumkin bo'lsa, uni alohida bir daftarga yozib chiqing. Ular sizga biroz bo'lsa ham o'zingizni tanib olishga yordam bersa, ajab emas.

33-tavsiya: **YANGI «DIGITAL» (RAQAMLI) ZAMONNI TO'G'RI TUSHUNING**

Inson zamon bilan hamnafas yashamas ekan, ham-madan orqada qolib ketaveradi. Ishini yo'qotadi. Hayot da-rajasi pasayadi. Davlatlar hayot bilan hamnafas yashamas ekanlar, o'zga davlatlarga qullikka giriftor bo'lishadi. XIX asr o'rtasida Chor Rossiyasining yurtimizdagi ikki xonlik va bir amirlikni osonlik bilan istilo qilishi ortida ham ushbu uch davlatning dunyodagi texnologik kashfiyotlardan uzilib, hayot bilan hamnafas yashamaganligining oqibati yotadi.

Xo'sh, unda XXI asrning uchinchi o'n yilligiga qadam qo'yayotgan talaba do'stim, siz ushbu zamonda nimani bilishingiz kerakligini bilasizmi? Agar siz kelajakda farovon yashashni istasangiz, *Diqqat (Deep work)* kitobi muallifi Kel Nyuportga ko'ra, ushbu zamonda yuksalishingiz uchun quyidagi ikki sifatga ega bo'lishingiz lozim:

1) Qiyin ishlarni bajarish uslubini tezkorlik bilan o'zlashtirish qobiliyati;

2) Berilgan ishni yuqori darajada, sifatli va tezkorlik bilan bajara olish qobiliyati.*

Agar o'rgana olmasangiz, sohangizning eng zo'ri bo'la olmaysiz. Bunga erishish uchun esa sizdan sohan-gizga nisbatan o'ta darajada diqqatli bo'lishingiz talab etiladi.

Shuningdek, sizdan bizning dijital(raqamli) zamonda yashayotganligimizni to'g'ri anglash talab etiladi. Aniq mi-sollar keltiraman:

Avvalo, kompyuter asrida yashayotganligimiz uchun ham Word, Excel, Power Point kabi professional ish dastur-larini yaxshilab o'rganib qo'ying. Yaponiyada bu borada turli sertifikat imtihonlari bor. Agar yurtimizda ham shunday

* Newport, Cal. Deep work: Rules for focused success in a distracted world. Hachette UK, 2016, 29-sahifa.

imtihonlar bo'lsa, albatta, o'zingizni sinab ko'rishni tavsiya qilaman. Agar bo'lmasa, yo biror do'stingizdan yordam so'rang, yoki xususiy kurslarga borib, o'rganib oling. Chunki zamonaviy korxonalar va davlat tashkilotlarida mazkur dasturlar bilan mohirona ishlay olish ko'nikmasi bundan keyin qattiq talab etilishi muqarrar.

Ikkinchidan, Internet manbalarni tez va aniqlik bilan topa olishni o'rganing. *Internet surfing* deyiladigan bu ishda albatta sizning e'tiboringizni bo'lmag'ur saytlarga tortib, vaqtingizni zoye ketkazish ehtimoli, albatta, yo'q emas. Bunday manfiy ta'sirlardan qutulish uchun avvalo ulardan foydalanib, yuzlanib ko'rish lozim. Agar sohangiz Ingliz tili filologiyasi bo'lsa, Youtube kanalida qanday bepul va sifatli til kurslari borligini, qaysi universitet saytida bepul elektron kutubxonalar va sizga ingliz tilida o'qitish uslubini tushunarli yoritib beruvchi kurslar borligini bilishingiz zarur. Faqat DIQQAT qiling! Internetdagi manbalar tobora xilma-xillashib, yil sayin kuchayib bormoqda. Shunday ekan, unga qoidasiz kirsangiz, oxirigacha yetish juda qiyin. Shu sababli ham, sizga kerakli internet manbalarini aniqlagach, imkoningiz doirasida unga vaqt ajratishingiz va saytlarni belgilab olgandan keyingina internet olamiga kirishingizni tavsiya qilaman. Bo'lmasa, siz Internetni emas, balki Internet sizni boshqarib ketadi.

Uchinchidan, boshqalar kabi «Albatta, informatsiya texnologiyalari(IT)ni ishlatib, dasturchi bo'ling», deb maslahat berishimni aslo kutmang. IT dasturchisi bo'lish hamma-ga ham emas. Uning uchun matematika, arifmetika, fizika qoidalarini yaxshi bilish talab etiladi. Buni hamma ham eplolmaydi. Ammo Zoom platformasini qo'llab, onlayn uchrashuv o'tkazish, Telegramdan ustalik bilan foydalanib, o'zingizning shaxsiy sahifangizni ochish, WordPress saytidan foydalanib, bepul websayt yaratish, Google Classroom-ni ishlatib, jamoa bilan samarali ishlash va Dropbox ilovasi yordamida 5 gigabaytgacha bo'lgan hajmdagi ma'lumotlaringizni bepul saqlash kabilarni tezkorlik bilan

o'rganib, ustasi farang bo'lishga hammaning ham kuchi bemalol yetadi. Agar siz ushbu dijital texnologiyalarga biroz qiziqish bildirib, vaqtingizni sarflab bo'lsa ham ularning foydali funksiyalarini bilib qo'ysangiz, darsda qiynalayotgan ustozingizga, kelajakdagi ish joyingizda uchrashuv tashkil qila olmayotgan boshlig'ingizga yoki katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlay olmay xunob bo'layotgan hamkasblaringizga IT tomonidan yordam ko'rsatishingiz mumkin. Hamma ham bunday masalalarda mohir bo'lmaganligi uchun, ishoning, sizning yordamingiz tufayli hurmatingiz va maoshingiz yaxshigina ko'tarilishi mumkin. Qarabsizki, atrofingizdagi barcha sizni hurmat qila boshlaydi.

Shunday ekan, dijital zamonda IT dasturchisi bo'lish shart emas. Ammo bizning hayotimizni yengillashtiruvchi IT dasturlar chiqqan paytda ularni tezlik bilan egallash va ishingizga tatbiq etish bo'yicha eng birinchilardan bo'ling.

34-tavsiya: XORIJGA O'QISHGA YOKI SAYOHATGA BORING

Inson o'z qarashlarini kengaytirmagunicha yetuklikka erisha olmaydi. Yetuklik esa musofirliksiz, osonlikcha yuz bermaydi. Qadimdan ota-bobolarimiz: «Musofir bo'lmaguncha, musulmon bo'lmaysan» deb bekorga aytishmagan. Shunday ekan, jamiyatimiz, davlatimiz va individ sifatida o'zimizning qanday ekanligimizni bilishimiz uchun biz kabi inson zoti yashaydigan boshqa davlatlarni ko'rishimiz shart! Bunda o'zimizga, jamiyatimizga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaray oladigan, o'tkir nigohga ega bo'lish uchun, albatta, xorijga o'qishga yoki hech bo'lmasa sayohatga borishni tavsiya etardim.

Chet elga ayniqsa, yoshlik paytda borish kerak. Yoshlikda inson qayishuvchan, egiluvchan bo'ladi. O'zgarishlarni osonlik va ortiqcha qaysarliksiz qabul qiladi. Yoshi ulg'aygach kerakli bilimlarni ham o'rgana olmay qoladi. Shu sababli qo'shni mamlakatga bo'lsa-da, yoshlikda sayohatga borishimiz lozim. Ana shunda jamiyatimizdagi turli sohalarni xorij davlatlardagi holatlar bilan solishtirib, tahlil qilish qobiliyatimiz uyg'ona boshlaydi.

Garchi, hujjatli film va video dasturlar ham ko'p bo'lsa-da, chet elning havosidan simirib, u yerdagi insonlar bilan suhbat qurib va u yerdagi xizmatlardan foydalanmasdan turib, yurtimizdagi ijobiy va manfiy holatlarni tushuna olmaymiz. Boriga shukur qilishni o'rganmaymiz, kerakli joyda harakat qilish lozimligini esa sezmay qolamiz. Xorijdagi o'qish va sayohat bizga aynan shunday qiyosiy nazar solish qobiliyatini beradi.

Demak, Erasmus kabi loyihalar ko'payayotgan, tobora turli universitetlarimiz chet el universitetlari bilan talaba almashinuvi loyihalarini amalga oshirayotgan bir davrga kirib kelayotgan ekanmiz, bundan unumli foydalanishimiz darkor. Bunda, AQSh va Kanada kabi Shimoliy Amerika

qit'asidagi va Buyuk Britaniya, Fransiya kabi G'arbiy Yevropa davlatlari osonlik bilan o'z eshiklarini ochmasliklari mumkin. Ammo Sharqiy Yevropa va Xitoy, Koreya va Yaponiya kabi davlatlar siz talabalarga anchagina yaxshi stipendiyalarni taqdim etadi. U yerdagi o'qishni tugatib, keyingi bosqich sifatida yanada rivojlangan yurtlarga ravona bo'lish ham mumkin.

Mening maslahatim: uylanmasdan, turmush qurmasdan oldin albatta chet el diyorini ko'rish, kamida u yerda 2 yil yashashga jiddiy harakat qilish zarur. Yaponlar xorij davlatlarini ularning rang-barangligini o'rganish uchun emas, balki ularga qiyosan o'z vatanlarini anglash, tushunish uchun borishadi. Yaponlar uchun dunyoni o'rganish – Yaponiyani boshqacha nigoh bilan tushunishdir. Unday bo'lsa, keling, biz ham vaqtni qo'ldan boy bermaylik.

Aniq fan bo'yicha o'qiyotgan bo'lsangiz, yurtimizda hali umuman mavjud bo'lmagan juda katta laboratoriyalarga ega bo'lgan firma va universitetlarga boy rivojlangan dunyo davlatlariga borish kerak, ko'rish kerak, qo'l bilan ushlab, tajribalar o'tkazib kelish kerak. Ongingizdagi ufqingiz kengayib, kelajak uchun rejalaringiz ko'payadi. Ishonavering. Aniq fanlarni rivojlantirish uchun katta mablag' talab etilgani sababli afsuski, diyorimizda bunday laboratoriyalar mavjud emas.

35-Tavsiya: MAGISTRATURANI XORIJDA O'QIMOQCHIMISIZ?

Juda ham yaxshi o'ylabsiz. Yoshlik payti – insonning qayishuvchan va o'zgarishlarni oson qabul qilish davri hisoblanadi. Shuning uchun atrofimdagi yapon mutaxassis-lari ham yosh o'tgandan keyin emas, balki aynan yosh-lik davrida chet elga o'qishga borishni tavsiya qilishadi. Ammo oldindan tayyorgarligingiz va xorijda vaqtingizni sarflashingizga qarab, u yerdagi samaradorligingiz qiymati belgilanishini aslo unutmang. Shu borada bir necha aniq tavsiyalarimni siz bilan bo'lishmoqchiman:

1) Avvalo boradigan davlatingizning milliy tilini o'r-ganing.

Ko'pchilik talaba do'stlarimiz ingliz tiliga e'tibor beri-shadi. Ular ma'lum darajada haqlilar. Biroq har bir dav-latning o'z ona tili borligini ham unutmaslik lozim. Janu-biy Koreyaga borib, o'qimoqchimisiz, unda koreys tilidan boshqasini tavsiya qilmayman. Chunki u yerda asosiy mashg'ulotlar koreys tilida o'tiladi va kitoblarning deyarli barchasi koreys tilida chop etilgan. Germaniya, Yaponiya ham xuddi shunday. Koreyaga ingliz tilida o'qishga borgan tanishlarim hatto koreys professorlarning ingliz tilisi yaxshi emasligidan va ingliz tilidagi darslar soni kamligidan shi-koyat qilishganini haligacha yaxshi eslayman. Bunday holat Yaponiyada ham ko'p kuzatiladi. Har bir mutaxassis o'z ona tilida yaxshi gapiradi. Shunday ekan, siz uchun eng yaxshi kurslar siz boradigan davlatning milliy tilida o'tilishini unutmang.

Siz boradigan davlatda ingliz tili milliy til sifatida qabul qilinmagan bo'lsa, unda, albatta, o'sha davlatning milliy tilini o'rganishga e'tibor qarating. Shunda u yerdagi in-sonlar bilan aloqaga kirishish ham, kitoblar o'qish ham, shuningdek, ish topish ham osonlik bilan amalga oshadi.

2) Sohangizga yozilgan chet tilidagi kitoblardan namunalari o'qing.


Xorijdagi (bu yerda yuksak rivojlangan xorijiy davlatlar nazarda tutilmoqda) kitoblar bizdagi aynan o'sha fanlar bo'yicha yozilgan kitoblardan yangiligi, batafsilligi, vizyual materiallar bilan boyitilganligi, nazariya va amaliyotning juda ham chuqur tanishtirilishi bilan ajralib turadi.

«Atayin chet elga borgandan keyin, siz aytgan kitoblarni o'sha yerda ham o'qiyveraman-da» deyishingiz mumkin. Qisman haqsiz. Biroq agar siz reytingi yuqori universitetga kirish niyatida bo'lsangiz, unda hujjat topshirish asnosida sifatli tadqiqot loyihasini (research proposal) yozib taqdim etishingiz lozim. Bunday loyihani esa o'z sohangizda yozilgan eng zamonaviy kitob(lar)siz yozishingiz dargumon.

Keling, tadqiqot loyihangiz qabul qilinib, siz magistratura yo'nalishi bo'yicha taklif oldingiz ham deylik. Hammasi hal bo'lib, sizni yorqin kelajak kutyapti, deb o'ylaysizmi? Hech qachon! Taniqli yurtdoshimiz, Germaniya Yer tadqiqotlari markazi tadqiqotchisi Abror G'ofurov, o'zining olmon diyorida o'qish davrida magistraturadagi o'quv mashg'ulotlari va vazifalarini bajarishda nemis talabalariga yetib olish uchun ilk 6 oy kutubxonadan chiqmay o'qiganligini so'zlab bergan edi. U kishi haq deb o'ylayman. Yurtimiz va xorij oliygohlarida darsliklar va darslar o'rtasidagi tafovut shu darajada kattaki, o'zini jiddiy hisoblagan har bir yurtimiz talabasi to'satdan kelgan bunday to'siqdan bir bor o'tishga majbur. Shunday ekan, siz oldindan kamida sohangizga oid yozilgan ingliz tilidagi kitobni olib, albatta o'qing. Shunda xorijga o'qishga borganingizda duch kelgan to'siqlardan oson o'tib olasiz.

3) Soatbay ish qopqoniga («Part-time job trap») ilinmaslik.

Aksariyat yoshlarimiz o'zlari borgan davlatda stipendiya olishlariga qaramasdan boshlarini ko'tarmay ishlab, pul jamg'arishadi. Buning natijasida o'qishlari oqsaydi, kerakli ko'nikmalarni olishlari qiynlashadi. Bunga ko'p marta guvoh bo'lganman.




Liverpulga (Angliya) sayohat,
2013-yil.

Vaholanki, xorijdagi bir yoki ikki yillik muddat bizga butun umrimizga yetgulik bilimlarni egallash uchun berilgan nihoyatda qadrli davrdir. Agar o'ta zarur bo'lmaydigan bo'lsa, aslo vaqtinchalik ishlarga o'zimizni berib, qimmatli vaqtimizni tugatmaslik kerak. Chunki davlatimizning birlamchi sohalarga ixtisoslashgan iqtisodi bundan keyin tobora bilim iqtisodiyoti (knowledge economy) tomon rivojlanib boraveradi. Bu esa insonlarning boshqalarda yo'q, kam-yob bilim va ko'nikmalari bozor tomonidan yuksak qadrlanishini anglatadi. Shunday ekan, borgan universitetingiz kutubxonasidan chiqmay, kitobdan bosh ko'tarmang. Ana shunda sizga boshqalarga taklif qilinmagan imkoniyatlar o'z-o'zidan kela boshlaydi.

36-tavsiya: HECH QACHON KECH EMAS

Yaponiyada ishlab turib o'qiydigan yoki pensiyadan so'ng yana bir bor o'qib ko'rmoqchi bo'lganlar juda ham ko'p. 2017-yilda xalqaro huquqqa oid kursimizga 67 yoshli talaba – Chuzo Terao kirib keldi. Yaponiyaning Mudofaa kuchlarida ishlagan sobiq askar. Leytenant. U avval universitetimizga kirib, bakalavr diplomini qo'lga kiritdi. Undan keyin esa 2 yil davomida bir yapon professorining qo'l ostida «Sun'iy intellekt va avtohalokatlarga oid huquqiy muammolar» mavzusida ilmiy ish yozdi.



67 yoshli talabam
Chuzo Terao.

Hozirda esa professorlarga yordamchi bo'lib, universitetimizda soatbay ishlamoqda. Uning yoshi 70 dan oshdi. Talabalik yillarida universitetimiz tomonidan Kanada va Vetnamga qilingan safarlarda qatnashdi. Talabalar musobaqalarida faol bo'ldi. Uyalmas, o'zini begona his qilmadi. Kutubxonadan chiqmadi. Shuning uchun ham rektorimiz tomonidan «eng yaxshi talaba» nomiga munosib topilib, bakalavr bosqichini tamomladi. Janob Chuzo Terao, Yaponiyada faoliyati tugagach universitetda qayta o'qib, bilimlarini mustahkamlagan minglab qariya-talabalardan faqat bittasi, xolos.

Bizda-chi? Yoshimiz 25 ga kirishi bilan o'zimizni yoshimiz o'tgan, xotiramiz pasaygan qariyadek tasavvur qilamiz. Biz endi yetisha olmadik, endi farzandlarimni o'qitaman, deyishga tushamiz. Taniqli biolog vatandoshimiz, Xitoydagi Janubiy-G'arbiy universiteti fan doktori, Baxtiyor Sheraliyev, 30 yoshga kirmasdan qarilikni juda tez bo'yniga olishga oid bunday holatni «qariyalik sindromi» deb atagandi. Bunga qo'shilmay aslo ilojim yo'q.

Aslida-chi? Eng zamonaviy tibbiyot tadqiqotlariga ko'ra, inson badani qarisa-da, uning aqli va miyasi qarimas ekan. Bu shuni anglatadiki, agar miyamizni to'g'ri mashq qildirsak, yoshimiz o'tgani bilan yangi fanlarni egallashda qiyinchilikka uchramaymiz. Boshqacha qilib aytganda, ilm organishda insonning yoshi hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Ustozlarimizdan, qadimda 60 yoshdan ilm organib, 80 yoshdan boshlab to vafot etgunicha fatvo bergan ulamolar o'tganligini ko'p eshitganmiz. Shunday ekan, do'stim, also bo'shashmang. Siz hali juda-juda yoshsiz. Bir universitetni bitirib, keyingisida ham yana boshqa sohani o'qishingiz mumkin. Hayotda bir sohani oldin o'rganganingiz yoki bir soha bo'yicha oliy ma'lumotga ega ekanligingiz sizni boshqa sohada ham ijod qilishdan yoki ishlashdan aslo to'smasligi lozim. Shunday ekan, «diplom diktaturasi» tushunchasi bizga yot bo'lishi lozim.

Siz 30 da ham, 40 da ham, 50 da ham, 60 da ham yangi sohalarni o'rgana olasiz. Yangi sohalarda yangicha loyihalarni boshlay olasiz. Sizda qunt va jiddiylik bo'lishi yetarli. Jangovar bo'ling. Misol uchun, o'zim tug'ilib o'sgan qishlog'imizda Sardor ismli yaqin sinfdoshim bor. Hunari qurilish ustasi bo'lib, uylarning ichini jilolash va bo'yash bilan shug'ullanardi. Ammo u yigitning ilmga va o'qishga chanqoqligini bilib yurardim. Yoshi 36 ga kirganiga qaramay, Sardor, hozirda Farg'ona Davlat Universitetiga o'qishga kirib, jiddiylik bilan izlanishda davom etmoqda.

O'z hayotimdan misol keltirsam. Garchi Xalqaro huquq sohasi bo'yicha mutaxassis hisoblansam ham kelajakda siyosatshunoslik, tarix va iqtisod kabi sohalarni ham chuqur o'rganish niyatim yo'q emas. Bu bo'yicha hozirdan klassik kitoblarni yig'ib boryapman. Shunday ekan, aslo ikkilanmay, qachon o'qishga rag'bat tug'ilsa, uni turlicha o'ylar bilan sovutib yubormang. Uni jonlantiring va kuchaytiring. Maqsad sari olg'a qadam tashlang.

37-tavsiya: FAOL O'RGANISHGA O'TING

Bundan nimani maqsad qilganimni bilasizmi? Bizda keyingi yillarda kitob o'qishga tashviqot juda kuchaydi. Bu juda ham yaxshi holat. Chunki kitobxonlar soni kamayib qolgandi. Xudoga ming shukur, biz asl o'zanimizga yana qaytmoqdamiz. Xususiy kompaniya va davlat organlariga tobora ilmi va kasbini yaxshi biladigan insonlar ishga olinmoqda.

Bir ilmni eslab qolish yoki malakani egallashni boshlash uchun kitob o'qish – bu start nuqtasi bo'lib, aslo final nuqtasi emas.

Shu jumladan 1960-yillarda AQShlik professor Edgar Deyl tomonidan ilgari surilgan g'oya haligacha o'z kuchini yo'qotmagan. Deyl fikricha, insonlar o'qigan yoki eshitganidan ham ko'ra, o'sha ishga faol yondashuv – harakat bilan ko'proq bilimlarni o'zlarida ushlab qolishadi.



Manba: E. Dale, *Audiovisual Methods in Teaching*, 1969, NY: Dryden Press.

Yuqoridagi Nyu-York Tayms bestsellerida keltirilgan jadval hali ham o'z kuchini yo'qotmagan. Bu sizga nimani anglatishini bilasizmi, do'stim?

Avvalo, yuqoridagi jadvalda faqatgina so'zlar bilan emas, vizual materiallar bilan ilm olishga harakat qilishga undash bor. Afsuski, yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalaridagi ko'plab kitoblar vizual materiallardan, rasm va jadvallardan yetarlicha foydalanmay yoziladi. Imkoni bo'lsa, sohangizni rasm, jadval va video rolklari bilan tushuntirib bergan materiallardan ham foydalanib o'rganishga harakat qiling. Ko'zning xotirasi nihoyatda kuchlidir.

Ikkinchidan, esa sohangiz amalga oshadigan joylarga ko'proq boring. Buni ingliz tilida *field trip* deyishadi. Yoz oylaridagi amaliyotingizni chin dildan, yaxshi ko'rib o'tang. Huquqshunoslik sohasi talabalari sud, advokatura va parlamentga ko'p borishlari lozim. Geologlar esa tog'lardan qolmasligi va o'zlashtirilayotgan konlarni ko'rishlari lozim. Biologiya sohasi talabasimisiz, unda universitetning o'zi emas, Toshkentdagi Mikrobiologiya institutiga albatta borib, holatni o'z ko'zingiz bilan ko'ring. Xususiy shirkatlardagi laboratoriyalarga kirishga izn ololsangiz, albatta, shu ishni qiling.

Uchinchidan, mumkin bo'lsa, kitobni o'qib tugatgach, xuddi shu kitobni o'qigan do'stlaringiz bilan munozara qiling. Munozara klublari universitetingizda bo'lsa, albatta ularga qatnashing. *Bitta kalla – kalla, ikki kalla esa tilla*, deganlaridek, boshqalardan siz sezmagani, payqamagan, ko'ra olmagan nuqtalarni bilib olasiz. Eng muhimi, bo'lib o'tayotgan munozarada tezkorlik bilan aniq javob berish va yangi argumentlarni o'ylab topish ilinjida miyangiz chegaralarini kengaytirish uchun jiddu-jahd bilan fikrlab, yanada tezkor fikrlaydigan insonga aylanasiz. Agar bunday munozara klublari yo'q bo'lsa, do'stlar bilan suhbat paytida, albatta, bunday kitob yoki jurnal maqolasini o'qiganligingizni va undan olgan taassurotingizni ularga aytib bering. Bu usul ham miyangiz olgan ma'lumotlarning yanada yaxshi o'rnashishiga turtki beradi.

To'rtinchidan, ko'pchilik oldida chiqish qiling. Bunda kursdosh do'stlar oldidami, seminarida prezentatsiya qilishmi, yoki talabalar konferensiyasida ishtirok etib ilmiy



Lyuksemburg universitetida
(Lyuksemburg qirolligi)
xalqaro konferensiya.
2015-yil, noyabr.

mavzuda professional chiqish qilishga urining. Biroz radikalroq tuyulsa ham, 3- yoki 4-kursga ko'tarilib, sohangizda biroz chuqurlashgach, siz yaxshi o'rgangan darsni o'tuvchi professor-o'qituvchidan o'sha dars davomida biror mavzu bo'yicha qisqacha ma'ruza o'tish uchun ruxsat so'rang. Ustozlar, ko'pincha bunga bajon-u dil rozi bo'lishadi. Siz esa mavzu bo'yicha alohida tayyorlanib, keng qamrovdagi materiallar bilan tanishgan holda kursdoshlaringizga dars o'tasiz. Bunday tajribani kamina o'rta maktabdagi davrimdayoq maktab olimpiadasida geografiya fanidan o'tkazganligim va o'sha mavzuni hali ham yodimda saqlab qolganim sababli sizga maslahat beryapman.

Yuqoridagilarning hammasi sizda ozmi, ko'pmi olgan bilimlaringizning yaxshilab «o'rnashib» qolishiga dastak bo'ladi. Shunday ekan, o'rganish jarayonida turli uslublarni samarali qo'llash choralarini hozirdan boshlang.

38-tavsiya: YOZ OYLARI HAQIQATAN HAM DAM OLIISH UCHUNMI?

Talaba do'stim, yoz oylaridagi ta'til muddatini qanday o'tkazasiz? Ko'pchilik bu savolga quyidagicha javob berishi mumkin:

- Oilam bag'riga qaytib, uy ishlariga yordam bera-man;
- Talabalik davrim uchun biroz bo'lsa ham ishlab pul topaman;
- Chet ellarga yoki mamlakat ichra sayohatga chiqaman;
- Soham bo'yicha amaliyot(praktika) o'tayman;
- 9 oy davom etgan semestrlar paytida yetkazib olmagan kurslarimni yetkazish uchun qo'shimcha kurslarga borish...va hokazo.

Ushbu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Ammo bularning orasida eng to'g'risi qaysinisi? Talabalar nima qilsalar, 4 yillik talabalik davridagi yozgi ta'tilni samarali o'tqaza olishadi?

Albatta, oila bag'riga qaytish, ular bilan birga turish va uy ishlariga yordam berish lozim. Men ham ta'til paytlari fermer xo'jaligimizda oilamga yordam berganman. Qo'shni fermerlar bilan xo'roz qichqirgan tong saharda bedana oviga chiqqanlarimni hech qachon unutmayman.

Albatta, yoz oylariga rejalashtirilgan o'quv-amaliyot ishlarini qoyillatib bajarish lozim. Men 2004-yilining yozida Farg'ona viloyatining Rishton va Bag'dod tumanlarining fuqarolik va jinoyat ishlari sudlarida amaliyot o'taganman. Ko'p yaxshi insonlar bilan tanishganman.

Unutmang! O'zbekistondagi oilalar 4 yillik davrda sizga deyarli barcha sharoitni tashkil qilib berishsa-da, oliy dargohni bitirishingiz bilan sizdan xuddi yoshi kattalardek mas'uliyatni talab qilishadi. Kechagina sizga kulib turgan universitet professorlari va qorovullari sizni tanimay turaveri-



Yaponiyada «ichigo-gari», ya'ni
«30 daqiqa ichida qulupnay
dalasidan to'yguncha yeyish»
an'anasi juda ham mashhur.

shadi. Chunki ular boshqa yangi talabalar bilan (haqli ravishda) band bo'lishadi. Shunday ekan, yozgi ta'tildan juda ham unumli foydalaning.

Siz boshqalar qilmaydigan ishlarni qilishga harakat qiling. Ayniqsa, semestrlar davomida imtihon va sohangizga oid o'qishlar bilan band bo'lsangiz, uni to'ldirish, yangi til o'rganish uchun yozdan ko'ra yaxshiroq payt yo'q.

May-iyun oylari kelmasidan oldinoq, yoz oylarini to'liq rejalashtiring:

✓ Viloyatdagi talabalar yoz oylarida Toshkentdagi o'quv kurslarida qo'shimcha dars olishlari va muloqot doiralari (networking) yanada kengaytirishlari mumkin. Viloyatda o'qiyapman deya aslo o'ksinmaslik lozim. Semestr davomida esa bunday ishlarni intensiv ravishda amalga oshirish qiyinchilik tug'diradi.

✓ Yoki chet ellardagi yozgi maktablar (summer school yoki work&travel dasturlari)ga borishingiz mumkin. Bunda dunyo bo'ylab do'stlar orttirish va kelajakda bormoqchi bo'lgan magistratura kurslari haqida batafsil ma'lumot olishingiz mumkin.

✓ O'z sohangiz yoki kelajakda kirmoqchi bo'lgan tashkilot yoki firmalarda bepulga xizmat qilish orqali tajriba to'plash ham ajoyib fikr. Bu orqali yangi tanishlarni orttirish va dunyoqarashingizni yanada kengaytirishingiz mumkin. Bu orqali kelajakdagi ishingizni bir yil avval hal qilish imkoniga ham ega bo'lasiz. Yaponiyada ko'pincha talabalar bunday yo'sindagi bepul amaliyot o'tash yo'li bilan o'sha firmalardan ishga taklifnomani qo'lga kiritishadi. Shunday ekan, huquqshunoslik sohasi talabasi uchun o'zi yashaydigan shaharda yoki boshqa katta shaharlarga borib, yozning qolgan qismida u yerdagi biror advokatlik byuro-sida malaka oshirib, o'ta band advokatlarga yordamchilik qilishiga hech narsa to'sqinlik qilmaydi. Tadbirkorlik sohasida o'qiyotgan talabaning esa katta do'konlar zanjiriga egalik qiladigan firmaga borib, u yerda ish o'rganishiga hech kim monelik bildirmaydi. Shunday ekan, yoz oy-

larimizni to'g'ri rejalashtiraylik va oilamizni ham bunga ko'ndiraylik.

Chet elga chiqib, akademik bo'lish orzuingiz yo'q, tushunarli. Unda, quyidagilardan birini bajaring:

– Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi bo'lsangiz, biror sudya yoki advokatga shogird tushing. Bepul yordamingizni taklif qiling. Professor-o'qituvchilaringizdan shunday imkoniyatni so'rang. Shaxsan menga, Toshkentdagi xalqaro tijorat arbitrajida ingliz tilida gaplasha oladigan ko'ngilli talabalarga katta ehtiyoj borligini aytishganda, to'g'risi hayratlangandim. Chunki talabalik davrimizda bunday imkoniyatlar juda kam edi.

– Biologiya fakulteti talabasi bo'lsangiz, Mikrobiologiya institutiga borib, u yerda tajriba ishlariga yordam bering.

– Jurnalistika talabasi bo'lsangiz, Kun.uz ga borib, maqolalarni tahrir qilish bo'yicha bepul tarzda ishlab bering. Viloyatlarda esa u yerdagi Kun.uz muxbirlariga shogird tushing.

– Temiryolchi bo'lsangiz, stansiyaga borib, uning sir-sinoatini soha mutaxassislaridan o'rganishga harakat qiling.

Yuqoridagilarning hammasi sizga muloqot doirangizni yaratish (networking) va o'qiyotgan ishlaringizni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.

Eng kam hurmat qiladigan toifam, bu – 4–5 yil o'qigach, keyin yana ota-onasi oldiga kelib, ularning tanishlari orqali ishga kiritib qo'yishni yoki tavsiya qilishni so'raydigan talabalardir. Siz bundaylardan bo'lmang.

39-tavsiya: **BAHO UCHUN EMAS, BILIM UCHUN O'QING**

Bu gapni aytish hammaga oson, shunday emasmi? Aksariyat kishilar buning teskarisini qiladi. Semestr yaqinlashishi bilan talabalar stressli holatga tushib, «asabiy» bo'lib qolishadi. Davlat stipendiyasiga nomzodlarni-ku, gapirma ham bo'ladi.

A'lo baho muhim, ammo albatta «a'lo» baho olinmasa bo'lmaydi degani emas. Yaxshi o'quvchi talabalar «a'lo» bahoni maqsad qilmasa-da, bunga erishadilar. Chunki ular har bir fanni «5» olish uchun emas, uni yaxshilab o'zlashtirish uchun o'qishadi. Chunki siz jamiyatga chiqqaningizda yoki bo'lmasa 2-kursdan boshlanadigan maxsus fanlarga asos bo'ladigan 1-kursdagi umumiy fanlarni o'rganayotganingizda siz qo'lga kiritadigan «5» baho asosiy emas. Muhimi, siz u fanni qay darajada o'zlashtirganingizdir.

«5» baho yoki siz ko'zlagan «4» chiqmadimi? Professor-dan imtihon varaqangizni ko'rsatishini va siz qayerda xato qilganingizni izohlab berishini so'rang. Muhimi, bu yerda bahoni ko'tarish emas, siz qilgan xatoni to'g'ri tushunib, qayta xatoga yo'l qo'ymaslikdir. Agar shunday jazm bilan boradigan bo'lsangiz, ko'pincha professor-o'qituvchilar bunday g'ayratingizni keyingi semestrda albatta e'tiborga olishadi. Chunki semestr paytida professor-o'qituvchilar xonasi atrofida kuymalanadiganlar, qayerda xato qilganini bilish emas, balki nega past baho olganini bilish maqsadida va bahoni yanada ko'tarish uchun kutib turganlardir. Endi tushunarli bo'lgandir?!

Men ham a'lo baholarni ko'p olmaganman. Birga o'qigan kursdoshlarim ham bilishadiki, kamina juda yaxshi «4» chi edim. O'sha paytdagi 100 ballik baholash standarti bilan aytganda ko'p marta 75-85 ball orasida baho olganman. Shuning uchun ham qizil diplom bilan universitetni bitira olmadim. Ammo bunga hech qachon qayg'urmadim,

havas qildim. Chunki qizil diplomchilar haqiqatan ham juda kuchli do'stlarimiz edi. Men undan ko'ra olgan bilimlarimni kelajakdagi ishimni qurishga yo'naltirdim, sohamni va xoriy tilni chuqurroq o'rganishga intildim. Natijada, 2003-yilda universitetga men bilan birga qabul qilingan 500 talaba orasidan rivojlangan davlatda 31 yoshidayoq professorlik unvoniga sazovor bo'lgan yagona inson bo'ldim. Vaholanki, 4 yillik bakalavr paytimda mening hatto «3» bahoyim ham bo'lgan (*poraxo'r professor tomonidan adolatsizlik bilan qo'yilgan bo'lsa-da).

Shunday ekan, baholarga o'ch bo'lmang, ular haqida ko'p o'ylamang. Undan ko'ra, har bir fanning qiziq bir dunyo ekanligini tasavvur qilib, uning eng qiyin joylarini mukammal egallashga harakat qiling. Hatto, sizga «4» baho qo'yayotgan professor-o'qituvchi ham buni tan olsin. Balki imtihonda ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qo'ygandirsiz. Bu siz uchun falokat bo'lmasin. Siz faqat oldinga qarab yuring. Oldinda sizni yanada qiziq fanlar, eng muhimi *haqiqiy hayot* kutmoqda. Shunday ekan, bahoni emas, real dunyoga sizni tayyorlaydigan ilmni o'zlashtirishni qadrlang.

Faqat muvozanatni saqlashni ham bilishni tavsiya etaman. Baho ikkinchi o'rinda deya, unga mutlaqo befarq qarash ham to'g'ri emas. Ta'lim tizimi fanlar o'zlashtirilishi darajasini shu baho tizimiga bog'lagan ekan, unga mutlaqo befarq bo'lish ham yaramaydi. Ayniqsa, magistratura va doktorantura bosqichi uchun xoriyga chiqib o'qimoqchi bo'lgan do'stim, diqqat qiling: xoriy universitetlari siz oldin o'qigan universitet baholarini yuborishingizni so'rashadi. Sizni uyaltiradigan, 70 foizdan past darajaga tushadigan o'zlashtirishni taqdim etishdan saqlaning.

40-tavsiya: SOHANGIZNING ZO'RI BO'LING

AQShning Jorj Vashington universiteti professori, Kel Nyuportning 2016-yilda chop etilgan «*Diqqat*» (*Deep work*) nomli kitobi bor. Muallifning undagi asosiy g'oyasi shundan iboratki, hozirgi zamonda ko'pchiligimizning e'tibori sayoz masalalar (internet xabarlari, e-mail yozishlar, telefon qo'ng'iroqlari, texnik uchrashuvlar kabi) bilan band bo'lib, bozor iqtisodiyotida qadrlanadigan chuqurlashtirilgan vazifani tobora kam bajarmoqdamiz. Vaholanki, dunyoda eng ko'p qadrlanuvchilar – aynan bir ishga juda ham chuqur kirishuvchi va o'sha ishni yuqori sifatda bajaruvchi insonlardir.

Professor Nyuportga ko'ra, sizni chalg'ituvchi ishlardan xoli tarzda o'z sohangizga yo'nalib, diqqatni jamlay olish chegaralaringizni zo'rlash orqali siz sohangizga umuman yangicha g'oyalar, mahsulotlar va xizmatlar taqdim eta olasiz. Bunday ishlarning boshqalar tomonidan takrorlanishi esa qiyindir. Shunday ekan, siz kuchli mutaxassis sifatida qadrlanasiz.

Aziz talaba do'stim, 2010-yillarga kirib kelgunimizga qadar, ming afsuski, yurtimizdagi davlat ishlariga aynan chuqur fikrlovchi va bir ishga konsentratsiya bilan yondashuvchi insonlar emas, boshqacha sifatli kadrlar ko'plab olindi. Ammo Allohga shukur, endi zamon o'zgardi. Hukumat ham, xususiy sektor ham ishining ko'zini biladigan, sohasining zo'ri bo'lgan insonlarni ishga yollash zarurligini anglab yetdi. Bundan keyin sizdan sohangizning zo'ri bo'lish talab etiladi.

Agar siz o'zingizni juda ham kuchli mutaxassis deb bilsangiz-u, ammo ishingiz siz turgan joyda qadrlanmasa bu yerda ikki xil muammodan biri mavjud: yo tashkilotingiz haqiqatan ham sizning mutaxassislik sohangizning muhimligini bilishmaydi, yoki o'zingiz o'ylagandek, zo'r emassiz. Agar birinchisi bo'lsa, unda ishingiz oson. Yo ishingizni

o'zgartiring, xususiyl sektorga o'ting yoki kasbingiz qadrlanadigan joyga keting. U yerda sizni qadrlashadi. Ammo ishni o'zgartirib yoki chet elga borib ham yana qadrlanmasangiz, unda ayb o'zingizda.

Shunday ekan, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar sohangizda chuqurlashing va unda eng kuchli mutaxassis bo'ling. Xalqaro huquq sohasida har yili Gollandiyaning Gaaga shahrida joylashgan Tinchlik qasridagi Gaaga akademiyasida dunyoning 300 dan ziyod talabalari ishtirokida yozgi seminar tashkil etiladi. Ushbu seminar bu sohada eng mashhuri bo'lib, unda faqat 1-2 talabagina diplom olishga muvaffaq bo'ladi. Chunki uning imtihoni murakkab bo'lib, dunyoning eng kuchli professorlari oldida javob berishingizga to'g'ri keladi. Shu paytgacha, ushbu nufuzli diplomni dunyoning ko'plab davlatlaridagi talabalar qo'lga kiritgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyoning 5 davlatidan hali birorta talabaga bunday baxt nasib etmagan. Demak, huquqshunos do'stim, sizda bunday imkoniyat bor. Gaaga shahriga boring, o'z kuchingizni isbotlab, tarixda qoling.

Va bunga o'xshash imkoniyatlar boshqa sohadagi do'stlarimizda ham bisyor. Muhimi, ODDIY talaba bo'lmang. Sohangiz geologiyami, unda boshqalar o'qimaydigan kitoblarni ham topib o'qing. Mutaxassisligingizga oid talabalar olimpiadasi va xalqaro konferensiyada qatnashib, o'zingizni isbotlang. Sohangiz kimyomi, unday bo'lsa chet eldagi nashrlardan ham foydalanib, kimyodagi ma'lum bir sohani mukammal egallang. Sohangiz tibbiyotmi? Unda yurtimizda rivojlanmagan sohani avval aniqlab oling, so'ngra o'sha soha bo'yicha adabiyotlarni to'plab o'qib tugatgach, albatta chet elga borib, uning mutaxassisi bo'lishga harakat qiling. Yoki o'sha sohadagi eng kuchli insonlar yig'ilgan jamoaga qo'shiling yoki shogird tushing. Ko'rib turibsizki, soha bo'yicha siz eng kuchli insonsiz. Unutmang, eng kuchli mutaxassislar doimo ardoqlanadi. Ular bilim va malakasini kerakli joyda o'rinli qo'llay olsa bo'lgani.

41-tavsiya: BOSHQA SOHALARGA HAM QIZIQING

Yulduz talaba, albatta, boshqa sohalarga ham juda qiziqadi. Chunki, faqatgina tor bir sohaning atrofida yurish bilan talaba ko'z o'ngida bo'layotgan voqealarni to'raligicha anglay olmaydi. Mening tavsiyam shuki, o'z sohangizda chuqurlashish bilan birgalikda, albatta, boshqa ilm sohalariga ham qiziqib ko'ring. Agar siz mashinasozlik sohasida o'qiyotgan bo'lsangiz, ishonning do'stim, hayotimiz faqat mashinasozlikdan iborat emas. Siz hayotingiz davomida siyosat, iqtisod, huquq, san'at, ekologiya, tarix, mantiq, informatika, tibbiyot kabi ko'plab sohalar bilan yuzma-yuz kelasiz. Ko'p sohalardan voqif bo'lgan holda fikrlash doirangiz kengligi esa sizni faqat yaxshi insonlar bilan tanishishga yetaklaydi.

Ming afsus, yurtimizda keyingi paytlarda universitetlardagi bir necha «keraksiz» fanlar o'rniga faqat soha fanlarini qo'shishga oid ovozlari tobora kuchayayotgan bo'lsa-da, bunday chaqiriqlarga qo'shilmayman. Haqiqat shuki, Yaponiyada ham, AQShda ham universitetlarda sohangizdan qat'i nazar *Liberal Arts*, ya'ni ijtimoiy-gumanitar fanlarini birinchi yillarda, albatta, o'qiyasiz. Bundan maqsad, sizni tor yo'nalishda, tor fikrlovchi inson emas, balki yon sohalarni ham tushungan mustaqil fikrlovchi inson sifatida jamiyatga tayyorlashdir.

Xususan, men Toshkentda 1-kursda o'qib yurgan davrimda qatnashgan tarix darsimiz juda ham qizg'in kechardi. Iqtisodiyot fanidan olgan bilimlarim haligacha faoliyatimda asqotadi. Mantiq, falsafa va axborot texnologiyalari (Informatika) fanlaridan yaxshi o'qimaganligim uchun ko'p kuyunaman.

Bundan tashqari, keyingi yillarda sohalarning bir-biriga yaqinlashuvi kuzatilmoqda. Huquq fanining ba'zi sohalarni iqtisodiy bilimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sotsiologiyani ham psixologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Siyosatshunoslikni tarix va huquq sohasini bilmasdan turib to'liq egalladim deyish noo'rinligini hamma biladi. Aniq fanlar sohasida ham *interdisciplinary*, yani sohalararo tadqiqotlar juda avjida. Shunday ekan, o'z sohasini bilmoqchi bo'lgan yaxshi kadr, o'z mutaxassisligidan tashqari kerakli umumiy bilimlarni ham egallashga qiziqishi lozim.

Agar professorlar ruxsat berishsa, boshqa fakultet darslariga ham kiring. U yerdagi talabalar nimani, qanday o'rganayotganliklarini kuzating. Shunda, siz yashayotgan olam keng va rang-barangligini, naqadar qiziqarli ekanligini tushunib yetib, o'qishga bo'lgan intilishingiz yanada oshadi. Soharingizga turli nuqtayi nazarlardan qaray oladigan ko'nikmalarga ega bo'lasiz.

42-tavsiya:

O'QISHNI TO'XTATISH, TA'TIL OLISH YOKI SOHANGIZNI ALMASHTIRISHDAN QO'RQMANG

Hind kino yulduzi Amirxon bosh rolni ijro etgan «Uch savdoyi» filmini ko'rganmisiz? Ushbu filmda tarannum etilgan asosiy g'oyalardan biri shunday edi: kishi o'zi yoqtirgan kasbda ishlashi lozim, boshqalar unga tiqishtirgan maslakda emas.

Yurtimizdagi yoshi ulug' insonlarda shunday qarash mavjud: talaba bir oliygohni bitirib chiqdimi, bas, endi butun umr diplom olgan sohasida ishlashi lozim. Ammo haqli ravishda bunga e'tiroz bildiruvchilar ham topiladi:

– Agar o'sha inson o'qigan yo'nalishini yaxshi ko'rmasa-chi?

– Unda o'zini ko'ra olmasa-chi?

– Ishonchi bo'lmasa-chi?

– Undan ham yaxshiroq sohaga uning malakasi yanada ko'proq to'g'ri kelsa-chi?

– Boshqa sohada yana ham yaxshiroq bo'lishini anglab yetsa-chi?

Yuqoridagi savollarga klassik javoblardan biri bu – *endi ukam/singlim, chidashing va ushbu qiyinchilikni yengib o'tishing kerak.*

O'ylab ko'raylik. Kishi hali 25 ga kirmasdan o'qigan sohasi o'ziga yoqmay qolsa, unga qolgan butun umrini sarf qilishi qaysi mantiqqa to'g'ri keladi?

Yaponiya universitetlaridagi huquq fakultetini bitiruvchilarning aksari huquqshunoslik sohasida ishlashmaydi. Iqtisodiyotni bitiruvchilarning hammasi ham iqtisodchi bo'lmaydi. Pedagogika yo'nalishini tamomlaganlar bir yumalab o'qituvchi bo'lavermaydilar. Fizika, kimyo va matematika sohasidagilar o'zlarining sohalariga umuman aloqasiz joylarga ishga kirishadi. Chunki yaponlar uchun universitet – bu o'zining kimligini tanish va qiziqishini, o'zining

ustun va zaif tomonlarini aniqlash uchun bir fursatdir. Hayotini to'liq belgilaydigan joy emas.

Hamma ham 18–19 yoshida kelajak kasbini to'g'ri tanlashiga kafolat yo'q. Insonning qiziqish va qobiliyati keyingi davrlarda ham yuzaga chiqishi mumkin va bunga misollar bisyor. Unday bo'lsa, hayotingiz ma'nosiz o'tishiga aslo yo'l qo'ymang. O'zingiz sevmaydigan yoinki o'zingiz ustasi bo'lmagan ishda turishdan saqlaning. Katta qarorlar berishdan va bu haqida oila a'zolaringizga aytishdan sira qo'rqmang. Vaqtida aytmasangiz, butun umr o'zingiz sevmagan yo'nalishda yashab kun kechirasiz. Shunday ekan, agar qishloq xo'jaligi sohasida o'qiyotgan bo'lsangiz-u, ammo pedagogikaga qiziqishingiz borligini sezsangiz, unda universitetni to'xtatib, pedagogika yonalishiga o'tishdan aslo cho'chimang. Bu boshqa sohalarga ham taalluqlidir. Atrofdagilar fikriga doimo ustunlik beravermay ustozlar bilan ham maslahatlashing.

Ta'til olish ham xuddi shunday. Kursdoshlarim bitirib ketib qoladi, degan vasvasadan yiroqlashing. Kursdoshlar baribir bir kun o'z viloyatlariga va tumanlariga qaytib ketishadi. Ularni sizga hech kim bog'lab bermagan. Shunday ekan, biror sabab bilan biroz ta'til olib, chet elga boring. Jur'atli bo'ling. O'zingizni qiynab, o'ta shiddatli hayot chig'irig'ida yurishga hojat yo'q.

43-tavsiya: UNIVERSITETDAGI DARSLAR SIZNI QONIQTIRMAYAPTIMI?

Unday holda onlayn darslar oling, bo'sh kelmang.

Keyingi paytda yurtimizda endi universitetga kirgan 1-2-kurs yosh talabalardan eshitilayotgan eng ko'p shikoyatlardan biri – bu universitet professor-o'qituvchilari tomonidan o'tilayotgan darslarning sifatsizligidir. Shuning uchun ham ko'pgina talabalar o'qishlarini poytaxti azim Toshkentga ko'chirish payiga tushib qolganlar. Aslida bu oliy ta'limdagi bizning juda katta fojiamiz hisoblanadi.

Talaba nega shikoyat qiladi?

Chunki universitet o'qituvchilari yangi O'zbekiston yoshlarining savollariga javob bera olmayapti va ularning aqlini qoniqtiruvchi chuqurlashtirilgan darslarni o'tishga ojiz.

2016-yildan boshlab oliygohlardagi talabalar soni deyarli ikki barobar oshdi*. Tabiiyki, bunday holat professor-o'qituvchilar ish yuklamasini ko'paytirish bilan birgalikda yangi o'qituvchi kadrlarni ham ishga jalb etilishiga sabab bo'ldi. Demokratik islohotlar ufurib turgan yangi O'zbekiston yoshlari esa tanqidiy qarashga ega. Ular o'z-o'zidan qo'shimcha materiallar bilan boyitilgan darslarni talab qila boshlashdi. Biroq shu paytgacha bunday dars uslubiga o'rganmagan va o'z ustida ishlamagan professor-o'qituvchilarning qiynalishi turgan gap. Ayniqsa, ilmiy daraja jihatidan hali yetarlicha kadrlar bilan ta'minlanmagan viloyatlardagi oliygohlarda ahvol sira yaxshi emas.

Xo'sh, bunday holda talaba nima qilishi kerak?

Mening taklifim bitta: xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini qisqa vaqt ichida mukammal o'zlashtiriboq, Youtube** va

* Нодирабегим Назарқулова, «Олтин давр» муаммолари – талабалар турар жойлари, 14-iyun, 2021. <https://uzanalytics.com/jamiyat/9400/>

** <https://www.youtube.com/>

Coursera* kabi internet platformalaridagi bepul, sifatli yoki eng kamida arzon minglab kurslarda qatnashish orqali turli sertifikatlarni qo'lga kiritishga harakat qiling.

O'zbek tilidagi juda ham kambag'al internet manbalardan farqli o'laroq, Youtube va Coursera kabi platformalarda siz dunyodagi eng yaxshi universitetlar tomonidan taqdim etilgan video darslarni ko'rishingiz va o'rganishingiz mumkin. Sizda yaxshi internet ta'minotidan kamchilik bo'lmasa, bas. Shunday ekan, o'z ustida ishlagan professor-o'qituvchi qo'l ostida o'qiyotgan do'stim, aslo o'kinmang. Ingliz tilini 1-2-kurslar davomida tezlik bilan o'rganing. Hozir nafaqat viloyat va tuman markazlari, hatto qishloq joylarida ham yaxshi ingliz tili o'qituvchilarini va to'garaklarini topsa bo'ladi. Siz bunday imkoniyatlardan aslo voz kechmang.

So'zimning oxirida aytay: hikmat izlaganga hikmatdir dunyo. Unday bo'lsa, siz ham izlang, albatta, topasiz.

44-tavsiya:

MA'RUZALARNING MUHIM QISMINI YOZIB OLISHNI O'RGANING

Oliygozlarda 90 daqiqa davom etuvchi ma'ruzalarni eshitish hammaga ham oson emas. Odatda, inson konsentratsiyasi bir necha o'n daqiqadan kop davom etmasligi fanda ham isbotlangan. Shunday ekan, 90 daqiqalik ma'ruzada har qancha o'zingizni zo'rlasangiz ham diqqatni buzmay eshitib o'tirish, oson emas. Bundan tashqari, darsda professor-o'qituvchilar tomonidan aytilgan gaplarni eslab qolish juda murakkab. Demak, 90 daqiqalik ma'ruzada o'tirsak ham, professor-o'qituvchilarimizning o'rgatganlaridan oz qismigina xotiramizda saqlanib qoladi.

Shunday ekan, talaba do'stim, ustozlarning ma'ruzalaridan eng muhim qismini yozib olishni o'rganing. Dunyoning turli mashhur universitetlarida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ma'ruza davomida yozmay o'tirgan talabadan yozib o'tirgan yoki turlicha rasmlar va jadvallar chizib o'tirgan talaba darsning ko'proq qismini eslab qolar ekan.

Shu o'rinda aytib o'tay, talabaning boshini ko'tarmay, konspekt yozdiradigan professor-o'qituvchilarni men xushlamayman. Bu XIX asr uslubidir. Bunga ikki sabab bo'lishi mumkin: yoki auditoriyadagi talabalar shunchalik to'polonchilarki, o'qituvchi doimiy yozdirish bilangina talabalarni tinchita oladi. Yoki bo'lmasa, 90 daqiqalik ma'ruza uchun yetarli material bo'lmaganligidan, darsni cho'zish ma'nosida talabalarga yozdirib dars o'tadi. Uning o'rniga, siz professor-o'qituvchilarning ma'ruzalaridan eng muhim qisminigina yozib olishni o'rganing. Agar biror muhim joy esdan chiqsa, do'stlaringiz daftarlaridan keyinchalik ko'chirib olish mumkin.

Ma'ruzadan qaydlar yozib olayotgan paytda quyidagilarga diqqat qiling:

✓ Ma'ruzachining barcha aytganlarini yozib olish, ayniqsa u kishi tez gapiradigan bo'lsa, juda qiyin. Shuning uchun ham darsdan keyin yozganlaringizga qarab, to'ldirib olsa bo'ladigan shaklda eng muhim joylarinigina qayd etishga odatlaning. Bunda gap to'liq bo'lmasligi mumkin. Hech qisi yo'q. Muhimi, ma'ruzachi nima demoqchiligini uyga qaytganda yozganlaringizga qarab eslay olsangiz yetarli. To'ldirib qo'yish uchun esa daftaringizni ichki varag'ida biroz bo'sh joy tashlab ketishni unutmang.

✓ Ma'ruza davomida qaydlar va eslatmalar yozib olish eng arzon emas, balki yozish juda ham qulay bo'lgan rangli ruchka, flomaster va daftarni tayyorlab oling. Bularga pul sarflashdan sira qochmang.

✓ Ma'ruzadan qaydlar va eslatmalar yozib olayotgan paytda faqatgina so'zlar bilan emas, balki jadval va shakllar chizish orqali esda qolarli qaydlar qilishga harakat qiling. Afsuski, yurtimizda bunday shakliy sxema va jadvalardan kitoblarimizda ko'p foydalanilmaydi. Bunga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

✓ Agar ma'ruzachi ruxsat bersa, uning darsini ovoz yozish moslamasiga qayd qilib, yana qaytadan eshitish va yozib olgan qaydlaringizni to'g'rilashingiz ham mumkin.

✓ Qayd qilgach, darsdan keyin professor-o'qituvchi oldiga borib, yozib olganlaringiz orasidan ba'zi tushunmagan joylarni qaytadan aniqlashtirib olishdan uyalmang.

✓ Har bir dars uchun alohida daftar tutib, ularni asrab qo'yishni odat qiling. Va ularni yaxshi asrashni ham biling. Ba'zi daftarlaringiz hatto 10 yillardan keyin ham sizga asqotishi mumkin.

✓ Yaponiyada ko'pchilik professor-o'qituvchilar dars mazmunini ifodalaydigan A3 formatdagi rezyumelar tayyorlashadi. Ular orasida men ham borman. Agar sizga dars o'tayotgan yurtimizdagi professor-o'qituvchi yangilik-

ka ochiq va egiluvchan xarakterga ega bo'lsa, unda o'sha kishidan o'z ma'ruzasining rezyumesini chiqarib kelib tarqatishini talabalar bilan iltimos qilinglar. Agar bunday sarfxarajat uchun universitet moddiy mablag' ajratmasa, unday holda o'sha ma'ruzachidan dars rezyumesining elektron namunasini olishga harakat qiling. Uni o'zingiz chiqarib olishingiz va ma'ruzaning muhim qismini yana qo'shimcha tarzda qayd qilish imkoniga ega bo'lasiz.

45-tavsiya:
ISTASANGIZ DARSDA BOSHQA KITOB O'QING,
AMMO KO'P GAPIRIB MA'RUZACHIGA VA
YONINGIZDAGI TALABALARGA
XALAQIT BERMANG

Yaponiyada o'qigan paytimda ba'zi professorlar shunday deyishardi: «Uxlash sizning huquqingiz, ammo xurрак otib, darsga xalaqit berishingiz mumkin emas». Yaponiya universitetlarida ishlab bunga guvoh bo'ldim. Sizning yoninigzdagi o'tirgan yapon talaba qattiq uxlab qolishi mumkin, ammo talabalar bir-birlari bilan gaplashib, darsga xalaqit berishmaydi.

Yurtimiz oliygohlarida esa 2 xil holat kuzatiladi.

Avvalo, O'zbekistonda professor-o'qituvchilarga hurmat yuzasidan talabaga darsda uxlashga umuman ruxsat berilmaydi. Aslida, bu to'g'ri talab. Talaba – darsga keldimi, undan maksimal foydalanib chiqishi lozim. Bundan tashqari, aksariyat talabalar ishlamasligini e'tiborga olsak, ulardan butun e'tiborlarini darsga qaratishlarini kutish mantiqiy bo'ladi. (*istisnolar albatta mavjud: talabalar orasida biroz mazasi qochgani, bir kun oldin safardan qaytgani, yoki kechasi uyqusi yaxshi bo'lmagani yoxud ishlab charchagan talabalar ham ba'zan uchrab turadi)

Ikkinchidan esa, talabalarimiz orasida ham dars davomida darsga aloqasiz mavzulardagi gap nihoyatda ko'p kuzatiladi. Og'zi tinmay, o'zini bosa olmaydigan, darsga qiziqmaydigan talabalar esa yon atrofdagi talabalarga ham ko'p xalaqit berishadi. Agar ma'ruza qilayotgan professor-o'qituvchi biroz bo'shroq bo'lsa, pista chaqib, saqich chaynaydigan talabalar ham ko'rinib qoladi. Ular yonidagi jiddiy talabalarning sifatli ta'lim olishlariga imkon qoldirishmaydi. Bu ham chidab bo'lmas holatlardan biri bo'lib, ma'ruzachining dars o'tishiga xalaqit beradi. Natijada, ma'ruzachi darsining ma'lum bir qismini tala-

balarni tinchlantirish, koyish va tarbiyaviy soat o'tkazishga bag'ishlashga majbur bo'ladi.

Bizning zamonimizda turli qing'ir yo'llar va usullar bilan universitetlarga kirib olgan talabalar ko'p bo'lardi. Ular qatorning oxirida o'tirishardi. Axloqlari ham yaxshi emasligi tufayli darsga kirgan ma'ruzachilar ularga qat-tiq tanbeh berishardi. Bu holat auditoriyada professor-o'qituvchilarning eng yaqinida o'tirgan talabalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilmasdan qolmasdi. Ba'zan darsning teng yarmi talabalarni tartibga chaqirish bilan o'tardi. Qanday isrof-a? Yaponiyaga kelib, talabalarning darsda deyarli gapirmasliklariga guvohi bo'ldim. Yuzlab talaba o'tirsa ham birortasi darsga xalaqit bermasdi. Albatta, ba'zi istisnolar mavjud bo'lsa-da, umumiy ma'noda profes-sor-o'qituvchilar talabalarga juda kam tanbeh berishadi. Bu esa ilm o'rganmoqchi bo'lgan talabaga professor-o'qituvchilardan bilimni to'liq simirib olish imkonini beradi.

Shunday ekan, *darsga keldingizmi yo darsni madaniyatli holda tinglang yoki kitob o'qing. Biroq ko'p gapirib, nomaqbul harakatlar bilan darsni buz-mang.*

46-tavsiya: HECH QACHON KO'CHIRMANG VA KO'CHIRTIRMANG

Bilib qo'ying: faqatgina pastkashlargina ko'chiradi. Shunday ekan, qanday qattiq imtihon bo'lishidan qat'iy nazar, aslo yoningizdagi talabadan ko'chirmang.

Yaxshi eslayman. 2006-yilda universitetimizning Yaponiya huquqi markaziga Mizukami ismli o'qituvchimiz kelib, bizga yapon tilidan dars berganlar. Yaponiyaning Xalqaro hamkorlik agentligining (JICA) xodimi sifatida turli rivojlanayotgan davlatlarda uzoq muddat ishlab kelgani uchun bizning yurtimizda ham ko'chirmachilik borligiga shubha qilmasdi. Ammo do'stlarimiz bilan uning bu shubhasi, eng kamida bizga nisbatan, xato ekanligini isbotlaganmiz.

Voqea shunday bo'lgandi. Har kuni yapon tili darsidan oldin janob Mizukami bizdan qisqacha test olardi. Avvallari, test davomida yaponiyalik o'qituvchi bizni kuzatib turardi. Ba'zan esa atayin sinash uchun xonadan tashqariga chiqib, o'zini yoqdek his qildirar va shu orqali «ko'chirmachi» talabani tutishga harakat qilardi. Uning urinishlari besamar ketib, birortamiz boshimizni ko'tarib, yonimizdagi sherigimizning javoblar varaqchasiga qarab qo'ymasdik. Natijada, janob Mizukami bizni kuzatib turishni bas qildi va shunday dedi:

Talabalar, bundan keyin har kuni testni tarqataman. Yechib bo'lgach, qo'shni xonaga olib kirib beringlar.

Biz undan keyin ham ko'chirmadik. Va hatto, yapon usuzimiz test varaqalarini xonasi oldidagi qutichaga qoldirib ketadigan va biz kelib yechib, yana o'sha qutichaga tashlab ketadigan bo'ldik. Ko'ryapsizmi, ilm olishda ham halol bo'lishning natijasi, hatto yapon professor-o'qituvchisining qo'lini yuqori ko'tarishga majbur qilgandi. Qachonlardir bizda ham shunday bo'lgan, ilmi toliblar oxiratni o'ylab, ilmni millati uchun omonat sifatida o'qishgan. Ammo biz

ota-boblarimizning o'sha mashhur merosini keyinchalik yo'qotib qo'ydik.

Ko'chirmachilikning yana bir turidan ogoh bo'ling: plagiat. Ya'ni, o'zganing yozgan maqolasi, kitobi va dissertatsiyasidagi fikrlarni o'zingizning fikringiz kabi o'zlashtirib, ommaga yoki ustozingizga taqdim etish. Chunki bunda siz, boshqalar yozib qoldirilgan masalalarni o'zingizniki qilib ko'rsatishga urinasiz. Bu ham ma'naviy o'g'riliklardan hisoblanadi. Shunday paytlarda, kimdan iqtibos olsangiz, albatta o'sha ilmiy ish muallifi va u chop etilgan manbani ko'rsatib qo'ying.

Boshqa tomondan esa ko'chirmaslik bilan birgalikda, boshqalarga ko'chirtirmaslikka ham diqqat qiling. Chunki siz aslida yaxshilik qilyapman degan kursdoshingizga yomonlikni ravo ko'rayotgan bo'lasiz. Shu bilan birga, uyga vazifa sifatida berilgan topshiriq, ijodiy ish va esseneni internet yoki yuqori kurslardan sotib olib, ustozingizga taqdim etmang. Agar yozma topshiriqlarni yozishga qobiliyatingiz bo'lsa, kursdoshlarga yozib ham bermang. Chunki talaba aynan shunday topshiriqlarni bajarish orqali kadr sifatida kuchayadi. O'zi sezmagani holda yangi ko'nikmalarga, ba'zan esa stresslarga chidamli holatga erishadi. Ishonarsiz internet manbaning u yoq-bu yog'ini to'g'rilash, yoki boshqalarga pul evaziga yozdirish – o'zini-o'zi aldashi bilan birgalikda, yuqorida sanab o'tilgan muhim ko'nikmalarni qo'lga kiritish imkoniyatidan o'zini mahrum etishdir. Shunday ekan, past baho olsangiz ham, g'ururli talaba bo'ling.

47-tavsiya: **SEMESTR IMTIHONI VA TOPSHIRIQLARGA** **OLDINDAN TAYYORGARLIK KO'RING**

Semestrning so'nggi paytlaridagi uyqusizlik, kam uyqudan keladigan bosh og'rig'i hamda qattiq hayajon va stress ... hammamizga tanish hikoyalar shunday emasmi? Yakuniy nazoratni yaxshi topshirish hammani ham birdek tashvishga soladigan masalalardan. Oraliq nazorat uchun berilgan topshiriqlarni-ku, aytmasa ham bo'ladi. Ko'pchilik talabalar ertasi kun topshiriladigan vazifani bir kun oldingi kunning kechasi boshlashadi. Tuni bilan qayta-qayta ichilgan achchiq qahvalar, bo'shatib tashlangan bir necha Redbullar va printerdan chiqarib beruvchi xolamiz yoniga ertalab xalloslab chopishlar... Agar printer ishlamay qolsa, yoki universitetga boruvchi avtobus yoki taksi yo'q bo'lsa, ana undagi tragediyani tamosha qilavering... Xo'sh, do'stim, bunday stressni qayta va qayta boshidan o'tkazmaslik uchun nima qilish kerak?

Maslahatim, siz do'stim, imtihonlarga tayyorgarlikni oldindan boshlang.

Oliygozlarda odatda 2 davrda katta imtihonlar yuz beradi: yanvar-fevral va may-iyun oylari. Va birdaniga siz 7-8 ta fandan imtihon topshirasiz. Ustiga-ustak o'sha imtihonlar juda qisqa vaqt ichida yuz beradi. Shunday ekan, yakuniy nazoratlar davri kelsa, hamma tabiiy ravishda tashvishga tushib, imtihonlarga tayyorgarlikni sifatli qilishga harakat qiladi. Ammo kutilganidek, bu oson bo'lmaydi.

Shu o'rinda bir kuzatuvimni aytib o'tay. O'zbekistonlik talabalar hamma ishni eng oxiriga surish bo'yicha ustasi farang hisoblanishadi. Ammo Yevropa va AQShlik talabalarda bu holat kam kuzatiladi. Nega? Chunki ular ishlarini kichik-kichik bloklarga bo'lib, oldindan qilishga yoshliklaridan odatlanishgan. Biz ham bunga odatlanishga majburmiz. Bo'lmasa, ishingiz sifatsiz yakun topadi.

Masalan siz Iqtisodiyot fakultetida tahsil oluvchi talaba bo'lsangiz va yakuniy imtihonda «Xalqaro iqtisodiyot» fani bo'yicha imtihon topshirishingiz kutilayotgan bo'lsa, unda kamida ikki oy oldindan tayyorgarlikni boshlang. Va quyidagilarga diqqat qiling:

✓ Ma'ruzachi tavsiya qilgan kitoblarni kutubxonadan olib qo'ying. Bo'lmasa, imtihon davriga kelib, uni boshqalar «ilib» ketishi mumkin.

✓ Professor-o'qituvchilarning ma'ruzalar matnini va konspekt daftaringizni har hafta takrorlab boring.

✓ O'tgan o'quv yilida tushgan savollarni oldindan olib, ko'rib qo'yishga harakat qiling.

✓ Yakuniy nazoratda ma'ruzachi sizdan so'rashi mumkin bo'lgan savolni oldindan o'ylab, professor-o'qituvchilarning o'zidan uni so'rab, bilib qo'ying.

✓ Eng muhimi, berilgan topshiriq yoki kutilayotgan imtihon uchun bir oy yoki kamida ikki hafta oldindan tayyorgarlik boshlang. Har kuni 10 soat emas, 2-3 soat o'qish yoki topshiriqni yozish, menimcha, sizga og'irlik qilmaydi. Shunday ekan, adrenaliningizni ko'tarib, chuqur stressga tushgandan ko'ra, yengilgina 2-3 soatlik kundalik dars qilishlar orqali siz imtihonga oldindan tayyor bo'lib olasiz. Topshiriqni ham kamida bir kun oldin sifatli holatda topshirasiz. Imtihon kuni esa tashvishlanib emas, auditoriyada yayrab o'tirasiz.

48-tavsiya: **HAR DARSGA SAVOL O'YLAB KELIB,** **KAMIDA BITTA SAVOL SO'RANG**

Muvaffaqiyatli talabaning boshqalardan ajralib turuvchi xususiyati – bu uning darslarda doimiy ravishda savol berib, o'zining intellektual mahorati va qiziqishini ko'rsatib borishidir. Inson uchun vaqt eng qimmatli ne'matlardan biridir. Universitet darslarining har biri esa sizning 90 daqiqa vaqtingiz evaziga tashkil etiladi. 90 daqiqa, 5400 soniyal! Aytishga oson. Darsdagi o'tilayotgan mavzuga qiziqib, unga oid o'zingizga afzal tomonlarini bilish sizga faqat va faqat foydali bo'ladi. Buning uchun esa, har bir darsga oldindan savol(lar) tayyorlab keling. Yoki dars davomida albatta savol o'ylab, ma'ruzachidan uni so'rab oling.

Bizda talabalarning aksariyati ishlashmaydi. Chunki aksariyat ota-onalar talaba farzandlari deyarli barcha xarajatini qoplab berishadi. Ayrim davlatlarda esa unday emas. Talabalarning ko'pchiligi ilk yilda bo'lmasa ham, 2-kursdan boshlab turli qahvaxona, restoranlar, firmalar yoki universitetning fakultetlarida ular uchun mos bo'lgan ishlarni bajarib(buni ingliz tilida «*part-time job*» deb atashadi), pul topishadi. Bunday vaqtinchalik ishni qilishga majbur bo'lmagan o'zbekistonlik talabalarda anchagina vaqt jamg'armasi bor. Undan unumli foydalanib, talaba do'stim, uxlashdan oldin, keyingi kun darslari bo'yicha mavzularga 30 daqiqa vaqt ajrating. Dars mazmunini ko'ring, unga oid darslik sahifalariga bir ko'z yugurtiring. Mumkin bo'lsa, mavzuga oid yangiliklarni internet tarmog'idan izlab, birikki savolni o'ylab qo'ying. Mana shunda, tayyorlanmay kelgan talabadan farqingiz yaqqol ko'rinib, «5» baho sari qadam tashlaysiz va ma'ruzachi ham sizni yaxshi tanib oladi.

Xalqimizning ulug' shoiri, Alisher Navoiyning ham «So'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim» so'zlari ham bu yerda juda o'rinli. Shunday ekan, tortin-

may savol beravering. Savol berishingizda, avvalo o'zingiz berayotgan savolni nima uchun berayotganligingizni aniq bilasiz. Ikkinchidan esa, dars davomida ma'ruzachi unga javob bergan yoki bermaganligini bilish uchun ham darsni diqqat bilan eshitasiz. Uchinchidan esa, siz savol berishingiz tufayli professor-o'qituvchilardan chiqadigan yangi ma'lumotlar nafaqat sizga balki butun auditoriyaga yangi bilimlarni beradi. Bahs qiziydi, dars qiziq o'tadi. Eng muhimi, qiziquvchan talabalardan muhim savollar chiqishini oldindan biladigan ma'ruzachi ham darsga puxta tayyorgarlik ko'radi.

Ba'zan zalvorli yaxshi savolingiz bo'lmasa, o'zingizni ortiqcha zo'rlab, xijolatli holatga tushadigan savollarni o'rtaga tashlash ham yaramaydi. Ma'nosiz savollar bilan professorni va yanada yaxshi savol bermoqchi bo'lganlar imkoniyatini o'g'rilab, boshqalar g'ashiga tegmang. Darsning muddati yetmasa, tanaffus paytida ham professor-o'qituvchining yoniga borib, bilmaganingizni so'rab oling.

49-tavsiya: **KIYIMINGIZDAN (FORMA) UNIVERSITET** **TALABASI EKANLIGINGIZ SEZILSIN**

Qiziq tuyulsa kerak-a? Nega o'zlari rivojlangan davlatda, shunda ham forma talab etilmaydigan universitetda ishlayotgan bo'lsalar-u, yana bizdan rasmiy talaba formasini hurmat qilishni so'ramoqdalar, degan savol shu damda qiziqtirayotkan bo'lsa, ajab emas.

Xorijdan hamma narsani olib kelib, o'zimiznikini buzib tashlayvermaslik lozim. Bizning ta'lim sohamizda ham no-dir bo'lsa-da, o'rnak olishga arziydigan jihatlar mavjud. Shulardan biri – universitetlardagi forma va portfel tutish talabining kuchliligidir.

Kamina o'qigan Toshkent davlat yuridik universiteti o'sha paytlar forma va portfel tutishda eng tartibli ilm dar-gohi bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Dekan deyarli kunora kirib, galstuk taqilganligi va katta portfel bilan kelinganmi-yo'qmi tekshirar edi. Ko'pchilik talabalarga bu yoqmasada, uning hikmatini men keyinchalik chet elga chiqib tushundim.

Xorijdagi talabalarga rasmiy forma kiyish talabi qo'yilmaganligi uchun ham ularning orasida juda norasmiy formada, hatto yuz-qo'lini yaxshi yuvmasdan ham darsga qatnashadiganlari bor. Qizlarning yubkasigina tor emas, talaba yigitlarning ham ba'zan juda qisqa va tor shimlarda sinfga kelish holatlari bo'ladi.

Bu esa avvalo talabaning o'ziga universitetga borib darsga kirayotganligi bo'yicha aniq ruhiyatni taqdim et-maydi. O'zini uyidagidek his etadi va kayfiyati ham deyarli

Bitiruv marosimida chet ellik talabalar
o'z milliy kiyimlarida kelishadi.

Vyetnamlik talabam
Kwuin Phuong Nguyen bilan.



o'zgaraydi. Agar o'rtamiyona bo'lsa-da, o'zlariga oro berib(yigitlar ham, qizlar ham), talab etilgan forma doirasida kiyinsangiz, tashqi qiyofangiz havas qilinadigan holatga kelib, atrofdagilarning sizga qarashi o'zgarib, bu kayfiyatingizga ijobiy ta'sir qiladi. Kayfiyatingiz ko'tarilishi esa sizning o'sha kungi ish samaradorligingizni oshiradi. Shunday ekan, universitet talab qilgan formani sarishta kiyib va tartibga o'rganing.

Biz insonlar – harakatlarimizga qarab kayfiyatimiz ham o'zgaradi. Harbiy xizmatdagi askarlarning og'ir etiklar va badanga qattiq botuvchi kiyimlarni kiyishi ham ularning tabiatiga ta'sir qiladi. Og'ir sharoitlarda turishlarini yengillashtiradi. Agar bir inson muntazam ravishda bo'yinbog'ini taqib, rasmiy kiyinib ishiga ketsa, bu holat uning o'z kasbiga nisbatan hurmat va mas'uliyatni his qilishini anglatadi. Jiddiy ishlar ustida bosh qotirishni boshlaydi, o'zini katta insondek his qiladi. Va bunga biz kiyadigan kiyimlarning albatta ta'siri bordir. Unday bo'lsa, talaba do'stim, siz ham oliygohingizning formasiga e'tibor berib, chiroyli kiyining.

50-tavsiya:

«5» BAHO OLMOQCHISIZ? PROFESSOR YOZAYOTGAN ILMIY ISHLARNI O'QIB BORING

Aksariyat talabalar o'qishni faqatgina darsliklarning kerakli joyini semestr imtihonlari oldidan ochib, o'qib qo'yish deya tushunishadi. Ammo bu to'g'ri emas. Ilmiy materiallar sifatida nafaqat darsliklar, balki o'quv-qo'llanmalar, monografiyalar, olimlar yozgan dissertatsiyalar va eng muhimi, ma'lum bir masalada yozilgan ilmiy jurnal maqolalari ham bor. Bularning orasida kam vaqt oladigani va qiziqarlisi, lekin mazmunan murakkabrog'i bu – ilmiy jurnallardagi maqolalardir. Agar ma'ruzachi professor-o'qituvchilarning o'z sohasida yozgan maqolalarini o'qib borib, dars paytida ulardan professor-o'qituvchilarga *o'rinli* savol bera olsangiz, demak, siz tegishli fandan «5» bahoni deyarli hal etdingiz. Buni uddalagan bo'lsangiz, endilikda imtihonga puxta tayyorgarlik ko'rsangiz bo'lgani.

Shu yerda muhim bir sirni ochay: biz olimlar o'z maqolalarimizni faqatgina jurnalda bosib chiqarishlari uchun emas, uni boshqalar ham o'qib, foydalanishlari uchun yozamiz. Bir olimning maqolasi boshqa olim tomonidan o'rganilib, iqtibos keltirilishi yoinki talabalar tomonidan muhokama etilishi, albatta, quvonarli hol. Shunday ekan, *professor-o'qituvchilarga o'zingizni ko'rsatib, yaxshi baho olmoqchi bo'lsangiz, ularning eng so'nggi maqolalarini o'qib boring.*

Ilmiy maqola deganda xorijda chop etiladigan jurnallardagidek 40–50 sahifali zalvorli maqolalarni tushunmaslik lozim. O'zbekistondagi aksariyat ilmiy jurnal maqolalari, ayniqsa, ijtimoiy soha maqolalari juda mo'jaz – qisqa yoziladi. Ko'pi bilan 10 sahifa bo'lishi mumkin. Ularni o'qish juda ham oson va sizning vaqtingizni ko'p olmaydi.

Sizning qilishingiz kerak bo'lgan ish quyidagicha: vaqti-vaqti bilan kutubxonaga kirib, o'z sohangizga oid eng ommabop jurnallarning eng so'nggi sonlarini be-

rishni kutubxonachilardan so'raysiz. Ularni olib sekingina varaqlab, sizga dars o'tayotgan professor-o'qituvchilar yozgan maqolani topasiz va uni o'qishga kirishasiz. Tushunmaydigan joyingiz chiqdimi, ayni muddao. Buni dars paytida professor-o'qituvchilardan savol sifatida so'rab olasiz. Eng muhimi, maqola chiqqan jurnal nomi, maqolaning sarlavhasi va sahifalarigacha yon daftar-changizga yozib olishni unutmang. Agar o'tilayotgan mavzu yoki fan bo'yicha ma'ruza qilayotgan o'qituvchi maqola yozmagan bo'lsa, shu mavzuda yozgan boshqa tadqiqotchining maqolasini o'qib kelib so'zlab bering.

Professor-o'qituvchilarga ularning yozgan ilmiy ishlaridan savollar berish, garchi sizga «5» bahoni to'liq kafolatlama-da, eng kamida siz professor-o'qituvchilarning nazariga tushasiz. Bu esa «5» baho olishdan ham qimmatli yutuq hisoblanadi. Nega? Chunki bunda professor-o'qituvchi sizda ilmiy ish qilish uchun yoinki chuqur fikrlash va o'rganishga ishtiyoq borligini sezadi va turli imkoniyatlarni taklif etishi mumkin. Agar siz huquqshunoslik fakultetida o'qiyotgan bo'lsangiz, yaqin kunlarda Toshkent davlat yuridik universitetiga tashrif buyurayotgan deputatlar bilan bo'ladigan majlisga sizni ham chaqirishlariga tayyor turavering. Yoki bo'lmasa, iqtidorli talabalar bilan televizorda chiqish uchun professor-o'qituvchi sizni shaxsan o'zi bilan birga olib ketishi ham ehtimoli bor. Yoki, maqola yozish bo'yicha sizga hamkorlik taklifi tushishi mumkin. Bular bakalavr bosqichidagi talaba uchun hecham hazil masalalar emas. Sizdan talab etiladigani shuki, darsliklar doirasidan chiqib, odatiy talabalar qilmaydigan ishni, ya'ni, ilmiy jurnallarni topib o'qishni o'rganish, xolos. Qolganini keyin o'zingiz ko'rasiz.

51-tavsiya: HAR BIR SEMESTRDA BIR FANGA QATTIQ KIRISHING

Talabalarga bir semestrda 10 ga yaqin fanlardan dars o'tiladi va tabiiy ravishda buncha darsni mukammal va yuqori ko'rsatkich bilan tugatish oson emas. Bunga shaxsan o'zim ham talabalik davrimda erisha olmaganman. Ammo siz bajara oladigan ish har bir semestrda boshqa fanlardan bir fanni ajratib olib, unga bir necha baravar ko'proq e'tibor berishdir. Agar siz Toshkent davlat transport universitetida o'qiyotgan bo'lsangiz, kuzgi semestrda «Transport binolarining ekspluatatsiyasi», bahorda esa «Ko'priklar va tonnellar» kafedrasidan o'tiladigan boshqa bir fanga sho'ng'ishingiz mumkin. Agar huquqshunoslik sohasida o'qisangiz, kuzgi semestrda kriminalistikani, qishki semestrda esa xalqaro huquqqa jiddiy kirishing. Professorning talabalarga bergan vazifasini hammadan ham ko'ra mukammal bajaring. Auditoriyada shu fan bo'yicha o'sha semestrda eng chuqur o'qigan inson siz bo'ling.

«*How to Win at College*» kitobi muallifi Kel Nyuport ham amerikalik talabalarga aynan shunday maslahat bergan ekan. Uning aytishicha, bir fanni va undagi vazifani tanlab, juda erta vaqtdan boshlab unga kirishish lozim. Qattiq va jiddiy ishlang. Ustozingiz sizga qo'ygan talabning chegarasini buzib o'tib keting va berilgan vazifani bajarish uchun mavjud barcha intellektual qiziqishingizni ko'rsating. Shunchaki bir vazifani bajarish emas, uni qoyillatib, ideal shaklda bajarishga intiling.

Bunday qilishning yaxshi tomoni shundaki, u orqali siz ma'lum bir soha yoki mavzu bo'yicha chuqurlashgan tarzdagi bilimni o'zlashtirishga muvaffaq bo'lasiz. Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlaysiz. Kutubxonani kezib chiqasiz. O'sha fan professor-o'qituvchisidan qo'shimcha material va kitoblar so'raysiz. Bu esa sizning jiddiy talaba ekan-

lingingiz haqida ustozingizda va u ishlaydigan kafedrada alohida taassurot qoldiradi.

Bundan tashqari, boshqalar umumiy fanlarni o'qib yurgan paytda siz maxsus loyiha bo'yicha ishlab, uni har tomonlama kuchaytirishga erishasiz. Agar ustozingiz barcha talabalarga XVI asr boshidagi Temuriy shahzodalar orasidagi taxt kurashlari bo'yicha insho yozishni vazifa bergan bo'lsa, siz bu mavzuga oid nafaqat bir-ikki kitob, balki jurnal maqolalari, dissertatsiya va monografiyalargacha ko'rib chiqing. Bunday chuqur, batafsil va keng tahliliy yondashuv har qanday professor-o'qituvchini hayron qoldirishi tabiiy. Eng muhimi, bunday ish uslubi orqali kelajakda siz undan ham muhim loyihalarni yakka o'zingiz amalga oshirish qobiliyatiga ega ekanligingizni atrofda gilarga isbotlab berasiz.

Shunday ekan, har bir semestr ichida o'zingiz qiziqqan bir fanni tanlab juda-juda yaxshi o'qing. Imtihonni shu darajada yaxshi topshiringki, professor-o'qituvchi dars oxirida hammaning oldida sizga rahmat aytsin. Berilgan vazifani shu darajada yaxshi uddalangki, butun kafedra sizni eslab qolsin. Omad sizga endi qanday kelishini esa kuzatib turish qoladi, xolos.

Ushbu satrlarni yozish davomida yurtdoshimiz, Ziyouz.com sayti asoschisi, jurnalist Davronbek Tojialiyev o'zining Facebook sahifasida boshidan kechirgan ajoyib voqeani hikoya qilgan. Mavzuga shu darajada kuchli aloqadorligi tufayli, muallifdan izn olgan holda, undan bir parcha havola qildim.

Davronbek Tojialiyev. Maqola «Ma'rifat»ning 90-yilligiga bag'ishlangan maxsus sonda (2021-yil, 30-iyun, 26(9351)-son) chop etildi.

.....

2001-yili xalqaro jurnalistika fakultetiga eng yuqori ballar bilan qabul qilindim. O'qishning ikkinchi kunidayoq Halim Saidovning «Yangiliklar jurnalistikasi» darsini

qo'yishibdi. Ichimga yana g'ulg'ula tushdi. Tavakkal deb darsga kirdim. Domla darsni umuman boshqacha uslubda boshladi-da, birdaniga talabalar bilan chiqishib ketdi. Bir soatda avvalgi qo'rquvlarim tarqab ketdi. Halim Saidov o'zimizga o'xshagan, juda xushchaqchaq odam ekan. Unda zarracha kibr ko'rinmadi. O'sha darsda domla kelgusi safar har bir guruh devoriy gazeta chiqarsin, deb tayinladi.

Darsdan bir olam tassurot bilan chiqdim. Guruhimiz bilan kelishib, birinchi son muharrirligini men oldim-da, material tayyorlashga kirishib ketdik. Devoriy gazetani to'liq o'zim bezatdim. Maqolalarni ham o'zim ko'chirib yozdim. Rasmlı materiallar joylandi. Krossvord ham tuzdim. Hatto, fikr bildirish uchun bir konvert yopishtirib, ichiga qog'ozlar solib qo'ydim.

Bir haftadan so'ng domlanning kelishiga gazetani fakultet foyesiga osib qo'ydik. Tan olish kerak, boshqa guruhlarnikidan bizniki yaxshiroq chiqdi. Har bir maqolani maroq bilan o'qishdi. Konvert ichida fikrlar bitilgan yozuvlar ko'payib ketdi. Tabiiyki, Halim Saidov ham xursand bo'ldi, maqtadi. Darsdan so'ng meni chaqirdi-da, «bugun ishxonamga o'ting» dedi.

Darsdan so'ng umrimda birinchi marta o'sha mashhur «gazetachilar korpusi» — Matbuotchilar ko'chasi, 32-uyga bordim. Bino kirish qismida turarkanman, kazo-kazo jurnalistlar, shoir va publitsistlarni ko'rdim. Gazeta nomlari yozilgan ro'yxatdan «Ma'rifat»ni qidirib, qo'ng'iroq qildim. Meni muxbirlardan biri 4-qavatga olib chiqdi.

Halim Saidov yuzida tabassum bilan kutib oldi-da, bosh muharrir o'rinbosari Abdusamat Rahimov xonasiga olib kirdi. He yo'q, be yo'q bir qog'oz va ruchka berib, «yozing» dedi. «Nimani yozaman?», dedim hayajonlanib. «Ariza yozing, ishga kirishga». Men butkul shok holatida edim. Umrimda hali biron joyda rasman ishlamaganman, ariza yozmaganman. Domlaga «men yozishni bilmayman», dedim. Keyin Halim Saidov aytib turib yozdirdi: «Meni

«Ma'rifat» gazetasiga 0,25 stavka muxbirlilik lavozimiga ishga olishingizni so'rayman».

Ariza yozib bo'lingach, domla menga qarab: «Kompyuterda ishlashni bilasiz-a» dedi. Hayajondanmi, oniy bir baxtni yo'qotib qo'ymaslik qo'rquidanmi, ha, deb yubordim. Vaholanki, maktabda sovet zamonidan qolgan «Praves 8A» kompyuterlarida ishlagan, yangi Windows degan tizimni ko'rmagan ham edim. Domla gazetadagi bo'limlar bilan tanishtirdi-da, bir stol va kompyuterni ko'rsatib, «bu sizning joyingiz, ishni boshlang» dedi.

Kompyuter qarshisida o'tirarkanman, o'zimda emasdim. Bir lahzada o'zim orzu qilgan maskanni ko'rish tugul, uning a'zosiga ham aylangandim. Kechagina hali o'zini ko'rmasdan salobatidan hayiqqanim inson o'zi ishga taklif qilib turibdi.

.....

Izohga hojat bo'lmasa ham kerak. Davronbek Tojialiyevning gazeta muharriri hisoblangan ustoz tomonidan berilgan vazifaga jiddiy kirishishi va bu ishda mehnatkashligi u endigina universitet ostonasiga qadam qo'yishi bilanoq yurtimizdagi mashhur gazetadan ish bilan ta'minlanishiga sabab bo'lgan. Siz ham harakat qilib ko'ring, talaba do'stim.

52-tavsiya: **E-MAIL YOZISH MADANIYATINI** **QUNT BILAN O'RGANIB OLING**

Talaba do'stim, biz elektron-dijital olamning tobora kuchayib borayotgan davriga kirib keldik. Davlat xizmatlaridan tortib savdogacha, barcha-barchasi raqamli olam orqali hal etilmoqda.

Ushbu davr sizdan ba'zi qoidalar asosida yashashingizni talab qiladi. Shulardan biri – bu e-mail, ya'ni elektron xat yozish san'atidir. Afsuski, yurtimiz yoshlarida hali-hamon e-mail yozish madaniyati yetishmaydi. Kopchilik hatto ismini ham aytmay, fayllarni e-mail ichiga joylab yuboraveradi. Yoki qayta-qayta yuboradi. Vaholanki, bu bo'yicha chet ellarda alohida kitoblar chiqarilgan.

Dunyoda barcha ishlar Telegramdagi chat orqali hal etilmaydi. Telegram – norasmiy so'zlashishning qulay ko'rinishi bo'lib, rasmiy oldi-berdi va yozishmalar uchun uning funksiyasi yetmaydi va biroz noqulay. E-mailda esa siz ko'p masalalarni batafsil ifodalashingiz mumkin. Bundan tashqari, rasmiy tashkilotlar bilan bog'lanishlar, turli professorlar bilan yozishmalar, grantga topshirishning aksari ham e-mail yozish orqali amalga oshiriladi. Demak, agar siz yulduz talaba bo'lishni istasangiz, unda e-mailni qanday chiroyli va qisqa-lo'nda yozishni o'rganib qo'yishingiz SHART.

Buning uchun esa, quyidagi tartibga amal qiling:

1) Birinchi kurs boshidayoq, Googlening Gmail xizmati orqali shaxsiy elektron manzilingizni oching. Agar tushunmasangiz, bu ishni biladigan tanishlardan yordam so'rang.

Unga sizni uyaltiradigan emas, balki ism-sharifingizni ko'rsatadigan chiroyli nom tanlang. Masalan, ism-sharifingiz Mavluda Soliyeva bo'lsa, unda m-soliyeva@gmail.com yomon nom bo'lmasdi.

E-mail orqali siz, odatda, boshqa birovning e-mail manziliga xat yozasiz. Shunday ekan, o'sha insonning ham e-mail manzilini bilishingiz lozim.

E-mail yozishda mavzuni kiritishni unutmang. Masalan, Gmail hisobi ichida yuboriladigan manzil kiritilgach, uning ostida mavzu nima ekanligi ham so'raladi. Ammo menga xat yozadigan yurtimiz yoshlarining aksariyati xat mavzusi nima ekanligiga umuman qarashmaydi. Misol ushun, siz Myunxen universitetining Xalqaro aloqalar bo'limiga magistratura bosqichi yo'nalishidagi grant bo'yicha xat zozyapsiz deylik. Ular siz kabi talabalardan kuniga yuzlab xatlar qabul qilishgani uchun, albatta, mavzuni kiriting. Masalan, «Soliq sohasi boshqaruvi dasturi bo'yicha savol» yoki «Injenerlik kursining hujjatlari: O'zbekistondan» kabi aniq mavzularni tanlab, keyin yuboring. Shunda, uni ochib o'quvchi inson ham sizning maqsadingizni tez tushunib, tezkorlik bilan javob yozish imkoniga ega bo'ladi. Bo'lmasa, xatingizga javob kelmay, o'zingiz xunob bo'lib yurasiz.

Agar notanish insonga birinchi bor xat yozayotgan bo'lsangiz, unda e-mailingiz boshida, albatta, o'zingizni batafsil tanishtirishni unutmang. Tajribamdan aytishim mumkinki, ko'plab yoshlarimiz e-mail yuborilayotgan insonga o'zlarini tanishtirishni umuman o'ylashmaydi. Axir sizni tanimagan inson nega xatingizga javob bersin? Nega u haqida boshini qotirsin. Yuborgan xatingizni ochib, yopadi-qo'yadi, vassalom. U bundan hech narsa yutqazmaydi, ammo siz juda katta talafot ko'rasiz. Shunday ekan, kelting, madaniyatli bo'lishga harakat qilaylik. Uning uchun esa, o'zingizni chiroyli qilib tanishtirgandan so'ngina asosiy mavzuga o'ting. Masalan, «Assalomu alaykum. Hurmatli Olim Olimjonovich, mening ismim Dilshod Allayev. Buxoro kimyo-texnologiyalar instituti, 4-bosqich talabasi-man». Qanday chiroyli, shunday emasmi?

Undan keyin esa maqsadingizni aniq ayting. Ammo, undan ham oldin, u kishiga xatingizni o'qiyotganliklari uchun tashakkur aytib qo'ysangiz yana ham yaxshi: «Qimmatli vaqtingizni ayamay, ushbu xatimni o'qiyotganingiz uchun minnatdorman. Xat yozishdan maqsadim shuki,...».

Yakunda esa, xat yozilayotgan inson ismini yana bir bor tilga olgan holda, tashakkur aytishni unutmang: «Xatimni e'tibor bilan o'qiganligingiz uchun katta rahmat. Hurmat bilan, Falonchi Falonchiyev».

Faqat diqqat qiling:

✓ Ba'zan narigi tomonga biror hujjatni e-mailga qo'shib yuborish holatlari bo'ladi. Bunda albatta, o'sha hujjat e-mail ichiga joylanganligiga yana bir bor ishonch hosil qilgachgina yuboring. Bo'lmasa, narigi tomon sizga xat yozib, hujjat e-mail ichiga qo'yilmaganligini aytib, vaqtini zoye ketkazishga majbur bo'ladi.

✓ O'ta uzun e-mail yozishdan saqlaning. Narigi tomonning ham vaqtini e'tiborga oling.

✓ E-mail yozishni boshladingizmi, endi sizda har kuni o'sha elektron pochtagizni tekshirib, sizga kelgan xatlar-ga javob berish mas'uliyati ham paydo bo'ladi. Xorijdagi do'stlarimiz ba'zan O'zbekiston hududiga xat yozilsa ham, haftalab-oylab o'tsa hamki biror javob kelmaganidan shikoyat qilib turishadi. Demak, agar sizga kimdir xat yozsa, tezlik bilan javob berishga harakat qiling. Aslo orqaga surmang. Agar tezlik bilan to'laqonli shaklda javob berish mumkin bo'lmasa, unda «Sizga tez orada to'laqonli javob yozaman» deya narigi tomonga uning e-mailini o'z vaqtida o'qiganligingizni yetkazib qo'ying. Mana shunisi ijtimoiy odobga to'g'ri kelganidir.

✓ Ba'zan, sizga kelgan xatlar «spam box» nomli virusli xatlar papkasiga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun ularni vaqti-vaqti bilan tekshirib turing.

✓ E-mail manzilingizning parolini yo'qotmang. Bundan keyin e-mail manzilingizga qo'shimcha ravishda Facebook, LinkedIn... kabi ijtimoiy tarmoqlarga kirishga majbur bo'lasiz. Tabiiyki, u yerda siz ism (ID) va parollarni ko'plab ishlatasiz. Ularni bir kichik daftarchaga yozib boring. Shunda hech qachon unutmay-siz. Daftarni esa hech kimga ko'rsatmang.

Tavsiyamning oxirida aniq bir misol berib ketsam:

Assalomu alaykum, ustoz Olim Olimjonovich,

Mening ismim Tolib Talabjonov, Toshkent politexnika instituti, gidroenergetika fakultetining 3-bosqich talabasi-man. Avvalo, ushbu xatimni vaqtingiz ziq bo'lishiga qaramy o'qiyotganligingiz uchun chuqur minnatodirchilik bildiraman.

Hurmatli Olim Olimjonovich, sizning sohamiz bo'yicha yozgan yangi kitobingiz 3-bosqich talabalari orasida juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Bizda ushbu kitobingizga oid ko'pgina savollar tug'ildi. Shu sababli, kelayotgan aprel oyining 2-yarmida oliygohimizda biz talabalar bilan ushbu kitobingiz haqida uchrashuv o'tkaza olasizmi? E'tiboringiz uchun fakultet rahbariyati va ustozlarimiz bu uchrashuvga juda xayrixohlar. Agar tashrif buyuradigan bo'lsangiz, uchrashuv uchun barcha sharoit muhayyo qilinadi.

Mumkin bo'lsa, javobingizni shu e-mail orqali kamina 10 kun ichida bildirsangiz.

Javobingiz uchun oldindan katta rahmat,

Chuqur hurmat bilan,

Tolib Talabjonov,

Toshkent politexnika instituti,

gidroenergetika fakulteti, 3-bosqich talabasi.

53-tavsiya: **TEATRLARGA KO'PROQ BORING. MUZEYLARNI KO'RING**

Talabalik davrimda men ham Toshkentdagi bir qancha mashhur teatrlarga borganman. U yerda siz-u biz sevib tomosha qiladigan, filmlarda rol ijro etgan aktyor va aktrisarimizni uchratishimiz mumkin. Ular ko'z o'ngingizda jonli rollarni ijro etishadi, tomoshabin bilan jonli muloqotga kirishadilar. Buning gashti o'zgacha, u yerdan ma'naviy olamingiz ancha boyib qaytasiz.

Biroq, talabalarimiz negadir teatrlardan qochadilar. Talabalik davrimizda yuridik universitet rahbariyati teatrlarga bizni ko'p olib borishardi. Yaxshi eslayman, 2-jahon urushidan keyin asirga tushgan yaponlar tomonidan qurilgan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Hamza Hakimzoda Niyoziyning «Boy ila xizmatchi» operasiga borgandik. Birinchi parda tugashi bilan shu darajada ko'p talaba qaytib ketishni boshlaganki, 2-pardaga ham talabalar qolishi uchun ustozlarimiz teatring eshiklarini ichkaridan qulflab qo'yishgandi. Bizga qayerdan kelgan ekan, bunday yovvoyilik... Teatr oxirida barcha aktyor va aktrisalar chiqib, salom beradigan qismi bor. Ishonasizmi, zalda qolgan talaba va professor-o'qituvchilar sahnada turgan insonlardan oz edi. Shu kuni teatrning kasbiga sodiq bu aziz insonlarini ketib qolganlar hisobiga ham olqishlash uchun juda uzoq qarsak chalgandik.

Vaholanki, rivojlangan davlatlarda teatrlar doimo tomoshabin bilan to'la turadi. Londonda yashagan paytimda esa tarixi uzun katta teatrlardan tashqari, kichik mahallalar ichida joylashgan xususiy teatrlarning qanchalik ham ko'p ekanligidan hayratlanardim.

Yurtimizda yaxshi teatrlar juda ko'p.

Boshqa viloyat va shaharlarida ham teatrlar bor. Ular bilan esa quyidagi sayt orqali tanishish mumkin: <https://teatr.uz/>

Muzeylar haqida ham yuqoridagi gapni aytish mumkin. 2005-yil sentabr oyida Yaponiyaga ilk bor kelganimda bir yapon professori mendan O'zbekiston davlat san'at muzeyi haqida so'rab, haligacha bormaganligimni bilgach, yurtimizga qaytganimdan keyin, albatta, u yerga borishimni maslahat berdi. Qarang, xorijliklar bizni bizdan ko'ra ko'proq bilishadi. Juda uyalgan edim. Toshkentga qaytgach, o'sha muzeyga bir necha bor bordim. Siz ham uyaliq qolishni istamasangiz, millatimiz tarixi omonat qilingan muzeylarimizni talabalik davringizda albatta borib, ko'ring.

54-tavsiya: YOZISHNI O'RGANING VA KICHIK MAQOLALAR CHOP ETING

Jamiyatda insonlarning qaysi mahorati eng ko'p qadrlanishini bilasizmi?

Ha adashmadingiz, yozish – eng ko'p qadrlanadi.

Yuristmisiz – sud hujjatlarini tayyorlab berishingiz, shartnoma loyihasini berishingizga eng ko'p haq to'lanadi.

Geologmisiz – matematik-fizik hisob-kitoblar asosida tayyorlab bergan loyihangiz uchun eng ko'p haq to'lanadi.

Adabiyotshunosmisiz – yozgan nasr yoki nazmingiz uchun xalq sizni hurmat qiladi.

Konsalting firmasining xodimimisiz – mijozlar uchun ma'lum bir bozorni o'rganib, tayyorlagan hisobotingiz sizning firmangizga eng ko'p foyda keltiradi.

Biolog-olimmisiz – ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqot natijangiz eng ko'p qadr ko'radi.

Hatto Prezident Administratsiyasida ishlasangiz ham, siz tayyorlagan loyiha mazmunining boyligi va o'rganilgan darajasi chuqurligi eng ko'p qadrlanadi. Shuning uchun ham, yuqoriga ko'tarilmoqchi bo'lgan insonlar ilmiy daraja olish uchun nomzodlik dissertatsiyasini yozishadi. Demak, davlat organlarida yuqoriga ko'tarila olish uchun ham siz yozish qobiliyatingizni kuchaytirishingiz kerak.

Hatto, yurtimiz Prezidenti maslahatchilarining boshida *spichrayter* – Prezident nutqlarini yozuvchisining turishi va ushbu maqom egasiga yuksak darajaning berilishining o'zi ham ushbu tavsiyamning qay darajada muhimligini isbotlab turibdi*.

Bularning barchasi esa yozishsiz amalga oshmaydi. Shunday ekan, universitet hayotida, albatta, tahliliy yozish ko'nikmasini o'zingizda shakllantiring. Yozganda ham asosli, aniq va tushunarli tarzda yozing.

* 2021-yil avgust oyi muddatiga ko'ra, Xayriddin Madriddinovich Sultanov, Prezident Shavkat Mirziyoyevning maslahatchisi va spichrayteri hisoblanadi.
Manba: https://prezident.uz/oz/site/managers?menu_id=15

Buning uchun universitetlarimizda imkoniyatlar bisyor. Sizga ustozlaringiz turli-tuman insho, esse va bayon yozib kelishni vazifa sifatida berishlari mumkin. Bunday imkoniyatdan unumli foydalangan holda, turli formatlarda yoza olish qobiliyatini o'zingizda shakllantirishga harakat qiling.

Afsuski, O'zbekistondagi ta'lim tizimida haqli ravishda eng kam e'tibor beriladigan va eng yomon natijaga erishadigan yo'nalishimiz ham yozishdir. Ingliz tilidan IELTS imtihonida sizdan talab qilinadigan 4 xil sinov – so'zlash(speaking), yozish(writing), eshitish (listening) va o'qish (reading) orasidan bizning yoshlar eng yomon natijani qayd etadigani bu – akademik yozuv qismidir. Nega? Chunki haligacha zamonaviy shaklda, masalalarni chuqur tahlil qiladigan tarzda talabalarga yozuv madaniyatini va ko'nikmasini bera olganimiz yo'q.

Shunday ekan, siz bu ishni kechga surmay, sohangizga oid yozuv ko'nikmalarini o'rganib qo'ying. Uni qanday qilib qo'lga kirita olishni bilasizmi? Juda ham oddiy – YOZISHNI O'RGANISH UCHUN JUDA KO'P YOZISH KERAK. Boshqa yo'li yo'q. Ammo qaysi qoidalarga asoslanib?, deb sorashingiz tabiiy. Bu borada sizga bir necha maslahatlar bersam:

Avvalo, o'z sohangizda to'g'ri yozishga oid qanday kitoblar borligini aniqlab ko'ring. Agar bunday kitobni topsangiz, undan foydalanib, yozish ko'nikmalingizni oshiring. Menimcha, yuqoridagi kitoblarni topishingiz amri-mahol. Chunki xorijda «Academic writing» nomi bilan juda ham ko'p tur va sonda chop etiluvchi bunday kitoblar, negadir, yurtimizda deyarli qalamga olinmaydi.

Ikkinchidan, sohangizga oid chiqariladigan jurnallarni topib, ularga o'xshatma (imitatsiya) qilib, yozishni osonlik bilan o'rganish mumkin. Chunki ilmiy jurnallar o'sha jurnal tahrir hay'atining tekshiruvidan o'tib chiqariladi. Shunday ekan, o'zingizga yoqqan mavzudagi maqolalarning yozilish uslubi, tuzilishi, bundan tashqari, kirish, asosiy qism va xulosa qismlari kabilarni yaxshilab o'rganib chiqing. Ko'p

グローバル愛
Global

名古屋大と提携する母国のタシケント国立法科大学で日本語と日本の法律を4年間学び、2007年に名大大学院法学研究科で国際経済法を研究するために来日した。その後、名大の研究員を経て、昨年春から名古屋経済大で教壇に立っている。

も不思議なのは、人が集まって雑談をする機会や場所が少ないこと。自身を含め、「ウズベキスタン人は相談事などを人と話すことで、ストレスの解消を図る文化がある」という。「人と話すのがストレスとか、一人でいた方が落ち着く、

? フシギ

井戸端会

妻子を祖国に残し、投資仲裁や中央アジア法を専門に研究を続けている。子どもはもうすぐ2歳。なかなか会えないのは寂しいが、ウズベキスタンでは自身の研究を深められる環境が整っておらず、当面は日本に残るつもりだ。

約10年間、日本にいて最

なんて信じられない」

ウズベキスタンには近所や大学など、どこでもベンチやカフェがあり、そこに人が集まってきて井戸端会議を始めるという。日本にはそういった場所が少なく、「喫茶店でも一人で何かしている人が多い気がする。学生も友人と話すより

ウズベキスタン・フェルガナ州

「研究費で、今後はもっと本を買う予定です」と話すウミリデノブさん＝犬山市の名古屋経済大で

«Yapon madaniyatiga chet elliklarning munosabati» mavzusida berilgan intervyu.

«Chunichi» gazetasi,
2018-yil 21-yanvar soni.

maqola o'qisangiz, o'z-o'zidan maqolalarning tuzilishi va yozilishi uslubini tushuna boshlaysiz. Ana shunda, o'zingiz tanlagan mavzu yoki sizga berilgan vazifa mavzusini ham siz o'qigan maqolalarning ramkasiga solib, yozishingiz mumkin bo'ladi.

Ma'lumot o'rnida, yurtimizda har bir soha bo'yicha ilmiy jurnallar tahririyatlari faoliyat yuritadi. Agrar sohada «O'zbekiston agrar fani xabarnomasi»,* xalqaro aloqalar va xalqaro huquq sohasida esa, «Xalqaro munosabatlar»,** yuridik sohada «Yuridik fanlar axborotnomasi»,*** tibbiyot sohasida esa «Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi»**** mavjud. Bunday ro'yxatni har bir soha bo'yicha davom ettirish mumkin.

Uchinchidan, siz yuqoridagi jurnallarga yo yakkaxon tarzda yoki ustozingiz bilan hamkorlikda maqola berishga harakat qiling. Shu jarayonda professional maqola yozish qobiliyatingiz oshadi. Bundan tashqari, universitetlarimizda ko'p bora, talabalar konferensiyasi ham tashkil etiladi. Bu haqda kichik xabarlar yozsangiz ham ma'qul.

Eng oxirida esa, esingizda bo'lsin: birdaniga mukammal maqola yozishni orzu qilmang. Boriga shukur qilib, yozavering. Biroz vaqt o'tsa, asta-sekin qo'lingiz ham kelihib, tahliliy maqolalarni yoza oladigan holatga kelasiz. «Ko'z qo'rqoq, qo'l botin» degan otalar so'zini unutmang.

* <https://tdau.uz/site/menu?s=ilmiy-jurnallar>

** <https://uwed.uz/uz/journal>

*** <https://tsul.uz/uz/ilmiy-nashrlar-all>

**** <https://ttaa.tma.uz/>

55-tavsiya: QISQA, LO'NDA VA OLDINDAN TAYYORLANIB SO'ZLANG

Nutq madaniyatini egallang. Chunki yaxshi muomala va aniq so'zlash orqali insonlar bilan aloqaga kirishishingiz yana ham osonlashadi. Yaqinda O'zbekistondagi 100 dan ortiq xususiy firmalarda o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, «Sizning firmangizga kelib qo'shilish uchun ishchilardagi qaysi malaka eng qadrlanarli?» savoliga 12 foiz firmalar, insonlar bilan aloqaga kirishish (communication) deya javob berganlar.* Bu holat Yaponiyada ham, Yevropa va Amerikada ham deyarli bir xil. Insonlarning bir joyga to'planib ishlay boshlagan bu davrda o'zaro muomala madaniyatining o'рни kun sayin ortib boraveradi.

Shunday ekan, talaba do'stim, *qisqa, lo'nda va oldindan aytmoqchi bo'lgan fikringizni tayyorlab olgandan keyingina so'zlashga kirishing.*

Nega? Chunki insonlarda endi vaqt kamaygan, hamma band va universitet hayotidagidan farqli ravishda ishonangizda hech kim sizni soatlab eshitmaydi. Aytmoqchi bo'lgan masala va uning har bir elementi (points) aniq-tiniq bo'lishi kerak. Buning uchun esa siz sherigingizga aytmoqchi bo'lgan masalani miyangizda avvaldan pishitib olishingiz lozim. Bo'lmasa, «Bilasanmi? Aytmoqchimanki... Nima desam ekan... Boshqacha so'z bilan aytganda... Tushuntirib berolmayapman-da...» kabi narigi tomonning ham vaqtini oluvchi so'zlar og'zingizdan chiqaveradi.

Prezident Vudro Vilsondan, uning vazirlaridan biri qanday qilib qisqa va ma'noli nutqlarni tayyorlay olishini so'raganida, AQShning 28-prezidenti tomonidan berilgan javob quyidagicha bo'lgan ekan:

«Agar 10 daqiqa so'zlashim lozim bo'lsa, men unga bir hafta tayyorgarlik ko'raman; agar 15 daqiqa bo'lsa,

* HRC va ERGO, «Skilss gap in Uzbekistan», 2021, manba: <https://www.ergorc.com/>

3 kun; yarim soat so'zlashim lozim bo'lsa, ikki kun; agar men bir soat so'zlashim kerak bo'lsa, u holda men hozir ham tayyorman».

Demak, qisqa va ma'noli qilib so'zlash uchun alohida tayyorgarlik lozim ekan. Eslaysizmi, Venesuelaning Hugo Chavez ismli maqtoovni sevuvchi prezidenti 2012-yilda Venesuela Milliy Assambleyasida ketma-ket 9,5 soat ma'ruza qilgandi! Kim ham bunday mantiqsiz uzoq «vaysash»ni eshitardi?!

Unda siz ham qisqa va lo'nda so'zlashga o'rganing. Universitetni bitirishdan oldin buni boshlab, suhbatdoshingizga so'zlashdan oldin eng kamida bir zum tin olib, aytmoqchi bo'lgan gapingizni o'ylab oling. Fikringizni yana bir bor chig'iriqudan o'tkazib keyingina so'zlasangiz, ishoning, so'zlaringiz sifatli chiqib, xatosi kamayadi va e'tiborga olinasiz.

«Toyota» guruhiga kiruvchi yirik kompaniyalarning biridagi yuridik departamentda ishlovchi do'stim aytgandi:

«Kompaniyamiz boshlig'iga biror muhim loyihani tushuntirib berish uchun bo'lim rahbarlariga juda kam vaqt beriladi. Odatda, boshliq boshqa uchrashuv uchun mashinasida poyezd stansiyasiga yo'nalgan paytda loyihagini tushuntirmoqchi bo'lgan bo'lim rahbari ham boshliq mashinasiga o'tiradi. Stansiyagacha nari borsa 4-5 daqiqqa ketadi. Ammo shu davr ichida yoshi katta rahbarimizga bo'lim boshlig'i o'zining loyihagini tushuntirib, rozilik olib bo'lgan bo'lishi kerak».

Zamonaviy dunyoda muhim shaxslarning vaqti qay darajada kamligini endi tushungandirsiz? O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Bu davr endilikda bizga ham kirib kelyapti. Undan qochib ketishimiz g'oyat mushkul. Shunday ekan, hozirdan boshlab, qisqa, lo'nda va ma'noli so'zlash qobiliyatini o'zingizda shakllantirishga kirishing.

56-tavsiya:

TELEFONDAN FOYDALANISH VA U ORQALI SUHBATLASHISH ODOBINI BILIB QO'YING

Yurtimizda telefon bilan muloqot qilish hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda deyarli barchada uyali telefon bor.

Ammo ushbu telefonda gaplashish madaniyatini yaxshi biladiganlar qancha?

– O'zini tanishtirmasdan, sizdan biror insonni chaqirib berishni so'raydiganlar;

– Kechasi soat 21:00 dan keyin telefon qiladiganlar;

– Dars davomida professor-o'qituvchilarning ko'zini shamg'alat qilib, yonidagilarga ozor bergan holda telefonda gaplashadiganlar;

– Hatto telefon ovozi o'chirib qo'yish talab qilinishiga qaramay, ma'ruzaning eng yaxshi joyiga kelganda ovozi chiqib, butun kursni behuzur qiladiganlar;

– Telefonda soatlab sizning vaqtingizni olib, aytmoqchi bo'lgan gapini poyintar-soyintar qilib aytuvchilar;

– Oldindan salom-alikni nasiya qilib, qo'pol ohangda so'zlovchilar;

– Ish vaqtida telefon qilayotganini bilib tursa ham, bir og'iz bo'lsa-da, bu holatdan xijolatda ekanligini tan olib, uzr so'rab qo'yuvchilar;

– Suhbatdoshi bilan uzoq suhbat qurganidan keyin shuncha vaqtni o'ziga ajratgani uchun telefon suhbatini oxirida tashakkur aytib qo'yuvchi oliyanoblar;

– Kursdosh qizlarning telefon raqamlarini yoki Telegram manzillarini boshqa begonalarga, egasining ruxsatini olmasdan ham beruvchilar;

– Telegram raqamlarimizni keraksiz va bizga aloqasiz guruhlarga bizdan rozilik olmay qo'shib qo'yuvchilar;

– (Telefonda so'zlashuvga aloqasi bo'lmasa-da) Sizdan so'ramay sizni telefonida bemalol rasmga oluvchilar...

Xullas, yuqoridagi ro'yxatni biz yana uzooooq davom ettirishimiz mumkin.

Telefonda so'zlashish odobini o'rganishning juda ham ko'p yaxshi tomonlari bor. Talabalik davrimda ba'zan telefon qilib, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti talabasi bo'lgan xolamning o'g'lidan habar olib turardim. Har qalay viloyatdan kelib Toshkenti azimda birga o'qiymiz. Hol-ahvol so'rab turish yaxshi edi. Xolamning o'g'li hisoblanmish akam boshqa joyda ijaradagi do'stlari bilan yashardi. Akam doim salom-alikdan keyin biroz suhbat qilib, telefon go'shagini qo'yishdan avval, albatta, mening telefon odobini qoyillatishimni biroz maqtab qo'yardi. Negaligini so'rasam, akamga boshqa tanishlari ham telefon qilarkan-u, ammo ularning telefon qilish odoblari xolamning o'g'li birga yashaydigan o'rtoqlarining jig'iga tegib, ularni xunob qilar ekan. Ammo men qo'ng'iroq qilganimda, muomalamni eshitib, meni boshqalarga maqtab qo'yishar ekan. Albatta, bu men uchun katta faxr bo'lgan.

Telefon madaniyati ommalashishi o'z navbatida turli ijtimoiy axloq normalarining vujudga kelishini ham taqozo qiladi. Bu esa katta hayotga qadam qo'yishga, qush bo'lib jamiyat ichiga uchishga tayyorgarlik ko'rib turgan siz talaba do'stlaringa suv va havodek zarurdir. Telefon qo'ng'iroqlariga o'z vaqtida javob bermaslik yoinki uni olib yurishning qoidalariga amal qilmaslik ham xijolatliklarga sabab bo'lishi mumkin. Sabab bo'lmoqda ham. Telefoni oqibatida o'z hayotini izdan chiqarganlar ham bor.

Shunday ekan, boshqalar bee'tibor qarasa ham siz loqayd bo'lmang. Telefonga oid barcha ijtimoiy etika qoidalarini bilib olib, hamisha salom bilan boshlanuvchi va dona-dona aytib, suhbatdoshingizning tinkasini quritmaydigan tarzda, telefonda so'zlashuv qoidasini o'rganib oling.

Talabalik paytingizda, «mayli, talaba ekan-da» degan ma'noda ko'pchilik sizni kechirib yuboradi. Ammo 4 yil

o'tib, biror tashkilotda mas'uliyatli joyga borganingizda, jamiyat sizga qat'iy tartib-qoidalarini tatbiq etishni boshlaydi. Demak, hozirdanoq kamchiligingizni (agar u mavjud bo'lsa) to'g'rilab oling.

57-tavsiya: **QAYERDA YASHASHINGIZNI** **QARINDOSHLARINGIZGA AYTMANG**

Juda g'alati tavsiya bo'ldiku-a?! Axir, mehmon atoyi Xudo bo'lsa, nega endi manzilni qarindoshlarga aytmaslik kerak? Shoshmang, do'stim. Tushuntirib beraman.

Oliygohdagi o'qish davrida qo'lida sumka to'la oziq-ovqat va cho'ntagi to'la pul bilan kelib, talabani qo'llab-quvvatlaydigan mehmon – atoyi Xudo, ko'p keladigani emas. Chunki talabaga atigi 4 yilgina vaqt berilgan. U shu vaqt ichida hayotining poydevorini qurishi va o'zidagi butun imkoniyatlarini ishga solishi darkor. Shunday ekan, o'zining tug'ilib o'sgan viloyati va shahridan uni qora qilib, hamma kirib kelaversa, talabada o'z ustida ishlashga, yuqoriga parvoz qilishga vaqt qoladimi?

Bunday holat mening boshimdan o'tmagan, ammo boshidan o'tkazib, qiynalganlarni ko'p ko'rdim. Toshkentdagi biror o'qishga o'sha qishloqdan bir talaba kirdimi, talaba yashayotgan uy uning barcha qarindoshlariniki va qishloqdoshlariniki bo'ladi. Rejasiz, qachon xohlashsa kirib kelishaveradi... Ayniqsa, voha tarafdin keladigan talabalarda bu juda kuchli seziladi. Talabalar ko'pchilik bo'lib yashashgani sababli, mehmon deyarli arimaydi. Dars qilishga sira imkon bo'lmaydi. Talaba hatto dars qilish uchun kitob va kompyuterlarini ham keraklicha asray olmaydi.

Albatta, ba'zi istisnoli holatlar bo'lib turadi. O'zimdin misol, katta amakim Toshkentdagi ishlarini bitirish uchun har ikki yoki uch oyda bir marta mashinasi to'la oziq-ovqat va cho'ntagi to'la pul bilan kelib, biz talabalarni qo'llab ketardi. O'zlari ham ko'p vaqt turishmas, band inson bo'lganliklari uchun ertasi kuniyoq yana viloyatga qaytib ketishardi. U kishining kelishlari biz talabalar uchun bayram edi, go'yo.

Boshqa misol, agar qishloq va viloyatlardan ondasonda biror qarindosh yoki tanishimiz bemor bo'lib, Tosh-

kent yoki viloyat markazlariga davolanish uchun kelsa yoki manzilni bilmasa, ularga yordam berish juda ham muhim. Ammo, aziz talaba do'stim, siz o'z universitetingiz joylashgan shaharga o'zingizning qarindosh va mahalladoshlar-ingizni qo'noqlatish uchun kelmaysiz. Siz O'QISH uchun kelasiz. Bu tavsiyamni, aslo unutmang va uni qarindosh-larga yotig'i bilan tushuntiring. Agar shunda ham tushu-nishmay, xafa bo'lishsa(*ehtimoli yuqori, albatta), unda uni-versitet yotoqxonasidan joy olib chiqib keting. Shunda hech kim xafa bo'lmaydi.

58-tavsiya: **ORZU QILISHNI BILING, AMMO XOMXAYOL** **BO'LIHDAN SAQLANING**

General bo'lishni orzu qilmaydigan askar bo'lmaydi, degan gaplar bo'lardi. Hozir ham bormi, bilmayman. Milliy armiyamizga e'tibor kundan kun kuchayayotgan bir paytda yuqoridagi gap hali ham amalda bo'lsa, ajab emas.

Orzu qilishni bilaylik, o'rganaylik. Orzuga ayb yo'q. Qiziqchi Hojiboy Tojiboyev aytganlaridek, Napoleon Bonapartni ham onasi har kuni «Turing, janob imperator» deya orzu bilan uyg'otgan ekan.

Umlari uzun, tan-jonlari sihat bo'lsin, otam meni turlicha ushalmas orzular bilan yurishdan ko'p qaytarardi. Balki bunga u kishining atrofdagi insonlar boshidan o'tkazgan achchiq taqdiralar sabab bo'lgandir. Lekin onamning kitob javonidan foydalanib, juda yoshlik paytlarimdan kitob o'qishni boshlaganim uchun men orzu qilmagan narsalarning hisobi yo'q edi. Otam aynan shundan xavotir olgan bo'lsalar, ajab emas.

Sizga qalbidagi sirli orzularimdan ba'zisini aytaymi? Unda quloq soling:

✓ Shu darajada boy bo'lsam-da, chet elda reytinggi unchalik ham yuqori bo'lmagan universitetlarda kunduzi o'qib, kechasi ishlab yurgan vatandosh talabalarning hammasiga stipendiya bersam. Yurtdoshlarimizdan ham aniq, ham ijtimoiy fan sohalari bo'yicha dunyoning eng nufuzli oliy dargohlarida ishlovchi o'nlab emas, minglab olimlar yetishib chiqsin va butun dunyo o'zbergimga tan bersin.

✓ Imkonim bo'lsa-yu, yurtimda chet elda nashr qilingan ILMIY adabiyotlarni yoppasiga tarjima qilib, uni nashr etuvchi ilmiy markazga asos solsam. Unda o'z sohasining bilimdoni bo'lgan 100 nafar ilmiy xodim erta-yu kech o'zbergim yoshlari uchun butun dunyo tillaridan ilmiy qo'llanmalarni tarjima qilish bilan band bo'lishsa. Yangicha

lug'atlar ishlab chiqarishsa. Nashr qilingan tarjima kitoblarini esa ustiga foyda qo'ymay, o'z tannaxida sotuvchi yuzlab kitob do'konlarini butun yurtimiz bo'ylab ochsam. Undan talabalar bemaol xarid qilishsa va Yurtboshimiz aytgan Uchinchi renessans tezroq yuz bersa.

✓ Qo'lingizdagi kitobni yozish arafasida kamina 35 yoshda edim. 40 yoshimgacha(2026-yil) orzuyim shuki, o'zimning soham bo'lgan huquqshunoslikda mavjud 30 ga yaqin sohaning har biri bo'yicha alohida kitob tarjima qilib, uni yurtimizdagi huquqshunoslik yo'nalishidagi talabalarga taqdim etishni ham reja, ham orzu qilganman.

Men xomxayol emasman. Yuqoridagi orzularim bo'yicha sekinlik bilan bo'lsa ham ilgari layotgan ilmiy va moddiy rejalarim bor. Ular allaqachon o'z natijasini ham bera boshladi. Shu kungacha, huquqshunoslik sohasida do'stlarimiz bilan tayyorlagan 4 ta kitobimiz nashrga tayyor holga keldi. Ba'zilari chop ham etildi. Bundan keyin ham xorijdagi vatandosh talabalarni qo'llab-quvvatlash va kitoblarni ona tilimizga tarjima qilib, eng sara darsliklarni 500.000 dan ziyod talaba do'stlarim va ilmiy xodimlarga yetkazish uchun sa'y-harakatlarimni to'xtatmayman.

Bular mening orzularimdan bir qismi. Sizda-chi? Qadrli talaba do'stim, sizda ham orzular bormi? Unda shu orzuni hech kim ko'rmaydigan joyga aniq yozib, ba'zan unga ko'z qiringizni tashlab turing. Shundagina bemaqsad, beorzu yashamayotgan bo'lasiz.

59-tavsiya:

SIZ KABI FIKRLAYDIGAN KURSDOSHLAR BILAN VAQT O'TKAZING, O'Z VILOYATINGIZDAN KELGAN TALABALAR BILAN EMAS

Viloyat markazlari va poytaxt Toshkentda joylashgan oliygohlarda o'qiydigan talaba do'stlarimizda bir moyillik yaqqol kuzatiladi: ko'pchilik o'zining tumani yoki viloyatidan kelgan talabalar bilan birgalikda ko'proq vaqt o'tkazishga harakat qiladi. Shunday emasmi?

Lekin bunday harakat qay darajada oqilona deb o'ylaysiz?

Aslida, siz umringizda, katta ehtimol bilan bir marotaba boshingizdan kechiradigan bakalavr bosqichi davomida butun yurtimiz va xorijdan kelgan do'stlaringiz anjumani ichida yashaysiz. Bu siz uchun boshqa joylar madaniyati va kishilari haqida bilish va tanishlarni orttirish yo'lidagi juda katta imkoniyat. Mana shunday imkoniyat borligiga qaramasdan, yana o'zimizning viloyatlik yoki tumanlik kursdoshlar bilan birga yurishni, bir so'z bilan aytganda, ulkan imkoniyatlarning nobud bo'lishi deyishdan o'zimni tiya olmayman.

Nega? Chunki bir viloyat yoki tumandan kelsa ham siz birgalikda vaqt o'tkazayotgan talaba hayotga sizchalik jiddiy qaramasligi, katta orzular qurmasligi, vaqtini tejamli sarflamasligi yoki xorijiy tillarni o'rganishga umuman qiziqmasligi mumkin. Aksincha, tili, shevasi boshqacha bo'lsa ham, vodiylik talaba uchun qashqadaryolik yoki buxorolik talaba o'z oldiga qo'ygan maqsadi, orzusi mos tushishi mumkin.

Mening eng yaxshi do'stlarim farg'onalik emaslar. Balki Navoiy, Buxoro, Xorazm kabi viloyatlar yoki Afg'oniston kabi chet davlatlardan kelgan talabalar edi. Yaxshilab o'ylab ko'rsam, farg'onalik do'stlarim haqiqatan oz bo'lgan ekan.

O'zbekiston bir butun, yaxlitdir. Uning hammasi SIZNIKI, BIZNIKI. Shunday ekan, iloji boricha boshqa viloyat va tuman-shaharlardan kelgan talabalar bilan do'stlashing, ulardan o'rganing, uylariga mehmonga boring, o'zingiznikiga chaqiring. Bunda siz kelajakdagi biznes loyihangiz yoki ilmiy ishingiz uchun juda muhim tanishlar to'rini – *networking*ni hosil qila olasiz.

Boshqa viloyatliklar sizdan ko'ra ota-onasiga muomalasi, o'zini tutishi, fikr bildirishi, masalalarga qarashi bilan ajralib turadi va siz ulardan juda ham ko'plab narsalarni o'rganishingiz mumkin. Do'stlashmoqchi bo'lgan kursdoshlaringizni kelib chiqqan joyi va puli emas, balki ularning qiziqishi, maqsadlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda tanlang va ular bilan vaqt o'tkazing.

60-tavsiya: SIZNI ERKIN TANQID QILA OLADIGAN VAFODOR DO'STLAR ORTTIRING

Shonli tariximizdagi ajoyib do'stliklardan biri bu – hazrat Mir Alisher Navoiy va Xuroson davlati podshohi Husayn Boyqaro o'rtasidagi do'stlikdir. Husayn Boyqaro do'stini juda ham hurmat qilganidan unga o'zini bir masalada ketma-ket 7 marttagacha tanqid qilish huquqini berganlar.

Xalqimiz orasida ham «do'stlaringni kimligini aytgin, men sening kimligingni aytaman» degan gap yuradi. Bu rost gap. Chunki insonga uning atrofidagilarning ta'sir o'tkazishi bor gap. Biz, o'z yaqinlarimiz va oshnalarimiz gap-so'zlari, fikrlari ta'sirida ulg'ayamiz. Ulardan ta'sirlanamiz. Shunday ekan, kimlar bilan vaqt o'tkazayotganligingizga, kimlar bilan do'stlashayotganligingizga juda-juda diqqat qiling. Pulni sevuvchi oshna sizga doimo pul va boylikni eslatadi, ilmga rag'bati bor men kabilar esa kitob jinnisi bo'lishga to'xtovsiz undaydi, vatanparvari adolatsizlikka qarshi kurashga chaqiradi. Inson har xil, qarashi turlicha. Siz kim bilan do'stlashmoqdasiz, bunga e'tibor qiling.

Mo'min – mo'minning ko'zgusi degani bejiz emas. Usmonli podshohlari orasida ham vaqti-vaqti bilan sultonlarni ogohlantirib turuvchi xos odamlari bo'lgan ekan. Urush yoki safar paytida ular kelib, sultonni o'zidan ketib qolmasligini eslatib turar ekanlar.

Bunday holat siz talabalarga ham birdek taalluqli. Yaxshi do'stlar orttiring va ularga o'zingizni tanqid qilish huquqini bering. Shunda talabalik davrida xatolaringiz oz bo'ladi.

Buning sababi shundaki, aksariyat talabalar oilasidan uzoq joylarga o'qishga borganliklari va u yerdagi insonlar ularni tanimasligi uchun ham o'zlaridan ketib, tartibsiz hayot kechira boshlaydilar. Oralarida aroqqa mukkasidan ketgan, qimor o'ynagan, firibgarlik ishlariga qo'shilgan, mashg'ulotga bormay qo'ygan talabalar qancha... Shun-

day ekan, bunday paytlarda yonimizda bizni doimo ogohlantirib turuvchi sodiq do'stlarimiz bo'lsa, ular bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatib turishadi.

Mening bunday sadoqatli do'stlarim ko'pligi – shu paytgacha erishgan muvaffaqiyatlarimda va katta xatolarga yo'l qo'ymasligimda juda katta rol o'ynagan. Xulosa qilib aytganda, sizga gapi o'tadigan, tanqidi sizga og'ir botmaydigan insonlardan do'st orttiring va ularga o'zingizni tanqid qilishlariga yo'l qo'yib bering. Ana shunda butun hayotingizni ostin-ustun qiladigan xatolarni qilishdan oldin ular sizga mayoq vazifasini o'tab berishadi.

61-tavsiya:
RAQOBAT QILISHNI O'RGANING, KUYUNCHAK
BO'LING, AMMO TAQDIRINGIZGA ROZI
BO'LISHNI HAM ESDAN CHIQAARMANG

Nega? Agar shunday qilmasangiz, dunyo siz uchun jahannam holiga keladi. Keling, tushuntirib beray.

Men yoshligimda iqtidorli bolalar litseyida tahsil olganman. O'sha paytda Farg'ona viloyati Bag'dod tumanida faqat bizning litseydan bolalar viloyat olimpiadasiga borishgan. Litseyimiz har yili fan sohalaridan barcha o'rinlarni egallash bo'yicha birinchilikka o'rganib qolgandi. Ammo 2002-yil dekabrda kuchli raqobatchi maydonga chiqdi. Tumanimizning boshqa qismida joylashgan gimnaziya!

Shunda men, ya'ni tarix fani bo'yicha 2 marta ketma-ket tuman chempioni bo'la turib gimnaziyadan kelgan talabaga yutqazdim. Raqibim ham anchagina kuchli edi. Bunga shubha yo'q. Faqat shunda men unga eshitarli tarzda taqdirga tan beraman dedim va ketdim. Keyingi yili esa tumanimizdan Toshkent davlat yuridik universitetiga o'z kuchim bilan 3-o'rinda kirgan talaba bo'ldim.

Demak, biz ba'zan boriga shukur qilishni bilishimiz darkor. Ammo harakatdan to'xtamaslik kerak. Ba'zan esa to'xtashni ham bilishimiz lozim.

Bunday holatlar esa hayotimizda juda ko'p kuzatiladi. Masalan, ba'zan yaxshi baho ololmaysiz yoki siz istagan professor-o'qituvchi sizni shogirdlikka olmaydi. Ba'zan esa siz o'tirmoqchi bo'lgan joyni sizga berishmaydi... Ba'zan yigitlar o'rtasida urushda yengilasiz, ba'zan esa ortog'ingiz sizdan ko'ra xushbichim yoki chiroyli bo'ladi... Bularga rozi bo'lmaslikning iloji yo'q... Biroq shunday paytlarda o'zini joniga qasd qilishdan ham ko'ra ahmoqroq yechim bo'lmasa kerak...

O'zingizdan yuqoridagilarga qarab yuraverish sizni g'amgin ahvolga solib qo'yadi. Noshukur bo'lib qolasiz. 2003-yilda o'qishga kirgan bo'lsam-da, mashinam

yoki qo'l telefonim bo'lmagan. Salomat bo'lishsin, kerak bo'lganda kursdoshlarimnikini ishlatganman. To bitirguninga qadar qo'l telefonim bo'lmagan, ammo men o'zimni hecham baxtsiz his qilmaganman. O'qishni muvaffaqiyatli tamomladim. O'rtoqlarim ish qidirishni boshlashgan paytlarida men chamadonimni Yaponiyaga safar uchun tayyorlayotgandim. Nafaqat tayyorlaganman, balki bunga qadar kunchiqar yurtga 2 marta borib kelishga ham ulgurman.

Aytishingiz mumkin: siz universitetda ham yiqilmay, davlat grantida o'qib, 4-kursni bitiriboq Yaponiyaga ketib, hecham muvaffaqiyatsizlikka uchramagansiz, deya. Yo'q! Mening juda ko'p grantlarga topshirgan arizalarim qaytarilgan, hozirgi ishimi topgunimcha kamida 7 ta universitetga hujjat topshirganman. Maqolalarim yillab nazoratlardan o'tkanidan so'ng eng oxirgi bosqichlarda rad etilgan. Ammo men kuyinish bilan birgalikda, taqdirga tan berib, boshqa yo'llarni qidirishdan, oldinga intilishdan to'xtamadim, to'xtamayman ham. Ertangi kun biz uchun, albatta, yanada yaxshiroq bo'lishiga, yangi imkoniyatlar bizni kutib turganligiga bo'lgan ishonchimni yo'qotmayman. Hamon umidliman.

62-tavsiya: USTOZLARGA YAXSHILIK QILING

Ustoz-muallimlar hurmat qilinmaydigan yurtidan ilm qochadi. Chunki yosh avlod o'zini ham hurmat qilinmaydigan kasbda ko'rgisi kelmaydi. Shunday ekan, doimo ustozlarimizga yaxshilik qilaylik.

Qanday qilib deysizmi?

Avvalo aslo qilib bo'lmaydigan «yaxshiliklardan» boshlasak:

– Kursdan o'tish uchun ularga pul berib, o'rgatib qo'ymang;

– Restoranini ham to'lamang;

– Kurs ishingizni professor-o'qituvchiga yozdirmang;

– Auditoriyaning orqa tomonida o'tirib olib, ma'ruzaga xalaqit beruvchi harakatlar sodir etmang. Professor-o'qituvchilarning tomog'ini og'ritib qo'ymang;

– Professor-o'qituvchilarning jig'iga atayin tegmang, ularning asablari ham metindek emas. Ularga achinishni o'rganing;

– Qizlarimiz erkak professor-o'qituvchilarga haddan ortiq mulozamat qilib, ularning fikrini buzmasinlar;

– Yigit talabalar esa odob chegarasidan chiqib, yosh ayol professor-o'qituvchilarga shilqimlik qilmasinlar;

– O'qituvchilar kiygan kiyimiga qarab muomala qilmang. Shakl va tashqi ko'rinish asosida insonga baho berish to'g'ri emas;

– Dars davomida kamtarin bo'ling. Boshqa kursdoshlarga o'zingizni aqlli ekanligingizni ko'rsatib qo'yish yoki professor-o'qituvchini izza qilish uchun harakat qilmang;

– Ustozlar ortidan mazax va g'iybat qilmang.

Lekin ijobiy yaxshiliklarni qilishdan kech qolmang:

– Professor-o'qituvchilar chiqargan kitoblar va monografiyalardan yashirincha 30 tasini sotib olib, do'stlaringizga sovg'a qiling;

– Ko‘p savol so‘rang, professor-o‘qituvchilar shunda darslarga oldindan tayyorlanib, xushyorroq bo‘lib kirishadi. Biroq professor-o‘qituvchi siz kutgandek javob bermasa, tixirlik qilmang. Balki keyingi darslarda o‘z ustida ko‘proq ishlab, batafsilroq javob berar.

– Ilmiy ishlariga ko‘maklashing. Shogirdlikka tushing. Maqolalarni to‘plab berishda, xonasini tartibga solishda, professor-o‘qituvchilarning ilmiy ishlarini yengillatishda yordamingizni ayamang.

– Darsga o‘z vaqtida kelib, professor-o‘qituvchiga maksimal yaxshi muhit tayyorlab berishga harakat qiling.

63-tavsiya:

OLIYGOH UYINGIZGA YAQIN BO'LSA HAM IJARADA DO'STLARINGIZ BILAN YASHANG

Ushbu tavsiyamga amal qilsangiz, garchi iqtisodiy tomondan oilangizning moddiy yuki ortsa-da, buning bir qancha foydali tomonlari mavjud:

✓ Vaqtingiz ko'payadi. Oila bag'rida yashaganda uy ishlariga yordam berish, ota-onaga ko'maklashish, aka-ukalarga qarashish, qo'ni-qo'shnilar bilan aloqani ushlab, qarindoshlar bilan bordi-keldi qilish kabi birqancha holatlar bor. Ammo yaxshimi-yomonmi, bular talabani o'qishidan chalg'ituvchi holatlardir. Agar siz do'stlaringiz bilan ijaraga chiqib ketsangiz, garchi do'stlar bilan vaqt o'tkazish holatlari ko'paysa-da, o'qishga o'zingizni ko'proq bag'ishlay olasiz. Bu esa muvaffaqiyat yo'lidagi talaba uchun juda ham muhimdir.

✓ Siz bilan bir xil fikrli, bir xil fanlarni o'qiydigan izlanuvchan yoshlar bilan turasiz. Bunday muhitda yashash orqali kelajak uchun juda katta motivatsiyalarni olish mumkin. Oilangizda bunday muhit katta ehtimol bilan mavjud bo'lmaydi.

✓ Viloyatdan kelgan talabalar bilan yaqindan tani-shasiz. Ularning hayoti, turmush tarzi va fikrlarini o'rganish imkoningiz bo'ladi. Yaqindan do'st tutinib, bir umrlik qadrdonlarni orttirish imkoniga ega bo'lasiz. Boshqa joyda ham aytganimdek, mening eng yaqin do'stlarim boshqa viloyatlik talabalar bo'lgan. Bu fikrlash doirangizni kengaytirib, sizni ma'nan boyitadi.

✓ Mustaqillikka o'rganasiz. Ijarada talabalar bilan birga yashashingiz sizni oilaviy xo'jaligingizni mustaqil yuritishga, vaqtingizni mustaqil belgilash va uzoq muddatli rejalar qilishga imkon beradi. Shunday ekan, mustaqil inson bo'lmoqchi bo'lsangiz, ijarada do'stlaringiz bilan yashang.

✓ Ijtimoiy hayotda insonlar bilan turli masalalarda birga yashash qobiliyati shakllanadi. Oila bilan yashashda siz yillar davomida eng qadrli va eng yaqin insonlar davrasida bo'lgansiz. Qo'riqlangansiz. Ammo kursdoshlar bilan birga yashashda bunday bo'lmaydi. Bozorlik qilishdan uyni tozalashgacha endi hamma bilan kelishib yashashga to'g'ri keladi. Urishasiz, talashasiz, ba'zan esa chiqishmay ham qolasiz. Mayli, bo'lsin. Xuddi yosh bolalarni kelajakda yuz beruvchi xavfli kasalliklarga qarshi immunitet hosil qilish uchun atayin emlama qilib, osha kasallik virusini yosh murg'ak chaqaloqlar badaniga shifokorlar yuborganidek, siz ham jamiyatning katta sahnasiga qadam qo'yishdan oldin, talabalar bilan birga yashab, mikro olamda o'zingizni hayotga tayyorlash imkonini qo'lga kiritasiz.

✓ Oshpazlikni o'rganasiz. Mohir oshpaz bo'lmasangiz, eng kamida bir necha taomlarni tayyorlay olish ko'nikmasini qo'lga kiritasiz. Onangiz va opangiz qadri juda ham o'tadi. Ammo nailoj. Masalan, palov tayyorlashni kamina Toshkentdagi talabalik davrimda o'rganganman.

64-tavsiya: FUTBOLDAN BOSHQA SPORT TURLARI HAM MAVJUD

Bizda istaymizmi yo'qmi, erkaklar orasida eng mashhur sport turi bu – futbol. Biroq hamma ham futbolni yaxshi o'ynay olmasligi yoki o'ynab maza qilmasligi ham mumkin. Bunday paytlarda boshqa sport turlari borligini also unutmaslik kerak: volleybol, tennis, stol tennis, suzish, yugurish, velosiped poygasi va hokazo.

Talaba sifatida yoshlikdan ushbu sport turlaridan biri bilan shug'ullanishni maslahat beraman. Tan olib aytamanki, futbol o'ynashda hujumda zo'r emasman, ammo mudofaada anchayin mustahkam turishim mumkin. Shunday bo'lsa-da, stol tenisi va katta tennis joni dilim. Yaponiyaga kelgach esa talabalik davrimizda har kuni ertalab do'stlar bilan aikido klubiga borgandik. Darslardan oldin bo'lgani uchun badanimiz chiniqib, fikrimiz ham tiniqib darsga borardik.

Yaponiyadagi universitetlarda juda ham ko'p sondagi sport klublari faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda qilichbozlikdan tortib suzishgacha, kamonbozlikdan tortib beysbolgacha topish mumkin. Talabalarining juda ko'p qismi darsdan keyingi vaqtlarini ushbu sport to'garaklarida o'tkazishadi. Yurtimizdagi universitetlarda esa buning aksini ko'ramiz. Ko'p universitetlar shaharlar markazida joylashganligi uchun sport klublari juda ham oz. Bo'lsa ham, unda asosan erkak talabalar futbol o'ynab o'tkazishadi.

Hurmatli talaba do'stim, taningiz va sog'lig'ingiz, sizga in'om etilgan eng katta tortiqlardan biridir. Shunday ekan, uni qiziqarli sport to'garaklarida qatnashib, chiniqtirib asrang. Albatta, futbol o'ynashingiz shart emas, boshqa sport turlari bilan shug'ullaning. Sog'lig'ingizni asrang.



Ustoz Fujio Kavashima
bilan tennis o'yini.
Nagoya universiteti, 2014-yil.

65-tavsiya: **SPORT FAQAT ERKAKLARGA EMAS, QIZLARGA HAM CHIQARILGAN**

Xorijda yurib guvoh bo'ldimki, xoh yapon, xoh golland yoki amerikalik bo'lsin, maktab va universitet qizlari keng miqyosda sport bilan shug'ullanishar ekan.

Yurtimizda-chi? Sport mashg'ulotlariga qatnayotgan talaba qizlarni ko'rganmisizlar? Bizda qizlar velosiped minsa ham, ularga g'alati qaraymiz. Aslida velosipedda yurish qizlar uchun ham juda foydali mashg'ulot hisoblanadi.

Sport faqat erkaklarga emas, ayollarga ham chiqarilgan. Mahbub payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning o'z oilalari, Oysha onamiz bilan yugurish musobaqasini o'tkazib turganliklarini ko'p eshitganman. O'rta asrlarda esa ot minib o'ynaladigan va xokkeyga o'xshash chavgon o'yinining nafaqat erkaklar, balki zodagon ayollar tomonidan ham o'ynalganligini ba'zi kitoblarimizda uchratishimiz mumkin.

Ammo biz bunday qadriyatlarimizni unutib qo'yganga o'xshaymiz. Talaba qizlarimizga xuddi juda ham nozikdek qarab, ularga biror sport turi bilan shugullanishlariga aslo sharoit tashkil qilmaymiz va o'z oilalarida uy ishlariga ko'mib tashlaymiz. Aslida esa qizlarimiz faqatgina uy ishlari bilangina emas, o'zlari sevgan sport turi bilan, xoh tennis bo'lsin, xoh yugurish, xoh volleybol yoki badminton kabilar bilan shug'ullanishlarini jiddiy tavsiya qilardim.

Talaba-qizlar, sizga aytaman. Do'stlaringiz bilan jamoa tuzib, biror sport klubdagi maydonni ijaraga oling va hafta oxiridagi dam olish kunlaridan birini sport kuniga aylantiring. Atrofdagilar sizga boshqacha qarashi mumkin, ammo e'tibor bermang. Erkak kishi qanday baquvat va sog'lom bo'lishi kerak bo'lsa, xuddi shu narsa ayollarga ham o'zlarining darajasida va imkon doirasida zarurdir. Agar sog'lom ona va rafiqa bo'lishni istasangiz, unda biror sport turi bilan muntazam shug'ullaning.

66-tavsiya: ISHNI «ORQAGA SURISH»DAN QOCHING

Chet elda yurib kuzatganlarimdan biri shu bo'ldiki, o'zbekistonlik talabalarda «last minute», ya'ni eng so'nggi daqiqada harakat qiladiganlar juda ham ko'p ekan. Nega shundayligi bo'yicha hali chuqur ijtimoiy tadqiqot o'tkazganimcha yo'q. Ammo bu narsa bizdagi talabalarga yoppasiga tekkan ijtimoiy kasallik desam, mubolag'a bolmaydi.

Ingliz tilida «procrastination» deya ataluvchi va bajarilishi lozim ishlarning eng maksimal muddatgacha orqaga surilishi – ishoning do'stim, siz-u bizga umuman yaxshilik keltirmaydi. Teskarisi, ishlarni va berilgan vazifalarni jiddiy sabablarsiz orqaga surish – irodasizlik va mas'uliyatsizlik oqibati hisoblanadi. Bu kasallikdan iloji boricha uzoq tur-ring.

Chunki ishlarni orqaga surish bilan ular baribir yo'qolmaydi. Ular turaveradi. Ko'payaveradi.

Shunday ekan, sizga berilgan vazifa, uy ishi, insho yozish, e-mail yuborish, qo'ng'iroq qilish...larni berilgan zahoti bajarishga harakat qiling. Bo'lmasa, dono xalqimiz aytganidek, «Qolgan ishga qor yog'ar». Shuningdek, o'sha ish yoki vazifa doimo miyangizni bir qismini egallab, xayolingizni band etadi va dilingiz xira yuradi.

Agar ishlarni orqaga surish odatini o'zingizga yuqtirib olsangiz:

✓ Vaqt oz qolganda shoshib, sifatsiz ishni topshirasiz. Bahoyingiz o'z-o'zidan pasayadi.

✓ Professor-o'qituvchilar oldida hurmatingiz yo'qoladi. Agar bu holat ko'p takrorlansa, ular sizga ishonishmay qo'yadi va sizni undan keyin biror-bir mukofot va stipendiyaga tavsiya etishmaydi.

✓ Eng oxiriga taqab, kechasi bilan ishlash natijasida qattiq stressni boshingizdan kechirasiz.

✓ Ishlarni o'z vaqtida bajarish ko'nikmasini hosil qilmaganingiz uchun ham oliygohni bitirib jamiyatga ishga chiqqach, jamoangiz bilan birgalikda ishlashda qiynalasiz. Boshliqdan doimo dakki eshitasiz.

Vazifa berilgan kuniyoq uni bajarishni oz bo'lsa ham boshlab qo'ying. E-maillarni o'qiboq javob yozing. Keyingi kunlarda boshlangan ishni yana davom ettirish osonroq bo'ladi.

67-tavsiya:

TALABALIK PAYTINGIZDA O'ZBEKISTONNING KO'PGINA VILOYATLARIGA BORIB KELING

Ha, ko'zlaringiz sizni aldamadi. Vatanimizning viloyatlariga, albatta, borib keling. Talaba uchun kichik sayohatning foydali jihati ko'p. Ammo bu yerda safardan ham ko'ra, yurtimizning har bir burchagini ko'rib chiqishga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Talabalik paytingizda aksariyat talabalar hali turmush qurmagan bo'lishadi. Bu esa harakatlanishni osonlashtiradi. Siz sayohatga chiqmoqchi bo'lsangiz, birga olib ketadigan oilangiz, farzandlaringiz yo'q. Yudingiz yengil. Xullas, o'zingizga bek, o'zingizga xonsiz. Bundan tashqari, hali biror jiddiy ishga kirib ishlamagan paytingiz ham bo'ladi. Talabalik paytingizda esa ishdan bir yilda beriladigan ta'tilni kutishdek holat yo'q. Shunday ekan, harakatlanish oson, yudingiz yengil va vaqt bema'lol paytda iloji boricha yurtimiz bo'ylab safar qiling.

Bunda mumkin bo'lsa, viloyatlarda yashovchi do'stlaringiznikiga qisqa muddatga (*mehmon bo'lishni 3 kundan aslo ko'paytirmang, mezbonning ham ishlari bor, axir) sayohatga boring. To'ylariga boring. Ularni ham o'zingiznikiga chorlang. Talabalik davrimda Xorazmga, Buxoroga, Samarqandga borganlarim men uchun juda ham qiziqarli taassurotlarga boy sayohatlar bo'lgan. U yerdagi ajoyib insonlar bilan o'tkazgan paytlarimni hech qachon unutmayman. Moddiy imkonim va vaqtim bo'lganida, albatta boshqa viloyatlarga ham borardim.

Oradan mana deyarli 15 yil o'tib, yurtimizda transport vositalari sifati yaxshilandi. Infrastruktura birmuncha yaxshi ahvolga keldi. Toshkentdan Samarqand va Buxoroga tezyurar poyezdlar bilan qisqa muddatda borsa bo'ladi. Sayohat deganda, aslida nafaqat yuqoridagi ikki-uch shahar, balki yurtimizdagi barcha viloyatlarni nazarda tutdim. Surxondaryo-u Qashqadaryo-u, Jizzax-u, Guliston

qilib, aylanib keling. Vodiya, uning ajoyib palovga boy choyxonalariy-u, Xorazmning gurvak qovunini o'sha yerining o'zida yeyishga nima yetsin. Do'stlaringiz bilan rejalashtiring.

Sayohatga do'stlaringizning kichik guruhi bilan yo'lga chiqishni alohida tavsiya qilaman. Ular sizni charchatishmaydi, zeriktirishmaydi. Do'st safarda bilinar deganlardek, siz ham ularni yaxshi tanib olasiz. Chunki safarda biroz bo'lsa ham noqulay holatlar bo'lishi bor gap. Ana shunday paytlarda do'stlaringizning sizga mehribonliklari yoki bo'lmasa, qayergacha «turib berishlarini» o'z ko'zingiz bilan guvohi bo'lasiz. O'z navbatida, ular ham sizning qay darajadagi fidokor inson ekanligingizni sinashadi.

Viloyatlarga chiqish, u yerdagi turfa xillikni kuzatish, sizning dunyoqarashingizni ochadi, fikrlashingizni kengaytiradi, yurtimiz va uning aholisini yanada yaxshiroq tanishingiz uchun yordamchi bo'ladi. Ayniqsa, borayotgan do'stlaringiz uyini tanlamang. Tortinmang, ularning oila a'zolari bilan xushmuomala va kamtarinlik bilan muomala qiling. Farzandlarini ularga albatta maqtang(*lekin, yolg'on gapirib yurmang), ko'ngillarini ko'taring. Xullas, boradigan xonadonni mol-u mulki, bog'i-rog'i uchun tanlamang.

Sayohatga chiqishda ikki holatga jiddiy e'tibor bering. Birinchisi, sayohat rejasini puxta ishlab chiqish. «Boraveraylik-chi, u yog'i bir gap bo'lar» qabilidagi mavhum sayohatlardan ko'nglingiz to'lmaydi. Buni men Yaponiyaga kelib, yapon millatidan o'rgandim. Har bir boriladigan joydagi osori-atiqalar, ularning tarixi va joylashuvi, ularga oid muhim holatlar oldindan o'rganiladi. Ana shunda sizning sayohatingiz ma'noli va qiziqarli kechadi. Shundoq ham qisqa vaqtga borganligingizga qaramay, vaqtingizni g'oyatda maroqli o'tkazish imkoniga ega bo'lasiz.

Ikkinchi diqqat qilinishi lozim holat esa viloyatlardagi madaniyat farqliligini ham bilib o'ling. Buxorodagi bir to'yda, to'y egalarning kechasi soat birgacha raqsdan

to'xtamaganliklarini ko'rib, esim og'ib qolayozgandi. Men tug'ilib yashagan Farg'ona hududida esa to'ylar vaqti biroz qisqa, to'ylardagi raqslar biroz kam bo'lib, tabrikka ko'p e'tibor berishadi. Ammo buxoroliklarning raqsga o'chligi va unda soatlab davom etishlar meni hayratga solgan va hatto juda charchatib ham yuborgandi. Vohalik do'stlarimning Farg'onaga safarlarida esa biznikilarning ketma-ket vodiy paloviga ularni olib borishi do'stlarimning haddan ziyod to'yib ketishlariga sabab bo'lgani ham bor gap. Xullas, borayotgan joyingizdagi madaniyat farqliligini oldindan biroz bo'lsa ham so'rab-surishtirib, harakat qilsangiz, hecham yutqazmaysiz.

68-tavsiya: OLDINGIZGA ANIQ MAQSAD QO'YING

Biolog vatandoshimiz, Xitoyning Janubi-G'arbiy universiteti doktoranti, Dr. Baxtiyor Sheraliyev o'zining Facebook sahifasida O'zbekiston yoshlariga shaxsiy va professional rivojlanishda halal beruvchi jihatlar sifatida eng birinchi bo'lib quyidagi holatni sanagandi. Dr. Sheraliyevga ko'ra, O'zbekiston yoshlarida

aniq maqsadning yo'qligi yoki noaniqligi; «men nimani istayotganimni bilmayman, lekin juda ham istayapman» qabilida yashash kuzatiladi. Asosiy maqsadning nima deb so'rasangiz aniq javob bera olmaydi, chunki o'sha maqsad ishlab chiqilmagan, bo'lsa ham odatda o'ta abstrakt holatda.

Yuqoridagi og'riqli mulohazaga qo'shilmalikning ilojisi yo'q. Juda ko'pchilik yoshlar yuz minglab o'zlarining tengdoshlari oqayotgan katta daryo o'zaniga tushib qolishadi. Maktabda yaxshi o'qish, yaxshi universitetga kirish va undan keyin biror ishga kirib, oilali bo'lish va undan keyin boy/mashhur/kuchli inson bo'lish. Bular yomon maqsad emas, muammo uning o'ta mavhumligida va batafsil yoritilmaganida yotadi.

Hozirgi dunyo esa yoshlardan, xususan muvaffaqiyatli va yorqin talabalardan o'z oldilariga aniq-tiniq maqsad qo'yish va unga qarab jiddiy choralar ishlab chiqqan holda amalga oshirishni talab etadi. Shunday ekan, sizning ham eng kamida o'zingiz uchun biror aniq loyihangiz bormi? Yoki boshqalarni ham ergashtira oladigan g'oyangiz-chi? Agar bularning ikkisi ham bo'lmasa, demak, siz boshqa yuz minglab talabalardek oddiygina bir talabasiz. Eng yaxshi xususiy firmalar sizga qiziqishmaydi, ishonavering. Davlatimizning markaziy organlari sizdek kadrni aslo izlashayotgani yo'q, ko'pam umid qilavermang. Akademik olamga esa aslo kerak emassiz, olimlar sizdek talabaga muhtoj emaslar.

Unday bo'lsa, o'zingiz oqim hosil qilish ustida bosh qotiring. Katta loyihalar ustida ishlang. Agar Yuridik universitet tarixida hech kim *Jessup* kubogini yutmagan bo'lsa, demak, SIZSIZ ANA O'SHA KUBOKNI VATANIMIZGA OLIB KELADIGAN. Agar jurnalistika fakulteti talabalari orasida hali hech kim *The Diplomat* nashriga maqola yozmagan bo'lsa, SIZSIZ BIRINCHI BO'LIB MAQOLA YOZADIGAN. Turizm sohasida o'qiysizmi, unda turistlar uchun O'zbekistonning osori-atiqalariga oid mobil ilovani(apps) ilk bor ishlab chiquvchi inson, SIZDAN BOSHQASI EMAS. Bu ro'yxatni sohalar bo'yicha istagancha davom ettirish mumkin. Dunyoda o'zbekim egallamagan kubok va musobaqalar shu darajada ko'pki, aytib tugatish juda ham qiyin.

Muhimi, sohangizda kichik biror narsani o'zgartiradigan, sizni professional holatingizni yaxshilaydigan aniq rejangiz bo'lsin, xayolingiz bo'lsin. Bo'lmasa, boshqalar tuzgan reja va tashabbus bilan yashab o'tasiz, ularning yetovida qolib ketasiz.

O'zimning misolimda aytсам, men birinchi kursdanoq chet elga borishim haqida jiddiy o'ylaganman. Chet eldagi ta'lim va huquqiy tizim biznikidan yaxshiroq va uni borib o'rganishim kerak degan aniq fikr bo'lgan. Shu sababli ham, universitetga kirgach, 1-kurs yanvar oyidan boshlab Yapon huquqini o'rganish markaziga qatnay boshlaganman. U yerda esa o'ta qiyin yapon tilini o'rganish vazifasi qo'yilganidan keyin boshqa loyihalarga faol qo'shila olmaganim ham bor. Muhimi, men o'zim qilmoqchi bo'lgan ishni birinchi kursimning yarmidayoq topib, unga kirishib bo'lgandim. Garchi, sud, prokuratura, advokatura va adliya tizimlarida ishlashi umid qilingan va anchagina «mahalliy yo'nalish»ga ega yuridik universitetining aksar talabalaridan farqli ravishda markazimiz talabalari bilan doimo yapon tili kitoblarini ko'tarib yurganimiz uchun «yaponlar» laqabini ham kinoyali tarzda olgan bo'lsak-da, bir necha yildan keyin ushbu markaz yuridik universitetning eng

mashhur markazlaridan biriga aylandi. U yerdagi talabalar va Yaponiyadan o'qib qaytgan talaba do'stlarimiz Yuridik universitetdagi innovatsion g'oyalarni amalga oshirishning haqiqiy drayverlariga aylanishdi. Vaholanki, biz boshida mazax qilingandik. Sudya yoki prokuror bo'ladigan inson tashqariga chiqmaydi, degan o'ta konservativ gaplarni eshitgandik. Ba'zilar shuning uchun ham markazdagi o'qishini tashlab ketgandi. Biroq falakning gardishi bilan, endi yurtimizdagi eng muhim ishlariga aynan chetni ko'rgan, chet tilini bilgan, keng fikrli kadrlar talab qilinmoqda. Ular hatto yetishmayapti. Bu – bizning hikoya edi.

Sizda-chi, do'stim, sizda ham biror aniq maqsad bormi? 4 yil davomida kelajak tomonga yo'nalgan katta loyihalaringiz yo'qmi?

– Agar tadbirkor bo'lishni istasangiz, biznes rejangizni tuzdingizmi? Biznes inkubatorlarni bo'lib ko'rdingizmi? Soha mutaxassislari bilan gaplashishni boshladingizmi? Jamoangizni yig'ib, loyihangiz uchun investor qidirypsizmi?

– Agar olim bo'lmoqchi bo'lsangiz, sohangizni aniq ladingizmi? Birga ishlamoqchi bo'lgan ustozingizni topdingizmi? Unga «qo'l berib» shogird tushdingizmi? Sohangiz bo'yicha kamida 100 ta maqola o'qib, kitoblarni sotib ola boshladingizmi? Chet tilini-chi, allaqachon boshlagandirsiz?

– IT sohasidagi dasturchi bo'lmo'qchi bo'lsangiz, nechta onlayn kurslarda o'qidingiz? Nechta kitob sotib olib, qaysi darajaga keldingiz? Qachon tayyorgarligingiz tugaydi, aniq belgiladingizmi?

– Davlat mulozimi bo'lib, Moliya vazirligida ishlamoqchimisiz? Unda moliya sohasidagi kerakli fanlarni o'zlashtirdingizmi? ACCA xalqaro sertifikatini qo'lga kiritdingizmi? Moliya vazirligi bilan orasi yaxshi bo'lgan biror professorga shogird tushib, o'zingizni kuchaytirishni boshladingizmi? Ingliz tilidan IELTSni qachon olasiz? Qachon chet eldagi iqtisodiyot va moliya fakultetlariga borib o'qib kelishni reja qilyapsiz? Rejangiz bormi bu masalada?

– «Lukoil» kabi xususiy firmalarga kirib, u yerda yaxshi oylikka ishlashni reja qilyapsiz. Juda yaxshi. Unda qaysi firmalarda ishlashingizni aniqlab oldingizmi? Ularning ro'yxati qo'lingizdami? Ularning ishga olish talablarini ko'rib chiqdingizmi? O'sha xususiy firmalarda amaliyot o'tash bo'yicha dasturlar borligini qidirib ko'rdingizmi? U yerga borib, uning ofis mudirasidan yoki kadrlar bo'limi rahbaridan yuqoridagi savollarni so'rab ko'rdingizmi?

Sherlok Xolmsga oid bitilgan asarlarining birida Janob Artur Konan Doyl, asar qahramoni tilidan «*Devil is in the details*», yani «Shayton mufassal ma'lumotlar ichida yashirin yotibdi» degan edi. Shunday ekan, katta odam bo'laman, boy bo'laman, zo'r bolaman, mashhur bo'laman emas, balki qanday katta odam bo'laman, qayerda, qachon, qaysi yo'l va usullar bilan, nimalar orqali, qanday ishni qilgandan keyin, qaysi bosqichlarda, kim bilan kabi savollarga javob bermasdan turib bunday orzularni qilish, quppa-quruq xom-xayoldan o'zgasi emas. Unday bo'lsa, har bir amalga oshirayotgan loyiha yoki maqsadni aniq, ko'zga ko'rinadigan bloklarga bo'lib olib bajarishga kirishing. ***Muhimi oldingizga qo'ygan g'oyani rejaga aylantirgach, ushbu rejaning bajarilishini doimo yaqindan ta'qib qilib, reja qay darajada bajarilayotganligini tahlil qilib boring. O'zingizdan o'zingizni olib qochmang.*** Toma-toma ko'l bo'lur deganlaridek, bir kun qarabsizki, siz finalga yetib kelgan bo'lasiz.

Muhim bir nuqtani aytib qo'yay. Siz o'z yo'lingizda davom etar ekansiz, bunday harakatchan va qiziquvchan ekanligingizni kuzatib, sizga yanada yaxshi taklif bilan chiquvchilar ko'payadi. Ularga nima deysiz? Aslida, bunday tanlovda erkingsiz. Rejangizni yanada yaxshi, aniqrog'i bilan almashtirishdan hech qachon qo'rqmang. Unutmang, sizga kelayotgan bunday imkoniyatlar sizning o'z harakatlaringizning boshqalar tomonidan kuzatib turilishi tufaylidir. Shu sababli ham agar sizning maqsadlaringizga to'g'ri kelsa, ularni qabul qilishdan aslo qo'rqmang.

69-tavsiya: BIROR TO'GARAK YOKI KLUBGA A'ZO BO'LING

Universitet davri – talabalar ichida jamoaviy ruhni yashash uchun ajoyib laboratoriya vazifasini o'tab beruvchi imkoniyat hamdir. Bunday imkoniyatdan yaxshi foydalanish uchun esa oddiy talabalik hayotidan voz kechib, kamida bitta klub yoki to'garakka a'zo bo'ling. Ana shunda boshqa kurslardan ham do'stlar ortirasiz.

Universitetdagi klub yoki to'garaklarga masalan:

- Xorijiy til kursi klubi;
- Quvnoqlar va Zukkolar;
- Zakovat;
- Yoshlar agentligi jamoasi;
- Stol tennisi yoki futbol kabi sport to'garaklari;
- Biror professorning ilmiy maktabi jamoasi;
- Notiaqlar to'garagi;
- Sohngiz bo'yicha xalqaro musobaqada qatnashish

to'garagi va boshqalar.

Elchixonalar va xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil qilinadigan munozara to'garaklari va volontyorlik asosidagi klublar ham mavjud. Agar vaqtingiz yetarli bo'lsa, albatta ularning biriga qo'shiling va u yerdagi talabalardan ham do'stlar ortiring.

Quvnoqlar & Zukkolar kabi talabalar o'rtasidagi tadbirlarga albatta qatnashing. Kamina, Toshkent davlat yuridik universitetida o'qib yurgan onlarimda, talabalar o'rtasida «Ekologiya» kafedrasida tomonidan har yili uyushtiriladigan musobaqa juda ham qizg'in o'tardi. O'sha vaqtdagi Toshkent davlat yuridik institutining(keyinchalik universitetga aylandi) 3 ta fakulteti ayovsiz kurashardi. 2-kursning bahorida biz ham qatnashib, 3 ta fakultet orasida birinchi o'rinni egallaganimiz va hozirgi Energetika vazirligining faollar zalidan Sayilgoh ko'chasidagi universitetimiz bino-sigacha hayqirib kelganimiz hamon yodimda. Ajoyib onlar

edi. Yaxshi tomoni shundaki, bunday tadbirlar sizning atigi 2-3 oy vaqtingizni oladi va undan keyin takrorlanmaydi. O'qishingiz bilan o'rtada muvozanatni ushlab imkoni ham bor. Boshqa tomondan esa, fakultet obro'sini himoya qilib, jamoa a'zolari bilan ajoyib harakatni ko'rsata olish imkoniga ega bo'lasiz. Buning esa sizning kelajakda ishga kirib, jamoa bilan oson ishlab ketishingizda katta ta'sirlari bo'ladi.

Takror bo'lsa ham aytay. Universitetning Yapon tili va huquqini tadqiq qilish markazida o'qiganligim uchun u yerdan juda ham ko'p do'stlar va tanishlar orttirganman. Ular bilan birgalikdagi tadbirlar uyushtirishimiz, Yaponiya elchisi uyiga mehmonga borishimiz, sayohatlarimiz va musobaqalarimiz mening universitet hayotimni juda ham boyitgan. Men kabi o'sha paytdagi «Kamolot» harakatida ishlagan, dekanatda yordam bergan, biror professorning ilmiy maktabiga qo'shilgan kursdoshlarimiz ham yo'q emas edi. Bunday toifadagi kursdoshlar hayoti faqatgina universitet darklariga kelib ketuvchi kursdoshlardan juda ham katta farq qilardi. Shunday ekan, siz ham o'zingiz qiziqqan biror to'garakka a'zo bo'lib, yangi do'stlar orttiring va qiziqarli sarguzashtlar ketidan quving. Talabalik davri ana shunda yanada qiziq kechadi.

70-tavsiya: O'ZINGIZDAN KEYINGI KURSLARGA MEROS QOLDIRING

Hayotda ardoqlanadigan kadr bo'lmoqchi bo'lsangiz, o'qishning o'ziga yetmaydi. Siz biroz g'ayrioddiy talaba bo'lishga harakat qiling. Odatiy talabalar berilgan imtihonlar, darslar, qo'shimcha vazifalarni uddalashni eng maksimal ish deb o'ylashadi. Ammo bilib qo'ying: bunday qarashga ega yuz minglab talabalar yiliga turli universitetlarni tamomlashadi. Universitetda sizni hech kim bilmaydi, tanimaydimi? Nomingiz hali yaxshi chiqmaganmi, demak, siz aytarli biror ish qilmabsiz.

Boshqalardan ajralib turishingiz uchun nima qilish kerak? Mening javobim quyidagicha: kichik, ammo foydali loyihalarni qidirib topish uchun miyangizni band qiling. Biror yangi loyiha joriy etib, o'zingizdan keyingi kurs talabalari uchun meros qoldiring. Doimo narigi jins vakillari haqida o'ylamay, kelajakdagi minadigan mashina yoki boradigan davlat haqida, koshonali uylar haqida xayol surmay, osmondan yerga tushing va real hayotdagi o'zgarishlar haqida chuqur o'ylang. O'zingizni shunga majbur qiling. Iqtidorli va fikrini bir nuqtaga jamlab, muvaffaqiyat qozonuvchi talabalarni boshqa ko'plab odatiy talabalardan aynan shu xislat ajratib turadi.

Germaniya va Yaponiya kabi davlatlar bir kunda rivojlanib qolmagan. Rim esa bir lahzada barpo bo'lmagan. Ularning barchasi avval o'tgan ajdodlarining tinimsiz davom etgan mislsiz mehnatlari evaziga bunyod etilgan. Bu qoida biz-u sizga ham tegishli. Kichik bo'lsa ham biror innovatsion fikrni amaliyotga tatbiq eting. Buni xoh yakka, xoh jamoaviy shaklda amalga oshirsa bo'ladi. Shu orqali, o'zingizdan keyingi kichik kursdagi talaba ukalaringizga yaxshi meros qoldiring. Ana o'shanda sizdagi sardorlik va oldinga intiluvchanlik qobiliyati kurtak otadi. Siz atrofdagilar

uchun, universitet, kelajakdagi ish joyingiz va butun jamiyat uchun foydali, ishlab chiqaruvchi insonga aylanasiz.

Misol. Siz biror viloyatning davlat universitetidagi matematika fakulteti talabasisiz. Universitetning Facebook sahifasi bor, ammo siz o'qiyotgan fakultetniki yo'q. Vaholanki, ko'pchilik talabalar hozirda Facebookdan foydalanishadi. Fakultet tomonidan joriy etilgan Telegram guruhi esa ham zerikarli, ham yopiq (uni faqat o'sha guruhga taklif etilganlarga ko'ra oladilar). Shunday ekan, sizni o'z fakultetingiz Facebook sahifasini ochishga nima to'sqinlik qilmoqda?!

Yurak yutib, dekanat xonasiga boring yoki biror professor bilan shu masalani muhokama qiling, yoki sizga birlashtirilgan professorga shu fikrni aytib, fakultetning Facebook sahifasini ochmoqchi ekanligingiz va uni o'zingiz yuritmoqchi ekanligingizni ayting. Agar o'sha professor «ochkozlik» qilib, bu g'oyani sizdan o'g'irlab, o'zinikidek qilib dekanatga yetkazsa, yoki sizni taklif etmay, bu ishni o'zining «sevimli shogirdlari» bilan bajarsa ham, atrofdagilar baribir haqiqatni bilishadi. **SIZ BU ISHNING G'OYAVIY RAHBARISIZ.** E'tibor bermang, mayli og'irayverishsin. Siz esa boshqa loyiha haqida o'ylashni boshlang.

Yana bir misol. Siz arxitektura fakulteti 3-kurs qiz bola talabasisiz. Shu paytgacha ushbu fakultetdan juda ko'p o'g'il bola talabalar chet elga chiqishgan, ammo ayol arxitektorlar haqida ko'p kishilar bilmaydi. Shunday ekan, surishtirib ko'rsangiz, shu paytgacha 15ga yaqin o'zingizdan katta ayollar shu fakultetni bitirib, chet elga o'qishga ketishgan ekan. Unda ushbu opalaringizdan tashkil topgan ayol arxitektorlar guruhini tuzib, ularni chet elga o'qishga bormoqchi qiz talabalarga bog'laydigan platformani tuzishdan sizni, talaba singlim, nima to'sadi?!

Xohlasangiz Telegram, bo'lmasa Facebookda guruh ochib, bir oyda bir marotaba ayol arxitektorlar tomonidan master klasslar tashkil eting. Bora-bora siz taklif qilgan chet eldagi opalaringiz, balki sizni chet eldagi o'qishlarga

chaqirishar, yoki O'zbekistondagi nomi chiqqan firmalarga sizni tanishtirishar? Bu ishni qilmasalar-da, har holda ular bilan tanishib olganingiz va ushbu jarayonni o'qishni bitirguningizga qadar davom ettirish, juda katta tajriba vazifasini o'taydi. Universitetni bitirayotgan paytingizda esa katta yoshli arxitektorlar bilan ham suhbatlashish madaniyatini o'rgangan, o'ziga ishonchi kuchli, fikrlari teran kadrga aylanasiz. Aslida, universitetni bitirib 5-10 yil o'tsada, bunday qobiliyatni o'zida shakllantira olmaganlar qancha...

Yaponiyada «senpai-kouhai»(katta talaba-kichik talaba) nomli ajoyib an'ana mavjud. Yaponiyadagi aksariyat universitetlarda seminar va turli to'garaklarda 1-kursdan 4-kursgacha bo'lgan kurs talabalari aralashib ishtirok etganliklari uchun kichik kurslarning yuqori kurslarga norasmiy bo'ysunuvi va hurmati mavjud. Bunda katta kursdagi talabalar ko'proq mas'uliyatni olib, kichik kurslarga o'zlaridagi bor bilim va ko'nikmani o'rgatishga harakat qilishadi. Kichik kurslar(kouhai) ham, o'z navbatida, yuqori kurs(senpai)lardan mumkin qadar ko'proq bilim va ko'nikmalarni o'rganib qolish ishtiyoqida bo'ladilar. Natijada esa bir loyihaga oid bilim, tajriba va ko'nikmalarning avlodlar osha davom etishi ta'minlanadi.

Yurtimizdagi universitetlarda esa o'zingizdan kichik kurslardan siz boshlagan loyihaga qiziquvchi talabalarni jalb etib, loyihangizni sizdan keyin ham davom etishini ta'minlang. Bunday harakatning yaxshiligi shundaki, siz o'zingizdan keyingi quyi kurslar uchun yangi bir yo'nalishni meros qoldirasiz. Kichik kurslar esa sizdan keyin o'sha loyihani yanada rivojlantirishadi. Ana shunday qilib, universitetda turli an'analar vujudga keladi. Xulosa qilib aytganda, sizga ato etilgan qobiliyatlardan maksimal foydalanishga harakat qiling. Bekorchi o'y-xayollar, gap-so'zlardan ko'ra, jamiyat, ilm va universitet uchun foydali ishlar qilishga harakat qiling.

71-tavsiya: ILMIY MAQOLA VA INNOVATSION G'OYANGIZ DOIM TAYYOR TURSIN

Bizning oliy ta'lim muassasalarida bir ajoyib odat bor: biror musobaqa yoki tanlov ko'pi bilan 1 oy, bo'lmasa, 1 yoki 2 hafta qolganidagina e'lon qilinadi. Xorijda esa kamida 3-4 oy, bo'lmasa bir necha yil oldin e'lon qilinib, tanlovda qatnashuvchilardan juda ham sifatli ilmiy ish, maqola yoki innovatsion g'oya topshirilishi kutiladi. Ammo bizda hamma narsa o'ta oz vaqt qolganida bajarilishi lozim. Mayli, bu kasallik ham bir kun kelib xalqaro andaza asosida tuzaladi, deb umid qilamiz.

Biz uchun masalaning boshqa tomoni muhim. Xo'sh, yurtimizda bunday «ajoyib» amaliyotning mavjudligi muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan siz talaba do'stinga nimani anglatadi?

Bitta narsani. U ham bo'lsa, ilmiy tanlovlarga maqolangizni, musobaqalarga esa innovatsion g'oyangizni oldindan tayyorlab qo'yishingiz kerakligini bildiradi! Chunki oliygohdagi musobaqa va tanlov uyushtiruvchi ustozlarimiz siz talabalarga juda ham kam vaqt qoldirishadi. Shunday ekan, siz oldindan bir necha mavzuda maqola va loyihalaringizni tayyorlab qo'yavering. Tashabbuslaringizni tezroq amalga oshiravering. Sohangizda blogerlik qilayotgan bo'lsangiz, yangi ma'lumotlar bilan Telegram kanaligizdagi obunachilarni ko'paytiravering.

Misol uchun, bilasizki, har yili yanvar oyining ikkinchi yarmida siz o'qiydigan universitetda iqtidorli talabalar orasida musobaqa o'tkaziladi. Demak, noyabr oyidan boshlab siz unga tayyorgarlik ko'rishni boshlang. Birov kelib sizga bu haqida aytishini kutib o'tirmang. Ana shunda yanvar oyi boshida musobaqa e'lon qilinib, hamma shoshib turgan paytda siz mukammal tayyorlangan maqola va loyihangizni universitet ma'muriyatiga

taqdim eta olasiz. Tabiiyki, uzoq muddat mehnat sarf qilingan maqola yoki loyiha yuqori o'rin egallamasdan qolmaydi. Sizda yetarlicha tasavvur hosil bo'lishi uchun e'tiboringizga Toshkent Tibbiyot Akademiyasining 2021-yildagi 1-son «Tibbiyotnoma» nashrida chop etilgan tanlov e'lonini havola etamiz*:

ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИДА 2021 ЙИЛНИНГ ЭНГ ЯХШИ ТАЛАБАСИ ТАНЛОВИ ЭЪЛОН ҚИЛИНАДИ:

Диққат ҳурматли талабалар ва педагоглар!

“ТТА 2021 Йилнинг энг яхши талабаси” танлови бошланди!

Ҳар бир ТИЖ катнашчиси ушбу танловда иштирок этиши ва галиб бўлиши мумкин!

18.02.2021 йилгача илмий ишларингизни ёки энг гузларингизни кафедраларда тақдимот қилиш керак бўлади.

5.03.2021 йил биринчи ўрин олган талабалар кафедраларо секцияларда ўзларини инновацион ёки илмий ишлар билан галиблар ўртасида беллашдилар ва галиблар финалга йўлланма оладилар!

10.03.2021 йил ТТА Йилнинг энг

яхши талабаси” мусобақасининг финали бўлиб ўтди.

Унда финалистлар “Мен ТТА талабасиман” деган презентация тақдим этди. Финалда галиблар қуйдаги номинациялар бўйича аниқланади:

1. Ўз мутахассислиги бўйича йилнинг энг bilimдон талабаси.

2. Йилнинг энг фаол талаба-ташаббускор.

3. Йилнинг энг яхши гувоҳи.

4. Йилнинг энг яхши илмий иши. Ва энг муҳим номинация – “ТТА Йилнинг энг яхши талабаси”.

Барча талабаларга қўшимча номинациялар бўйича танлов.

ТТА

1. “Йилнинг энг яхши сардори”.

2. “Йилнинг энг яхши рационализатори”.

3. “Йилнинг энг фаол блогер талабаси”.

4. Йилнинг энг фаол ташаббускор-тарғиботчи талабаси.

Ушбу номинацияларда галиб чиққан талабалар Республика мусобақаларида иштирок этадилар.

Танловда иштирок этишга таълиф қиламиз!

72-tavsiya: UNIVERSITET TOMONIDAN TASHKIL QILINADIGAN TADBIRLARDAN VOZ KECHMANG

Yuqoridagi aytilgan musobaqa va tanlovlardan tashqari, universitetlarimizda turli-tuman tadbirlar uyushtirib turiladi. Baʼzan talabalarimiz ustozlari tomonidan bunday tadbirlarga jalb qilinganida koʻpchilik istar-istamay ularga qatnashadi. Biroq bunday tadbirlarning aksariyati sizning shaxsiy va ilmiy jihatdan rivojigingiz uchun juda ham foydali ekanligini bilasizmi?

Universitedagi tadbirlarning bir necha turlari mavjud.

Birinchisi, ilmiy-amaliy konferensiyalardir. Bunda universitet rahbariyati yoki biror kafedra xoriydagi hamkor universitetlar yoinki mahalliy tarzda maʼlum bir mavzuga bagʻishlangan konferensiya tashkil etadi. Mavzu ilmiy boʻlganligi uchun unga asosan respublikamizdagi atoqli olimlar, tayanch doktorantlar, ilmiy izlanuvchilar, magistrlik bosqichi talabarlari chaqirilsa-da, har holda, eʼlon oxirida «talabalar» ham kelishi koʻzda tutiladi. Ammo bunday ogʻir mavzudagi konferensiyaga aksariyat bakalavr bosqichi talabarlari qatnashishni istashmaydi: «Oʻzi darslar bilan boshimiz qizib turibdi, nega kerak?» degan oʻy kopchilikda boʻlgan boʻlsa, ajab emas.

Ammo mana shunisi katta xato! Nega futbol boʻyicha milliy terma jamoamiz rivojlangan davlatlarga borib mashgʻulotlar oʻtkazadi? Nega bokschilarimiz Amerikaga borib oʻsha yerda shugʻullanishadi? Chunki u yerda ular oʻzlaridan koʻra kuchli va tajribali insonlar bilan koʻrishishadi. Shunday ekan, talaba doʻstim, siz ham bunday konferensiyalarda kazo-kazo olimlar-u akademiklardan boshqa, deputatlar-u xorijlik mehmonlar, hatto elchilarni ham uchratib, ularning fikrlarini eshitishingiz mumkin. Bu orqali nafaqat ilmiy saviyangiz va dunyoqarashingiz kengayadi, balki *coffee-break* deya ataluvchi tanaffus paytida oʻsha sohada ishlovchi insonlar bilan yaqindan

tanishish imkoniga ham ega bo'lasiz. (*coffee-break dagi taomlar ta'mi ham chakki bo'lmaydi!)

Ikkinchi tur tadbirlar esa, universitetga tashrif buyuradigan mehmonlar tomonidan uyushtiriladigan «master class», ya'ni mahorat darslaridir. Bunda amaliyotchilar, tadbirkorlar, olimlar va xorijiy davlat elchilari hamda xalqaro tashkilot xodimlari kelib sizga o'z sohalarini oson til bilan tushuntirib berishadi. Bunday tadbirlarni aslo qochira ko'rmang. Ularga sizning guruhingiz chaqirilmasa ham, ustozingizdan ruxsat so'rab boravering. Chunki, u yerda o'z sohasining haqiqiy professionallari kelib sizga dars o'tishadi. Iloji bo'lsa, bunday darslar uchun alohida daftar tutib, aytiladigan muhim gaplarni yozib olishni unutmang. Agar prezentatsiya juda ham yaxshi bo'lsa va unda mehmon Power Point faylini ishlatasa, uning yoniga borib, o'sha faylni sizga berishini iltimos qilishdan ham aslo tortinmang. Aminmanki, mehmon ma'ruzachilar faqat va faqat xursand bo'lishadi. Eng muhimi, bunday tadbirlarda uxlamay, kamida 2 ta savol berib o'zingizni mehmonga tanitishga harakat qiling.

Uchinchi esa, sohangizda ishlovchi amaliyotchilar bilan uchrashuvdir. Xoh xususiy sektor, xoh ommaviy sektor bo'lsin, farqi yo'q. Toshkent davlat yuridik universitetiga prokuror, sudya va advokatlar tez-tez borib turishsa, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga Sharq mamlakatlari elchilari ziyoratni kanda qilishmaydi. Har bir sohada shunday. Singapur menejmentni rivojlantirish institutiga esa tadbirkorlarning ko'p kelishini eshitsam, ajablanmayman. Shunday ekan, ularning suhbatdan bebahra qolmang. Chunki bu toifa insonlarning suhbatini tinglab, sizni 3-4 yildan keyin kutayotgan amaliy hayotni oldindan bilish imkoni tug'iladi. Savol bering, tushunmagan joyingizni so'rang. Va hatto, sizga ustozlaringiz o'rgatayotgan bilimlar amaliyotchilar nuqtayi nazaridan qanday baholanishini ham qo'rqmay savolga tutavering. Ishoning, siz turgan zaldagi muhit ajoyib tarzda o'zgarib ketadi.

Faqat yuqoridagi tavsiyalarimni to'g'ri tushuning. Va ularga ikki shart bilangina qatnashing. Birinchisi, sizning o'qishingizga manfiy ta'sir ko'rsatmasin. Tadbirlarning hammasida ham ishtirok etish shart emas. Bunga sizning kuchingiz va vaqtingiz yetmaydi. Eng kamida bittasida juda yaxshi qatnashing. Haddan ortiq vaqtni tadbirlarda sarflash universitetdagi darslarni qoniqarli o'zlashtirish va baholaringizga manfiy ta'sir ko'rsatishini ham unutmang. O'z manfaatlaringiz va maqsadlaringizga muvofiq keluvchi tadbirlardagina qatnashing. Boshqacha so'z bilan aytganda, «tanlab» qatnashing.

Ikkinchisi esa, sizning akademik salohiyatingizni oshirsin. Agar siz qatnashmoqchi bo'lgan tadbir doimiy davom etuvchi, sizning juda ham vaqtingizni oluvchi va ilmiy saviyangizning rivojlanishidan ko'ra, tashkilotchilik va yugur-yugur ishlardan iborat bo'lsa, yaxshisi undan voz keching. Garchi sizga muhim sardorlik ko'nikmalarini bersa-da, haddan ziyod vaqtingizni oluvchi tashkilotchilik ishlari sizni kelajakda boy qilmaydi, martabangizni oshirmaydi. Undan ko'ra, ilmiy salohiyatingiz oshishiga va sohangizda muvaffaqiyat qozonishingizga yordam beruvchi tadbirlarni o'tkazib yubormang. Shunisi talaba do'stim, sizning kelajagingiz uchun eng foydalidir.

73-tavsiya: **PROFESSORLARGA O'ZINGIZNI TANITING VA SHOGIRDLIKKA TUSHING**

Muvaffaqiyatli talabalar oliygoh professorlari nigohidan qochmaydi.* Biroq aksar professor-o'qituvchlar o'z ilmiy ishlari va qisman amaliyot bilan band bo'lganliklari uchun talabaga to'g'ridan to'g'ri taklif bilan chiqishmaydi. Buning ziyoni yo'q. Ustozlarga yaqinlashib, ularga o'zingizni tanitishingiz va shogirdlikka tushishga harakat qilishingiz lozim.

Xoh aniq fan sohasi bo'lsin, hoh ijtimoiy fanlar bo'lsin, o'z kasbini sevgan o'qituvchilar, talabalar bilan ishlashni yoqtirishadi. Shunday ekan, avvalo, professorning darsida o'zingizni jiddiy va qiziquvchan talaba sifatida ko'rsata oling. Soha professorining har bir darsiga qiziqarli savollar tayyorlab keling. Buni iloji boricha tezroq, birinchi yoki ikkinchi kursdanoq boshlang. 4-kursni kutib o'tirmang. Ana shunda, professorning nigohi sizga tushib, aniq taklif va loyihalar bilan chiqishi mumkin.

Agar siz ustozning darslariga tayyorgarlik ko'rib, ko'p savol bersangiz ham professordan biror taklif chiqmasa, unda o'ziga borib, u kishining sohasiga juda qiziqishingiz borligini va qoshimcha o'qish uchun materiallar berishini iltimos qiling. Buni deyarli hech qaysi professor rad qilmaydi. Agar o'ta sovuqqonlik bilan sizga yo'l ko'rsatishni rad etsa, bunday o'qituvchiga boshqa yaqinlashmang.

Agar professor-o'qituvchi sizga qo'shimcha kitob va jurnal maqolalari bilan astoydil yo'l ko'rsatib boraversa, unda har birini o'z vaqtida o'qib kelib, salohiyatingizni u kishiga isbotlang. Ana shundan keyin professor-o'qituvchidan taklif

* Oliyohda turli toifadagi insonlar ishlaydi. U yerda professor, katta o'qituvchi, o'qituvchi, ma'ruzachi, kafedra mudiri, dekan, rektor, prorektor kabi maqomda ishlovchi insonlarni uchratasiz. Bundan tashqari, yuqorida sanab otilgan insonlar, fan nomzodi yoki fan doktori kabi ilmiy maqomlarga ham ega bo'lishadi. Ushbu kitobda men ishlatayotgan «professor-o'qituvchi» iborasi yuqoridagi barcha toifadagi ustozlarimizni o'z ichiga olishini unutmangiz.



Xalqaro adolat sudi sudyasi,
janob Hisashi Owada
bilan uchrashuv.
Gaaga shahridagi (Niderlandiya)
«Tinchlik» saroyi,
2013-yil.

chiqishi deyarli naqd. Agar chiqmasa, qo'rqmay, o'zingizni shogirdlikka olishini iltimos qilavering. Shunda o'qituvchi tomonidan quyidagi loyihalarning biri sizga taklif etilishi mumkin:

Birinchisi, birgalikda maqola yozish. Garchi, bakalavr bosqichidagi aksariyat talabalarning maqola yozish darajasi u qadar yuqori bo'lmasa-da, siz shogirdlikka tushuvchi ustozingizning yo'l ko'rsatishi va bergan materiallarini tez va qunt bilan hazm qilgan holda, hammualiflikda maqola chop etish mumkin. Hali bakalavr darajasidagi talaba uchun bu juda katta gap.

Ikkinchisi, agar siz aniq fan sohasidagi talaba bo'lsangiz, professor laboratoriyasiga kirib, u yerdagi jamoaga iloji boricha erta vaqtdan qo'shilishga harakat qiling. Aniq fanlar sohasidagi professor-o'qituvchilarda uzoq davom etuvchi loyihalar bo'lib, talabadan o'ziga topshirilgan ishni mehnatsevarlik bilan, qoidaga asosan aytilganidek bajariishi talab etiladi. Bu ham fan ichiga kirish, laboratoriyadagi sinovlarda qatnashish, professor-o'qituvchining laboratoriyadagi jamoasi bilan konstruktiv ishlay olish ko'nikmalarini sizda barvaqt shakllanishiga sabab bo'ladi.

Uchinchisi, birgalikda yozilgan maqola va bajarilgan ilmiy tajribalarni ustozingiz bilan mahalliy yoki xalqaro konferensiyada tanishtirish imkoni mavjud. Bunday takliflar uchun ham tayyor turing. Ayni paytda chet tilini bilishingiz faqat va faqat yutuqdir!

Biroq diqqat qiling. Professorlar bilan yaqinlashish va ularga shogirdlikka tushishning ham o'ziga xos odoblari mavjud. Ko'pincha bular yozilmagan qoidalarda aks etgan bo'lib, talaba farosati yoki o'zidan katta shogird talabalardan ertaroq eshitib bilib olishi lozim. Shulardan biri – ustozingiz ishiga beg'araz yordam berishingiz. Ismingiz biror joyda albatta ko'rinishini talab qilavermang. U kishi sizni shogirdlikka olgani uchun ham shukur qiling. Asosiysi, ustozdan ko'proq o'rganishga, u kishining uslublarini tezroq o'zlashtirishga g'ayrat ko'rsating.

«Professorlarga faqat kelajakda professor bo'lmog'chi bo'lgan odam shogird tushadi-da, mening yo'lim boshqa», deb o'zingizni aldamang. Bu fikr katta xato. Oliygohdagi professor-o'qituvchilarga yordamchilik qilish uchun, shogird tushishning ijobiy tomonlari juda ham ko'p. Agar mehnatkash talaba bo'lsangiz, ustozingiz sizni turli grantlarga, stipendiyaga, mukofot, xorijda o'qish yoki konferensiyalarga borish, magistraturaga va boshqa musobaqalar uchun, albatta tavsiya qiladi.

Davlat organlari va xususiy firmalar tomonidan universitet professorlaridan yaxshi shogirdlari bo'lsa, albatta, tanishtirishlari tez-tez so'raladi. Agar ustozingiz bilan faol ishlayotgan bo'lsangiz, bunday joylarga tavsiya qiluvchilar ro'yxati boshida albatta SIZ turgan bo'lasiz. Boshqa talabalar odatda eshitmaydigan tavsiyalarni sizga beradi. Sizga alohida g'amxo'rlik qiladi. Evaziga esa xolis sadoqat, mehnatkashlik va fanga bo'lgan muhabbat so'raladi. Boshqasi emas. Agar sizdan moddiy qandaydir narsa umid qilinsa, bunday professordan tezroq uzoqlashgan ma'qul. (*ammo, o'z sohasini yaxshi biladigan, lekin moddiy jihatdan oilaviy qiyinchilikda turgan ustozingizga o'zingizni tanitmay, savob ma'nosida moddiy yordam ko'rsatish yuksak odob namunasidir. Afsuski, bunday talabalar juda oz.)

Kaminaga kafedrasini ochib, soham tomon yo'nalishimga katta yordam bergan ilk ustozim, professor, fan doktori Said Gulyamovich Gulyamovni hamma vaqt faxr bilan tilga olaman. Talabani sevish, yordam so'rab kelgan insonni qaytarmaslik, qo'li ochiqlik va o'zi ishlaydigan dargohning barcha insonlari bilan samimiy munosabatda bo'lishni aynan shu insondan o'rganganman.

74-tavsiya:**SARDOR BO'LA OLMASLIK YOKI QIZIL DIPLOM
BILAN OLIYGOHNI BITIRA OLMASLIK ASL
MUVAFFAQIYATSIZLIK EMAS**

Sardor – bir jamoaning boshlig'i yoki yo'lboshchisi bo'lishni ko'pchilik orzu qiladi. Aslida esa sardorlik turgan-bitgani mas'uliyatdir. Jamoaning yo'lboshchisi faqatgina buyruq beruvchi emas, balki jamoa ishida eng ko'p ish qiluvchi, eng ko'p o'ylovchi va boshqalar haqida ham ko'p qayg'uruvchi inson bo'lishi kerak. Shuning uchun ham sardorlikka intilishdan oldin biroz fikr yuritib, keyin qo'l ko'tarish kerak.

Shunisi aniqki, hamma ham sardor bo'la olmaydi. Qolganlar esa o'sha sardor atrofida birlashib harakat qilishlari zarurdir. Kuchli sardor degani, kuchli jamoasi bor inson demakdir. Bu qoida siyosatda ham, ilmda ham, biznesda ham bir xil kuchga ega. Siyosatchilar ham o'z jamoasi bilan hokimiyatga keladi, o'z ilmiy maktabini yaratmoqchi bo'lgan olim ham shogird yetishtirishi lozim. Biznes imperiyangizni qurmoqchimisiz, unda sizni har tomonlama qo'llab-quvvatlab turadigan kuchli jamoangiz va biznes-hamkorlaringiz bo'lishi talab etiladi.

Shunday ekan, kuchli sardorlar ortida kuchli shaxslar borligini hech qachon unutmang. Ular ko'rinmaydilar, xolos. Buyuk Britaniya parlamenti joylashgan Vestminster qasrida ham *kingmaker*(qirollarni taxtga chiqaruvchi) deya ataluvchi, hukumat qurish uchun yetarlicha ovozga ega bo'lmagan paytda ba'zi partiyalarni hokimiyatga olib keldigan kamchilik ovozli partiya rahbarlari bo'ladi. Ular jamoat oldida juda ham ko'p ko'rinmasalar-da, parda orti-

«Mustaqillikning 30 yilligi»
ko'krak nishonini olish payti.
Tokio, 2021-yil sentabr.



dan turib hukumatning ko'pgina qarorlariga juda ham yaxshi ta'sir ko'rsata oladilar. Yaponiyadagi Komeito partiyasi ham xuddi shunday.

Keyingi 4-5 yilda tadbirkorlik tobora rivojlanayotgan yurtimizda ko'pchilik tadbirkorlar zo'r sardor yo'qligidan emas, jamoasidagi a'zolari yaxshi emasligidan shikoyat qilishni boshlashdi. Juda ko'pchilikda ajoyib g'oyalar bo'lishi mumkin, ammo uni amalga oshirishi uchun o'zi ishonadigan, sotib ketmaydigan va yarim yo'lda tashlab qochmaydigan jamoaga har kim ham ega bo'lavermaydi. Shunday ekan, talaba do'stim, talabalik davrida agar sizda sardorlik qobiliyati yo'qligi yoki unga qiziqmasligingizni sezgan bo'lsangiz, unda juda ham yaxshi xodim bo'lishga harakat qiling.

Muhimi jamoaning faol va ishonarli a'zosi bo'la oling. Shuning o'zi ham sizga yaxshi maoshli va hurmatingiz joyiga qo'yiladigan ishni taqdim etadi. Sardorchalik tashqarida ko'p ko'rinmasangiz ham, asosiy yoki kamida eng muhim ishlardan birini qilayotganligingizni atrofingizdagilar bilib turishadi. Siz 1389-yildagi Usmonli Turklar va Bolqon yarim orolidagi qirolliklarning birlashgan qo'shini o'rtasida yuz bergan Birinchi Kosovo jangi haqida bilasizmi? Unda Usmonli Turk qo'shinlarining o'ng qanotiga sardorlik qilgan Murod Hudovandigorning o'g'li shahzoda Boyazid, chap qanotdagi turk qo'shinlari yengilayotgan lahzada o'ng qanot dushman qo'shinining falangasini yorib o'tib, jang maydoni o'rtasidan o'ta katta tezlikda otliq askarlarni boshlab borib, Usmonli askarlarini muqarrar mag'lubiyatdan saqlab qoladi. Uning chaqqonligini tepalikdan kuzatib turgan otasi Murod I yonidagi vazirlariga qarata «O'glimizga Yildirim (Chaqqoq) laqabini bekorga berishmagan ekan» deya g'ururlangan ekan.

Qissadan hissa shuki, Sulton Yildirim Boyazid o'sha paytda hali taxtga o'tirmagan edi, o'ng qanot qo'mondoni bo'lgan, xolos. Ammo otasi boshliq qo'shinning parokanda bo'layotganini ko'rib, eng kerakli paytda eng zarur yordamni ko'rsata olgan. Shunday ekan, agar sizda sardorlik

xislati yoki xohishi bo'lmasa, yoki sardor allaqachon tayinlanib bo'lgan bo'lsa, unda hokimiyat uchun ko'p kurashmang. Jamoaning ortiqcha vaqtini va energiyasini isrof qilmay, sardorga bo'yinsunib, jamoani zafarga boshlang. Men buni Yaponiyada sezdim. Garchi yaponlar ham sardorlikni sevishsa-da, ammo oralarida bir sardor saylandimi, tamom. Ular unga to'liq bo'ysunishadi va ishlarini qoyillatib bajarishadi. Sardorning bir ishorasi bilan futbol jamoasi tezda yig'iladi va tarqaladi. Ishlar o'ziga keladi.

Osiyodagi Singapur mo'jizasi asoschisi qattiqqo'l, shu bilan birgalikda o'ta ratsional siyosatchi hisoblangan Li Kuan Yu (1923–2015) ning «Uchinchi dunyodan birinchi dunyo tomon: 1965–2000-yillardagi Singapur hikoyasi» shoh asarini mutolaa qilganlar ko'pchilikni tashkil etsa kerak. Mana shu asarning 2-qismi Singapurning tashqi siyosiy masalalariga bag'ishlangan va aynan shu qismning 32-bobida janob Li faqat bir davlatdangina saboq olishga chaqirgan va bobni ham shunday nomlagan: **«Yaponiyadan olinadigan saboqlar»** (Lessons from Japan). Ana shu bobda uning quyidagi kuzatuvi hozirgi mavzumiz uchun juda o'rinli:

Haqiqatan ham yaponlar havas qilsa arzigulik xislatlarga egadirlar. Ularning o'ziga xos madaniyati, yaponlarning Lego g'ishtlari kabi bir-birlariga jipslashishini ko'rsatadi. Xitoy shaxmati yoki Go o'yini bo'lsin, yakkama-yakka chiqqanda, ko'pchilik xitoyliklar yaponlar bilan tenglasha oladi. Ammo jamoa bo'lishganida, ayniqsa, fabrikadagi ishlab chiqarishda ularni yengish juda qiyin.

Yaponlarning bunday jamoaviy kuchini ular 1946-yilda Alisher Navoiy opera va balet teatrini qurishganida ham Toshkent xalqiga namoyish qilishgan.

Xulosa sifatida, sardor bo'la olmasangiz, ko'pam kuyinmang do'stim. Siz baribir jamoada qadrlanadigan, uni muvaffaqiyat tomonga eltadigan va sardorga ko'p yordam bera oladigan inson bo'la olasiz.

75-tavsiya: **RESPUBLIKA VA UNIVERSITETINGIZ** **GRANTLARIGA HUJJAT TOPSHIRING**

Muvaffaqiyatli talaba oliygohdagi davrining ilk boshidanoq o'zining harakatchanligi, yangiliklarga intiluvchan va qiziquvchanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Siz ham qarshingizdan chiqqan stipendiyalar va grantlardan osonlik bilan voz kechmay, albatta, omadingizni sinab ko'ring. Ba'zilar qayta-qayta yiqilib, bezib qolib, harakat qilmay qo'ysa-da, siz to'xtamang. Chunki o'ta olmay qolishning sizga beradigan ruhiy azobi bo'lishi bilan birgalikda, hujjat tayyorlash va topshirish paytida siz egallaydigan tajriba va ko'nikmalari borligini ham unutmang. Dunyoga mashhur tadbirkorlarning aksari ana shunday muvaffaqiyatsizliklar natijasida qo'lga kiritgan tajribalari evaziga boy va mashhur bo'lishgan.

Misol uchun, yurtimizdagi davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bo'yicha o'qiyotgan talabalariga quyidagi nomdagi davlat stipendiyalari joriy etilgan. Ularga:

- Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi;
- Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasi;
- Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi;
- Ulug'bek nomidagi davlat stipendiyasi;
- Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyasi;
- Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi kabilar

kiradi.*

Bundan tashqari, har bir universitetning o'zida ham ichki stipendiya va grantlar mavjud. Unday bo'lsa, vaqtni qo'ldan boy bermay, ushbu stipendiyalar talablarini yaxshi o'rgangan holda, albatta, ularga topshirib, kuchingizni sinab koring.

Stipendiyalarga va boshqa grantlarga hujjat topshirishning ijobiy tomonlari juda ham ko'p:

* <https://oliygoh.uz/>

✓ Agar yuqoridagi nomli davlat stipendiyalarini qo'lga kiritasangiz, bakalavriatni tugatgandan so'ng bir yil mobaynida, tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturaga kirish imtihonlarisiz, grant asosida qabul qilinasiz.

✓ Xorijdagi magistratura kursi hujjatlarini ko'rib chiqilishi davomida mahalliy darajada olgan stipendiyalarinigiz, albatta, inobatga olinadi.

✓ Iqtisodiy tomondan oilangizdan mustaqillikka erishasiz.

✓ Oliygohni bitirib, kelajakda namunali tashkilot yoki firmalarga ishga kirishda yutgan stipendiyangiz borligi sizga juda ham asqatadi.

76-tavsiya:
OILA QURISH NIYATINGIZ BO'LMASA, QARSHI
JINSDAGI KURSDOSHGA MAYL QILMANG.
UNING OXIRI PUSHAYMONLIKDIR

Tushunaman, ko'pchilik yoshlar ishqiy sarguzashtlarni sevishadi. Ularning orasida o'zim ham bo'lganman. Agar siz bir talaba qiz bilan turmush qurish, yoki talaba yigitdan jiddiy ma'nodagi turmushga chiqishga oid taklif olmasangiz, talabalikni bunday ishlar bilan o'tkazish va narigi tomonni qiynashdan aslo ma'no yo'q.

Sizda oila qurishga oid(yoki turmushga chiqishga oid) qat'iy niyat bo'lmasa, axloqiy jihatdan buning manfiy tomonlari anchagina. Chunki narigi tomon kelakajda kimningdir rafiqasi yoki kimningdir turmush o'rtog'idir. Shunday ekan, talabalik – nafsoniyatni jilovlash davri ekanligini unutmaslik darkor.

Bir gaplashib ko'ray, deyish bilan boshlangan ko'pgina oshiqona ishlar ortidan sizni butun umr ko'nglingizni xira qiluvchi alamzadalik hissi qamrab oladi. Unutishni istasangiz ham, u sizni aslo tashlab ketmaydi.

Shunday ekan,

✓ **Hurmatli talaba singlim:** agar oilangiz sizni o'sha talaba yigitga uzatish ehtimoli yo'q bo'lsa(bunga moddiy sabablar, viloyatlar orasidagi an'analarning farqliligi va boshqa oilaviy sabablarni keltirish mumkin), u yigitga ko'ngil ham bermang, ro'yxush ham bermang. O'ylamang u haqida.

✓ **Hurmatli talaba bo'lmish yigit ukam:** agar turmush qurishingiz uchun moddiy va ma'naviy holat, oilangizdagi muhit (masalan, hali turmush qurishi lozim akangiz, yoki opangiz bo'lsa) bunga tayyor bo'lmasa, unda yaxshisi u qizning yo'lidan qoching. O'z vaqtida turmushga chiqib, baxtini topsin. Garchi ko'nglingizga juda yoqsa ham, aynan siz istagan nomzod bo'lsa ham, mavjud holat bu ishning

o'ta qiyin ekanligini ko'rsatsa, undan voz kecha oladigan va yo'lini to'sib turmaydigan mard ham bo'la oling. Bu ham yigit kishi uchun to'g'ri qarorlardan biridir.

✓ Ammo bir tarafni ishonirib, keyin uylana olmay, yoki va'da berganingizdek turmushga chiqmay, butun umr vijdon azobida qolmang. Nechta tanishim gaplashib yurib ajrashib ketdi...Nechta tanishim gaplashib yurib, uylanmay tashlab ketdi... qizlarning umri o'tdi... ko'z yoshlari quridi... Necha qizlar gaplashib yurib, tegmay dodlatib ketdi... yigitlarning rangi sarg'aydi...

Shunday ekan, maqsadingizda jiddiy bo'lmasangiz, erta vaqtdan ishqiy munosabat haqida o'ylash, talabalik hayotingizni izdan chiqarib, maqsadlaringizga to'g'anoq bo'luvchi katta to'siqdir. Ayniqsa, ikki yoshning ham to'ylariga bir necha yil bor bo'lishiga qaramasdan, oldindan ahd-paymon qilish va doimo yaqin aloqada turishning bir olam zararlari mavjud. Shunday ekan, qizlarimiz o'sha muddat kelmagunicha sabr qilsinlar. Yigitlarimiz esa sharoit tayyor bo'lmagunicha bu haqida jiddiy o'ylamasdan yanada katta g'oyalar bilan o'zlarini mashg'ul qilganlari afzal.

77-tavsiya: TALABA SINGILLARIM, PROFESSORLARGA ERKALANMANG, SIZGA SHILQIMLIK QILISHLARIGA HAM IMKON BERMANG

Yigit talabalarimiz yosh ayol o'qituvchilarni hurmat qilishlari lozimligi va doimo masofa saqlashlari kerakligini ko'pchilik bilgani uchun bu safar ba'zilar so'z yuritmaydigan mavzuni qalamga oldim.

Qizlarda o'gil bolalarda yo'q «xavfli qurol» bor: ular nozik xilqatga ega bo'lib, mahliyo qiluvchi qobiliyatga egadirlar. Bizda unday xususiyat yo'q. Buni juda yaxshi tushungan qizlarimiz, ko'pincha yigitlarga qarshi va ba'zan professorlarga qarshi ushbu quroldan ustalik bilan foydalanishadi va ba'zan buning qurboni ham bo'lishadi. Xorijda universitet xodimlarining talabalarga nisbatan bunday xatti-harakatlarni «sexual harassment», ya'ni, «jinsiy zo'rvonlik» deyishadi. Har bir universitetda bu holatni nazorat qiluvchi alohida mas'ul shaxslar tayinlanadi. Shukurki, yurtimizda bunday holatlar kam.

Kriminalistika fanidan eslab qolganlarimdan biri shu bo'lganki, jinoyat qurboni bo'luvchi shaxs ba'zan jinoyat-chiga o'zining undan qo'rqishi va oqizligini sezdirib qo'yg'anligi uchun ham qurbonga aylanar ekan. Shunday ekan, quyidagilarga amal qilishingizni tavsiya qilaman:

✓ Avvalo, talaba singlim, doimo go'zal bo'ling, bo'lgansiz ham. Bu go'zallikni zaif tomon hisoblangan erkak jinsiga nisbatan qo'llamang. Ayniqsa, professor-o'qituvchilarga nisbatan. Mayli, o'sha fandan yiqiling, bahoyingiz past chiqsin. Ammo bu yomon odatning eshigini aslo ochmang. Professorga nozlanmang, durust ohangda murojaat qilib, doimo masofani saqlang.

✓ Agar professor-o'qituvchilar sizga shilqimlik qilsa, uyalmasdan, qo'rqmasdan buni dekanatga, guruhingiz rahbariga va o'gil bola talaba kursdoshlaringizga bildi-

ring. Qo'rqmang. Bu ish bilan boshqa talaba qizlarimizga ham qilinadigan bu kabi hodisalarning oldini olgan bo'lasiz.

✓ Agar siz professorga bahoyingiz uchun nozlansangiz, juda ham xushmuaomala bo'lsangiz, birgalikda sayohatga chiqsangiz yoki uning fanga aloqasiz shaxsiy ishlarini bajarishni boshlasangiz, o'sha professor sizdan keyingilarga ham bu ishni albatta qo'llaydi.

✓ Narigi jins vakili bo'lgan professor-o'qituvchi bilan tanho joylarda uchrashmang, sizni o'zingizni tamaddi qilish uchun taklif qilsa, bunday takliflarni boshidanoq rad eting. Professor-o'qituvchilar xonasida yolg'iz qolib muloqot qilish ham ko'ngilsiz ishlarga yo'l ochadigan vaziyatlardan hisoblanadi.

✓ Agar professor-o'qituvchi tomonidan taklif qilingan va siz majbur bo'lmagan ishlarni rad etganingiz uchun ular tomonidan dars davomida yoki tashqarida ruhiy tazyiq, boshqalarga qiyosan ko'p vazifalar berilishi, atayin past baho qo'yilishi va imtihonlardan yiqitish hollarini sezsangiz, albatta, yon-atrofdagi insonlardan, dekanat va rektoratdan yordam so'rang. Qo'rqib o'tirmang. Agar erkak professor sizning qo'rqayotganligingizni sezsa, sizga bosimni yanada kuchaytirishi mumkin.

✓ Har xil yo'llar bilan yaqin munosabatda bo'lishiga, raqsga tushishga izn bermang. Iloji boricha masofa saqlang.

✓ Sizga behayo rasmlar yoki behayo hazil gaplarni aytishni boshlashi ham narigi tomonning chegaradan chiqayotganligini anglatadi. Ziyrak turing va hayo-iboli bo'ling.

78-tavsiya: **TALABA SINGILLAR, O'QISH TUGAMASDAN** **TURMUSHGA CHIQMANG'LAR**

Mavjud fakt shuki, yurtimizdagi talaba qizlar o'qishlari davomida turmush qurishlari juda ham keng kuzatiladigan holatdir. Ilohim, hammalari baxtli bo'lishsin. Mening singillarimni ham talaba paytida uzatganmiz, o'zim ham talaba qizga uylanganman. Kuyovlarimiz ajoyib yigitlar. Kamina kuyov bo'lgan xonadon ham mulohazali yaxshi insonlardan iborat. Noliydigan joyimiz yo'q. Ammo mening oilam ham, singillarim ham kelinlik paytlarida o'qishlarini davom ettirishda biroz qiyinchilikni boshlaridan o'tkazishdi.

Yosh kelinlarimiz yangi oila a'zolariga ko'nikishlari, ro'zg'or ishlariga yordam berishlari bilan birgalikda, o'qishlarini ham muvaffaqiyatli davom ettirishlari zarurdir. Chunki ular ham oliy ma'lumot olish bilan birgalikda jamiyatimizga kuchli mutaxassislar o'laroq yetishib chiqishlari lozim. Ammo amalda ko'pincha kelin-talabalarimizning o'qishdan qolishlari, amaliyot ishlarida qatnasha olmasliklari natijasida o'qishdagi ko'rsatkichlarida tabiiyki, pasayish kuzatiladi. Hammalarida bo'lmasa ham, ko'pchilik holatlarda shunday.

Shunday ekan, mening taklifim quyidagicha: *talaba singillar, o'qish tugamasdan turmushga chiqmang'lar*. Bu haqida kitobning oxirgi qismlarida ota-onalarga ham murojaatim bo'ladi. Hozircha esa qizlarimizning o'ziga yuzlanaman.

O'zbekiston jamiyati an'analar kuchli ildiz otgan jamiyat hisoblanadi. Unda kelinlarga ancha-muncha yuklar yuklanadi. Bunday mas'uliyatni boshqa jamiyatlarda odatda kuzatmaymiz. Kattalarga hurmat, erining oilasiga ehtirom va vafo borasida o'zbekim ayoliga haykal qo'ysa arziydi. Shuning uchun ham ular chuqur hurmatga sazovor.

Talaba singillar, agar sharoit ruxsat bersa, oliygohni tamomlamaguncha turmushga chiqmay turinglar. Erkin tarz-

da, yuqori saviyada, qoniqarli baholar bilan o'qishingizni tamomlab oling. Sovchi qo'yayotgan bo'lajak qarindoshlarga ham chiroyli muomala qilib, kutib turishlarini iltimos qiling.

Ushbu taklifning ijobiy tomonlari bisyor:

– O'qish davomida homilador bo'lish kabi jismoniy o'zgarishlarni boshingizdan o'tkazmaysiz. Uning o'rniga saviyali kadr bo'lishga harakat qilasiz.

– Yangi oilaga o'rganishdagi ba'zi ruhiy bosimlar bilan ham yuzlashmaysiz. Uning o'rniga bor diqqatingizni sohangizni egallashga qaratasiz.

– Turmushga chiqishni biroz ortga surish bilan shu paytgacha o'rgangan do'stlar va oilangizdan uzoqqa ketmasligingizni ta'minlaysiz. Bu esa sizga shu paytgacha ichida yashab kelgan akademik va oilaviy muhitning bar-davomligini ta'minlaydi.

Shunday ekan, juda ham zarur, istisnoli holatlar mavjud bo'lmasa, qo'lingizdan kelganicha turmushga chiqishni ortga surib, o'qishni sifatli tarzda tugatishga e'tibor bering. Agar yaxshi o'qisangiz, albatta, siz kutgan inson bir kun eshigingizni taqillatadi.

Talaba qizlarimiz bilan turmush qurmoqchi yigit do'stim: siz ham biroz sabrli bo'ling. Unashtirish bilan cheklaning yoki sovchi qo'yishni biroz ortga suring. Bo'lajak ayolingiz eson-omon o'qishini bitirib olsin, hozircha unga ortiqcha yuk yuklamang. Oliygo'hnini tamomlagach ajoyib to'y qiling.

KICHIK TAVSIYALAR

⇒ *Dars tugagach, kutubxonada 2 soat qoling.*

Aksariyat talabalar darslar tugashi hamon uylariga qarab yo'l olishadi. Men esa bunday odatni hech sev-madim. Men hamisha tun qorong'usida, hammadan keyin universitetni tark etishni juda yoqtirdim. Agar sizning o'ta zarur ishingiz bo'lmasa, yotoqxona yoki uyingizda sizni nima ham kutardi? Undan ko'ra, agar ertalab o'qisangiz darsdan keyin, tushlikdan so'ng o'qisangiz u holda erta-lab kutubxonada kamida 2 soat vaqt o'tkazing. Va beril-gan vazifani o'sha kunning o'zidayoq bajarishga harakat qiling. Agar vazifalaringiz bajarilgan, yaqinlashayotgan imtihonga tayyorgarlik reja bo'yicha ko'rilgan bo'lsa, un-dan keyin bo'shsiz. Xohlagancha o'ynab-kuling. Do'stlar davrasida yayrang. Ammo undan oldin o'qishingizni ba-jarib qo'ying.

⇒ *Harakatlaringiz ko'zga ko'rinarli natija bersin.*

Nega insonlar qo'lga kiritgan medal va ordenlari bilan zavq-shavqqa to'lishadi? Chunki ana o'shanda ularning mehnati hammaga ko'rinib, samarasi e'tirof etiladi. Shunday ekan, biz ham samarali ishlashni, o'rganmog'imiz lozim. Afsuski, biz ko'p harakat qilga-nimizdek tuyuladi-yu, ammo natija kam bo'ladi. Un-day bo'lsa, bu kamchilikni talabalik yillardayoq tuzatib, ko'zga ko'rinarli ishlarni ko'paytiring. Maqola yozing, dastur ishlab chiqing, tadbir tashkil qiling, kitob tarji-masi bilan shug'ullaning, biznes loyihangiz uchun inves-tor topib, kamida 5 ta ishchini unga jalb qiling. IELTS oling, ACCA sertifikatini qo'lga kiriting. Bularning ham-masi sizni keyingi darajaga chiqarish uchun juda katta motivatsiya vazifasini o'taydi.

⇒ *Boshqaning shaxsiy hayotiga daxl qilishdan ehtiyot bo'ling.*

Yurtimizda hali-hanuz to'liq shakllanmagan odat – bu boshqa insonning shaxsiy hayoti va ma'lumotlariga e'tiborsiz qarashdir. Xorijda ba'zan «privacy» deya ataluvchi bu masalada sizdan boshqa insonlar shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlarni ulardan kerak bo'lsa so'ramaslik va ularning ruxsatisiz o'zgalarga tarqatmaslik talab etiladi. Shunday ekan, Telegram ishlatayotganda diqqat qilib, kursdoshingiz telefon raqamini u xohlamaydigan insonga bilintirib qo'ymang. Uning rasmini o'zining iznisiz boshqalarga bermang. Kursdoshingiz ruxsatisiz unga oid ma'lumotlarni boshqa kanallarga tashlamang. Ovozli va video yozuvlarini hech qachon boshqalarga ko'rsatmang. Bundan keyin xuddi xorijdagidek, yuqoridagi masalaga nisbatan huquqiy javobgarlikning tobora kuchayib borishini kutish kerak.

⇒ *Portfel tutishni odat qiling.*

Ko'p narsa sig'adi. Uni ko'tarib yurgan paytingizda esa sizga doimo talaba ekanligingizni ham eslatib turadi.

⇒ *O'qish anjomlaringizni tartibli saqlab, o'quv qurollariga investitsiya qiling.*

Nima demoqchiman? Ozodalik va shaxsiy kutubxonangizni qurish masalasini allaqachon yuqorida aytdim. Qo'shimcha tarzda, yulduz talaba o'zining dars anjomlarini ham sifatli mahsulotlardan olib, ularni boshqalar havas qilgudek tarzda tutib yuruvchi talaba hamdir. Darsga eng yaxshi daftar, ruchka, qalam va boshqa asboblarni ishlatib. Ularga mablag' sarflashdan qochmang. Turar joyingizda ham ularni saranjom saqlang. Har doim ularga qaraganingizda kayfiyatingiz ko'tariladi. Albatta, insonga uning atrofidagi borliq katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, atrofingizni go'zallashtirib, mukammallashtiring.

⇒ *Telegramda ovozli messej bilan emas, balki matnli qilib yozib gaplashing.*

Ovozli messej sizni orqaga, oddiylikka tortadi. Undan ko'ra, erinmay, gap bo'laklarini hammasini grammatik qoidalar asosida to'liq shaklda yozib suhbatlashing. Shunda siz oldinga yurasiz. Ham narigi tomonning ko'p vaqtini olmaysiz. Og'zaki madaniyat ko'chmanchi xalqlar madaniyati bo'lib, shahar aholisi yozuv bilan, kitob bilan so'zlashib yuqori cho'qqilarga erishganligini esingizdan chiqarmang. Bu tavsiyani Facebook sahifangizda ham qo'llashingiz mumkin. Hadeb o'zingizning turli joydagi rasmlaringizni joylashtiravermay, ma'noli fikrlarni uzun-uzun yozib, do'stlardan layk olish ham bir san'at.

⇒ *She'r yozishga urinib ko'ring.*

Qofiyali so'z topishga intilish miya ishlashini tezlashtiradi. Xuddi krossvord yechish jarayonidek.

⇒ *Siz sevgan shoirlar she'rlaridan qo'lingizdan kelganicha yod oling.*

Qadimda bobolarimiz she'riyat va bahru-baytga ustasi farang bo'lganlar. Bu orqali sizning miyangizga salbiy xayollar kelganida ularni quvish uchun va biror foydali narsaga yo'nalish uchun ham yodlagan she'rlaringizni takrorlaysiz. Ma'naviyatingizni oshirishga, ham xotirangizni mustahkamlashda doimiy ravishda she'r va g'azallarni yodlab borishning juda ham ulkan ta'sirlari bor. O'zim ham hazrat Navoiydan, Zahiriddin Boburdan, Xaziniydan, Erkin Vohidov kabi milliy shoirlarimizning she'rlaridan yodlaganman va hamon yodlashda davom etmoqdaman.

⇒ *Qo'lingizga kelgan imkonlarni bekorga hisoblamang.*

Chunki ular sizga ilohiy ikrom bo'lishi mumkin. Dadamning akalari Muhammadhoji amakim menga ko'p nasihat qilardilar. U kishining menga aytilshlaricha, «Yigit kishiga umrida 3 marta omad keladi. Biri ishida, biri molida va

yana biri oilasida. Yigit kishi, albatta, ularni ushlab qo-lishga harakat qilishi lozim». Bunday nasihatning ilmiy asosi bo'lmasa-da, yoshi ulug' insonlarimiz ko'pni ko'rganliklari uchun ushbu gaplarni bekorga aytishmaydi. Shunday ekan, siz ham, talaba singlim va talaba ukam, o'qish davrida keladigan imkoniyatlarni ko'zdan qochirmang.

Yaponiyada akademik ish topishimga magistratura davrimdan boshlaboq turli konferensiyalarga doimiy topshirib yurganim sabab bo'lgan. 2009-yil sentyabrda Nagoya universitetida xalqaro talabalar konferensiyasi bo'ldi. Vaqtim ziq bo'lsa-da harakat qilib unga topshirdim va taqdimot qildim. Maqolam talabalar jurnalida chop etildi. 2011-yilda esa Nagoya universitetining huquq fakultetida Yaponiyaning shimoldagi Hokkaido universitetida PhD talabalari orasida o'tkazilayotgan eng yaxshi maqola bo'yicha musobaqa haqida e'lon berildi. Men bu ikkisidan ham unumli foydalandim va Yaponiyadagi grantlarda zarur bo'lgan nashr etilgan maqolalarim (publications) sonini erta vaqtdan ko'paytirishga erishdim. Agar yuqoridagi ikki musobaqaga boshqalar kabi e'tiborsiz qaraganimda, balki hozirgi darajamga erishishim juda qiyin bo'lardi.

⇒ *Xonangizni ozoda tuting.*

Insonga uning atrof-muhiti va yashash joyining holati ta'siri bo'lishini ilmiy natijalar allaqachon aniqlab bo'lgan. Shunday ekan, yashaydigan xonangizni ozoda tuting. Shunda do'stlaringiz mehmonga keladi, ko'nglingiz ko'tariladi va kayfiyatingiz chog' bo'ladi.

⇒ *Facebookka faqat rasmingizni qo'yavermang.*

Ko'pchilik kabi men ham Facebook dan foydalanib turaman. Chunki u yerda bayon qilingan fikrlar, bo'lashilgan maqolalar va e'lon qilingan yangiliklar men uchun qiziqarli va foydali. Biroq biror fikr bayon etmay, faqat o'zining rasmini qo'yadiganlarga hech tushunmayman. Qaytaga asabiylashaman. Nima maqsadda inson o'z rasmini takror va takror qo'yadi? O'zini ko'rsatish uchunmi? Ayniqsa,

ularning orasida yaxshigina mavqega sazovor bo'lgan insonlarni ko'rish yana ham og'irroq.

Undan ko'ra, Facebook sahifangizga ma'noli so'zlar yozib, sizga do'st tutingan insonlarga biror foydali bilim yoki ma'lumot berishga harakat qiling. Shuning o'zi ham sizning fikrlayotgan jonli inson ekanligingizni anglatadi.

⇒ ***Kuchli professor-o'qituvchilar darslarini o'tkazib yubormang.***

Ba'zan siz juda ham istagan va kutgan professor o'qituvchi sizning guruhingizga emas, boshqa guruhga darsga kirishi mumkin. Alam qiladi, shunday emasmi? Shuncha kutganligingizga qaramasdan, o'sha professor boshqa guruhga darsga kirsayam? Ammo voz kechmang. Kuchli professorlar sizning guruhingizga dars o'tmasa, ular dars o'tayotgan guruhlarga kirib, ularning darsini eshittirishga harakat qiling. Bu bo'yicha dekanat, sizga dars beruvchi professor va siz darsini eshitmoqchi bo'lgan o'sha professordan, albatta, ruxsat oling. Agar sizdan oldin ham boshqa talabalarga ruxsat bermaganligini eshittirib, so'ramasdan ham orqaroq qatorga o'tirib, darsini eshittirib. Talabaning ilm yo'lida biroz «haddidan oshishi» ham gohida kechirimlidir.

⇒ ***Avtobus va metrodagi vaqtni o'zingizni rivojlantirishga sarflang. Boshqalarni kuzatishga emas.***

Avtobus yoki metrodagi vaqtni kitob yoki jurnal o'qish uchun sarflang. Aksariyat insonlar boshqalarga qarash, turli ma'nosiz narsalarni o'ylash bilan bunday qimmatli vaqtlarini yo'qotishadi. Men yapon tilini asosan Yunusobod–Aeroport yonalishidagi 67-avtobusda tikka turib o'qiganman. Siz ham bir sinab ko'ring, yaxshi foyda beradi. Hatto yoningizda o'tirgan inson ham qiziqib ketib, sizning qo'lingizdagi kitobni o'qiy boshlaydi.

⇒ *Seminar paytidagi savol-javobda «nemis» bo'lib oling, dars tugagach, o'zingiz bilasiz.*

Ba'zan seminarlarda talabalar bir-birlariga oldindan tayyorlab qo'yilgan «savollar»ni berib, ustozga o'zlarining mavzuni yaxshi bilishlarini ko'rsatishga urinishadi. Ammo bu ish soxtakorlikdan boshqa narsa emas. Hech kimga foydasi yo'q. Shunday ekan, siz bunday savollarni bermasligingizni oldindan kursdosh va guruhingizdagi o'rtoqlaringizga ham tushuntiring. Bir-birlaringga oldindan tayyorlab qo'yilgan oson savolni berib yoki savolni umuman bermasdan o'tkazilgan barcha seminarlarda muvaffaqiyat kalitiga erisholmaysiz.

⇒ *O'qituvchi oldida bilmaganingizni tan olishdan uyalmang.*

Kimning savoliga bo'lsa ham, bilmasangiz, olib qochmang, bilganingizni qo'rqmay aytavering. Narigi tomon, yoki o'qituvchi qoniqmasa, albatta, keyingi safar o'sha savol javobini qidirib kelishga va'da bering. Bu ayniqsa, ilmiy bahslarda muhim hisoblanadi. Yaponiyada professional davralarda yapon professorlarining «Masalaning bu tomonlarini bilmas ekanman, ajoyib savolingiz uchun rahmat, keyingi safar, albatta, e'tibor qaratishga harakat qilaman» deganlariga juda ko'p marta guvoh bo'ldim.

⇒ *Do'stingiz tug'ilgan kunida faqat va faqat kitob sovg'a qiling.*

Bizda ancha qimmat sovg'alar qilish odat bo'lib qolgan. Ammo talabaga bu shart emas. Undan ko'ra, do'stingizning shaxsiy kutubxonasida yo'q bo'lgan kitoblarni oldindan bilib olib, shundan 4-5 tasini sovg'a qiling. Ichiga dastxat ham yozinglar. Bu narsa tug'ilgan kunini nishonlayotgan do'stlaringizga o'sha kitoblarni yo'qotmaslikka, ularni doimo ardoqlashga va o'qib tugatishga undaydi.

⇒ *Masofaviy o'qish paytida ham oilangiz bag'riga qaytmang.*

Yana g'alati eshitiladi, shunday emasmi? Axir, ota-onamiz yonida, har kuni mazali taomlar tanovul qilgan holda, o'qishga nima yetsin. Agar oilamiz bag'riga qaytsak, u yerdagi ishlarga ham yordam bermaslik ma'lum darajada odobsizlik hisoblanadi. Bundan tashqari, ota-onangiz ishlab turganda sizning uyda o'tirib uzukkun dars qilishingiz ham oson bo'lmaydi. Shunday ekan, agar o'qishingiz onlayn tarzda davom etayotgan bo'lsa, unda ijara yoki yotoqxonangizdan oilangiz bag'riga qaytmasdan kitoblaringiz qurshovida o'qishingizni davom ettiring. Qulaygina o'qish muhitini aslo tashlab ketmang.

⇒ *Haydovchilik guvohnomasini talabalik davrida olib qo'ying.*

Haydovchilik guvohnomasini olib qo'ying, mumkin bo'lsa mashina minishni talabalik paytingizdayoq mashq qilib oling. Bundan tashqari, haydovchilik guvohnomasini qancha erta yoshda olinsa, shuncha oson bo'ladi. Hammamizga ma'lum, katta shaharlarda yanada sifatli avto maktablar mavjud. Shunday ekan, imkoniyatdan foydalanib qoling. Bu tavsiya qizlarimizga ham birdek taalluqli. Shuningdek, xorijga ketmoqchi bo'lgan yoshlarimiz ham haydovchilik guvohnomasini talabalik davrlarida olib ketishsa ayni muddao bo'lardi. Chunki chet elda avto-maktablarda o'qish juda ham qimmat.

⇒ *Tavakkal qilishdan qo'rqmang.*

Talabalik yillarimda «Kurtlar vodiysi» nomli turk seriali bo'lardi. Deyarli hamma qismini ko'rganman. Serial bosh qahramoni Po'lat Alemdarning mashhur bir so'zi tez-tez yangrab turardi: «Oxirini o'ylagan qahramon bo'la olmaydi». Bu so'z qay darajada to'g'ri, bilmayman. Faqat shunisi aniqki, biror yangi loyiha boshlanayotgan paytda uning kelajagi haqida juda chuqur o'ylash, tashvishga tushish va

shubha bilan qarash, talabani ko'plab yangi imkoniyatlardan mahrum qiladi. Omadli talaba – biroz tavakkal qilishdan qochmaydigan, qiziquvchan talaba deganidir.

⇒ *Shanba va yakshanba kunlarini qadrlang.*

Nagoya universitetida doktorantura davrida menga ustozlik qilgan professorning xonasi eshigida quyidagicha yozuv turardi: *Dushanbagacha atigi 2 kuning bor, xolos.*

Siz ham tushunganingizdek, talabalar uchun darslar va qo'shimcha mashg'ulotlar yo'q kunlar bu – shanba va yakshanbadir. Shunday ekan, ushbu kunlarni o'qiy olmagan kitobingizni yoki biror fanga oid maqolani yaxshilab tushunishga sarflang. Bozorlik va uyni tozalash ishlarini siz juma kuni yoki haftaning boshqa kunida ham bemalol qoyillatsangiz bo'ladi. Iloji boricha hafta oxirini kelajak maqsadlaringizni ro'yobga chiqarish yo'lida rejalashtiring. Chunki hafta oxiri talaba uchun emas, balki jamiyatda ishlovchi insonlar uchun dam olishdir. Sizning 7-8 soatlik tungi uyqungiz vujudingiz va miyangizning orom olishi uchun yetib ortadi. Haqiqiy dam olish – siz muvaffaqiyatga erishgach nishonlanadi. Ungacha esa, unutmang: dushanbagacha atigi 2 kuningiz bor, xolos.

OTA-ONALAR UCHUN

Hurmatli talaba do'stimning ota-onasi! Avvalambor farzandingizni shu yoshgacha tarbiyalab, o'qishga kirguncha qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizga katta rahmat. Boringizga shukur! Kitobim so'ngida, sizga ham ikki og'iz so'zim bor. Biroz siqilmay, ko'ngilni keng qilib, shu yigit tavsiyalariga quloq tutsangiz. So'zimni ko'p cho'zmayman.

⇒ *Talaba farzandingiz hayot ritmini buzming.*

Poytaxt yoki viloyat markazida o'qib yashayotgan talaba farzandingizni o'qishiga aloqasiz faoliyatlarga jalb qilmang. Farzandingiz:

- Tovarni Ippodromdan olmasin;
- Kimnidir kutishga aeroportga chiqmasin;
- Sizga nimanidir bozordan olib borib yubormasin;
- Qarindoshlarni konsertga olib tushishga mas'ul bo'lmasin.

Yuqoridagilar, agar doimiy takrorlansa, talaba farzandingiz hayotini izdan chiqarib yuboradigan ishlardir. Chunki uning qo'shimcha darslari, do'stlari bilan uchrashuvi, to'garagi va keyingi kuni esa muhim imtihoni bo'lishi ham mumkin. Doim, farzandingizning o'qishi nuqtayi nazaridan o'ylang.

Talaba farzandingiz hayotini kuzatish uchun ba'zan ba'zan borib turish albatta foydalidir. Ammo farzandingiz yashayotgan joyga keraksiz ravishda boraverib, uning hayot tarziga xalaqit bermang. Qarindoshlarni yubormang, yashash manzilini ham boshqalarga bermang. Davolanish kabi juda jiddiy holatlardan tashqari boshqa paytlarda talabani bezovta qilish umuman to'g'ri emas. Qo'ying, talaba bolangiz istagan joyiga borsin, o'qishini o'qisin. O'z vaqtini o'zi nazorat qilsin. Atigi 4 yil talabalik davri bor, undan keyin yoningizdan ketmaydi. Ungacha biroz sabr qilaylik.

⇒ *Bolangizning sifatli o'qishi uchun pul ayamang.*

Hurmatli talaba ota-onasi, siz shundoq ham farzandingiz uchun ayamaysiz. Zotan, ayamadingiz ham. Buni men ham bilaman. Shuning uchun farzandingiz talaba bo'ldi, ammo uni endi ham to'xtatmang. Biroz belni mahkam qiling. Imkon bo'lsa, farzandingizga kompyuter olib bering, kitobiga pul sarflashdan qochmang, til kurslariga boraman desa, yo'lini to'smang. Ammo farzandingiz haddidan oshib, ketma-ket aqlli telefonlar, chiroyli kiyimlar va bazmlar dedimi, darhol to'xtating.

⇒ *Farzandingiz o'qishini bitirib olgunicha undan pul so'ramang, umid qilmang.*

Ko'p bo'lmasa-da, ba'zan ota-onalar bunday umidni qilishadi. Talaba farzand ham buni sezgani uchun o'qishini qisqartirib, qimmatli vaqtidan voz kechib, qo'shimcha ishlar qidirib yuradi. Hurmatli ota-ona, iqtisodimiz bu darajada hali baquvvat emas, talabalar uchun yengil ishlar hali juda oz. Keling, talaba farzandingiz o'qishi bilan mashg'ul bo'lsin. Undan keyin butun hayoti davomida sizga o'zini bag'ishlaydi.

⇒ *Farzandi xorijda tahsil olayotgan ota-onalarimizga.*

Xorijda o'qiyotgan bakalavr bosqichidagi talabalarining o'z universitetlariga to'laydigan pullari bor, yashashlari uchun ham pul topishlari lozim. Shunday ekan, o'qishlarini bitirib olgunlaricha moddiy yordam olmay turing. Aksincha, imkoningiz bo'lsa, ularga moddiy yordam bering. Bo'lmasa, nima bo'ladi, bilasizmi? Talaba farzandingiz bir umr universitet kutubxonasida ko'proq o'qiy olmaganiga yoki do'stlari bilan birgalikda ko'proq vaqt o'tkaza olmaganiga afsus chekib, ich-ichidan sizlarni ayblab yuradi. Shunga biroz sabr qilaylik. Talabaning yuksaklikka parvoz qilishidan aslo to'smaylik.

⇒ *Farzandi xorijda tahsil olmoqchi bo'lgan otanalarimizga.*

Agar farzandingizni axloqidan va mustaqil ko'nikmalaridan ko'nglingiz to'lsa, xorijga ketishiga bamaylixtir rozi bo'lsangiz bo'ladi. Ammo hali farzandingizda yetarlicha hayotiy ko'nikma rivojlanmagan bo'lsa va sizda xavotirlar bo'lsa, biroz shoshmang. Hech bo'lmasa, bakalavr bosqichini ona vatanimizda tamomlab olsin. Ana undan keyin xorijga ketaveradi. Juda yosh paytidan, hali hayotiy tajriba va qarashlari yetarlicha shakllanmasdan turib, birdaniga xorijga chiqish ba'zan vatandosh talaba ukalarimiz va singillarimizga, ularning oilalarini xijolatli holatga soladigan boshboshdoqlik va jiddiy xatolarga yo'l qo'yishlarini keltirib chiqarmoqda. Ota-onalarimiz bunga diqqat qilsinlar.

⇒ *Bo'lajak qaynonalar, kelin olishga biroz shoshmang.*

Uylanib oila qurish har bir yigitning orzusi. Kelin tushirishni har bir ona albatta istaydi. Biroq o'g'il farzandingiz asosan o'qishi bilan band bo'lsa, uni oila yuki bilan hozircha band qilmay turing. Agar o'g'lingiz ilm olishga ishtiyoqmand bo'lib, xorijga ketish orzusi bo'lsa, uylantirishni yanada kechroqqa surishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, farzandingiz magistratura va doktorantura bosqichiga qarab shaxdam ketyaptimi, unda biroz shoshmang. **Ayniqsa, yigit talabani ota-onasi, bunga e'tibor bering.**

Tajribamdan ko'rdimki, talaba yigitlarda, ayniqsa ilm yo'lida yurganlarda oila yuki qancha oz bo'lsa, shuncha yaxshi. Kerak bo'lsa, siz uni biroz sabrga undang. Hech bo'lmasa, bakalavr bosqichini tamomlab yoki ilm yo'lida ketayotgan bo'lsa, nomzodlik disseratsiyasini yoqlab olsin. Undan keyin ruxsat bering. O'sha davr kelgunicha esa, yolidan toymay ilmni sipqorib, vatanga foydali mutaxassis bo'lsin. Albatta, istisnolar mavjud. Ularning qandayligini esa tajribali ota-onalarimiz kamina muallifdan ham yaxshiroq bilganliklari uchun tanlovni ularning ixtiyoriga qoldiraman.

⇒ *Otalar, bakalavr qizlaringizni universitetni tugatib olguncha uzatmay turinglar.*

Hurmatli talaba qiz yetishtirgan akam, amakim! Yuqorida bir joyda talaba qizlarimizga ham aytganimdek, sizga ham aytay. Jiddiy quloq solsangiz. Talabalikda kelin bo'lish oson ish emas. Chunki o'zbekim kelini fazilatlidir. O'z umr yo'ldoshidan boshqa butun oilaga xizmat qilib duosini olgisi keladi. Bunday vazifani esa o'qish bilan birgalikda olib borishi hecham oson emas. Keling, biroz muddat bering o'zbek oyimga. O'qishini erkinlik bilan, yengil yuk ostida bitirib olsin. Yaxshi mutaxassis bo'lsin. Undan keyin sovchilarni qabul qilaverasiz.

⇒ *Farzandingiz asosli shaklda o'qishini to'xtatmoqchi yoki sohasini o'zgartirmoqchi bo'lsa, qarshilik qilmang.*

Yurtimizda talabaning hayot yo'li odatda juda ham erda belgilanadi. 18–19 yoshdan Irrigatsiya institutiga kirdimi, demak, endi bu talaba faqat qishloq xo'jaligi sohasida ishlashi kerak. Chunki u irrigatsiya sohasida o'qidi-da!

Ammo inson bunday yoshda o'zining qiziqishini 100 foiz aniqlay olmaydi. Talabaning qiziqish va mahorati keyingi yillarda bo'y ko'rsatadigan holatlari hecham kam emas. Shu sababli ham, xoriydagi talabalar o'qish paytida asosan o'zining kim ekanligini, qaysi sohaga ko'p tushishini topishga sarflaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo bizning jamiyatda ota-ona, qarindoshlar va atrofdagilar bosimi ostida talaba tavakkal qilolmay, bir umr o'zi sevmaydigan va mahoratli bo'lmagan sohada qolishiga to'g'ri keladi. Shunday paytlarda, hurmatli talaba otanasi, farzandingiz yonida turing. Uning istaklarini diqqat bilan eshitib, agar asosli fikrlarni aytsa, albatta qo'llab-quvvatlang.

Men 1-sinfdan 11-sinfgacha 4 ta maktab va litseylarda o'qiganman. Har safar yangi maktab ochilganini eshitsam, ota-onamga bu haqida arz qilardim. Biroz ikkilansalar ham

ota-onam rozi bo'lib, mening yo'limni ochib qo'yishardi. Ulardan bunday erkinlik va sharoit yaratganlari uchun juda ham minnatdorman.

⇒ *Imtihondan o'tishi uchun sessiya vaqtida farzandingizga pul bermang.*

Jamiyatdagi korrupsiyani oldini olish uchun avvalo o'sha jamiyatdagi insonlarning har biri hassos harakat qilmog'i darkor. Shulardan biri – bu siz, ya'ni, talabaning ota-onasi hisoblanadi. Oliy ta'limdagi ustoz va shogird o'rtasidagi korrupsiyaning ildiz otishiga katta ma'noda o'sha talabaning ota-onasi yo'l ochib beradi. Chunki siz farzandingizni moddiy qo'llab-quvvatlamasangiz, u qayerdan universitet professori yoki ma'muriyatiga pul olib borib beradi??? Men hech qachon baho olish uchun ota-onamdan pul so'ramadim. Ba'zan, haqsiz ravishda, professor-o'qituvchilar menga «3» baho qo'yib, «ikki»chi talabaga «5» qo'ygan hollari bo'ldi. O'sha professorni undan keyin ko'pchilik hurmat ham qilmadi. Men tishimni tishimga qo'yib chidadim, ammo pul bermadim. Agar siz bunday yordam bersangiz, farzandingiz borib bir professorni xarom luqмага o'rgatadi, boshqa bir talaba haqiga tajovuz qiladi. Bundan qat'iy saqlaning.

⇒ *Semestr imtihonlaridan farzandingizni o'tkazishni so'rab professor-o'qituvchilarni bezovta qilmang.*

Ayniqsa, viloyatlarda ishlovchi ustozlarimizdan ko'p eshitadigan muammolardan biri – talaba ota-onasining imtihonlar paytida universitetga kelib, ustozlardan baho qo'yishlari uchun turli iltimoslar qilishlari yoki biror tanishi orqali bosim o'tkazishlari hisoblanadi. Bu juda-juda xunuk holatdir. Talabalik sharafiga erishgan insonning ota-onasiga hecham yarashmaydigan odatdir. Farzandimiz qay darajada past baho olsa ham bu jarayonga mutlaqo aralashmasligimiz kerak. Qo'yib bering, farzandingiz o'z kuchi bilan fanlarni o'zlashtirsin. Sizning aralashadigan bitta joyingiz bor: u ham bo'lsa, agar o'sha professor-o'qituvchi

farzandingizdan pora talab qilayotgan bo'lsa, bu haqda oliygoh rektorati va tegishli huquq-tartibot organlariga arz qilish. Bu ishdan aslo qaytmang. Ammo yaxshi o'qimagan farzandingizni orqasidan suyash uchun ustozlarni noiloj ahvolga solish yoki ularga turli yo'llar bilan bosim o'tkazish, siz aziz ota-onaga yarashmaydi.


Mundarija

So'zboshi:	Siz talaba bo'ldingiz.....	3
1-tavsiya:	«Talabalik – oltin davr» tushunchasini qanday anglamoq kerak?.....	7
2-tavsiya:	Oxir-oqibat ma'lumotsiz inson qo'lida ishchi bo'ladigan bo'lsangiz, vaqtingizni behuda sarflamang	11
3-tavsiya:	Universitetni maktab hayotidan farqlang	13
4-tavsiya:	Kelajagingiz haqida 1-kursning 2-sentabr kuni soat 8:00 dan boshlab o'ylang.....	16
5-tavsiya:	Talabalik hayotining birinchi oyidayoq universitet kampusini o'rganib chiqing	18
6-tavsiya:	Erta turing, uyquga barvaqt yoting.....	20
7-tavsiya:	Kumush qoida – ertalab soat 8 dayoq uyingizdan chiqing.....	22
8-tavsiya:	Shaxsiy rejalar daftarini tuting.....	24
9-tavsiya:	Rejasiz yashamang, ammo uni amalga oshirish uchun qo'riqchi yollashni yodda tuting	26
10-tavsiya:	Kuchingizni «maydalab» tashlamang.....	29
11-tavsiya:	Har kuni gazeta va jurnal o'qiing.....	31
12-tavsiya:	Oshqozon yarasi – erinchoq va tartibsiz talabani o'ziga «sovg'a»si	34
13-tavsiya:	Xorijiy til, xorijiy til va yana xorijiy til. Nega?.....	38
14-tavsiya:	Mutolaani qanday kitobdan boshlash kerak?.....	43
15-tavsiya:	Kitob o'qish sayohatlariga chiqing	45
16-tavsiya:	Shaxsiy kutubxonangizni shakllantiring	48
17-tavsiya:	Planshet sotib olib, kamida 200 ta kitobni o'qiing.....	50
18-tavsiya:	Muallif mehnatini qadrlang.....	52
19-tavsiya:	Ijtimoiy tarmoqlarni tark eting.....	55
20-tavsiya:	Yodlashdan fikrlashga qarab «yuring».....	58
21-tavsiya:	Kutubxonachilar bilan yaxshi muomalada bo'ling.....	60

22-tavsiya:	Kitob o'qishni o'rganing, chunki o'qishning ham turlari bor.	63
23-tavsiya:	Kitobni asrab emas, balki chizib-bo'yab o'qing.....	65
24-tavsiya:	Dars tayyorlash uslubingiz va joyingizni aniqlab oling	67
25-tavsiya:	Kitob sotib olmasangiz ham kitob do'koniga boring.....	69
26-tavsiya:	Necha qatorlik CV(rezyume)ga egasiz?	70
27-tavsiya:	Raqibingizni tanib oling.....	72
28-tavsiya:	Siz qaysi birisiz?	74
29-tavsiya:	Davlat ma'muri bo'lishni istagan talaba do'stinga.....	77
30-tavsiya:	Tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talaba do'stinga	81
31-tavsiya:	Akademik sohaga kirmoqchi bo'lgan do'stinga	83
32-tavsiya:	3-kursga kelganda, albatta, o'zingizni tanib oling.....	86
33-tavsiya:	Yangi «digital» (raqamli) zamoni to'g'ri tushuning.	89
34-tavsiya:	Xorijga o'qishga yoki sayohatga boring.....	92
35-tavsiya:	Magistraturani xorijda o'qimoqchimisiz?.....	94
36-tavsiya:	Hech qachon kech emas.....	98
37-tavsiya:	Faol o'rganishga o'ting	101
38-tavsiya:	Yoz oylari haqiqatan ham dam olish uchunmi?	105
39-tavsiya:	Baho uchun emas, bilim uchun o'qing.....	109
40-tavsiya:	Sohangizning zo'ri bo'ling.	111
41-tavsiya:	Boshqa sohalarga ham qiziqing.....	113
42-tavsiya:	O'qishni to'xtatish, ta'til olish yoki sohangizni almashtirishdan qo'rqmang.	115
43-tavsiya:	Universitetdagi darslar sizni qoniqtirmayaptimi?.....	117
44-tavsiya:	Ma'ruzalarning muhim qismini yozib olishni o'rganing.....	119

- 45-tavsiya: Iltisangiz darsda boshqa kitob o'qing, ammo ko'p gapirib ma'ruzachiga va yoninigzdagi talabalarga xalaqit bermang..... 122
- 46-tavsiya: Hech qachon ko'chirmang va ko'chirtirmang..... 124
- 47-tavsiya: Semestr imtihoni va topshiriqlarga oldindan tayyorgarlik ko'ring..... 126
- 48-tavsiya: Har darsga savol o'ylab kelib, kamida bitta savol so'rang..... 128
- 49-tavsiya: Kiyimingizdan (forma) universitet talabasi ekanligingiz sezilsin..... 130
- 50-tavsiya: «5» baho olmoqchimisiz, professor yozayotgan ilmiy ishlarni o'qib boring..... 133
- 51-tavsiya: Har bir semestrda bir fanga qattiq kirishing..... 135
- 52-tavsiya: E-mail yozish madaniyatini qunt bilan o'rganib oling..... 139
- 53-tavsiya: Teatrlarga ko'proq boring. Muzeylarni ko'ring..... 143
- 54-tavsiya: Yozishni o'rganing va kichik maqolalar chop eting..... 145
- 55-tavsiya: Qisqa, lo'nda va oldindan tayyorlanib so'zlang..... 149
- 56-tavsiya: Telefondan foydalanish va u orqali suhbatlashish odobini bilib qo'ying..... 151
- 57-tavsiya: Qayerda yashashingizni qarindoshlaringizga aytmang..... 154
- 58-tavsiya: Orzu qilishni biling, ammo xomxayol bo'lishdan saqlaning..... 156
- 59-tavsiya: Siz kabi fikrlaydigan kursdoshlar bilan vaqt o'tkazing, o'z viloyatingizdan kelgan talabalar bilan emas..... 158
- 60-tavsiya: Sizni erkin tanqid qila oladigan vafodor do'stlar orttiring..... 160
- 61-tavsiya: Raqobat qilishni o'rganing, kuyunchak bo'ling, ammo taqdiringizga rozi bo'lishni ham esdan chiqarmang..... 162

62-tavsiya:	Ustozlarga yaxshilik qiling	164
63-tavsiya:	Oliygo'ha uyingizga yaqin bo'lsa ham ijarada do'stlaringiz bilan yashang	166
64-tavsiya:	Futboldan boshqa sport turlari ham mavjud.....	168
65-tavsiya:	Sport faqat erkaklarga emas, qizlarga ham chiqarilgan	170
66-tavsiya:	Ishni «orqaga surish»dan qoching.....	171
67-tavsiya:	Talabalik paytingizda O'zbekistonning ko'pgina viloyatlariga borib keling.....	173
68-tavsiya:	Oldingizga aniq maqsad qo'ying.....	176
69-tavsiya:	Biror to'garak yoki klubga a'zo bo'ling.....	180
70-tavsiya:	O'zingizdan keyingi kurslarga meros qoldiring.	182
71-tavsiya:	Ilmiy maqola va innovatsion g'oyangiz doim tayyor tursin.	185
72-tavsiya:	Universitet tomonidan tashkil qiladigan tadbirlardan voz kechmang.	187
73-tavsiya:	Professorlarga o'zingizni taniting va shogirdlikka tushing.....	190
74-tavsiya:	Sardor bo'la olmaslik yoki qizil diplom bilan oliygo'hni bitira olmaslik asl muvaffaqiyatsizlik emas.....	194
75-tavsiya:	Respublika va universitetingiz grantlariga hujjat topshiring	198
76-tavsiya:	Oila qurish niyatingiz bo'lmasa, qarshi jinsdagi kursdoshga mayl qilmang. Uning oxiri pushaymonlikdir	200
77-tavsiya:	Talaba singillarim, professorlarga erkalanmang, sizga shilqimlik qilishlariga ham imkon bermang	202
78-tavsiya:	Talaba singillar, o'qish tugamasdan turmushga chiqmanglar.....	204
Kichik tavsiyalar.....		206
Ota-onalar uchun.....		214



Alisher Umirdinov,

Nagoya Iqtisodiyot Universiteti professori

Talaba do'stinga 78+ tavsiya

*4 yillik talabalik davridan
maksimal foydalanish yo'llari
yoxud
hayotda yulduz inson bo'lish
uchun aniq qadamlar*

O'zbek tilida

Muharrirlar:
A. Ahmedov,
Sh. Beknazarova
Sahifalovchi:
Sh. Rasulov



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**

PLG

«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.

Nashr. lits. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,

+99893 554-63-70.

Elektron manzil: yuridknashr@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi: 14.01.2022-y.

Qog'oz bichimi 84x108 1/32.

«Panda» garniturası.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 7,0.

Nashriyot hisob tabog'i 10,5.

Adadi 1000 nusxa. 14-buyurtma.

«Print Line Group» XK

bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.

0169

Muallif haqida

Alisher Isoqjonovich Umirdinov

1986-yilda Farg'ona viloyati Bag'dod tumanida tug'ilgan.

2003-2007-yillar – Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavri.

2007-2009-yillar – Yaponiyaning Nagoya universiteti Oliy huquq maktabi magistri.

2009-2012-yillar – Yaponiyaning Nagoya universiteti Oliy huquq maktabi doktoranti, PhD.

2012-2013-yillar – Angliyaning London universiteti Sharqshunoslik va Afrika Tadqiqotlar Kolleji va Shotlandiyaning Dandi universiteti mehmon tadqiqotchisi.

2014-2017-yillar – Yaponiyaning Nagoya universiteti Oliy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi, yordamchi professor.

2017-yildan – Yaponiyaning Nagoya Iqtisodiyot universiteti, "Biznes huquqi" fakulteti professori.



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**

ISBN 978-9943-7580-3-2



9 789943 758032